

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ERGASHEV RAHMATULLA XIDIROVICH
XAMRAYEVA SAYYORA NASIMOVNA**

IQTISODIY O‘SISH

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi oliy o‘quv yurtlarining 5A230102 -Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar uchun darslik sifatida tavsiya etgan

Bilim sohasi:	200000 – Ijtimoiy soha,iqtisod va huquq
Ta’lim sohasi:	230000 – Iqtisod
Magistratura mutaxassisligi:	5A230102- Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)

QARSHI
«INTELLEKT» NASHRIYOTI
2022

UDK: 005:55(076)

BBK: 40.550

R.X.Ergashev, S.N.Hamrayeva, Iqtisodiy o'sish - (darslik)

«Intellect» nashriyoti, 2022. –300 bet.

Annotatsiya

Mazkur darslikda iqtisodiy o'sish va rivojlanish masalalari o'rganilgan, iqtisodiy o'sishning asosiy tushunchalari, uning omillari va qarama-qarshiliklari tahlil qilingan. Iqtisodiy o'sish nazariyalarining evolyusiyasiga, xususan, zamonaviy klassik bo'lmagan yondashuvning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilgan; O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tahlil qilingan; iqtisodiy o'sish sur'atlariga ijobiy ta'sir etadigan muammolar aniqlangan; iqtisodiy o'sish omillari baholangan; uni intensivlashtirishning asosiy yo'nalishlari aniqlangan; iqtisodiy o'sishni tezlashtirish yo'llari taklif qilingan. Darslikning har bir bobining oxirida o'rganilgan materialni mustahkamlash uchun nazorat savollar berilgan. Darslik 5A230102- "Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)" magistratura mutaxassisligi va oliy ta'limning boshqa iqtisodiy mutaxassisliklari, shuningdek o'qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va iqtisodiy o'sish masalalari bilan qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Аннотация

В учебнике рассматриваются вопросы экономического роста и развития, анализируются базисные понятия экономического роста, его факторы и противоречия. Особое внимание уделяется эволюции теорий экономического роста, в особенности развитию современного неклассического подхода; выполнен анализ социально-экономического развития Узбекистана; выявлены основные проблемы, решение которых положительно скажется на темпах экономического роста; проведена оценка факторов экономического роста; определены основные направления его интенсификации; предложены пути ускорения роста экономики. В конце каждой главы учебника представлены вопросы для закрепления изученного материала. Учебник предназначено для обучающихся по направлениям подготовки магистрантов по специальности 5A230102- «Экономика (по отраслям и сферам)» и других экономических специальностей различных форм обучения, а также преподавателей, докторантов, соискателей и всех интересующихся вопросами экономического роста.

Annotation

The textbook examines the issues of economic growth and development, analyzes the basic concepts of economic growth, its factors and contradictions. Special attention is paid to the evolution of theories of economic growth, in particular to the development of the modern non-classical approach; the analysis of the socio-economic development of Uzbekistan has been carried out; identified the main problems, the solution of which will have a positive impact on the rate of economic growth; an assessment of the factors of economic growth was carried out; the main directions of its intensification have been determined; the ways of accelerating economic growth are proposed. At the end of each chapter of the manual, questions are presented to consolidate the material studied. The textbook is intended for students in the areas of training undergraduates in specialization 5A230102- "Economics (by industry and sphere)" and other economic specialties of various forms of education, as well as teachers, doctoral students, applicants and anyone interested in economic growth.

Taqrizchilar: - Abduraxmonov Q.X.

O'zbekiston fanlar akademiyasining akademigi, i.f.d., professor

- **Saidov M.X.** Tashkent davlat agrar universiteti "Agrologistika"

kafedrası mudiri, i.f.d., professor;

- **Ravshanov A.D.** QarMII "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrası

dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi.

ISBN 978-9943-

© R.X.Ergashev, S.N.Hamraeva, 2022

© «Intellect» nashriyoti, 2022

SO‘Z BOSHI

Bugungi kunda aholini ish bilan bandligini ta'minlash, bozorni arzon va sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish, korxonalarga investitsiyalarni kiritish, modernizatsiyalash jarayonini chuqurlashtirish, yuksak texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish oldimizdagi asosiy vazifalardan biridir. Korxonalarni erkin bozor iqtisodiyoti qonunlari talabi darajasida barqaror rivojlantirish uchun sifatli moddiy-texnika resurslari, fan-texnika taraqqiyoti, raqamli texnologiyalar va ulardan samarali foydalanish, raqamli iqtisodiyot bo'yicha davlatning siyosati, korxonalarining daromadlarini ko'paytirish yo'llarini asoslab berish maqsadga muvofiqdir.

Ishlab chiqarishida innovatsiya, zamonaviy texnika va texnologiyalar, shu bilan bir qatorda, korxonalar mutaxassislarining iqtisodiy tayyorgarlik darajasiga keskin talablar qo'yilmoqda. Ushbu talablarga javob berish uchun "Iqtisodiy o'sish" fani bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy o'sishni ta'minlash har qanday mamlakat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi hisoblanadi. Yildan yilga aholi sonining ko'payishi, kishilar ehtiyojlarining mutassil ortib borishi iqtisodiy o'sishni shart qilib qo'yuvchi asosiy sabablardandir. Iqtisodiy o'sish aholi turmush darajasini oshirishga, xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Iqtisodiy o'sish negizida iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlarning rivojlanishi turadi. Iqtisodiy o'sish ishlab chiqarishning ilg'or tuzilmasiga, yuqori mehnat unumdorligi darajasiga, ichki va tashqi bozorda talab katta bo'lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga, mahsulotni qulay bozorlarda sotishga tayanadi. Boshqacha aytganda, iqtisodiy o'sish mahsulot ishlab chiqarishning real hajmini muttasil qo'paytirib borish va ayni paytda jamiyat taraqqiyotida texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy tavsiflarning yaxshilanib borishini anglatadi.

Iqtisodiy o'sish to'g'risidagi bilimlarning nazariy asoslarini, iqtisodiy rivojlanishning asosiy tushunchalarini, iqtisodiy qonunlar va tamoyillarini o'rgatish, iqtisodiy o'sish va rivojlanishni solishtirishda chuqur tag'lil qilish, iqtisodiy o'sish ham nazariy ham empirik yondashuvni tushuntirish,

iqtisodiy o'sish modellarini tushuntirish, va ulardan foydalanishni o'rgatish, iqtisodiy o'sishni mustaqil bohalay olish qobiliyatlarini shakllan-tirishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarini nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar iqtisodiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyo qarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot tar-moqlarida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar yo'nalishlari-ning mazmun va mohiyatini hamda korxonalarda iqtisodiy o'sishda qo'llanadigan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlari, Prezident farmon va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asoslanadi.

Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi talablari, OO'MTV tomonidan 2020 yil 14 avgustdagi 418-sonli buyrug'i va Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning qarori bilan tasdiqlangan 2020 yil 14 avgustdagi 03-sonli bayonnomasi hamda 5A230102 -Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) magistratura mutaxassisligining "Iqtisodiy o'sish" fanining o'quv dasturi asosida yozilgan bo'lib, ushbu o'quv qo'llanmada o'qitishning yangi ta'lim texnologiyasidan foydalanilgan holda har bir mavzu bo'yicha maqsadi, mazmuni, mohiyati va ahamiyati yoritilgan hamda mavzu bo'yicha nazorat va muhokama uchun savollar, tayanch iboralar, glossariylar va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

"Iqtisodiy o'sish" fanining darsligi asosan oliy o'quv yurtlarining 5A230102-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) magistratura mutaxassisligi talabalarini uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari, korxonalarda iqtisodiyot muammolari bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, talabalar, tadqiqotchilar, ilmiy izlanuvchilar, tadbirkorlar hamda boshqa iqtisodiyot tarmoqlari xodimlari ham foydalanishlari mumkin.

Ushbu darslik iqtisodiyot tarmoqlarida iqtisodiyot sohasi bilan bog‘liq muammolar, masalalar va ularni tarmoq ishlab chiqarishiga joriy etish uchun imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi degan fikrdamiz.

Mualliflar “Iqtisodiy o‘shish” fanining darsligi sifatida unga bildirilgan fikr, mulohazalar hamda takliflarni minnatdorlik bilan qabul qiladilar va ularni keyingi nashrlarga tayyorlash va chop etish jarayonida yordam berganlarning barchasiga samimiy minnatdorchilik bildiradilar.

I BOB. KIRISH: IQTISODIY O'SISH

O'quv maqsadi: iqtisodiy o'sish tushuichasi va rivojlanishi, iqtisodiy tushunchalar va ularniig mazmuni, iqtisodiy yondashuvlar, ikki tarmokli yondashuvlar, iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari to'g'risida tushuncha, ularning mazmunini aniqlashga doir nazariy bilimlarni shakllantirishdan iborat

Tayanch iboralar: iqtisodiy o'sish, yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy mahsulot, sof milliy mahsulot, ekstensiv, intensiv, talab, taklif, taqsimot, qisqa muddatli o'sish, uzoq muddatli o'sish, tabiiy resurs, moddiy resurs, moliyaviy resurs, tarmoq iqtisodiyoti, barqaror iqtisodiy o'sish

1.1. Iqtisodiy o'sishning mazmuni va turlari

O'sish (iqtisodiyotda) — mamlakatda tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar yaratish hajmining oldingi yil (davr)larga nisbatan ko'paygan miqdorda takrorlanishi. Iqtisodiy o'sishni ta'minlash har qanday mamlakat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi hisoblanadi. Yildan yilga aholi sonining ko'payishi, kishilar ehtiyojlarining mutassil ortib borishi iqtisodiy o'sishni shart qilib qo'yuvchi asosiy sabablardandir. Iqtisodiy o'sish aholi turmush dara-jasini oshirishga, xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.


Iqtisodiy o'sish negizida iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlarning rivojlanishi turadi. Iqtisodiy o'sish ishlab chiqarishning ilg'or tuzilmasiga, yuqori mehnat unumdorligi darajasiga, ichki va tashqi bozorda talab katta bo'lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga, mahsulotni qulay bozorlarda sotishga tayanadi. Boshqacha aytganda, iqtisodiy o'sish mahsulot ishlab chiqarishning real hajmini muttasil qo'paytirib borish va ayni paytda jamiyat taraqqiyotida texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy tavsiflarning yaxshilanib borishini anglatadi.

Iqtisodiy o'sishni aniqlash va hisoblashda mamlakat Iqtisodiy taraqqiyotining eng umumiy ko'rsatkichi bo'lgan yalpi ichki mahsulot (YaIM) asos bo'lib xizmat qiladi va iqtisodiy o'sishning muayyan davr

mobaynida real YaIM hajmining ijobiy tomonga o'zgarishini ko'rsatadi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari YaIM o'sish sur'atlarida o'z aksini topadi.

Iqtisodiy o'sish mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining umumiy holatini ifodalaydi. Real YaIM hajmining o'zgarishi mamlakat Iqtisodiyoti holati va dinamikasi to'g'risida ma'lumot bersada, iqtisodiy o'sishni to'liq aks ettirmaydi. Mamlakat aholisining o'sish sur'ati 3% ni, real YaIM ning o'sish sur'ati ham 3% ni tashkil etdi. Bunday holatda, garchi YaIM hajmi o'sgan bo'lsada, kishilarning daromadlari o'zgarmay qoladi. Shu sababli iqtisodiy o'sishni to'la-roq aks ettirish uchun boshqa bir ko'rsatkich — aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan real YaIMning o'zgarishi qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi 2020 yilda YaIM o'sishi 2019 yildagi 5,8 % va 2018 yildagi 5,4 % ga nisbatan 1,6 % gacha sekinlashdi. Shu bilan bir vaqtda, YaIM deflyator indeksida ham 2019 yildagi 118,6 % va 2018 yildagi 127,5 % ga nisbatan 2020 yilda 111,9 % gacha sekinlashish kuzatildi.



O'zbekiston Respublikasi 2020 yil yakuni bo'yicha, YaIM tarkibida tovarlar ishlab chiqarishda 341 467,5 mlrd. so'm, xizmatlar ko'rsatish sohasida 194 363,5 mlrd. so'm miqdorida yalpi qo'shilgan qiymat yaratildi, maHSulotlarga sof soliqlar esa 44 372,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi 2020 yilda joriy davrda o'rtacha almashuv kursi bo'yicha hisoblangan nominal YaIM hajmi 57 698,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi (2019 yilda – 57 711,9 mln. AQSh doll.

Keltirilgan diagrammada ko'rinib turganidek, 2020 yilda aholi jon boshiga YaIM hajmi 2019 yil bilan taqqoslaganda real baholarda 0,3 % ga kamaydi. Aholi jon boshiga YaIM o'sishi 2019 yilda 3,8 % va 2018 yilda 3,6 % ni tashkil etgan

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi YaIM umumiy hajmining 92,4 % ini tashkil etdi va 1,7 % ga o'sdi (YaIM mutlaq o'sishiga ta'siri 1,5 foiz punktni tashkil etdi). Mahsulotlarga sof soliqlarning YaIM tarkibidagi ulushi 7,6 % ni tashkil etdi va 1,4 % ga o'sdi (YaIM mutlaq o'sishiga ta'siri - 0,1 f.p.).

O'zbekiston Respublikasi YaIM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,8 f.p. (2019 yilda - 0,9 f.p.), sanoat tarmog'i - 0,2 f.p. (2019 yilda - 1,2 f.p.) va qurilish tarmog'i - 0,5 f.p. (2019 yilda - 1,2 f.p.) ijobiy xissa qo'shdi. Xizmat ko'rsatish sohasi YaIM o'sishiga ta'sir ko'rsatmadi (2019 yilda - 2,0 f.p.), qo'shilgan qiymat deyarli o'tgan yilgi darajasida saqlanib qoldi (o'sish sur'ati - 0,1 %). Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaIM 0,1 f.p.(2019 yilda - 0,5 f.p.)ga ko'paydi.

O'zbekiston Respublikasi 2020 yil yakunlariga ko'ra, YaIM tarkibida katta bo'lmagan o'zgarishlar kuzatildi. YaIM (YaQQ) tarkibida sanoatning ulushi 29,3 % dan 28,5 % ga kamaydi. Shu bilan birga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 28,0 % dan 28,2 % ga, qurilish tarmog'ining ulushi 6,6 % dan 7,0 % ga hamda xizmatlar sohasining ulushi 36,1 % dan 36,3 % ga oshdi.

O'zbekiston Respublikasi 2019 yilda 2018 yil bilan taqqoslaganda, YaIM tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushining 28,0 % gacha pasayishi (2018 yilda – 31,5 %) va sanoat tarmog'i ulushining 29,3 % gacha oshishi (2018 yilda – 26,5 %) bilan bog'liq sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan.

O'zbekiston Respublikasi 2020 yil yakunlariga ko'ra, **qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida** 3,0 % darajasida ijobiy o'sish qayd

etildi. Ushbu tarmoqda ijobiy o'sish sur'atlari dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning 3,4 % ga (2019 yilda – 4,8 % ga o'sish, 2018 yilda – 4,2 % ga kamayish) va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning 2,1 % ga o'sishi (2019 yilda – 1,6 % ga o'sish, 2018 yilda – 5,7 % ga o'sish) bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi 2020 yilda **sanoat tarmog'i** qo'shilgan qiymatida taqqoslama narxlarda 0,7 % ga o'sish kuzatilgan. Ushbu tarmoqdagi ijobiy dinamika, asosan, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning qo'shilgan qiymati 7,1 % (2019 yilda - 6,6 %, 2018 yilda - 7,9 %) ga o'sishi hisobiga ta'minlandi. Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tarmog'ida ham 12,5 % ga ijobiy (2019 yilda 5,1 % ga va 2018 yilda 3,1 % ga) o'sish qayd etildi.

Tog'-kon sanoati korxonalarida qo'shilgan qiymat 21,9 foizga kamaydi (2019 yilda - 0,6 foizga pasaygan, 2018 yilda - 26,5 foizga o'sgan). Shu bilan birga, ushbu soha qo'shilgan qiymatining pasayishiga, asosan, tabiiy gaz qazib olish hajmining 17,8 % ga va gaz kondensatining 33,5 % ga kamayishi ta'sir ko'rsatdi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish tarmog'i qo'shilgan qiymatida 7,9 % ga pasayish

(2019 yilda 2,2 % ga o'sish, 2018 yilda 11,3 % ga o'sish) kuzatildi.

Kuzatilayotgan davrda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sano-atning jami sanoat sektori bo'yicha yaratilgan qo'shilgan qiymat tarkibidagi ulushida 2019 yildagi 69,6 % ga nisbatan 76,5 % gacha o'sish qayd etildi. Shu bilan birga, joriy davrda sanoatning jami qo'shilgan qiymati tarkibida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog'ining ulushi 15,2 % gacha pasaydi (2019 yilda - 23,0 %).

O'zbekiston Respublikasi 2020 yil yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning qo'shilgan qiymati tarkibida eng katta ulush metallurgiya va metallni qayta ishlash sanoatiga (mashina va uskunalardan tashqari) to'g'ri keldi va 40,5 % ga yetdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 14,5 %, to'qimachilik mahsulotlari, kiyim, teri va

unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish - 12,7 %, rezina, plastmassa buyumlar va boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish-8,5 %, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish-7,1 %, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim tirkamalar hamda boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish -5,6 %, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish- 2,4 % hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning boshqa mahsulotlarini ishlab chiqarish - 8,7 % ni tashkil qildi.

Real YaIM hajmining o'zgarishi umuman mamlakat iqtisodiyotining muayyan davr oralig'idagi rivojlanishini ifodalasa, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real YaIM hajmining o'zgarishi iqtisodiy rivojlanishga kishilar turmush darajasi orqali baho berishga xizmat qiladi.

Mamlakat iqtisodiyotida yaratilgan YaIM ishlab chiqarish omillari — yer, kapital va mehnat resurslarining o'zaro ta'sirida shakllanadi. Bular iqtisodiy o'sishning miqdoriy omillariga kiradi (mas, foydalanilayotgan ekin maydonlarni kengaytirish YaIM o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi). Ushbu omillarni ishlab chiqarish jarayoniga kengroq jalb etish natijasida yuz beradigan iqtisodiy o'sish ekstensiv o'sish deb ataladi.

Jamiyatdagi ijtimoiy iqtisodiy va barcha boshqa muammolarni hal qilishning asosiy yo'li - bu milliy iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy rivojlanishidir. Aholi farovonligini oshirib borish ham pirovard natijada iqtisodiy rivojlanish darajasi va sur'at-lariga bog'liq.

Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi ko'p omilli va shu bilan birga ziddiyatli jarayon hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanish hech qachon bir tekis, yuqorilab boruvchi chiziq bo'yicha ro'y bermaydi. Iqtisodiy rivojlanish o'z ichiga yuksalish va inqiroz davrlarini iqtisodiyotdagi miqdor va sifat o'zgarishlarini, ijobiy va salbiy natijalarini olib notekis boradi. Iqtisodiy rivojlanish qiyin aniqlanadigan jarayon bo'lganligi sababli uning mezonlaridan biri bo'lgan iqtisodiy o'sish ko'proq tahlil qilinadi. Iqtisodiy o'sish iqtisodiy rivojlanishning tarkibiy qismi bo'lib, o'z ifodasini real YaIM (YaIM) hajmi va uning aholi jon boshiga ko'payishida topadi. Iqtisodiy o'sishga tarixiy jihatdan yondashilganda, u bir xil sur'at va me'yorlarda bormaydi. Tarixda iqtisodiy o'sish sur'atlarining jadallashish, jiddiy pasayish va hatto cheklanish davrlari ma'lum. Agar jahon xo'jaligi

va milliy iqtisodiyotda katta tarixiy bosqichlar olib qaraladigan bo'lsa, barqaror iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarishning har tomonlama taraqqiyot manzarasi hosil bo'ladi. Shu bilan birga iqtisodiy o'sish nafaqat miqdor, balki muayyan sifat o'zgarishlari shaklida ham namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy o'sish bu yalpi milliy mahulot mutloq hajmning aholi jon boshi va iqtisodiy resurs birligi hisobiga nisbiy miqdorining ko'payishi hamda sifat o'lchamlarining borishidir. Ishlab chiqarish natijalarining o'sish sur'ati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o'zgarishi o'rtasidagi nisbat iqtisodiy o'sishning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi.

Ekstensiv iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning mavjud texnikaviy asosi saqlanib dolgan holda iqtisodiy resurslar miqdorini ko'paytirib borish orqadi erishiladi. Aytaylik, mahsulot ishlab chiqarishni ikki xissa ko'paytirish uchun mavjud korxonalar bilan bir qatorda o'rnatilgan uskunalarning quvvati, miqdori va sifati, ishchi kuchining soni va malaka tarkibi bo'yicha huddi o'shancha korxonalar ko'riladi. Ekstensiv rivojlanishda, agar u sof holda amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o'zgarmay qoladi.

Iqtisodiy o'sishning intensiv turi sharoitida mahsulot chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish: yanada progressivroq ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo'llash, ishchi kuchi malakasini oshirish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan yaxshiroq foydalanish yo'li bilan erishiladi. Intensiv yo'l ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarning har bir birligidan olinadigan samaraning, pirovard mahsulot miqdorining o'sishida, mahsulot sifatining yaxshilanishida o'z ifodasini topadi. Bunda mahsulot ishlab chiqarishni ikki xissa oshirishga ishlab turgan korxonalarni rekonstruksiya qilish va texnika bilan qayta qurollantirish mavjud resurslardan yaxshiroq foydalanish hisobiga erishish mumkin. Real hayotda ekstensiv va intensiv omillar sof holda mavjud bo'lmaydi, balki muayyan uyg'unlikka, bir-biri bilan qo'shilgan tarzda ro'y beradi. Shu sababli ustuvor ekstensiv va ustuvor intensiv iqtisodiy o'sish turlari tahlil qilinadi.

1.2. Iqtisodiy o'sishning ko'rsatkichlari va omillari

Iqtisodiy o'sish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lganligi sababli uni baholash uchun qandaydir bitga ko'rsatkich kifoya qilmaydi, balki muayyan ko'rsatkichlar tizimi talab qilinadi. Bu ko'rsatkichlar tizimida o'lchamdagi va klimat ifodasidagi ko'rsatkichlar farqlanadi. Iqtisodiy o'sishning jismoniy o'lchamdagi ko'rsatkichlari ancha aniq natija beradi, (chunki ular inflyatsiya ta'siriga berilmaydi), lekin universal emas, ya'ni har xil o'lchamdagi mahsulot va xizmatlarni ishlab umumiy ko'rsatkichga keltirish qiyin. Klimat ko'rsatkichlar keng qo'llaniladi, ammo har doim ham uni inflyatsiyadan to'liq "tozalash" mumkin bo'lavermaydi. Shu sababli ko'pincha iqtisodiy o'sish sur'atlari qiyosiy yoki doimiy narxlarda hisoblanadi.

Iqtisodiy o'sish quyidagi qiymat ko'rsatkichlarida hisoblanadi:

1. YaMM (YaIM), SMM yoki milliy daromadning mutloq hajmi va ular o'sish sur'atlari.

2. YaMM (YaIM), SMM yoki milliy daromadning aholi jon bosh hisobiga to'g'ri keladigan miqdori va uning o'sish sur'atlari.

Z. YaMM (YaIM), SMM yoki milliy daromadning iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga turli keladigan miqdori va uning o'sish sur'atlari.

Iqtisodiy o'sishni baholashda har uchala ko'rsatkichdan ham foydalanish mumkin, lekin ularning ahamiyati turlicha.

Agar diqqat markazida mamlakat iqtisodiy salohiyati muammosi tursa, birinchi ko'rsatkichdan foydalanish ko'proq mos keladi. Alohida mamlakat va regionlardagi aholining turmush darajasini taqqoslashda, ko'proq ikkinchi ko'rsatkichdan foydalaniladi. Iqtisodiy samaradorlikni baholashda uchinchi ko'rsatkichga ustuvorlik beriladi.

Odatda iqtisodiy o'sish sur'ati % (foiz)da joriy yildagi real YaMM (SMM, MD) ni bazis davridagi hajmiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

1.2.1-jadval

O'zbekistonda YaIM va asosiy tarmoqlar mahsulotlarining o'sish sur'atlari oqimi yilga nisbatan % hisobida

Yillar Кўрсаткичлар	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019
Yalpi ichki	103,8	104,2	104,2	104,4	107,7	107,0	107,3
Sanoat mahsuloti	106,4	108,1	108,5	106,2	109,4	107,3	110,8
Iste'mol tovarlari	107,7	110,9	111,8	108,4	113,4	117,7	120,6
Qishloq xo'jalik	103,1	104,2	106,0	105,9	110,1	106,2	106,2
Qurilish ishlari	102,9	103,3	103,1	103,5	103,6	107,8	112,8
Chakana savdo	107,6	109,6	102,1	105,1	104,7	108,2	114,8
Aholiga pulli xizmat ko'rsatish	115,7	114,7	108,6	107,9	113,8	115,0	119,3

Mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atini xarakterlaydigan klimat ko'rsatkichlar bir qator kamchiliklarga ham ega.

Birinchidan, ular mahsulot sifatining o'zgarishini to'liq aks ettirmaydi va shu sababli farovonlikning haqiqiy darajasini to'liq xarakterlab berolmaydi:

- Ikkinchidan, real YAMMva uning aholi jon boshiga o'sishi bo'sh vaqtning sezilarli ko'payishini aks ettirmaydi va farovonlik real darajasining pasaytirib ko'rsatilishiga olib keladi.

- Uchinchidan, iqtisodiy o'sishni qiymat ko'rsatkichlarda miqdoriy hisoblash boshqa tomonlama uning atrof-muhitga va insonning hayot sharoitiga salbiy ta'sirini hisobga olmaydi.

Iqtisodiy o'sishning alohida tomonlarini xarakterlovchi jismoniy ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat bo'lib, ular ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanish darajasi, mehnat unumdorligi va ish vaqtini tejash, shaxsiy daromad va foyda miqdori, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi va shu kabilar hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan

xarakterlanadi:

a) Ishlab chiqarish vositalarining rivojlanish darajasi, ya'ni uning unumdorligi;

b) xodimning malakasi va tayyorgarlik darajasi;

v) ishlab chiqarishning moddiy va shaxsiy omili o'rtasidagi nisbat;

g) mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishning tashkil etilishi, ixtisoslashtirilishi va kooperatsiyasi.

1.2.2-jadval

**O'zbekiston milliy iqtisodiyoti tarmoqlari bo'yicha YAIM ulushining
o'zgarishi (joriy baholarda YAIM ga % hisobida)**

№	Tarmoqlar	Yillar					
		2014	2015	2016	2017	2018	2019
1.	YIM	100	100	100	100	100	100
2.	Qishloq xo'jaligi	30,0	30,1	28,6	26,8	25,0	24,1
3.	Sanoat	14,1	14,5	15,8	17,1	20,7	22,1
4.	Qurilish	38,2	38,4	37,4	37,6	38,4	36,5
5.	Xizmatlar	5,8	4,9	4,5	4,5	4,9	5,1
6.	Sof soliqlar	11,9	12,6	13,7	14,0	11,0	9,2

Iqtisodiy o'sishning jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan boshqa jismoniy ko'rsatkichi iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi hisoblanadi. U tarmoqlar bo'yicha hisoblab chiqadigan mahsulot ko'rsatkichi asosida tahlil qilinadi.

Bundan tashqari, iqtisodiy o'sish tahlilida iqtisodiyotning ichidagi asosiy nisbat ham o'rganiladi.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni shartli ravishda uchta guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh omillar iqtisodiyotning jismoniy o'sish layoqatini belgilab beradi, ular taklif omillari deb ham ataladi. Bu omillar quyidagilar:

- Tabiiy resurslarning miqdori va sifati.
- Mehnat resurslarining miqdori va sifati.
- Asosiy kapital (asosiy fondlar) ning hajmi.
- Texnologiya va fan - texnika taraqqiyoti.

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida amalga

oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiy o'sishning hal qiluvchi omiliga aylanib bormoqda".

Ikkinchi guruh talab omillaridir. Bular:

1. Investitsion resurslar talab darajasi.
2. Aholining umumiy farovonlik darajasi.

Iqtisodiy o'sishga taqsimlash omillari ham ta'sir qiladi. Ishlab chiqarish salohiyatidan maqsadga muvofiq foydalanish uchun nafaqat resurslar iqtisodiy jarayonga to'liq jalb qilingan bo'lishi, balki juda samarali ishlatilishi ham zarur. Resurslarning o'sib boruvchi hajmidan to'liq foydalanish va ularni kerakli mahsulotning mutloq miqdorini oladigan qilib taqsimlash ham zarur bo'ladi.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi, taklif va taqsimlash omillari o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiladi. Masalan, resurslar miqdorining o'sishi va sifatining yaxshilanishi, texnologiyani takomillashtirish iqtisodiy o'sish uchun imkoniyat yaratdi. To'liq bandlik va resurslarni samarali taqsimlash bunday o'sishni ro'yobga chiqaradi.

Iqtisodiy o'sishda resurslarni taqsimlash omillari ham o'z o'rniga ega bo'lsada, bu muammoni tahlil qilishda asosiy e'tibor taklif omillariga qaratilishi zarur.

Bu avvalo, mehnat unumdorligining o'sishiga olib keluvchi omillardir.

Fan — texnik taraqqiyoti mehnat unumdorligi va iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Texnik taraqqiyoti o'z ichiga nafaqat ishlab chiqarishning butunlay yangi usullarini, balki boshqarish va ishlab chiqarishni tashkil qilishning yangi shakllarini ham oladi. Umuman aytganda, fan-texnika taraqqiyoti deyilganda, pirovard mahsulot chiqarishni ko'paytirish maqsadida mavjud resurslarni yangicha uyg'unlashtirishni taqozo qiluvchi usullarning topilishi ham tushuniladi. Amaliyotda texnika taraqqiyoti va kapital quyilmalar (investitsiyalar) mustahkam o'zaro bog'liq, texnika taraqqiyoti ko'pincha yangi mashina va uskunalarga investitsiyalar qo'yishga olib keladi. Masalan, atom energiyasidan foydalanish bo'yicha texnologiyani qo'llash uchun atom elektrostansiyalarini ko'rish zarur bo'ladi. Birinchi qarashda texnika taraqqiyoti tarixiy va shiddatli ro'y berish xarakteriga ega bo'ladi. Gaz va yoqilgi dvigatellari,

konveyer va yig‘ma liniyalar bizni hayotga o‘tmishning eng muhim yutuqlari sifatida kirib keldi.

1.3. Iqtisodiy o‘shishni o‘lchash

Iqtisodiy o‘shish to‘liq bandlilik sharoitiga mos keluvchi potensial ishlab chiqarish plaridarajasini uzoq muddatli ko‘payishi tendensiyasini anglatadi.

Iqtisodiy o‘shish jami taklifning o‘shishini yoki boshqacha aytganimizda, haqiqiy va potensial YAIM hajmining oshishini bildiradi. Iqtisodiy o‘shish muammosini o‘rganish natijasida real ishlab chiqarish tizimi duch keluvchi – cheklangan resurslardan samarali foydalanish muammosiga yechim topiladi. Demak, iqtisodiy o‘shish omillari va ular samaradorligini o‘rganish hamda tahlil qilish jamiyat oldidagi eng dolzarb muammolardan biridir.

Iqtisodiy o‘shish nafaqat mamlakat real daromadlarining o‘shishi, shuningdek, jon boshiga to‘g‘ri keladigan real daromadlarning o‘shishini ham anglatadi. Shu sababli ham iqtisodiy o‘shish ikki xil usul bilan o‘lchanadi.

Birinchi usulda iqtisodiy o‘shish real YAIMni o‘tgan davrga nisbatan o‘zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakatning umumiqtisodiy imkoniyatlari dinamikasini aniqlash uchun ishlatiladi.

Bunda, joriy yildagi real YAIM (Y_t) hajmining bazis yildagiga (Y_{t-1}) (asosan oldingi yilga) nisbatan foiz ko‘rinishidagi o‘shishi aniqlanadi, ya’ni:

$$DY = \frac{Y_t}{Y_{t-1}} \times 100$$

Ikkinchi usulda iqtisodiy o‘shish aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real YAIMning o‘tgan davrga nisbatan o‘zgarishi sifatida aniqlanadi.


Iqtisodiy o‘shish nazariyasi va modellarida YAIM o‘rniga SIM, YAMD, SMD ko‘rsatkichlaridan ham foydalanilishi mumkin. Iqtisodiy nazariyada iqtisodiy o‘shish daromadlarni qanday nisbatlarda iste’mol va investitsiyalarga bo‘linishiga bog‘liq deb qaraladi. Iste’mol hajmi dinamikasi iqtisodiyotning pirovard maqsadini va yashash darajasi oshishini bildirsa, investitsiyalar hajmining o‘zgarishi resurs

imkoniyatlarining o'sishi va texnik yangiliklarning moddiylashishini aks ettiradi. Iste'mol va investitsiya o'rtasida yetarlicha muqobillik mavjud, chunki, joriy iste'mol miqdorining oshishi investitsiyalarning daromaddagi ulushini pasaytirish iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini qisqartiradi.

Iqtisodiy o'sish real kattaliklarda, qiyosiy baholarda o'lchanadi.

Har bir mamlakat iqtisodiy o'sishga intiladi, chunki iqtisodiy o'sish:

- **birinchidan**, milliy mahsulot hajmi va daromadning ko'payishiga;
- **ikkinchidan**, resurslardan samarali foydalanishga;
- **uchinchidan**, yangi-yangi ehtiyojlar va imkoniyatlarning paydo bo'lishiga;
- **to'rtinchidan**, xalqaro bozorlarda mamlakat obro'sining oshishiga olib keladi.



1.2.1-chizma ko'rsatadiki, real mahsulot ikki asosiy yo'lda ko'paytirilishi mumkin:

- 1) resurslarning ko'proq hajmini jalb etish;
- 2) resurslardan ancha unumli foydalanish.

Respublikamizda hozirgi kunda texnika taraqqiyoti sohasidagi asosiy vazifa, ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyani qo'llash, ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarishning yangi usul va shakllarini joriy qilish hisoblanadi.

Mehnat unumdorligini o'sishini aniqlab beruvchi asosiy omillar bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi asosiy kapital hajmi hisoblanadi. Ma'lum vaqt ichida, kapitalning hajmi mutloq ko'payishi mumkin, ammo ishchi kuchi

soni tezroq o'ssa, mehnat unumdorligi pasayadi, chunki har bir ishchining asosiy kapital bilan qurollanganlik darajasi kamayadi.

Ta'lim va malakali tayyorgarlik, mehnat unumdorligini oshiradi va natijada ancha yuqori ish haqiga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Inson kapitaliga investitsiyalar qo'yish mehnat unumdorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. O'z-o'zidan aniqki, ishchi kuchi sifatining eng oddiy ko'rsatkichi ta'lim darajasi hisoblanadi.

Amaliy hayotda iqtisodiy o'sishni to'xtatib turuvchi omillar ham mavjud bo'ladi. Ular quyidagilar:

- mehnat muhofazasi;
- atrof-muhitning ifloslanishi;
- ekologik muammolar;
- xodimlar mehnat sharoitini yaxshilash;
- sog'liqni muhofaza qilish;
- tabiiy ofatlar;
- favqulodda ro'y beradigan iqtisodiy-siyosiy o'zgarishlar.

Keyingi yillarda Respublikada davlat tomonidan atrof-muhit ifloslanishining oldini olish, xodimlar mehnat sharoitini yaxshilash va sog'liqni muhofaza qilishni tartibga solishda muhim tadbirlar amalga oshirildi. Bu o'z navbatvda iqtisodiy o'sish sur'atiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki bunday tadbirlarni amalga oshirish tegishli xarajatlarni taqozo qiladi. Shu orqa mehnat unumdorligini oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'lar boshqa tomonga jalb qilinadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Iqtisodiy o'sish fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?*
2. *Mehnat unumdorlik darajasi qanday aniqlanadi?*
3. *Ekstensiv iqtisodiy o'sish deganda nimani tushunasiz?*
4. *Intensiv iqtisodiy o'sish deganda nimani tushunasiz?*
5. *YAMM (YAIM), SMM yoki milliy daromadning mutloq hajmi va ular o'sish sur'atlari qanday aniqlanadi?*
6. *YAMM (YAIM), SMM yoki milliy daromadning aholi jon bosh hisobiga to'g'ri keladigan miqdori va uning o'sish sur'atlari qanday aniqlanadi?*

7. YAMM (YAIM), SMM yoki milliy daromadning iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga turli keladigan miqdori va uning o'sish sur'atlari qanday aniqlanadi?

II BOB. SOLOV MODELI

O'quv maqsadi: Robert Solovning iqtisodiy tushunchalar va ularni mazmuni, Solov modeli yaratilishining nazariyalari, Solov modeliing asoslari va formulalari, kapital va mehnat tushunchalari, Solov modelining qo'llanilishi, Solov modeli va texnologiyalar o'rtasidagi bog'likliklari to'g'risidagi tushunchalarning mazmunini aniqlashga doir nazariy bilimlarni shakllantirishdan iborat

Tayanch iboralar: ishlab chiqarish, mehnat, kapital, iqtisodiy o'sish, makroiqtisodiy muvozanat, investitsiya, innovatsiya

2.1 Solovning iqtisodiy o'sish nazariyasi modeli

Iqtisodiy o'sish modellari tahlilidan maqsad - bu muvozanatli va barqaror o'sish uchun shart-sharoitlarni aniqlash hisoblanadi. Shu sababli iqtisodiy o'sishning barcha modellarida "ishlab chiqarish funksiyasi" kabi mahsulot chiqarish hajmi va sarf qilingan iqtisodiy resurslar miqdori o'rtasidagi bog'liklik aks etadi. Ishlab chiqarish funksiyasi mahsulot chiqarish hajmi (Y), asosiy kapital (K), mehnat (L) va "yer" (tabiiy va moddiy resurslar) - N miqdoriga bog'liqligini ko'rsatadi.

$$Y = F(K, L, N)$$

Iqtisodiy o'sishning barcha hozirgi zamon modellari Keynsning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi va neoklassik ishlab chiqarish nazariyasi asosiga ko'riladi. Bundan tashqari, iqtisodiy o'sish modellari iqtisodiyotning real sektoridagi uchta asosiy bog'liklikni aks ettiradi. Bular:

- ishlab chiqarish funksiyasi;
- mehnat taklifi funksiyasi;
- kapital taklifi funksiyasi.

Makroiqtisodiy muvozanatlikning keynscha modelida funksional bog'liklikning uchta turi ajratilib ko'rsatiladi:

1. Foiz stavkasi (F) ning daromad (Y) ga bog'likligi: $R = F(Y)$. Aholi daromadlari qanchalik yuqori bo'lsa, banklar tomonidan pulga talab va foiz stavkasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

2. Investitsiyalar hajmi (I) ning foiz stavkasi (R)ga bog‘liqligi: $I=F(R)$. foiz stavkasi qanchalik yuqori bo‘lsa, investitsiyalar hajmi shunchalik kam bo‘ladi.

3. Daromadlar miqdorining (Y) investitsiyalar (I) hajmiga bog‘liqligi: $Y= F(I)$. Milliy daromad hajmining investitsiyalar umumiy miqdoriga bog‘liqligi multiplikator (lot, — ko‘pay-tiruvchi) samarasi ko‘rsatkichida ifodalanadi.

Iqtisodiy o‘rshning nisbatan sodda Xarrod-Domar modeli ingliz iqtisodchisi R.F. Xarrod va amerikalik iqtisodchi E. Domar tomonidan yaratiladi.

E. Domar mehnat bozorida uning ortiqcha taklifning mavjud-ligi va narx darajasining nisbatan doimiy bo‘lishi mahsulot ishlab chiqarish hajmi faqat yagona omil - kapital miqdoriga bog‘liq bo‘lishini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra investitsiyalarning o‘rsh sur‘ati iqtisodiyotda talab va taklif ko‘payishining asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi.

R.F. Xarrod “tabiiy”o‘rsh sur‘ati tushunchasini kiritadi. Bu faol aholi soni ko‘payishi va texnika taraqqiyoti natijasida ke-lib chiqadigan o‘rsh sur‘ati bo‘lib, u mehnat va kapital omil-larining to‘liq bandligini ta‘minlaydi.

Ularning qarashlari bir-biriga juda yaqin bo‘lganligi(bir omilli) sababli bu model Xarrod-Domer modeli deyiladi.

Mazkur modelni ishlab chiqishda abstrakuiya usulidan foydalaniladi:

- milliy daromadning o‘rshi faqat kapital jamg‘arishning oqibati deb hisoblanadi, boshqa omillarning o‘rni e’tiborga olinmaydi;
- mahsulotning kapital sig‘imi resurslarning narxiga bog‘liq emas, u faqat ishlab chiqarishning texnik sharoiti bilan belgilanadi, deb qaraladi.

2.2.R.Solouning neoklassik modeli

YAlpi talab-yalpi taklifi modeli yordamida makroikisodiy jarayonlarni taxlil kilar ekanmiz qiska davrda real YAIMni oshirish imkoniyatlari yalpi taklifning vertikal kesmasi bilan chegaralanganligi muammosiga duch keldik. To‘liq bandlilik darajasiga erishilgandan so‘ng real YAIM hajmini bundan keyingi ko‘paytirish uchun yalpi taklif egri chizigini o‘ngga siljishiga erishishimiz, ya’ni foydalanilayotgan resurslar miqdorini ko‘paytirishimiz zarur.

“Agar Iqtisodiyotning qiska muddatli holati ko‘prok yalpi talab bilan belgilansa , uzoq davrga Iqtisodiyotning rivojlanishi ko‘prok ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shu sababli Iqtisodiy o‘shishni modellashtirishda diqqat markazida real sektor turadi”*

Iqtisodiy o‘shish to‘liq bandlilik sharoitiga mos keluvchi potensial ishlab chiqarish darajasini uzoq muddatli ko‘payishi tendensiyasini anglatadi.

Iqtisodiy o‘shish jami taklifning o‘shishini yoki boshqacha aytganimizda, haqiqiy va potensial YAIM hajmining oshishini bil-diradi. Iqtisodiy o‘shish nafakat mamlakat real daromadlarining o‘shishi, shuningdek, jon boshiga to‘g‘ri keladigan real daromadlar-ning o‘shishini ham anglatadi. Shu sababli ham Iqtisodiy o‘shish ikki hil usul bilan o‘lchanadi.

Birinchi usulda iqtisodiy o‘shish real YAIM ni o‘tgan davrga nisbatan o‘zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakatning umumiqti-sodiy imkoniyatlari dinamikasini aniqlash uchun ishlatiladi.

Ikkinchi usulda iqtisodiy o‘shish axoli jon boshiga to‘g‘ri keladigan real YAIM ning o‘tgan davrga nisbatan o‘zgarishi sifatida aniqlanadi.

Iqtisodiy o‘shish nazariyasi va modellarida YAIM o‘rniga SIM, YAMD, SMD ko‘rsatkichlaridan ham foydalanilishi mumkin. Iktiso-diy nazariyada Iqtisodiy o‘shish daromadlarni kanday nisbatlarda iste’mol va investitsiyalarga bo‘linishiga bog‘lik deb qaraladi.

. Iste’mol hajmi dinamikasi iqtisodiyotning provard maqsadini va yashash darajasi oshishini bildirsa, investitsiyalar hajmining o‘zgarishi resurs imkoniyatlarining o‘shishi va texnik yangiliklarning

moddiylashishini anglatadi. Iste'mol va investitsiya o'rtasida yetarlicha muqobillik mavjud, chunki, joriy iste'mol miqdorining oshishi investitsiyalarning daromaddagi ulushini pasaytirish iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini qiskartiradi.

Iqtisodiy o'sish real kattaliklarda, qiyosiy baholarda o'lchanadi.

Har bir mamlakat iqtisodiy o'sishga intiladi, chunki iqtisodiy o'sish, birinchidan, milliy maxsulot hajmi va daromadning ko'pa-yishiga, ikkinchidan, resurslardan samarali foydalanishga, uchinchi-dan, yangi-yangi ehtiyojlar va imkoniyatlarning paydo bo'lishiga, to'rtinchidan, halkaro bozorlarda mamlakat obro'sining oshishiga olib keladi.

2.3.Kapital va mehnat tushunchalari

Iqtisodiy o'sishning sifat omillari ham mavjud bo'lib, ularga mehnat, kapital va er (tabiiy) resurslari unumdorligi kiradi. Sifat omillari hisobiga yuz beradigan iqtisodiy O'sish intensiv o'sish deb yuritiladi.

Ishlab chiqarish omillarining cheklanganligi ekstensiv O'sish.ning imkoniyatlarini chegaralaydi. Shu sababli resurslar cheklanganligi sharoitida intensiv o'sish samarali hisoblanadi. Fantexnika taraqqiyoti ham intensiv iqtisodiy o'sishni rag'batlan-tiradi. Keyingi yillarda bir qator ijtimoiy qo'rsatkichlar Iqtisodiy O'sish sharti va natijasi tarzida qaralmoqda. Ishlab chiqarish sohasida — bandlikning yukobiy dinamikasi; taqsi-mot sohasida — aholining real daromadlari va boshqalar bir qator ko'rsatkichlar dinamikasi; ayirboshlash sohasida — savdo va umumiy ovqatlanish moddiy bazasining rivoji, chakana savdo aylanmasi dinamikasi; iste'mol sohasida — iste'molning va noishlab chiqa-rish jamg'arishning o'sishi shunday ko'rsatkichlarga kiradi. Iqgiso-diy o'sishning asosiy ijobiy tomoni — uning ishlab chiqarish va iste'mol tuzilmasi o'zgarishlariga ta'sir ko'rsatishidir.

2.4. R.Solouning neoklassik iqtisodiy o'sish modeli

Neoklassiklar keynschilardan farqli o'larok iqtisodiy o'sish modellarini tuzishganda iqtisodiy o'sish ishlab chiqarishning barcha omillari, shu jumladan texnik taraqqiyot tomonidan ta'minlanadi, kapital va mehnat subsidiyalar, ular bir-birini alishtirishi mumkin, bozor mexanizmi va barqaror pul tizimi muvozanatni avtomatik tiklashi mumkin

degan nazariy asoslarga tayanadilar. Neoklassik modellar barcha iqtisodiy jarayonlarning aniq holatini qamirab olish xususiyatiga egadir.

Birinchi neoklassik model R. Solou tomonidan 1956 yilda "Iqtisodiy o'sish nazariyasiga xissa" asarida tasvirlab berildi va so'ngra 1957 yilda "Texnik taraqqiyot va agregativ ishlab chiqarish funksiyasi" nomli asarida rivojlantirildi.

R.Solou modeli mutanosib iqtisodiy o'sishning zarur sharti yalpi talab va yalpi taklifning tengligi hisoblanadi. Modelda yalpi taklif Kobba-Duglasning ishlab chiqarish funksiya bilan ifodalangan, ya'ni

$Y = f(L, K, N)$, modelda yuqori texnik rivojlanish boskichida erning kichik ahamiyatga egaligi tufayli ishlab chiqarish faqat mehnat resurslari va kapitalga bog'lik deb olinadi.

$Y = f(L, K)$, funksiyaning kengaytirilgan ko'rinishi quyidagicha:

$$Y = (\Delta Y / \Delta L) L + (\Delta Y / \Delta K) K$$

Modelda yalpi talab investitsion va iste'mol xarajatlari bilan belgilanadi deb olinadi.

$$Y = C + I$$

Davlat xarajatlari va sof eksport ko'rsatkichlari ham iste'mol va investitsiyalar tarkibiga kiritib yuboriladi.

R.Solou bitta ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot ishlabchiqarish xajmi kapital bilan qurollanish darajasining funksiyasi deb qaraydi. Kapital bilan qurollanganlik darajasining o'sishi esa jamg'arish normasiga bog'lik. Jamg'arish normasining o'sishi, kapital bilan qurollanganlik darajasining oshishiga va ishlab chiqarishning yuksalishiga olib keladi.

Ammo kapital jamg'arish normasi yuqori bo'lmasa kapitalning siqib ketishi, axoli sonining o'sishi tufayli kapital bilan qurollanganlik darajasi o'zgarmasdan qolishi yoki pasayib ketishi mumkin.

R.Soluning fikriga ko'ra, barqaror muvozanat sharoitida kapital, mehnat va milliy daromad darajasi bir xil, aholi soni o'sishiga teng sur'atda o'sib boradi. Aholi sonining tez o'sishi Iqtisodiyotning o'sish sur'atlari jadallashishiga ta'sir etadi, ammo barqaror muvozanat holatida aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish kamayadi. O'z navbatida, jamg'arish normasining oshirilishi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan

daromad miqdorini oshiradi va kapital bilan qurollanganlik koeffisientini ko'tarilishiga olib keladi, lekin barqaror holatdagi o'sish sur'atiga ta'sir ko'rsatmaydi. Shu sababli barqaror xolatdagi Iqtisodiy o'sishning yagona sharti texnik taraqqiyotning o'sish sur'ati hisoblanadi.

Model asosida jamg'arishning "oltin qoidasi" yotadi. E. Felpsning "oltin koidasi" mohiyati shundaki **jamg'arishning shunday optimal normasi mavjudki u iste'molning maksimal darajasida muvozanatli iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.**

R.Solou modeli iqtisodiy o'sishning uch manbai- investitsiyalar, ishchi kuchi soni va texnik taraqqiyotning o'zaro aloqadorliklarini ochib berish imkonini beradi. Davlat iqtisodiy o'sishga jamg'arish normasi hamda texnik taraqqiyotning tezligiga ta'sir etish bilan jadallashtirishi mumkin.

Hozirgi zamon iqtisodiyotini tahlil qilishda yangi paydo bo'lgan iqtisodiy o'sish modellaridan kam foydalanilmoqda. Jumladan, J. Mid va A. L'yuis modellari iqtisodiy o'sish masalasini o'ziga xos tarzda tushuntiradilar. Bu modellarning amaliy ahamiyati ayrim mamlakatning rivojlanish darajasi va iqtisodiyotining tuzilishidan kelib chiqadi.

Iqtisodiy o'sish to'liq bandlilik sharoitiga mos keluvchi potensial ishlab chiqarish potensial YAIM hajmini ng uzoq muddatli ko'payishi tendensiyasini anglatadi. U o'sish ishlab chiqarish natijalari va omillarida ro'y beradigan miqdor va sifat o'zgarishlarini xarakterlaydi.

Iqtisodiy o'sish real YAIM ning, yoki aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real YAIM ni o'sish sur'ati bilan o'lchanadi.

Iqtisodiy o'sish taklif, talab va taqsimot omillari bilan belgilanadi.

Iqtisodiy o'sishni belgilovchi talab omillariga tabiiy resurslar soni va sifati, mehnat resurslari soni va sifati, kapital, texnologiya va boshqalar kiradi.

Bulardan foydalanish usuliga ko'ra iqtisodiy o'sish ekstensiv va intensiv turlarga bo'linadi. Ishlab chiqarish resurslar miqdorini o'zgartirmagan holda esa, intensiv omillar hisobiga amalga oshgan hisoblanadi.

Iqtisodiy o'sish modellari deganda iqtisodiy o'sishni taxlil qilishda foydalaniladigan, ularning manbalarini aniqlash va qonuniyatlarini ochib berishga xizmat qiluvchi modellar tushuniladi.

Keynschilar (Xarrod, Domar) modellarida iqtisodiy o'sishning asosiy omil investitsiyalar deb qaraladi. Jamg'arish normasini ko'tarish orqali investitsiyalarni ko'paytirish va ularning samaradorligini oshirish iqtisodiy o'sish shartlari deb qaraladi.

Klassik modellarda iqtisodiy o'sish ishlab chiqarishning barcha omillariga bog'lik, mehnat va kapital o'zaro almashiniladi deb qaraladi. Shunga ko'ra kapitalning ma'lum darajasida mehnatning kapital bilan qurollanganlik darajasi, o'z navbatida ishlab chiqarish hajmi ham turlicha bo'ladi

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Iqtisodiy o'sish modellarining tahlil qilishdan asosiy maqsadini tushuntirib bering?*
2. *Ishlab chiqarish funksiyasi deganda nimani tushunasiz?*
3. *Kapital funksiyasi deganda nimani tushunasiz?*
4. *Mehnat resurslari deganda nimani tushunasiz?*
5. *Yer (tabiiy va moddiy resurslar) deganda nimani tushunasiz?*
6. *Makroiqtisodiy muvozanatlikning keynscha modelida funksional bog'liklikning uchta turi ajratib ko'rsating?*
7. *Iqtisodiy o'sish nazariyasi va modellaridan foydalangan holda YAIM, YAMD, SMD ko'rsatkichlari qanday aniqlanadi?*

KITOB MANA SHU YERGACHA KO'RILDI. TAHRIRI DAVOMIDA 3-BOBDAN BOSHLAB SHRIFT HAJMI 16, INTERVAL 1,15 QILIB TAXTLASH KERAK. KEYIN USTIDAN KO'RIB CHIQILSA YAXSHI BO'LARDI.

III BOB. TUTASH-AVLODLAR IQTISODIY O'SISH MODELII

***O'quv maqsadi:** firmalar, ishlab chiqarish jarayoni, mahsulotlar va kapitalga bo'lgan talab. kapital turlari, uy xo'jaliklari va uy xo'jaligida jamg'armalar va ularning kapital oqimiga ta'sirlari, raqobat munosabatlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri, rivojlanayotgan Iqtisodiyotda raqobatning ahamiyati, inson omili va inson kapitali, turli davrlarda ishlab chiqarish jarayonlari va ularning o'zaro aloqadorligi to'g'risida tushuncha, ularning mazmunini aniqlashga doir nazariy bilimlarni shakllantirishdan iborat*

***Tayanch iboralar:** firmalar, ishlab chiqarish, kapital, uy xo'jaligi, raqobat, inson omili, inson kapitali, eksport, import, kredit*

3.1.Firmalar, ishlab chiqarish jarayoni, mahsulotlar va kapitalga bo'lgan talab

Ishlab chiqarish jarayoni kuzatilayotganda ko'rish mumkinki, mahsulot ishlab chiqarishda xomashyo, ish kuchi, texnika vositalari, elektr energiyasi, asosiy fondlar va boshqa resurslar bevosita qatnashadi va mahsulot hajmiga ta'sir etadi. Ishlab chiqarilgan mahsulot bilan unga sarflangan resurslar orasidagi bog'lanishni ishlab chiqarish funksiyasi orqali ko'rsatish mumkin.

Iqtisodiy nazariyada iqtisodiy o'sish daromadlarni qanday nisbatlarda iste'mol va investitsiyalarga bo'linishiga bog'liq deb qaraladi. Iste'mol hajmi dinamikasi iqtisodiyotning pirovard maqsadini va aholi turmush darajasi oshishini bildirsa, investitsiyalar hajmining o'zgarishi resurs imkoniyatlarining o'sishi va texnik yangiliklarning moddiylashishini anglatadi. Iste'mol va investitsiya o'rtasida yetarlicha muqobillik mavjud, chunki, joriy iste'mol miqdorining ortishi investitsiyalarning daromaddagi ulushini pasaytiradi. Oqibatda iqtisodiy o'sish

imkoniyatlarini qisqartiradi. Iqtisodiy o'sish real miqdorlarda va qiyosiy baholarda o'lchanadi.

Iqtisodiy o'sishni YAIM mutlaq hajmining ortishi orqali yoki aholi jon boshiga real YAIM miqdorining ortishi orqali o'lchash, baholashning qanday maqsadda amalga oshirilayotganiga bog'liq bo'ladi. Odatda biron-bir mamlakat iqtisodiy o'sishini YAIM mutlaq hajmining ortishi orqali o'lchash, uning iqtisodiy salohiyatini baholashda, aholi jon boshiga real YAIM miqdorining ortishi orqali o'lchash esa mamlakatdagi turmush darajasini taqqoslashda qo'llaniladi.

Mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atini tavsiflaydigan mazkur ko'rsatkichlar (real YAIM va aholi jon boshiga real YAIMning o'sishi) miqdoriy ko'rsatkichlar bo'lib, ular birinchidan, mahsulot sifatining oshishini to'liq hisobga olmaydi va shu sababli aholi turmush darajasining haqiqiy o'sishini to'liq tavsiflab bera olmaydi; ikkinchidan, real YAIM va aholi jon boshiga YAIMning o'sishi bo'sh vaqtning sezilarli ko'payishini aks ettirmaydi va aholi real turmush darajasining pasaytirib ko'rsatilishiga olib keladi; uchinchidan, iqtisodiy o'sishni miqdoriy hisoblash boshqa tomondan uning atrof-muhitga va insonning hayotiga salbiy ta'sirini hisobga olmaydi.

Shunga qaramasdan, iqtisodiy o'sishning barcha tavsifi YAIM yillik o'sish sur'atlarining foizdagi o'lchovida to'liq o'z ifodasini topadi:

$$DY = \frac{Y_1 - Y_0}{Y_0} \cdot 100\%,$$

bu yerda: DY – iqtisodiy o'sish sur'ati, foizda;

Y_0 - taqqoslanayotgan davr (yil)dagi real YAIM hajmi;

Y_1 - joriy davr (yil)dagi real YAIM hajmi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, "iqtisodiy o'sish" hamda "iqtisodiy rivojlanish" tushunchalari o'rtasida farq mavjud bo'lib, "iqtisodiy o'sish" ne'matlarni ishlab chiqarishning miqdoriy jihatdan ko'payishini ifodalab keladi. Iqtisodiy rivojlanish - iqtisodiy o'sishga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, u nafaqat ishlab chiqarishning ortishini, balki uning kamayishini hamda iqtisodiyotdagi o'zgarishlarni

ham ifodalab keladi. Iqtisodiy rivojlanish ko‘p tomonli jarayon hisoblanadi hamda texnik, iqtisodiy va ijtimoiy sohalaridagi o‘zgarishlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Har bir mamlakat barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashga intiladi, chunki iqtisodiy o‘shish, birinchidan, milliy mahsulot hajmi va daromadning ko‘payishiga, ikkinchidan, resurslardan samarali foydalanishga, uchinchidan, yangi ehtiyojlar va imkoniyatlarning paydo bo‘lishiga, to‘rtinchidan, xalqaro bozorlarda mamlakat nufuzining oshishiga olib keladi.

Bundan tashqari aynan barqaror iqtisodiy o‘shishga ta‘sir etuvchi omil resurslarni ham hisobga olish lozim. Ular guruhiga quyidagilar kiradi: tabiiy resurslar miqdori va sifati; mehnat resurslari miqdori va sifati; asosiy kapital hajmi; texnologiyalar.

Shuni ham ta‘kidlash lozimki, mavjud resurslar (yoki ishlab chiqarish omillari) iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash uchun to‘liq 100 foiz jalb qilina olmaydi. Bunga sabab, institSIONal mexanizmlar yetarlicha rivojlanmaganligi va transaksion xarajatlarning yuqoriligi hisoblanadi.

O‘zbekistonda moddiy boyliklar va xizmatlarni ishlab chiqarish dinamik (barqaror) xarakterga ega bo‘lishi bir tomondan, ishlab chiqarish resurslarining mavjudligi, ulardan samarali foydalanish va ilmiy-texnika rivojiga erishishga, ikkinchi tomondan mavjud resurslarni o‘zlashtirish imkoniyatlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq. Shu bilan bir vaqtda ichki kapital tanqisligining mavjudligi, iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda tashqi iqtisodiy omillarning, xususan, birinchi navbatda xorijiy investitsiyalar vakreditlarning rolini yanada orttiradi.

Mamlakatimizda barqaror ishlab chiqarish o‘shishining muhim omillari sifatida quyidagilarni e‘tiborga olish tavsiya etiladi:

- barqaror iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini ta‘minlashga qulay institSIONal muhit va davlat ko‘magini yaratish;
- iqtisodiyot tarmoqlarida tarkibiy islohotlarning yanada chuqurlashtirish uchun ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etishini institSIONal mexanizmlarini takomillashtirish;

- iqtisodiyotni yanada erkinlashtirilishi va modernizatsiya qilish jarayonlarini faollashtirish;
- iqtisodiyot tarmoqlarida mahallilashtirish jarayonlarini kengaytirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda ularga berilayotgan imtiyoz va rag'batlarni kengaytirish orqali aholining asosiy qatlamini iqtisodiy faollikka jalb qilish;
- moddiy-texnik resurslar hamda tayyor mahsulotlarni sotish va sotib olish tizimini erkinlashtirish;
- korxonalarning moliyaviy xo'jalik faoliyatiga davlat nazorati organlari aralashuvini yanada qisqartirish va boshqalar.

Takror ishlab chiqarish omillari asosan jamg'arilgan mehnat miqdori bir tarafdin iqtisodiy o'sishga sabab bo'lsa, ikkinchi tarafdin asosiy ishlab chiqarish fondlari, qo'llanilayotgan texnologiya hamda foydalanilayotgan materiallarga bog'liq hisoblanadi. Shuning uchun butun jamg'arilgan mehnat, uning ayrim qismlari xo'jalik faoliyatining qaysi sohalarida va qanday shakllarda to'plangan bo'lmasin, ularni faqat iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi tashqi omillar sifatida qarash mumkin emas, chunki ular iqtisodiy o'sishning natijalaridir.

Iqtisodiy o'sishning an'anaviy omillaridan farqlash uchun jamg'arilgan mehnatni iqtisodiy o'sish omili deb yuritamiz. Buning o'rniga jamg'arilgan mehnatni iqtisodiy o'sishda ham sarf tarafdin ham ishlab chiqarish natijalari tarafidin ifodalovchi tushuncha sifatida kiritamiz.

Takror ishlab chiqarish omillari iqtisodiy o'sishning yo'nalishlararo munosabatlari ham miqdoriy, ham sifat jihatdan tekshiriladi. Bunda iqtisodiy o'sishning yo'nalishlararo munosabatlari rivojlanish darajalarida va bosqichlarida saqlanib qolish yoki qolmasligini aniqlashdan iboratdir. Bundan tashqari mavjud munosabatlarni barqarorlashtirish, o'zgarish ahvollarini aniqlash va yo'nalishlarini iqtisodiy o'sish tarafiga yo'naltirilishi lozim.

Takror ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi bog'liqliklarning qaysishakli yaxshi ekanligini iqtisodiy o'sish va uning omillarining iqtisodiy ma'nolariga asoslanib

o'tkaziladigan bir va ko'p tomonlama bog'liqliklarning qiyosiy tahlili beriladi. Iqtisodiy o'sish va uning omillari o'rtasidagi bog'liqliklar quyidagicha aniqlanadi. Takror ishlab chiqarishning omillari iqtisodiy o'sish sarf-ishlab chiqarish shaklidagi bir taraflama bog'liqlikda bo'ladi. Milliy daromad va asosiy fondlar hamda ishchi kuchlari o'rtasidagi bog'liqliklar Yuqoridagi bir taraflama bog'liqliklarning tipik ko'rinishi hisoblanadi. Bunda mehnat va asosiy fondlar ishlab chiqarishga sarfni bildirsa, milliy daromad qilingan sarflarning natijasi sifatida qaraladi. Ammo milliy daromad va mehnat hamda asosiy fondlar o'rtasida esa ko'p tomonlama bog'liqliklar mavjud bo'ladi.

Takror ishlab chiqarish omillari tahlili shuni ko'rsatadiki, ma'lum davrlarda milliy daromad mavjud asosiy fondlar miqdorlariga bog'liq bo'lsa, shu davrda asosiy fondlarning o'zlari ham milliy daromadning bir qismi hisoblanadi.

Iqtisodiy o'sish va uning omillari o'rtasida bir martalik bog'liqliklar ham mavjudligini taxmin qilinadi. Masalan, shu davrda milliy daromad miqdori mehnat sarfining miqdori va sifati bilan belgilansin. Ikkinchi tomondan, mehnat sarfi ham milliy daromaddan alohida amalga oshirilmaydi. Bunda birinchi holda bog'liqlikning ishlab chiqarish va ikkinchi holda esa taqsimot tomoni ta'kidlanadi (2-jadval).

3.1.1-jadval

Takror ishlab chiqarish omillari va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi oddiy va murakkab bog'liqliklar shakllarining asosiy xususiyatlari

Eng asosiy xususiyatlar	Bog'liqliklar xususiyatlari	
	Bir taraflama	Ko'p taraflama
Bog'liqliklarning asosiy ma'nolari		
Yo'naltirilgan bog'liqlik	Bir taraflama	Ko'p taraflama
Bog'liqlikning vaqtli xususiyatlari	Vaqtiga mos kelmaydi	Bir vaqtda
Bog'liqliklar ma'nosi	Texnik-iqtisodiy	Ijtimoiy-iqtisodiy
Bog'liklik shakllari	Sabab-oqibat	Birga faoliyat ko'rsatuvchi
Amalda qo'llashga yaroqligi		
Bog'liqlikni oddiy ko'rinishda bera oladimi	Ha	Yo'q

Takror ishlab chiqarishning bir va ko'p omilli iqtisodiy o'sish konsepsiyalari ko'rilganda, iqtisodiy o'sish va uning omillari o'rtasidagi bog'liqliklarni xarajat-ishlab chiqarish shaklidagi bir tomonlama bog'liqliklar ko'rinishida qaray olmaydi. Haqiqatan ham bunda omillar iqtisodiy o'sishni turli yo'nalishlarini ifodalaydi, iqtisodiy o'sish va uning yo'nalishlarini bir va vaqtli ko'p yo'nalishli bo'lib, birga faoliyat ko'rsatadi.

Takror ishlab chiqarish hamda uning omillari va xususiyatlari o'rtasidagi chambarchas emas, balki ularning yuzaga kelish sabablarini ham tahlil qilish talab qilinadi. Takror ishlab chiqarishning omilli iqtisodiy o'sishni oddiy iqtisodiy o'sish konsepsiyasi va ko'p ko'rsatkichli va ko'p omilli iqtisodiy o'sishni murakkab iqtisodiy o'sish konsepsiyasi deyiladi.

Takror ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish omillari o'rtasida bo'ladigan farqlar sababli oddiy konsepsiya omillari iqtisodiy o'sishdan ilgari yuzaga keluvchi bir

tarablama bog'liqliklarni ifodalaydi. Bunda bog'liqlik tushunchasi faqat iqtisodiy ma'noga ega bo'lganligi sababli bu bog'liqliklar vaqt davomida bir tarablama va bir-biriga to'g'ri kelmaydigan va eng muhimi bog'liqlikning xarajat-ishlab chiqarish ko'rinishidagi texnik shaklini ifodalaydi.

Yuqoridagi ko'rsatilgan afzallikdan tashqari oddiy konsepsiya qator kamchiliklarga ham ega. Uning birinchi va eng asosiy kamchiligi u iqtisodiy o'sish va uning omillari o'rtasidagi bog'liqliklarni faqat ishlab chiqarish korxonalari darajasida ko'rib, butun milliy iqtisodiyot darajasida ko'ra olmaydi. Ular uchun mehnat va asosiy fond ishlab chiqarishni tashkil qilish va ma'lum natijalarga erishish sharti hisoblanadi. Bu bog'liqliklar butun iqtisodiyot uchun ayrim xususiy hol sifatida qaraladi. Bir xil sarfda ham, milliy iqtisodiyotning o'sish darajasi taqsimotdagi farqlar sababli har xil bo'ladi.

Umumiy holda ishlab chiqarish funksiyasi quyidagi ko'rinishda ifodalanadi.

$$y = f(x_1, x_2, \dots, x_m),$$

bu yerda y - ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori; x_i – resurslar sarfi. Iqtisodiy jarayonlarni modellashtirishda asosiy bosqich – bu funksiya va omillar o'rtasidagi aloqa shakllarini tanlashdir. Bog'liqliklar to'plamidan iqtisodiy jarayoni xarakteriga muvofiq keladigan ishlab chiqarish funksiyasini tanlashga modellanayotgan ob'ektning texnologik, fizik-biologik va agrotexnik xarakteristikalarini o'rganish asosida erishiladi.

Funksiya va omillar o'rtasidagi bog'liqlarni topish avval mazkur iqtisodiy jarayonga muvofiq keladigan empirik formulani topishdan iborat bo'ladi. Empirik formula aloqa xarakterining yaqinlashtirilgan ma'nosini anglatadi. Demak, tanlab olingan ishlab chiqarish funksiyasi omillar bilan o'rganilayotgan aloqa qonunini nisbatan ifodalaydi, bu esa nazariy ishlab chiqarish funksiyasiga o'tish lozimligini ko'rsatadi. Empirik bog'liqlikdan nazariy funksiyaga o'tish eng kichik kvadratlar usuli yordamida amalga oshiriladi. Uning mohiyati shunday parametrlarni topishdan iboratki, unda funksiyaning hisoblangan qiymatlari bilan uning haqiqiy qiymatlari o'rtasidagi farq kvadratlari yig'indisi eng minimal bo'lib, quyidagicha ifodalanadi:

$$f(x,y) = e^{-\frac{1}{2} \sqrt{ax^2 + by^2}}$$

Regressiya tenglamasi to'g'ri tanlangan bo'lsa, bog'liqlikning nazariy formasi o'rganilayotgan aloqa qonuniyatlarini juda aniq aks ettiradi.

Ishlab chiqarish funksiyalari matematik tasvirlash tipiga ko'ra chiziqli, darajali, parabolik, ko'rsatkichli va hokazo bo'lishi mumkin. Bu funksiyalarning ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

1. Chiziqli funksiya:

$$y = k + kx$$

Bu funksiya bir jinsli bo'lib, omil-dalillarning doimiy limitli samaraliligi bilan xarakterlidir. Umuman iqtisodiyot uchun chiziqsiz aloqa ham xarakterli bo'lib, ma'lum doiralardagina chiziqli holatga, ya'ni (7) ko'rinishga keltiriladi.

2. Darajali funksiya:

$$y = ax^b$$

bu yerda: y - ishlab chiqarilgan mahsulot; x - ishlab chiqarish resurslari sarfi;

b - ishlab chiqarish samaradorligining o'zgarish ko'rsatkichi; a – erkin parametr.

Mazkur funksiya qo'shimcha mahsulotning qo'shimcha xarajat birligiga nisbatan doim o'sib yoki kamayib borishini nazarda tutadi, biroq u qo'shimcha mahsulotning ayni bir vaqtda kamayishi va o'sib borishiga yo'l qo'ymaydi. Buni funksiyaning birinchi tartibli hosilasida ko'rish mumkin:

$$\frac{dy}{dx} = by^{b-1}ax$$

3) Kobba-Duglas ko'rinishidagi darajali funksiya eng ko'p tarqalgan va universal funksiya hisoblanadi. U quyidagicha ko'rinishda bo'ladi;

$$X =$$

$$=$$

$$n$$

$$i$$

$$i$$

$$i \times ay$$

$$1$$

, a

bu yerda: u - natijaviy ko'rsatkich; x_i - erkin o'zgaruvchi miqdor; a, a_i – o'zgarmas miqdorlar; Π - ko'paytirish operatori.

Bu funksiya parametrlari bir vaqtni ichida elastiklik koeffisientlariga teng. Elastiklik koeffisientlarining iqtisodiy mazmuni shundan iboratki, ular mustaqil o'zgaruvchilar (x) bir foizga o'zgarganda, natijaviy ko'rsatkich (u) qanday o'zgarishini ko'rsatadi. Darajali funktsiyani xarajatlar o'rtacha bo'lganda resurslarning unumdorligi tadqiqotchini qiziqtirgan vaqtda qo'llanish nazarda tutiladi. Uning formasi mahsulot chiqarishda ma'lum resurslar - mehnat, ishlab chiqarish fondi va tabiiy resurslarning ishtirokini shart qilib qo'yuvchi xususiyatlarni aks ettiradi. Bu mazkur funktsiyaning xilma-xil iqtisodiy jarayonlarni bayon qilishda universal qo'llanilishini belgilaydi.

Ishlab chiqarish funksiyasining umumiy ko'rinishi quyidagicha:

$$= (, ...,) + e \quad Y f x x x (1)$$

bu yerda: Y - mahsulot chiqarish hajmi; $x_1, x_2, ..., x_n$ - ishlab chiqarish omillari; e - tasodifiy xato.

Prognozli tadqiqotlarni tashkil etish ishning analitik bosqichi hisoblanadi, prognozlash metodologiyasida esa kelajakning hozirgi va o'tgan davr bilan genetik aloqasini ochib berish uchun xizmat qiladi.

Prognozlash kelajakni shakllantiradigan hozirgi davrdagi omillarni aniqlashga hamda taraqqiyot omillariga faol ta'sir ko'rsatadigan tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgandir.

Iqtisodiy prognozlash umumiy prognozlash tizimining maxsus bo'limi bo'lib, ijtimoiy fanlar kuzatadigan voqelikni o'rganadi.

Iqtisodiy o'sish jarayonlarini prognozlashning maqsadi - amaldagi ijtimoiy ehtiyojlarni aniqlash va kelgusidagi ehtiyojlarni oldindan ko'rishdan, jamiyat ijtimoiy tarkibini shakllantirish qonuniyatlarini, turmush tarzini takomillashtirish yo'llarini ochib berishdan iboratdir.

Hozirgi kunda kelajakni prognozni 2 turi hayotga tadbiiq etilgan: ilmiy baholash va noilmiy ko‘rabilish.

Noilmiy ko‘rabilishga turli taxminlar, har xil hayolii sezgilar, ehtimollar va boshqa shunga o‘xshash asoslanmagan istiqbollarni bilish kiradi.

Ilmiy ko‘ra bilishni prinsipial farqi shundaki, hodisalarni ishonchli, ilmiy tasdiqlangan bo‘lishiga imkon tug‘diradi. Bu esa tizimlarni kelajakda boshqarishga va konkret qarorlar qabul qilishga asos bo‘ladi.

Kelajakni ilmiy baholashning turlari:

Oldindan aytib berish - bu kelgusidagi muammoni hal qilishning mumkin bo‘lgan yoki istalgan istiqbolda holatini bayon qilishdir. Boshqacha qilib aytganda, oldindan aytib berish - kelgusida bo‘ladigan ma‘lum jarayonlarning holati haqidagi ishonchli fikrni bildirishdir.

Oldindan ko‘ra bilish - tizimni rivojlantirishning qonuniyatlariga asoslangan, haqiqatni oldindan aks ettirishdir. Bu narsa tizimning kelgusidagi holati haqida ma‘lum xulosa chiqarish imkonini beradi.

Prognoz - bu ehtimol yo‘nalishlar, ob‘ektlar va hodisalarning rivojlanishi natijalari. Prognozlash - bu ob‘ektni rivojlantirish istiqbolini belgilab beradigan maxsus ilmiy tadqiqotlardir.

Rejalashtirish - bu aniq belgilangan maqsad, uni amalga oshirishning yo‘llari va tadbirlari, belgilangan xom ashyolar bilan ajralib turadi.

Reja - yakka yagona, ijrosi majbur bo‘lgan direktiv hujjatdir.

Shunday qilib, rejalashtirish, prognozlash, oldindan aytib berish, oldindan ko‘ra bilish - kelajakni baholashning ishonchlilik darajasiga qarab biri-biridan farq qiladi.

Oldindan aytib berish «Bo‘lsa kerak» ligini ifodalaydi. Prognozlash nima bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatib beradi; rejalashtirish - bo‘lishi shart degan ma‘noni bildiradi.

Iqtisodiy prognozlash - bu iqtisodiy qonunlarga ilmiy yondashgan holda iqtisodiy tizimlarni prognozlarni tuzish jarayonidir. Iqtisodiy tizimni boshqarish sxemasini quyidagicha ifodalash mumkin (1-rasm).

Avvalo iqtisodiy tizimni rivojlanishini maqsadi aniqlanadi. Quydagi maqsadga kelajakda bo'lishi mumkin holatlari o'rganilib prognoz qilinadi. Eng samarali tanlangan rivojlanish variantlari, kompleks dasturlarni tuzilishiga informatsion baza sifatida qo'llanib, prognoz qilingan holatga tizim erishish uchun, qanday tadbirlar amalga oshirilishi kerakligini dastur ko'rinishida tuzib olinadi. Bunday yondashish «Dastur» deyiladi. Maqsadni va bor imkoniyatlarni (resurslarni) solishtirish natijasida ilmiy asoslangan rejalar tuziladi va tizimni elementlariga yetkaziladi.

Shunday qilib, reja - faqat boshqarish mumkin bo'lgan jarayonlarda qo'llanadi. Masalan, ishlab chiqarishda rejani qo'llash mumkin. Prognoz boshqarilishi mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan sohalarda qo'llaniladi. Masalan: ob-havoni rejalashtirib bo'lmaydi, uni prognozlash mumkin, demografik, ilmiy-texnika, tashqi iqtisodiy va boshqa jarayonlarni qisman ularni boshqarish, qisman rejalashtirish mumkin.

Prognozlash avvalo, rejalarining ilmiy asoslanganligini oshirish uchun taraqqiyot maqsadlaridan biriga erishishga qaratilgan konkret reja yoki kompleks dasturni tekshirish asosi tarzida qaraladi. Ishning bu bosqichi reja yechimlarining, shuningdek iqtisodiy tadbirlar tizimini o'tkazish muddatlarining izchilligini tanlash va asoslash imkonini beradi.

Prognozlashni rejalashtirishning alternativ tarzidagi yordamchi vositasi deb hisoblaydigan ayrim mualliflar unga rejaning birmuncha ishonchli, direktiv rejalashtirish vazifalariga mos keladigan balans usulini qarama-qarshi qo'yadilar. Darhaqiqat, balans - bu iqtisodiy hisob-kitoblar usuli bo'lib, iqtisodiy-statistik, analitik va rejali ishlarning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin. Prognoz - bu metodologiyada butun mantiqi va spesifikasi bilan maqsadli tematik tadqiqot bo'lib, ham sifat, ham miqdor tahlillarini o'z ichiga oladi hamda unda, rejali ishlab chiqarishning pirovard natijalaridan qat'iy nazar, mustaqil ilmiy ahamiyat ega:

- prognozlar
- dasturlar
- rejalar

- maqsadlar
- resurslar
- ishlab chiqarish komplekslari
- axborot aloqalar
- moddiy aloqalar kasb etadi. Uning ko'rsatkichlar doirasi kelgusidagi rejaning ko'rsatkichlari doirasidan jiddiy farq qilishi mumkin.

Prognozli tadqiqot yechimlarni asosli ravishda tanlash uchun juda foydali bo'ladi va bunday jarayon tashqi sharoitlari muddatini bayon qilib beradi.

Prognozlash turlari.

1. Prognozlash masshtabiga ko'ra makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy prognozlarga ajratiladi.

2. Tuzilish intervali bo'yicha operativ, qisqa muddatli va uzoq muddatli bo'lishi mumkin. Qisqa muddatli prognozda faqat miqdoriy o'zgarishlar e'tiborga olinadi. Uzoq muddatli prognoz ham miqdoriy, ham sifat o'zgarishlarga asoslangan bo'lib, o'z o'rnida o'rta muddatli va uzoq muddatli bo'lishi mumkin.

3. Prognozlash yo'nalishlariga ko'ra izlanishli va normativ bo'lishi mumkin. Izlanishli prognoz – agar hozirgi tendensiyalar saqlanib qolsa, iqtisodiy tizim qanday rivojlanadi, degan savolga javob beradi. Boshqa so'z bilan aytganda, tizimga ta'sir etuvchi omillar o'zgarmasa, u qanday holatga kelishi mumkin?

Normativ prognoz bo'lajak maqsadlarga erishish uchun tizimni rivojlanish yo'nalishlarini va muddatlarini aniqlaydi (belgilaydi). Maqsad qilingan holatga tizim erishish uchun, ta'sir etuvchi omillarga qanday o'zgarishlar kiritish zarur? Boshqa so'z bilan aytganda qanday qilib maqsadga erishish mumkin?

3.2. Raqobat munosabatlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri

Iqtisodiyot murakkab tizim bo'lib yaxlitlik, ierarxik, ehtimollik, xususiyatlarga ega va shu sharoitda boshqariladi. Aytib o'tilgan xususiyatlarni e'tiborga olgan holda prognozashtirish usullarini tasnifi tuzilgan.

Prognozlash usullari 2 katta guruhga bo'linadi: formalizatsiyalash va evristik usullar .

Shunday qilib, ilmiy prognozlashning eng muhim sharti – prognozlanadigan ob’ektlarni boshqaradigan qonunlarni chuqur va har tomonlama o’rganishdan iborat. Ob’ektiv prognozli tadqiqot konkret material asosida insonning maqsadli faoliyati, iqtisodiy jarayonlarning ob’ektiv xarakteriga, ob’ektiv determinizmning sababiy qonunlariga zid bo’lmasligi haqidagi umumiy qoidani qo’shimcha ravishda isbotlab beradi.

Prognozli tadqiqotlarni tashkil etish ishning analitik bosqichi hisoblanadi, prognozlash metodologiyasida esa kelajakning hozirgi va o’tgan davr bilan genetik aloqasini ochib berish uchun xizmat qiladi. Prognozlash kelajakni shakllantiradigan hozirgi davrdagi omillarni aniqlashga hamda taraqqiyot omillariga faol ta’sir ko’rsatadigan tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgandir.

O’rta darajalarni sirg’alish usuli. Ayrim hollarda dinamik qatorlardagi ma’lumotlar tebranish bilan xarakterlanadi. Bu vaziyatda dinamik qatorlarni silliqlash zarur. Silliqlash natijasida tebranish kamayib, umumiy tendensiya yaqqolroq namoyon bo’ladi. Bu maqsadda keng qo’llaniladigan usullardan biri – o’rta darajalarni sirg’alish usulidir.

- Oddiy ekstrapolyatsiya
- O’rtacha darajalar sirg’alishi
- Eksponensial tekislash
- Eng kichik kvadratlar
- Modellashtirish
- Statistik modellashtirish
- Ekspert baholash
- Mantiqiy
- Prognozlash usullari
- Formalizatsiyalash
- Evristik

Sirg’anuvchi o’rtacha usul o’rtacha qiymatini aniqlash vaqtida tasodifiy chetlamalarning o’sish holatiga asoslanadi.

O'rtacha faktik qiymatlar qatorlari dinamikasi tekislanayotgan vaqtda sirg'anishning o'rtacha nuqta davrini ko'rsatadigan o'rtacha qiymatlar bilan almashinadi. Odatda, o'rtacha sirg'anuvchi usulning ikki modifikasiyasidan, ya'ni oddiy tekislash va vazniy tekislashdan foydalaniladi.

Ko'rsatkichlarni hisoblash ayirish yoki bo'lish usulida amalga oshiriladi. Natijada quyidagi ko'rsatkichlarga ega bo'linadi:

1. Mutlaq qo'shimcha o'sish (yoki kamayish).
2. O'sish (yoki kamayish) koeffisienti (foizda bo'lsa sur'ati).
3. Qo'shimcha o'sish (yoki kamayish) koeffisienti (foizda bo'lsa sur'ati).
4. 1 % qo'shimcha o'sishning (yoki kamayishning) mutloq qiymati.

Dinamik qatorlar ko'rsatkichlarini hisoblash ikkita davr darajasini taqqoslash natijasida olinadi. Odatda, taqqoslanadigan daraja sifatida qatorning birinchi darajasi yoki oldingi yil darajasi qabul qilib olinadi. Agar har bir daraja o'zidan oldingi daraja bilan taqqoslansa (ya'ni, taqqoslash yilma-yil bo'lsa), u holda olingan ko'rsatkich *zanjirsimon*, agar har bir daraja faqat doimiy bitta (ya'ni, boshlang'ich) davr darajasi bilan taqqoslansa, u holda olingan ko'rsatkich *bazisli* ko'rsatkich bo'ladi. Yangi omillarning ta'sirini to'g'rilaydigan ekstrapolyatsiya hisobga olishga qodirdir. Bunday ekstrapolyatsiya usuli to'g'ridan-to'g'ri ekstrapolyatsiya qilinadigan usullarga o'xshash bo'lib, uning farqi shundaki, u prognoz ob'ekti dinamikasining xususiyatlarini vaqt bo'yicha hisobga oladigan tuzatuvchi koeffisientlardan foydalanadi.

Empirik ma'lumotlarning belgilangan qonuniyatlar o'zgarishini aks ettiradigan egri chiziqli bo'lmagan shakli aniqlangan bo'lsa, prognozlashda ekstrapolyatsiya usulini qo'llanish yaxshi natijalar beradi. Bunday holda kuzatiladigan jarayonni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini ko'rsatadigan trend (yoki tendensiya) asosida prognozlash usuli kattalikka yaxshiroq yaqinlashtiradi.

Milliy iqtisodning yalpi ichki mahsuloti (Y) asosan ikkita omilga, kapital (K) va ishchi kuchiga (L) hamda boshqa omillarga A (avtonom texnik progress) bog'liq. $Y=A \cdot F(K,L)$. Jon boshiga to'g'ri keladigan YAIMga tasir etuvchi omillarni aniqlash lozim.

$K/N * K/N$

Y/L

A

$(Y/N)^*$

$Y/N = Af(K/N)$

3.3. Inson omilli va inson kapitali

Iqtisodiy o'sishni ko'pchilik modellariga kam omilli konsepsiyasi xarakterlidir. Iqtisodiy o'sish modellari odatda ikki omilli yoki ayrim hollarda bir omilli bo'ladi. Iqtisodiy o'sish nuqtai nazarida mehnatning nafaqat miqdori balki, sifati ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. Mehnat sifati, ya'ni uning murakkabligi uni bajaruvchilarning bilim darajalari, amaliy tajribalari, murakkab operatsiyalarni bajarish qobiliyatlari, chaqqonligi kabi ko'rsatkichlar bilan baholanadi. Empirik modellarga omil sifatida kiruvchi mehnat inson faoliyatning faqat miqdoriy ko'rsatkichini ifodalovchi tor ma'nodagi tushunchadir. Bunday modellarda mehnat hajmi ko'p hollarda bajarilgan ish soatlari yoki ishlab chiqarishda band bo'lgan odamlar soni bilan belgilanadi.

Ayrim hollarda mehnat sifatini aniqlashga harakatlar bo'lgan edi. Bunda mehnat sifatini aholining bilim darajasi, mehnatkashlarning yoshi va jinsi kabi ko'rsatkichlar bilan izohlangan.

Yuqorida qayd qilganimizdek, kam omilli modellarda mehnat va asosiy fondlardan tashqari ayrim hollarda boshqa omillardan ham foydalanishimiz mumkin. Bu omillar o'z ma'nolarini bo'yicha uch guruhga bo'linadi.

Birinchi guruh ishlab chiqarish resurslarining turlari, masalan ekin maydonlari va er osti qazilma boyliklaridir.

Ikkinchi guruh mehnat va asosiy fondlarning sifat xususiyatlari hisoblanadi.

Uchinchi guruh omillari ishlab chiqarish shart-sharoitlarini ifodalovchi xususiyatlardir. Masalan, ishlab chiqarishni tashkil qilinish darajasi, ishlab chiqarishning institsional shakllarining miqdor va sifat xususiyatlari, tashqi savdo aloqalari omillarning birinchi yoki uchinchi guruhlariga taalluqli bo'ladi.

Mehnatning har bir aniq shakli har xil murakkablik darajasida namoyon bo‘ladi. Sarf qilingan mehnatlarning murakkablik darajasini o‘lchash, aniqlash imkoniyati mavjud emas, ularning har birining sifat o‘zgarishini alohida taxminiy baholash mumkin. Bu sifat o‘zgarishlarini ko‘rsatuvchi ko‘rsatkichlar ishchilar tarkibi malakasi va uning o‘zgarishi, har xil kasbiy tayorgarliklarini va malakalarini talab qiluvchi mehnat turlari o‘rtasidagi nisbatlar bo‘ladi.

Bir omilli empirik model quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

(Lf Y)?

Agar iqtisodiy o‘rishni bir ko‘rsatkichning vaqt davomidagi dinamikasi bilan berishning imkoniyati bo‘lmasa, ko‘p ko‘rsatkichli iqtisodiy o‘rish konsepsiyasidan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Umuman iqtisodiy o‘rishni bitta jamlangan mehnat kabi umumlashgan iqtisodiy ko‘rsatkich yordamida ham ifodalash mumkin emas. Chunki, mehnat har xil shakldagi moddiy va ma‘naviy boyliklar va xizmatlar hamda, har xil shaklda moddiy va ma‘naviy boyliklarni yaratish va taqsimlash ko‘rinishida yuzaga keladi. Shuning uchun ham mehnatning vaqt davomida bunday o‘zgarib turadigan shakllarini va natijalarini bitta ko‘rsatkich yordamida ifodalash mumkin emas, buni faqat ko‘p ko‘rsatkichlar yordamida amalga oshirish mumkin.

Mehnat unumdorligining o‘rishga olib keluvchi omillarni to‘laroq ko‘rib chiqamiz. Fan-texnika taraqqiyoti mehnat unumdorligi va iqtisodiy o‘rishni ta‘minlovchi muhim omil hisoblanadi. Texnika taraqqiyoti o‘z ichiga nafaqat ishlab chiqarishning butunlay yangi usullarini, balki boshqarish va ishlab chiqarish tashkil qilishning yangi shakllarini ham oladi. Umuman aytganda, fan-texnika taraqqiyoti deyilganda, pirovard mahsulot chiqarishni ko‘paytirish maqsadida mavjud resurslarni yangicha uyg‘unlashtirishni taqozo qiluvchi yangi usullarning topilishi ham tushuniladi. Amaliyot texnika taraqqiyoti va investitsiyalar mustahkam o‘zaro bog‘liq, texnika taraqqiyoti ko‘pincha yangi mashina va uskunalarga investitsiyalar qo‘yishga olib keladi. Masalan, quyosh energiyasidan foydalanish bo‘yicha texnologiyani qo‘llash uchun quyosh elektrostansiyalarini qurish zarur bo‘ladi.

Quyidagi real mahsulotni ikki asosiy usulda ko‘paytirishi mumkin :

1. Band bo'lganlar soni.
2. Ishlagan kishi soatlarining o'rtacha miqdori.

Mehnat unumdorligi

Mehnat sarflari

1. Texnika taraqqiyoti.
2. Kapital qo'yilmalar hajmi.
3. Ta'lim va malaka tayyorgarligi.
4. Resurslarni joylashtirish samaradorligi.

5 Boshqa omillar .

Ishlab chiqarishning real hajmi

Real mahsulotni ko'paytirishi usullari

Respublika oldida texnika taraqqiyoti sohasidagi asosiy vazifa, ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyani qo'llash, ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarishning yangi usul va shakllarini joriy qilish hisoblanadi. Mehnat unumdorligining o'sishini aniqlab beruvchi asosiy omil har bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi asosiy kapital hajmi hisoblanadi.

Ma'lum vaqt ichida kapitalning hajmi mutlaq ko'payishi mumkin, ammo ishchi kuchi soni tezroq o'ssa, mehnat unumdorligi pasayadi, chunki har bir ishchining asosiy kapital bilan qurollanganlik darajasi kamayadi. Buni oldini olish uchun:

1. Asosiy kapitaldan ancha unumli foydalanish.
2. Real mahsulot hajmini ko'paytirish zarur.

Ta'lim va malaka tayyorgarligi mehnat unumdorligini oshiradi va natijada ancha o'sish haqiga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Inson kapitaliga investitsiyalar qo'yish mehnat unumdorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. O'z-o'zidan aniqki, ishchi kuchi sifatining eng oddiy ko'rsatkichi ta'lim darajasi hisoblanadi. Hozirgi davrda respublikamiz iqtisodiyotida band bo'lganlarning 80 foizga yaqini oliy va o'rta maxsus ta'limga ega.

Ko'p omilli iqtisodiy o'sish bir nechta tanlab olingan omillar ta'siri natijasi bo'lmasdan, ko'p omillar birgalikdagi ta'siri natijasidir. Ma'lumki, iqtisodiy o'sish

modellaridagi omillar sonlari cheklangandir. Ammo, iqtisodiy o'sishning empirik (amaliy) tahlillarida ko'p omilli yondashuvlar ham uchraydi.

Iqtisodiy o'sishning ko'p omilli konsepsiyasi Yuqorida ko'rib chiqilgan ko'p ko'rsatkichli iqtisodiy o'sish tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, iqtisodiy o'sishning asosiy ko'rsatkichlari jamlangan mehnatning miqdori va sifatidir. Bu mehnat moddiy va ma'naviy boylik va qadriyatlarda jamlangan bo'lib, ularni ishlab chiqarish va taqsimlashning har xil shakllari mavjuddir. Demak, iqtisodiy o'sishga ta'sir qiluvchi barcha omillarni e'tiborga olish uchun jamlangan mehnatga xos bo'lgan barcha shakldagi ko'rinishlarni mustaqil ko'rib chiqilishi kerak. Bu faqat moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchi omillarnigina hisobga olish etarli emasligini ko'rsatadi. Moddiy va ma'naviy boyliklarni va har xil ishlab chiqarish va taqsimot shakllarini yaratishda katnashuvchi barcha asosiy omillarni e'tiborga olinishini taqozo etadi.

Ko'p o'lchamli iqtisodiy o'sishni amalda keng qo'llaniladigan bitta ko'rsatkich milliy boylik bilan xarakterlashimiz mumkin. Chunki, milliy boylik tarkibiga tabiiy resurslar, ishchi kuchi, ishlab chiqarish fondlari, ilm-fan va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar kiradi.

Ko'p ko'rsatkichli iqtisodiy o'sish tahlilida iqtisodiy faoliyatning ayrim yo'nalishlarini va mahsulotlarining ayrim xususiyatlarini miqdoriy aniqlash qo'shimcha murakkabliklar bilan bog'liq.

Iqtisodiy o'sishning asosiy elementlari bir-biridan ham shaklan, ham mazmunan farq qiladi. Bu elementlarning natural ko'rinishlari ham, boshqa ko'rinishlari ham bir xil bo'lmaydi. Har xil sifat xususiyatlarni agregirlashni ham turli sifatlarini bir vaqtda o'lchaydigan va baholaydigan yagona, umumiy shart mavjud bo'lgandagina amalga oshirilishi mumkin.

Ko'p ko'rsatkichli iqtisodiy o'sishda statistik ma'lumotlar bilan ta'minlash muammolari yuzaga keladi. Chunki, ma'naviy boyliklar va ishlab chiqarish hamda iste'mol bo'yicha ko'p hollarda kuzatuvlar olib borilmaydi. Ayrimlarini faqat tanlab baholanadi va bu esa to'liq bo'lmagan statistik axborotga ega bo'lishga sabab bo'ladi.

Ayrim hollarda iqtisodiy o'sishning elementlarini va qoidalarini qisman baholashgagina imkon beradigan statistik ma'lumotlar mavjuddir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Ishlab chiqarish jarayoni deganda nimani tushunasiz?*
2. *Kapitalga bo'lgan talab qanday aniqlanadi?*
3. *Kapital turlarini ayting?*
4. *Uy xo'jaligi deganda nimani tushunasiz?*
5. *Kapital oqimiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ayting?*
6. *Raqobat deganda nimani tushunasiz?*
7. *Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ayting?*
8. *Inson omili deganda nimani tushunasiz?*
9. *Inson kapitali deganda nimani tushunasiz?*

IY BOB. O'SISHNING NEOKLASSIK MODELLARINI EMPIRIK QO'LLANISHI

O'quv maqsadi: Solov modelidan foydalanishning bir necha ko'rinishlari, neoklassik o'sish modellari. Solov modelida kengaytirish tushunchasi va uning inson kapitali bilan bog'liqligi, neoklassik modelning foydalilik darajasi, davlatlar boyligi va kashshokligi, o'sish tempining istiqbollari va uning taxlili, davlatlar o'rtasida daromadlarning taksimoti to'g'risida tushuncha, ularning mazmunini aniqlashga doir nazariy bilimlarni shakllantirishdan iborat

Tayanch iboralar: neoklassik model, talab, taklif, taklif tenglamasi, talab tenglamasi, investitsiya, diskontlashtirish, kredit, talab va taklif tengligini ifodalovchi tenglama firmalar, ishlab chiqarish, kapital, uy xo'jaligi, raqobat, inson omili, inson kapitali, eksport, import, kredit

4.1 Neoklassik o'sish modellari

Iqtisodiy o'sishning barcha neoklassik modellari ko'p omilli modellar hisoblanadi. Ularning qarashlaricha, birinchidan, mahsulot barcha ishlab chiqarish omillari bilan yaratiladi, ikkinchidan, mahsulot qiymatini yaratishda barcha omillar ishtirok etib, shu xissasiga mos daromad ni vujudga keltiradi. Uchinchidan, ishlab chiqarilgan mahsulot bilan resurslar o'rtasida miqdoriy bog'liqlik mavjud bo'ladi. To'rtinchidan, ishlab chiqarish omillari mustaqil bo'lsa-da, bir-birining o'rnini bosa oladi.

Neoklassik modellardan Kobb-Duglas modeli (Amerikalik iqtisodchi P. Duglas va matematik Ch. Kobb nomi bilan) ishlab chiqarish va milliy daromad o'sishida turli omillar xissasini baholash imkonini beradi. Uning eng oddiy ko'rinishi quyidagicha:

$$Y=f(L,k), \text{ bu yerda}$$

Y - ishlab chiqarilgan mahsulot (milliy daromad) hajmi L, k - mehnat va kapital sarflari

Bu formulaga muvofiq mehnat va kapitalning tegishli foizga o'sishi mahsulot hajmining ham huddi shunday o'sishiga olib keladi.

Formulaga mehnat va kapital harajatlarining ishlab chiqarish hajmi

egiluvchanligiga ta'sirini xarakterlovchi koeffitsientlar (mehnat unumdorligi, malaka oshirish, mutanosiblik koeffitsienti va hokazo) ni kiritib quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$Y=A \cdot K^a \cdot L^b, \text{ bu yerda}$$

A - texnologik unumdorlik darajasini ifodalovchi koeffitsient bo'lib qisqa davrda o'zgarmaydi.

A va b - mehnat va kapital sarflari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi egiluvchanligi koeffitsienti.

Kobb-Duglas modeli bir qator xususiyatlarga ega bo'lib, ularning asosiylari quyidagilar:

1. Kapital va mehnatdan foydalanish qancha miqdorga ko'paysa, yalpi ishlab chiqarish yoki daromad hajmi ham shunchaga ko'payishini ko'rsatadi, ya'ni $F(nK, nL) = nA K^a L^b$.

2. Mavjud texnologiyada me'yori unumdorlikning o'zgarishiga bog'liq holda, mehnat va kapital o'rtasidagi nisbat buzilishi ishlab chiqarish optimal hajmini kamaytiradi, ya'ni ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiradi.

3. Mehnat (a) va kapital daromadi (v) nisbatining barqarorligi milliy mahsulotda kapital va mehnat ulushi nisbatining barqarorligini bildiradi.

Golland iqtisodchisi YAn Tinbergen texnika taraqqiyotining ta'sirini hisobga olgan holda Kobb-Duglas formulasiga quyidagi o'zgartirishni kiritadi:

$$Y=A \cdot K^a \cdot L^b \cdot r(n)$$

Iqtisodiy o'sish modelida texnika taraqqiyoti (g) ta'sirini aks ettirish mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi faqatgina K va L ga qilingan xarajatlarning ortishi hisobigagina emas, balki boshqa omillar hisobiga ham ro'y berishini ko'rsatadi.

“Xarajatlar - ishlab chiqarish (V. Leontev) modelida turli tarmoqlar o'rtasidagi miqdoriy aloqalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri o'rganiladi.

V. Leontevning jadval shaklidagi tarmoqlararo balans modeli 4 ta kvadrantdan iborat:

(I) Kvadrant - mahsulot ishlab chiqarish uchun material xarajatlarni ko'rsatadi.

(II) Kvadrantda shaxsiy iste'mol uchun pirovard mahsulot, jamg'arish, davlat xaridi va eksport ko'rsatkichlari ifodalanadi.

(III) Kvadrant - qo'shilgan qiymat (ish haqi, foyda, soliqlar) va import ko'rsatkichlarini aks ettiradi.

(IV) Kvadrantda sof milliy mahsulotni qayta taqsimlash jarayonlari qayd qilinadi.

Leontev modeli tarmoqlararo vertikal va gorizontal aloqalarni aks ettirib, pirovard talab yoki ishlab chiqarish sharoitining o'zgarishi barcha o'zaro bog'liq tarmoqlarda o'zgarishlarga olib kelishini ko'rsatadi. Iste'moldagi yoki ishlab chiqarish texnologiyasidagi har qanday o'zgarish muvozanatli narxlarni o'zgartiradi va bu o'z navbatida texnologik koeffisientlar (a_{11} , a_{12} , a_{13} , va hokazo) ning o'zgarishiga olib keladi. Tarmoqlararo balans modeli turli tarmoqlar o'rtasida narxlar, ishlab chiqarish hajmi, kapital qo'yilmalar va daromadlarning bog'liqligini o'rganishga yordam beribgina qolmay, mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishi xususiyatlari va istiqbolini bashoratlash imkonini beradi.

R.Solou modeli iqtisodiy o'sish texnika taraqqiyoti o'z o'rniga ega bo'lmaganda (ya'ni ishlab chiqarish ekstensiv kengayganda) ishlab chiqarish omillari miqyosi ortishiga doimiy bog'liq bo'lishini ko'rsatadi. Agar K va L miqdori Q marta ortsa ishlab chiqarish hajmi shuncha marta kupayadi.

R. Solou modeli ishlab chiqarish omillarining o'zaro o'rnini bosish mumkinligini hisobga oladi. Bu modelda iqtisodiy tahlilning asosiy shart-sharoitlari: kapital keyingi unumdorligining pasayib borishi, ishlab chiqarish miqyosidan olinadigan samara va kapital xizmat qilish davrining doimiyligi hisoblanadi. Solou modeli ancha katta hajmdagi investitsiyalar, milliy daromadda jamg'arishning yuqori normasi sharoitida yaxshi jon boshiga eng ko'p daromad turli kelishini ko'rsatadi. R.Solou "jamg'arishning oltin qoidasi" modelida iste'molning eng yuqori darajasiga qanday erishish mumkinligini ham ko'rsatib beradi.

1. Kapital bilan qurollanishning barqaror yuqori darajasi sharoitida ishlab

chiqarish hajmi bilan $f(K^*)$, eskirish hajmi bK^* o'rtasida farq, katta bo'lib, bu iste'molning ham yuqori darajada bo'lishini bildiradi.

2. Kapitalning barqaror iste'molini ta'minlaydigan ana shu holati kapital jamg'arish (K^{**}) ning oltin darajasi deyiladi.

3. Aholining o'sishi kapital bilan qurollanish darajasiga, shuningdek, amortizatsiya normasiga ham ta'sir qiladi, ya'ni kapital zahirasi kamayadi. Haqiqatda L ning o'sishi kapital bilan qurollanish darajasi $K=L$ va har bir ishlovchiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmiga $y=f(k)=Y/L$ ta'sir qiladi. Shuningdek, bunda iste'molning barqaror yuqori darajasi ham pasayadi. Solou modeli qisqa muddatda jamg'armaning o'sishi kapital zahirasi ishlab chiqarish hajmining o'sishiga olib kelishini ko'rsatadi. Uzoq muddatli davrda ishlab chiqarishning o'sishi texnika taraqqiyoti sur'atiga bog'liq bo'ladi va bu omil ishlab chiqarish bilan birga iste'molning ham uzluksiz o'sishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy o'sishning nazariy modellarini kuzatishdan maqsad o'sib boruvchi iqtisodiyotda yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanatlikni ta'minlash hamda barqaror muvozanatlikning to'liq bandlik bilan mos kelishligining shart-sharoitlarini aniqlash hisoblanadi.

4.2 Neoklassik o'sish modelning foydalilik darajalari

Iqtisodiy o'sish modelлари yalpi ishlab chiqarishning uzoq muddatli ko'payishi taklif omillariga tayangan xolda taxlil etish imkonini beradi.

Boshqa Iqtisodiy modelлар singari Iqtisodiy o'sish modelлари ham real jarayonlarni abstrakt va soddalashgan ko'rinishda, shartli tarzda grafiklarda va tenglamalarda aks ettiradi.

Iqtisodiy o'sishning keynscha va neoklassik modelлари mavjud. Keynscha modelларning mohiyati kuyidagicha:

➤ ularning barchasi Keynsning yalpi talb to'g'risidagi bosh g'oyasiga tayanadi. Ya'ni ularni tuzishda mualliflar Iqtisodiyotni uzoq muddatli mutanosib rivojlanishining xal qiluvchi sharti yalpi talabni oshirish deb qarashgan;

➤ Iqtisodiy o'sishning asosiy omili investitsiyalar xisoblanadi, Boshqa ishlab chiqarish omillari e'tiborga olinmaydi;

Keynscha Iqtisodiy o'sish modelidan soddarogi 40-yillarda E. Domar tomonidan taklif etilgan model xisoblanadi.

Keyns o'z taxlilida investitsiyalarnig yalpi talabga ta'sirini o'rgangani holdaa, yalpi taklifga ta'sirini ko'rib chiqmaydi. Undan farqli tarzda Domar modelida mehnat bozorida ortiqcha taklif mavjud, bu baxolarni barqaror xolatida ushlab turadi, investitsion lag «0» ga teng, kapital qo'yilmalarning chegaraviy unumdorligi doimiy deb olinadi.

E.Domar investitsiyalarni ham talab ham taklif omili deb qaraydi. Ya'ni investitsiyalar nafakat mul'tiplikativ ta'sir ko'rsatib yalpi talabni oshiradi, balki ishlab chiqarish quvvatlarini yuzaga keltirib, ishlab chiqarishni rivojlantiradi, tovarldar taklifini oshiradi . Shunday ekan, yalpi talabning o'sishi yalpi taklifning o'sishiga teng bo'lishi uchun investitsiyalar kanday o'sishi kerak degan savol paydo bo'ladi. Bu savolga javob topish uchun Domar uch tenglamani o'z ichiga olgan tenglamalar sistemasini tuzdi:

1. taklif tenglamasi;
2. talab tenglamasi;
3. talab va taklif tengligini ifodalovchi tenglama.

1. Taklif tenglamasida investitsiyalar ishlab chiqarish omillarining kanchaga qo'shimcha o'sishini ko'rsatadi . Agar berilgan sharoitda investitsiyalar I o'ssa, yalpi ishlab chiqarish $DK \alpha$ miqdorga o'sadi:

$DY_s = DK \alpha$, DK investitsiyalar xisobiga ta'minlanganligi uchun tengikni:

$DY_s = I \alpha$ deb yozish mumkin. , bunda, α – kapital qo'yilmalar (investitsiyalar)ning chegaraviy unumdorligi. Agar bir yilda yalpi ishlab chiqarishni 1 mlrd. so'mga oshirish uchun 4 mlrd so'm investitsiya talab etilsa $\alpha = 0,25$ bo'ladi. $\alpha = DY_s / I$ bir so'mlik investitsiya xisobiga yaratilgan yangi maxsulot miqdorini ko'rsatadi.

2. Talab tenglamasi kuyidagi ko'rinishga ega

$DYd = DI (1/\mu)$, bu yerda $1/\mu$ – xarajatlar mul'tiplikatori, μ –jamgarishga chegaralangan moyillik.

Bu tenglama milliy daromad DYd , yoki yalpi talab qo'shimcha investitsiyalarning mul'tiplikativ ko'payishiga teng miqdorda o'sishini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish to'plangan jami kapital bilan ta'minlanishi, milliy daromad esa qo'shimcha investitsiyalarning multiplikativ ta'siri ostida ko'payishi sababli taklif tenglamasida jami investitsiyalar, talab tenglamasida esa qo'shimcha investitsiyalargina ko'rib chikilaadi.

3. Daromadlar va ishlab chiqarish quvvatlarining qo'shimcha o'sish sur'atlari tengligi tenglamasi:

$$DI (1/\mu) = I \alpha$$

Bu tenglamani echib suyidagi natijani olamiz:

$$DI / I = \mu \alpha$$

(DI / I) – investitsiyalarning yillik o'sish sur'ati bo'lib, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish yordamida to'liq bandlilikni ta'minlab turish uchun $(\mu \alpha)$ miqdorga teng bo'lishi kerak. Bundan xulosa shuki investitsiyalarning mutanosib o'sish sur'atijamgarishga chegaralangan moyillik va investitsiyalarning unumdorligi (kapital kaytimi) darajalarining xosilasi ekan.

Agar $\mu = 0,2$ $\alpha=0,4$ bo'lsa $DI / I = 0,2 * 0,4 = 0,08$ yoki 8 %

Demak investitsiyalarning o'sish sur'ati 8% bo'lishi talab etiladi.

E. Domar moddelidan kelib chikadigan umumiy xulosa shuki Iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun investitsiyalar hajmini oshirish, bu uchun esa jamgarish normasi hamda fan texnika taraqqiyoti orqali kapitalning samaradorligini oshirish zarur..

Agar E. Domar o'z modelida investitsiyalarni ekzogen tarzda berilgan miqdor ded olgan bo'lsa R.F. Xarrodning 1939-yilda ishlab chikilgan Iqtisodiy o'sish modeliga akselerator prinsipi va tadbirkorlarning kutishiga asoslangan endogen funksiyasi ham kiritildi. Akselerator prinsipiga ko'ra nafakat investitsiyalar ishlab chiqarishning o'sishini keltirib chiqaradi, balki ishlab chiqarish va

daromadlarningning o'sgan xajmi ham investitsiya jarayonlarining jadallashishiga olib keladi.

R.Xarrod o'z modeliga uch tenglamani kiritadi:

1) kafolatlangano'sish surti tenglamasi;

2) haqiqiy o'sish sur'ati tenglamasi;

3) tabiiy o'sish sur'ati tenglamasi. R Xarrod modelida haqiqiy o'sish sur'ati ishchi kuchining o'sish sur'ati va kapital unumdorligining o'sish sur'ati bilan belgilanadi. **$G_c = s$, bu yerda**

G - YAIMning haqiqiy qo'shimcha o'sish sur'ati; $\Delta Y / Y$;

c- ishlab chiqarishning kapital talabchanligi koeffisienti, $I / \Delta Y$;

s– Milliy daromaddagi jamgarish xajmi yoki jamgarishga o'rtacha moyillik, S / Y ;

Tadbirkorlar dinamik muvozanat ta'minlangan o'sish sur'ati bo'lgan kafolatlangan (prognoz kilingan) o'sish sur'atiga asoslanib o'z investitsiya rejalarini tuzadilar. Kafolatlangan o'sish sur'ati jamgarishga o'rtacha moyillik darajasini akseleratorga nisbati sifatida aniqlanadi:

$G_w = s / cr$, bu yerda:

G_w – kafolatlangan o'sish sur'ati

cr – talab etiladigan kapitaltalabchanlik koeffisienti (o'tgan yillardagi shakllangan darajasi);

Bu ko'rsatkichlar doimiy bo'lganligi sababli kafolatlangan o'sish sur'atlari ham doimiy bo'ladi.

Agar haqiqiy o'sish sur'ati kafolatlangan o'sish sur'atiga mos kelsa Iqtisodiyotda barqaror uzluksiz o'sish ta'minlanadi. Amaliyotda bunga doimo erishib bo'lmasligi tufayli qisqa muddatli davriy tebranishlar ro'y beradi.

Xarrod modelida resurslardan to'liq foydalangan sharoitda ta'minlanishi mumkin bo'lgan maksimal o'sish sur'ati tabiiy o'sish sur'ati deb nomlandi.

$G_{ncr} = yoki \neq s$

Iqtisodiyotning barqaror dinamik muvozanati to'liq bandlilik sharoitida kafolatlangan va tabiiy o'sish sur'atlari o'zaro teng bo'lganda ta'minlanadi. Ammo bunday tenglikka davlatning faol aralashuvi orqaligina erishiladi.

4.3. Iqtisodiy o'sishning neoklassik modellaridan samarali foydalanish

Iqtisodchi olimlarning iqtisodiy o'sish omillarini o'rganish hamda uning kelgusidagi natijalarini prognoz qilish borasidagi tadqiqotlari pirovardida turli iqtisodiy o'sish modellarining yaratilishiga olib keldi. Bu modellar o'z mazmuniga ko'ra bir-birlaridan farqlansada, ularning asosida ikkita nazariya - makroiqtisodiy muvozanatning **keynscha (keyinchalik neokeynscha)** nazariyasi hamda ishlab chiqarishning **klassik (keyinchalik neoklassik)** nazariyasi yotadi.

Iqtisodiy o'sishni tahlil qilishda **neoklassik** nazariya namoyondalari quyidagi noto'g'ri nazariy shartlarga asoslanadilar:

- 1) mahsulotning qiymati barcha ishlab chiqarish omillari tomonidan yaratiladi;
- 2) ishlab chiqarish omillarining har biri o'zining keyingi qo'shilgan mahsulotiga tegishli ravishda mahsulot qiymatini yaratishga xissasini qo'shadi. Shunga ko'ra, bunga javoban barcha keyingi qo'shilgan mahsulotga teng keluvchi daromad ham oladi;
- 3) mahsulot ishlab chiqarish va buning uchun zarur bo'lgan resurslar o'rtasida miqdoriy bog'liqlik mavjud;
- 4) ishlab chiqarish omillarining erkin tarzda amal qilishi hamda ular o'rtasida o'zaro bir-birining o'rnini bosish imkoniyati mavjud.

Bu yerda aytish mumkinki neoklassik va boshqa ayrim yo'nalishdagi nazariyotchilar bu yerda ikkita uslubiy xatoga yo'l qo'yadilar:

- 1) ular ishlab chiqarish omillarining barchasi bir xil qiymat yaratadi, ular qiymatni yaratishda baravar ishtirok etadi, deb hisoblaydilar. Xolbuki, barcha ishlab chiqarish vositalari hech qanday yangi qiymat yaratmaydilar, balki o'zlarining qiymatlariga teng miqdordagi qiymatni jonli mehnat yordamida yangi yaratilgan mahsulotga o'tkazadilar. Lekin, barcha omillar yaratilgan va o'sgan (ko'paygan)

mahsulotning naflliligini yaratishda qatnashadilar;

2) ular doimo barcha omillar ichida jonli mehnatning faol rol o'ynashini, qolganlari esa passiv rol o'ynashini unutadilar. Chunki, hech bir tabiiy resurs, kapital resurlari jonli mehnat tomonidan harakatga keltirilmasa, o'zicha harakatga kela olmasligi, o'z joyida ham jismonan, ham qiymati yo'q bo'lib ketishi, ularning qiymati faqat jonli mehnat tomonidan saqlab qolinishi ko'p yillardan beri ko'p martalab tasdiqlanib kelmoqda. Lekin negadir ularning bunga e'tibor bergisi kelmaydi.

Neoklassik model ko'p omilli hisoblanib, amerikalik iqtisodchi P.Duglas va matematik Ch.Kobb yaratgan ishlab chiqarish funksiyasi asos qilib olingan. Kobb-Duglas modeli orqali ishlab chiqarish hajmining o'sishida ishlab chiqarish turli omillarining ulushini aniqlashga harakat qilinib, u quyidagicha ifodalanadi:

$$Y = AK^a L^b ,$$

bu yerda: Y – ishlab chiqarish hajmi;

K – kapital sarflari;

L – ishchi kuchi sarflari;

A, a, b - ishlab chiqarish funksiyasining koeffisientlari:

A – avtonom texnik taraqqiyot koeffisienti;

a va b - ishlab chiqarish hajmining ishchi kuchi va kapital sarflari bo'yicha elastiklik koeffisienti.

Elastiklik koeffisienti bir ko'rsatkich miqdorining foizda o'zgarishi natijasida boshqa bir ko'rsatkich miqdorining o'zgarish darajasini ifodalaydi. Shunga ko'ra, a koeffisienti kapital sarflarining 1% ga o'sishi, ishlab chiqarish hajmining necha foizga o'sishini, b koeffisienti esa ishchi kuchi sarflarining 1% ga o'sishi ishlab chiqarish hajmining necha foizga o'sishini ko'rsatadi. a va b ning yig'indisi ishchi kuchi va kapital sarflarining bir vaqtning o'zida 1% ga o'sishi ishlab chiqarish hajmining necha foizga o'sishini ko'rsatadi.

Ch.Kobb va P.Duglas o'z tadqiqotlarida AQSh qayta ishlash sanoatining 1899-1922 yillar mobaynidagi ish faoliyatini tahlil qilib, ishlab chiqarish funksiyasining ko'rsatkichlarini aniqlashga harakat qilganlar:

$$Y = 1,01 r K^{0,25} L^{0,75}.$$

Bu ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, o'sha davrda AQSh qayta ishlash sanoatida kapital sarflarining 1% ga oshirilishi ishlab chiqarish hajmini 0,25% ga, ishchi kuchi sarflarining 1% ga oshirilishi esa ishlab chiqarish hajmini 0,75% ga oshishiga olib kelar ekan.

Keyinchalik Kobb-Duglasning ishlab chiqarish funksiyasini golland iqtisodchisi YAn Tinbergen yanada takomillashtirib, unga yangi omil - texnika taraqqiyoti ko'rsatkichini kiritdi. Natijada ishlab chiqarish funksiyasi formulasi quyidagi ko'rinishni oldi:

$$Y = AK^a L^{1-a} e^{rt},$$

bu yerda: e^{rt} – vaqt omili.

Ishlab chiqarish funksiyasiga vaqt omilining kiritilishi endilikda nafaqat miqdor, balki «texnika taraqqiyoti» atamasi orqali uyg'unlashuvchi sifat o'zgarishlari - ishchi kuchi malakasining o'sishi, innovatsiya jarayonlarining kuchayishi, ishlab chiqarishni tashkil etishning takomillashuvi, jamiyat miqyosida ma'lumotlilik darajasining oshishi va boshqalarni ham aks ettirish imkonini berdi.

Iqtisodiy o'sishning **keynscha modeli** makroiqtisodiy muvozanatning keynscha nazariyasini rivojlantirish va unga tanqidiy yondashish natijasida vujudga kelgan. Bu modellar orasida ingliz olimi R.Xarrod va amerikalik olim E.Domarning iqtisodiy o'sish modellari e'tiborga molik hisoblanadi. Har ikkala modelning umumiy jihatlari mavjud bo'lib, ular quyidagilar orqali shartlanadi:

1) ular neoklassik modellardan farqli o'laroq bir omilli model hisoblanadi. Ya'ni, bu modellarda milliy daromadning o'sishi faqat kapital jamg'arishning funksiyasi hisoblanib, kapital samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi ishchi kuchi bandligining oshishi, fan-texnika taraqqiyoti (FTT) yutuqlaridan foydalanish darajasining o'sishi, ishlab chiqarishni tashkil etishning yaxshilanishi kabi boshqa

barcha omillar nazardan chetda goldiriladi;

2) ishlab chiqarishning kapital sigʻimi ishlab chiqarish omillarinarxlarining nisbatiga bogʻliq boʻlmay, faqat ishlab chiqarishning texnik sharoitlari orqali aniqlanadi.

Neokeynscha modelda investitsiyalarning oʻsishi iqtisodiy oʻsish va uning surʼatlarini belgilovchi omil hisoblanib, u bir tomondan, milliy daromadning oʻsishiga imkon yaratadi, ikkinchi tomondan esa, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytiradi. Oʻz navbatida daromadning oʻsishi bandlikning oshishiga imkon yaratadi. Investitsiya hajmining koʻpayishi natijasida kengaytirilgan ishlab chiqarish quvvatlari daromadning oʻsishi orqali toʻliq ishga tushirilishi lozim.

Iqtisodiy o'sishning E. Domar modeli. Bu model makroiqtisodiy muvozanatning keynschilik nazariyasini tanqidiy qayta ishlash va rivojlantirish sifatida vujudga keldi. Ma'lum bo'lganidek, Keynsning asosiy maqsadi - rivojlangan mamlakatlarda ommaviy ishsizlik va ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanmaslik sabablarini aniqlash edi. Bu hodisa 1929-1933 yillarda "Buyuk depressiya" davrida halokatli o'lchamlarga erishib, bu vaqtda nafaqat yangi kapital qo'yilmalarga, balki asosiy kapitalni yangilashga ham imkoniyat yo'q edi. Shu sababli Dj. Keyns nazariyasini fanda depressiv yoki stagnatsion nazariya deb atashadi.

Urushdan keyingi davrda g‘arb mamlaktlaridagi iqtisodiy holat o‘zgardi

– iqtisodiy oʻsish masalalariga olimlar diqqatini qaratgan yuqori konʼyunktura davri boshlandi. Biroq, yangi sharoitlarda keynschilik nazariyasi chetga surib qoʻyilmadi, balki sifat jihatdan yangi muammolarni hal qilish uchun ijodiy oʻzgartirildi. Chunki, bu nazariya bozor iqtisodiyoti amal qilishining bir qator fundamental savollariga javob bera olar edi. Milliy daromad, isteʼmol, jamgʻarma va investitsiyalar kabi iqtisodiy miqdorlarga asoslanib, Dj. Keyns iqtisodiy faoliyat darajasining oʻzgarishini tushuntira oladigan modelni ishlab chiqdi. U iqtisodiy pasayish va ishsizlikning oʻsishi davrida isteʼmol va jamgʻarmalar, shu jumladan investitsiyalar qisqarishini isbotladi. Shuning uchun, yalpi talab oʻsishining haqiqiy

dastaklari mavjud bo'lmagan taqdirda, Dj. Keynsning fikricha, hukumat talabni tartibga solish chora-tadbirlaridan foydalangan holda iqtisodiyotga aralashishi zarur. Talabni soliqlarni pasaytirish orqali yoki davlat xarajatlarini ko'paytirish orqali oshirish mumkin, bu esa o'z navbatida iqtisodiy faollikni jonlantiradi.

Iqtisodiy o'sish neokeynschilik modelining mohiyati nimada?

1. Ularning barchasi Dj. Keynsning asosiy postulati – yalpi talabga asoslanadi. Modellarni qurishda ularning mualliflari muvozanatlashgan iqtisodiy o'sishning hal qiluvchi sharti yalpi talabning oshishi ekanligidan kelib chiqishgan.

2. Iqtisodiy o'sishning asosiy omili bo'lib kapital qo'yilmalar (investitsiyalar) hisoblanadi, ular multiplikatorlar orqali daromadni oshiradi yoki o'zi daromad oshishining natijasi hisoblanadi (akselerator ta'sirida). Qolgan barcha ishlab chiqarish omillari (bandlikning oshishi, uskunalardan foydalanish darajasi, ishlab chiqarishni tashkil etishning yaxshilanishi) hisobga olinadi va modeldan chiqarib tashlanadi.

Bunda bu modellarning keynschilik tabiati va neoklassik nazariyalardan asosiy farqlanishi mujassamlashgan.

Shunday qilib, o'sishning neokeynschilik modeli ikki o'ziga xos xususiyat bilan xarakterlanadi:

- iqtisodiy o'sishga daromad darajasi bilan belgilanadigan talab nuqtai nazaridan yondashish;
- investitsiyalarning iqtisodiy o'sishdagi muhim roli bilan, chunki daromad kapitalning to'planishiga bog'liq (demak, yalpi talab hajmi ham).

Iqtisodiy o'sishning neokeynschilik modellari kelib chiqishi Polshalik bo'lgan amerikalik iqtisodchi E.Domar va ingliz iqtisodchisi R.Xarrod tomonidan shakllantirilgan. Ular tomonidan olingan natijalar shunchalik bir-biriga yaqin ediki, natijada fanda ular Xarrod-Domar modeli deb atala boshlandi. Biroq modellarda o'ziga xoslik borligi tufayli, ularning har birini ko'rib chiqamiz, xulosa qilib esa ularni umumlashtiruvchinarsaga e'tiborni qaratamiz.

Iqtisodiy o'sishning E.Domar modeli. E.Domar uning modeli keynschilik an'analariga xosligi va keynschilik fundamentiga asoslanganini aniqligini tan olgan, ammo shu bilan birga keynschilik modelining investitsiyalar va iqtisodiy dinamikaga tegishli qismiga o'z xissasini qo'shganligini ta'kidlab o'tgan.

Oldindan o'rnatilganidek, Dj.Keyns tizimida daromadlarning shakllanishi investitsiya funksiyasi hisoblanib, ular multiplikator samarasi orqali yalpi talab va bandlikni oshiradi. Boshqacha qilib aytganda, Dj.Keyns davlat xarajatlariga, ayniqsa ularning jamoat ishlarini amalga oshirish bilan bog'liq qismiga (yo'l, ko'priklar, qurish va boshqalar) alohida e'tibor qaratgan.

Nega u ommaviy bozor mahsulotlari ishlab chiqarishga, masalan avtomobillar, kir yuvish mashinalari yoki mebel ishlab chiqarishga e'tibor qaratmagan? Chunki, qayta ishlab chiqarish (samarasi) talabni hosil qilish bozorga ortiqcha tovar massasini chiqarishdan ko'ra muhim edi, shuning uchun Dj. Keyns investitsiyalarning tovar taklifiga ta'sirini o'z tahlilidan qolgan ishlab chiqarish quvvatlari mavjudligini tahlil qilgan holda ham shunday qildi. (yangi zavodlarga investitsiya qilishga mavjudlari turganda hojat yo'q).

Aynan shu punktda E.Domar, Dj. Keyns nazariyasiga aniqlik va qo'shimcha kiritdi – unda investitsiyalar nafaqat daromadlarni shakllantirish, balki quvvatlarni yaratish, ishlab chiqarishni va tovarlar taklifini rivojlantirishomili hamdir. Bu orqali E.Domar investitsion jarayonning ikki xilligiga e'tibor qaratib, uning fikricha, milliy daromadning muvozanatli o'sish modeli mohiyati ham shundan iborat. Boshqacha aytganda, u iqtisodiyotning muvozanatlashgan holatidan kelib chiqqan (ya'ni, umumiy talabni ifodalovchi ishlab chiqarish quvvatlariga teng bo'lganda).

Undan keyin E.Domar quyidagi savolni qo'ydi: agar investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini oshirsa va shu bilan birga qo'shimcha daromadlarni shakllantirsa, unda daromad o'sishi sur'ati ishlab chiqarish quvvatlari o'sishi sur'atlariga teng bo'lishi uchun investitsiyalar qanday o'sishi kerak? Bu savolga javob berish uchun E. Domar uchta tenglamalar sistemasini tuzdi:

- 1) taklif tenglamasi;

- 2) talab tenglamasi;
- 3) taklif va talab tengligini ifodalovchi tenglama.


1. Taklif tenglamasi investitsiyalar hosil qiladigan ishlab chiqarish quvvatlari o'sishini ko'rsatadi.

Yaratilgan ishlab chiqarish quvvatlari hisobiga olinadigan ishlab chiqarish o'sishini (o'sishini) Q ni, umumiy kapital qo'yilmalarini (I) ularning o'rtacha unumdorligiga b ko'paytmasi orqali aniqlash mumkin:

$$Q = I Ch b .$$

Investitsiyalarning ishlab chiqarish rivojlanishiga ta'sirini xarakterlovchi b belgisi kapital qaytimi nomini oldi (ishchi kuchi bandligining oshishi, fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarishni tashkil etishni mukammallashtirish va h.k.). Bunda, agar 1 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarish uchun 4 mlrd. so'm kapital kerak bo'lsa, unda b uning $\frac{1}{4}$ qismini yoki 25% ni hosil qiladi. Demak $b+DQ$ bo'lib bir-birlik investitsiya yaratgan yangi mahsulot miqdorini ifodalaydi.

2. Talab tenglamasi qo'shimcha quvvatlarini band qilish uchun talab qanchagacha o'sishi kerakligini ko'rsatadi. Multiplikator nazariyasiga ko'ra, jamg'armaga ixtiyoriy chegaraviy moyillik l . Milliy daromad o'sishi – DY qo'shimcha investitsiyalar - DI hisobi. ning multiplikator ta'sirining natijasi



solishtirsak, unda taklif tenglamasida umumiy investitsiyalar ishtirok etishini sezamiz, qachonki talab tenglamasida faqatgina oldingi davrga nisbatan investitsiyalarning o'sishi ishtirok etadi. Buning sababi shundaki, ishlab chiqarishning o'sishi DQ umumiy kapitalning unumdorligi bilan ta'minlanadi, daromadning o'sishi DY esa faqatgina qo'shimcha kapital qo'yilmalarining multiplikator ta'siri bilan ta'minlanadi. Daromadlar va ishlab chiqarish quvvatlari o'sishi sur'atlarining

	D	
muvozanat	I	bo'lganda erishiladi.
tenglamasiga	1	
	$=$	
	Ib	
	$\frac{1}{a}$	

Bu tenglama yechimi orqali quyidagi natijaga ega bo'lamiz.

$$DI = ab$$

$$I$$

Tenglamaning chap qismida investitsiyalarning yillik o'sish sur'ati turadi, u ishlab chiqarish quvvatlarining o'sishi yordamida to'liq bandlikni ta'minlash uchun ab yillik sur'at bilan o'sishi lozim.

Shunday qilib, Domar modeli investitsiyalar doimiy o'sishi lozim bo'lgan sur'atni aniqlash imkonini beradi. Bu sur'at milliy daromadda jamg'armalar ulushi va investitsiyalarni o'rta samaradorligi bilan bog'langan. Masalan, agar jamg'arish moyillik $a = 20\%$ teng bo'lsa, kapitalni $b = 33\%$, kapitalni balanslashgan o'sish meyori $6,6\%$ tashkil unumdorligi esa etish kerak. $DI = 0,2 \cdot 0,33 = 0,066 I$ yoki

6,6% . Bundan iqtisodiy siyosat uchun muhim xulosa kelib chiqadi: faqatgina kapitalning doimiy o'sayotgan akkumulyatsiyasiga jamiyat masshtabida yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi dinamik muvozanatni ta'minlaydi. Investitsiyalarning muvozanatli o'sishini ta'minlab turish uchun davlat milliy daromaddagi jamg'armalar ulushiga yoki texnik taraqqiyot sur'atlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Iqtisodiy o'sishning R. Xarrod modeli.

Oldin ta'kidlaganimizdek, tarkibi bo'yicha bu model E.Domar modeliga o'xshaydi, biroq uning o'ziga xos xususiyatlari bor. E.Domar modeli investitsiyalarning yalpi talabni kengaytirish va ishlab chiqarish quvvatlarining vaqt oralig'ida ko'payishdagi ikki xil rolini tahlil qiladi. Shuning uchun u butunligicha multiplikatordan foydalanishga asoslanadi va milliy daromadning zaruriy o'sishini ta'minlaydigan investitsiyalarning o'sish me'yorini aniqlaydi.

R.Xarrod modelining maqsadi esa iqtisodiyot o'sishning traektoriyasini o'rganish hisoblanadi. Shuning uchun uning asosini akselerator nazariyasi tashkil etib, u investitsiyalar o'sishini bunga sabab bo'lgan daromad o'sishiga nisbatini aniqlash imkonini beradi.

Bunday xususiyatlardan shu natija kelib chiqadiki, E.Domar davlat siyosati bilan bog'liq bo'lgan avtonom investitsiyalar bilan ish olib borgan bo'lsa, R.Xarrod esa - milliy daromad o'sishi bilan bog'liq ishlab chiqarish investitsiyalari bilan ish olib borgan.

Akselerator nazariyasi – investitsiyalarning kutilayotgan ishlab chiqarish hajmi o'zgarishiga bog'liqligini tavsiflovchi nazariyadir. Akselerator tamoyili dastlab davrlar nazariyasi doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, investitsiyalarning iste'mol talabi harakatiga reaksiyasi orqali iqtisodiy inqirozlarni tavsiflagan. Bunday bog'liqlikda akselerator nazariyasini XX asr boshida fransuz iqtisodchisi A.Aftalen va amerikalik iqtisodchi Dj.Klark rivojlantirishgan. Bu nazariyaga muvofiq talabning (yoki daromadlarning) o'sishi investitsiyalarning o'sish darajasiga tezlashtiruvchi (akselerator) sifatida ta'sir etadi, (avvalambor asosiy kapital sohasida). Yangi investitsiyalar ishlab chiqarish hajmi (daromadlar)ga nisbatan tezroq o'sishi taxmin

qilinadi, chunki mashinaning qiymati uning tayyor mahsulot qiymatidan odatda ancha yuqori bo'ladi, demak, ishlab chiqarish qatnashchilari daromadlaridan ham yuqori bo'ladi. Shuning uchun ham investitsiyalarga bo'lgan talab iste'mol talabining o'sishiga nisbatan doimo yuqori bo'ladi. Gap shundaki, o'sib borayotgan iste'mol talabi mavjud bo'lgan ishlab chiqarish quvvatlariga ta'sir ko'rsatib, nafaqat mavjud quvvatlar modernizatsiyasiga, balki yangi sanoat korxonalari va uskunalari kapital qo'yilmalarini rag'batlantiradi.

Faraz qilaylik, qandaydir korxona o'zining mahsulotiga mavjud talabni 10 ta mashinadan foydalanib qondiradi, ulardan bittasi har yili yangisi bilan almashtiriladi. Agar talab 20% ga oshsa, korxona bu talabni qondirish uchun 2 ta yangi mashina sotib olishi kerak bo'ladi. Shunday qilib, akselerator ishlab chiqarish o'sishi bilan investitsiyalar o'sishi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi: ishlab chiqarish hajmi o'zgarishiga javob ravishda yangi investitsiyalar qanchaga o'sashini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish va investitsiyalar darajalarida o'zgarishlarning bunday teskari bog'liqligi Dj.Keynsda umuman yo'q edi. U investitsiya va daromadlar o'rtasida multiplikator munosabati bilan cheklandi.

$$DY = DI \frac{1}{a} .$$

$\frac{1}{a}$ - multiplikator koeffisienti, chunki u foydalanilmagan quvvatlar a va ishsizlik mavjudligidan kelib chiqqan. Uning vazifasi, bo'sh iqtisodiy resurslardan qanday foydalanishni ko'rsatish bo'lib, buning uchun u davlat xarajatlarini oshirishni taklif etgan. Ularni 1 multiplikatorga $\frac{1}{a}$ ko'paytirib bandlik, ishlab chiqarish va daromad o'sishini ta'minlaydi, demak, yalpi talabning ham ta'minlaydi.

Akselerator tamoyili esa oshgan daromad va talab o'z navbatida investitsion jarayonlarni tezlashtirishni ko'rsatadi. Bu yangi kapital qo'yilmalar - daromad

o'sishini akseleratsiya koeffisienti bo'yicha ko'paytmasining funksiyasi ekanligini anglatadi:

$$DI = DY_{rd}.$$

Akseleratsiya koeffitsienti – texnik taraqqiyot turiga bog‘liq texnikmiqdor:

- katta hajmdagi kapitalni talab etadigan kapitalli texnik taraqqiyot sharoitida d ning qiymati oshadi.
- kapitalni tejaydigan texnik taraqqiyotda d ning qiymati past bo‘ladi.

Iqtisodiy o‘rish modelini yaratish jarayonidan R.Xarrod tahlilga uchta tenglamani kiritdi:

- amaldagi o‘rish sur‘atlari tenglamasi;
- kafolatlangan o‘rish sur‘atlari tenglamasi;
- haqiqiy o‘rish sur‘ati tenglamasi.

1. Amaldagi o‘rish sur‘atlari tenglamasi - R.Xarrod modeli tenglamasi natijasidir. U ishlab chiqarish maqsadlarida foydalaniladigan mahsulotning o‘rishidan bir qismini jamlanishini ta‘minlash uchun milliy daromadda jamg‘armalar ulushi qanday bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi:

$$Gc = s, \quad (1)$$

bu yerda: G – (*growth*) qandaydir davr bo‘yicha umumiy ishlab chiqarishning amaldagi o‘rishi (o‘sgani), masalan yil bo‘yicha: $G = DY/Y$, ya‘ni amaldagi o‘rish sur‘ati – bu daromad o‘rishining biznes davr daromadi miqdoriga nisbati;

$c = I / DY$ - kapital koeffitsienti yoki bir-birlik daromad yoki mahsulot o‘rishining “investitsion qiymatini” ko‘rsatuvchi ishlab chiqarishning kapital talab koeffitsienti. U kapitalning teskari unumdorligi miqdori bo‘lib hisoblanadi $b = 1/c$ S – milliy daromadda jamg‘armalar ulushi yoki jamg‘arishga

moyillik: $s = S / Y$

Agar (1) tenglamani uning elementlari mazmuni bo‘yicha yozadigan bo‘lsak, unda Dj.Keynsning – investitsiyalar teng jamg‘armalar, ayniyatiga ega bo‘lamiz:

$$s = S/Y \quad I/Y = S \quad I = S \cdot Y$$

Biroq R.Xarrodning yondashuvi Dj.Keyns yondashuvidan ancha farqlangan. Keynschilik modelida investitsiyalar va jamg'armalar tengligi statik shaklda, R.Xarrod modelida esa dinamik shaklda ifodalangan: tenglamaning chap qismi Gc ishlab chiqarish maqsadlariga yo'naltirilgan mahsulot o'sishining kapitallashtiriladigan qismini ifodalab, u jamg'armalarning s ma'lum ulushi bilan ta'minlanishi shart.

2. Kafolatlangan o'sish sur'atlari tenglamasi. Tadbirkorlar ko'zda tutadigan va umuman qoniqish hosil qiladigan rivojlanishning prognozi shuni ifodalaydi:

$$G_w cr = s. \quad (2)$$

R.Xarrodning fikricha kafolatlangan (*warranted*) o'sish sur'ati G_w dinamik muvozanatning chizig'i hisoblanadi. Shu bilan barcha cr (kapital talablikning zaruriy koeffisienti) ham dinamik muvozanatning koeffisienti hisoblanadi: u mahsulot chiqarish o'sishiga yangi kapitalga ehtiyojni ifodalaydi, uni ta'minlash uchun shu yangi kapital talab etiladi. Bundan kelib chiqadiki kafolatlangan o'sish sur'ati tenglamasida investitsiyalar *ex-ante* va jamg'armalar *ex-post* tenglashtiriladi.

Milliy daromadda jamg'armalar s ulushi – zaruriy kapital talablilik koeffisienti cr kabi doimiy miqdor bo'lgani sababli R.Xarrod kafolatlangan o'sish sur'ati (G_w) ning doimiy darajasi haqida xulosaga keldi.

Agar amaldagi o'sish sur'ati (1) prognozlanayotgan, kafolatlangan sur'ati (2) bilan mos tushsa, unda iqtisodiyot qat'iy uzluksiz rivojlanishga ega bo'ladi. Biroq, R Xarrodning ta'kidlashicha bunday qat'iylik statistik darajada ham dinamik darajada ham mavjud emas. Ikkala tenglamani

solishtirib ($Gc = G_w cr = s$), R.Xarrod, amaliyotda amaldagi o'sish sur'ati s ;

doimo kafolatlanganidan katta yoki kichik bo'ladi deb ta'kidladi.

Agar amaldagi o'sish sur'ati kafolatlanadiganidan oshsa, unda nisbiy doimiylik tufayli s shunga mos ravishda tez oshmaydi.

Boshqacha aytganda, agar $G > G_w$ bo'lsa, unda

$s = const, c < cr$.

Bundan R.Xarrod shunday xulosaga keladiki, ishlab chiqaruvchilar amaldagi kapital talablikni juda ham rost deb baholab, tovar-moddiy zahiralarini oshirishga harakat qiladilar. Bu esa amaldagi o'sish sur'atini kafolatlanganligidan yanada oshishga olib keladi.

Agar $G < G_w$ bo'lsa, unda $s = const, c > cr$. Bunga asosan ishlab chiqaruvchilar

mavjud xomashyo, material va uskunalar zahirasi ortiqchaligi haqida qarorga kelib, xaridni qisqartiradilar. Bu bilan ular amaldagi o'sish sur'atini kafolatlanganga nisbatan yanada oshiradi.

Shunday qilib, amaldagi o'sish sur'ati muvozanatligiga moslashish o'rnida amaliyotda teskari tendensiya mavjud, ya'ni ishlab chiqarishning dinamik muvozanat chizig'idan ko'tarilishi yoki pasayishi yuz beradi. Bu R.Xarrodga bozor iqtisodiyotiga ichki dinamik barqarorlik xos ekanligi haqida qaror qilishga asos bo'ldi. Bunday xulosa natijada iqtisodiy adabiyotda "Xarrod paradoksi" nomini oldi. U iqtisodiy konyunkturaning qisqa muddatli davriy tebranishlarini ifodalaydi. Nisbatan uzoqroq tebranishlarning interpretatsiyasi uchun R.Xarrod (3) tenglamani kiritdi – haqiqiy o'sish sur'ati tenglamasi.

3. Haqiqiy o'sish sur'ati tenglamasi R.Xarrod modelida quyidagi ko'rinishga ega:

$$G_n cr = yoki N_0 s,$$

bu yerda: G_n – (*natural* - tabiiy) resurslardan to'liq foydalanish sharoitida iqtisodiyot haraktining maksimal darajada mumkin bo'lgan sur'ati.

Bunday o'sish sur'atini ta'minlab turish uchun iqtisodiyotda jamg'armalar etmasligi mumkin, shuning uchun haqiqiy o'sish sur'atining tenglamasida chap va o'ng tomonlar o'rtasidagi tenglik yo'qligi ko'zda tutiladi.

Hosil qilingan tenglamalar R.Xarrodga 3 ta miqdor o'rtasidagi munosabatni ko'rib chiqish imkonini berdi: haqiqiy (G), kafolatlangan (G_n) va amaldagi (G) o'sish sur'ati.

1. $G_w > G_n$ deb faraz qilamiz. Bunda, haqiqiy o'sish sur'ati berilgan resurslarda mumkin bo'lgani uchun, amaldagi sur'at haqiqiysidan past bo'ladi, demak, kafolatlangan o'sish sur'atidan ham albatta past bo'ladi. Unda kapitalga bo'lgan talabning prognozlangan koeffisienti amaldagisidan past bo'lib ($cr < c$) Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek uzoq depressiyaga (tushkunlikka) sabab bo'ladi. Tushunarliroq qilib aytadigan bo'lsak, ortiqcha kuchlanish (iqtisodiyotning qizib ketishi) uzoq muddatli tushkunlikka olib keladi, bunga misol qilib nafaqat bozor iqtisodiyotini, balki ijtimoiy amaliyotni keltirish mumkin.

2. Agar $G_w > G_n$ bo'lsa, unda iqtisodiyot rivojlanishining 2 sценariysi

bo'lishi mumkin. Birinchisi ($G_w > G_n$) Yuqorida ko'rib chiqilgan bo'lib, uzoq depressiyaga olib keladi, ikkinchisi ($G_w < G_n$ dan $cr > c$ kelib chiqqani uchun) uzoq "bum" davri bilan xarakterlanishi mumkin.

Shunday qilib, R.Xarrod iqtisodiy dinamikadagi ikki muammoga e'tiborni qaratdi:

1. G_w va G_n o'rtasidagi farqlanish.

2. G ning G_n dan uzoqlashishi bunda birinchi muammo - ishchi kuchining

vaqtinchalik ortiqchaligi, ikkinchi muammo esa — vaqtinchalik doimiy etishmovchiligi ekanligini ko'rsatiladi.

Keyin u quyidagi savolni qo'yadi: bozor iqtisodiyotida kafolatlangan G_n

va haqiqiy G_n o'sish sur'atlarini avtomatik tenglashtiradigan kuchlar bormi?

Bu savolga javob berib R.Xarrod iqtisodiy o'sishning asosiy parametri – odamlar xohishiga bog'liq bo'lgan jamg'armalar ekanligini ko'rsatib o'tgan, shuning uchun bu savolni tahlili jamg'armalar dinamikasi tahlili bilan bog'liq. Jamg'armalarga salbiy munosabatda bo'lib, ularni depressiyani rag'batlantiruvchi kuch deb hisoblagan Dj.Keynsdan farqli ravishda R.Xarrod

jamg'armalarni ijobiy va foydali deb hisoblagan. Biroq, shu bilan birga u quyidagi savolni bergan: bozor iqtisodiyotida muvozanatlashgan o'sish talablariga javob beradigan jamg'armalar hajmini rag'batlantiruvchi instrumentlar mavjudmi? R.Xarrod unga inkor javobini berib, Dj.Keyns kabi iqtisodiyotga davlat aralashuvini zarurligini asoslagan.

R.Xarrod dasturi ikki guruh tadbirlarini o'z ichiga olgan:

1) "Amaldagi o'sish sur'atini kafolatlanganidan qochishi" ga qarshi qisqa muddatli antiiniklik siyosat taklif etilgan.

2) Takrorlanadigan ishsizlik va uzoq depressiyaga qarshi foiz me'yorini pasaytirish siyosatidan foydalanishni taklif etgan (deyarli uning nol bo'lgan nuqtasigacha). Bu jamg'armaga investitsion talabning kengayishiga olib keladi, demak, milliy daromadda jamg'armalar ulushining qandaydir qisqarishiga ham.

Siyosatning maqsadi R.Xarrod fikricha

$$G_{Wcr} = s - d = G_n cr$$

bo'ladigan foiz stavkasining progressiv pasayishiga erishish kerak.

Bu ifodani R.Xarrod to'liq bandlik maromidagi barqaror o'sish formulasi sifatida belgiladi. U iqtisodiy tizimning dinamik rivojlanishiga kafolatlangan va haqiqiy o'sish sur'atining to'liq bandlik sharoitda teng bo'lgani holatida erishilishini ko'rsatadi.

Shunday qilib, tahlil jarayonida R.Xarrod, E.Domar bilan o'xshash natijalarga erishdi. Odatda ularning modeli yagona Xarrod-Domar modeliga birlashtiriladi. Uning mazmuni quyidagicha, ishlab chiqarishning berilgan texnik sharoitlarida iqtisodiy o'sish jamg'armaga chegaraviy moyillik miqdoriga bog'liq bo'ladi, iqtisodiy tizimdagi dinamik muvozanat o'z tabiatiga ko'ra beqaror va uni to'liq bandlik sharoitida ta'minlab turish uchun esa davlatning faol va maqsadli tadbirlari talab etiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Solov modelidan foydalanishning bir necha ko‘rinishlarini aytib bering?*
2. *Neoklassik o‘sish modellarini ayting?*
3. *Solov modelida kengaytirish tushunchasi va uning inson kapitali bilan bog‘liqligini ta’riflab bering?*
4. *Neoklassik modelning foydalilik darajasiga tarif bering?*
5. *Iqtisodiy o‘sish tempining istiqbollari ayting?*
6. *Davlatlar o‘rtasida daromadlarning taksimoti to‘g‘risida tushunchalarni izohlab bering?*
7. *Neoklassik modellardan Kobb-Duglas modelini tushuntirib bering?*
8. *Leontev modeli modelini tushuntirib bering?*
9. *R.Solou modeli modelini tushuntirib bering?*
10. *E. Domar modelini modelini tushuntirib bering?*
11. *R.F. Xarrod modelini modelini tushuntirib bering?*

Y BOB. FISKAL SIYOSAT

O'quv maqsadi: davlatning iqtisodiy o'sishga ta'siri va iqtisodiy o'sishga ta'minlovchisi sifatida, davlatning infratuzilmalarni ta'minlashi, kapital, qonunlar, ta'lim, sog'likni saqlash va kommunal xizmatlar, xususiy kapital samaradorligini oshirish rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish farqlari to'g'risida tushuncha, ularning mazmunini aniqlashga doir nazariy bilimlarni shakllantirishdan iborat

Tayanch iboralar: davlat budjeti, soliq, budget daromadlari, budget xarajatlari, fiskal siyosat, soliq yuki, budget jarayonlari, dikretsion fiskal siyosat, nodiskreion fiskal siyosat, boj, qo'shimcha qiymat solig'i

5.1. Davlat budjeti va uning tarkibi

Davlat iqtisodiyotni bilvosita tartibga solib turish uchun asosan ikkita muhim dastakdan foydalanadi: pul-kredit siyosati (yoki monetar siyosat) va soliq-budget siyosati (yoki fiskal siyosat). Fiskal siyosatni davlatning moliyaviy siyosati ham deb atashadi. Fiskal siyosat orqali davlat o'z daromadlarini shakllantiradi va xarajatlarni amalga oshiradi.

Davlat budjeti - davlat pul mablag'larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Davlat budjeti ikki asosiy qismdan - daromadlar va harajatlardan iborat.

Budget tizimi turli darajadagi budjetlar va budget mablag'lari oluvchilar yig'indisini, budjetlarni tashkil etishni va tuzish printsiplarini, budget jarayonida ular o'rtasida, shuningdek, budjetlar hamda budget mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasida Moliya vazirligi davlat fiskal siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun mas'ul vazirlik bo'lib hisoblanadi. U davlat

budjeti loyihasini tayyorlaydi, davlat budjeti mablag'larining tushumi va sarfi tartibini belgilaydi hamda ular ustidan nazoratni amalga oshiradi; respublika budjeti xarajatlarini amalga oshiradi; budjet mablag'lari oluvchilarning davlat budjeti mablag'laridan foydalanishini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni, shuningdek, umummajburiy tusdagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiladi.

Davlat budjeti daromadlarining asosiy manbalari. Quyidagilar davlat budjeti daromadlarining manbalari bo'lib hisoblanadi:

1. Soliqlar, yirimlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar.
2. Davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarini joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar.
- 3: Meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari.
4. Yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, xorijiy davlatlardan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari.
5. Rezident-Yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan budjet ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to'lovlar va boshqalar.

Odatda davlat budjetining daromadlar qismi asosan soliq tushumlari orqali shakllantiriladi. Soliqlar jamiyatning sinflarga bo'linishi, davlatning paydo bo'lishi va uning armiya, sud, mansabdorlar va davlatning boshkd boshqaruv vositalarini saqlab turish ehtiyojlarini qondirishi uchun manba sifatida yuzaga kelgan.

Davlat budjeti xarajatlarining tarkibi. Davlat budjeti xarajatlari quyidagi yo'nalishlarda sarflanadi:

1. Budjet mablag'lari oluvchilarning joriy xarajatlari.
2. Joriy budjet transfertlari.
3. Kapital xarajatlar.

- asosiy fondlar va vositalarni (ular bilan bog‘liq ishlar va xizmatlar ham shular jumlasiga kiradi) davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarish;
- chet elda davlat ehtiyojlari uchun yer va boshqa mol-mulk olish;
- davlat ehtiyojlari uchun erga bo‘lgan huquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni olish;
- davlat zahiralarini vujudga keltirish;

4. Kapital xarajatlarni qoplash uchun Yuridik shaxslarga beriladigan budjet transfertlari,

5. Rezident-Yuridik shaxslarga va xorijiy davlatlarga beriladigan budjet ssudalari;

6. Davlat maqsadli jamg‘armalariga beriladigan budjet dotatsiyalari va budjet ssudalari;

7. Davlat qarzini qaytarish va unga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha to‘lovlar va boshqa xarajatlar.

5.2. Soliqlarning asosiy funksiyalari

Davlatning jamiyat hisobiga yalpi ichki mahsulotning ma’lum bir qismini majburiy to‘lov sifatida olib qo‘yishi soliqlarning mohiyatini tashkil etadi. Davlat funksiyalarining kengayishiga muvofiq ravishda soliqlarning mavjud yalpi ichki mahsulotdagi (YAIM) ulushi ham oshib boradi. Soliqlar moliyaviy kategoriya sifatida YAIM ning qanday qismi davlat tasarrufiga kelib tushishini xarakterlaydi.

Soliqlar qayta taqsimlash munosabatlarining faol qatnashchisi sifatida kapital yig‘ishni kuchaytirish yoki kamaytirish, aholining to‘lovga qodirligini kengaytirish yoki kamaytirish orqali takror ishlab chiqarishning o‘sish sur‘atlarini rag‘batlantiradi yoki kamaytiradi va shu kabi dastaklar orqali butun takror ishlab chiqarish jarayoniga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Soliqlarning funksiyalari ularning mohiyatini, amaliyotda harakat qilayotganligini

ko'rsatadi. Shunday ekan, funktsiya doimo yashab, soliq mohiyatini ko'rsatib turishi zarur¹. Hozirgi vaqtda soliqlarning funksiyalari va ularning aniq soni borasida munozaralar mavjud.

Ammo, zamonaviy soliqqa tortish tizimida soliqlarning quyidagi funksiyalarini ajratib ko'rsatish mumkin: fiskal, taqsimot, nazorat, rag'batlantiruvchi, tartibga solish.

Soliqning fiskal funktsiyasi orqali soliqqa tortishning asosiy vazifasi, ya'ni davlat moliyaviy mablag'larining shakllanishi, shuningdek, davlatning umumdavlat va maqsadli dasturlarini amalga oshirish uchun mablag'larni jamg'arish vazifalari amalga oshiriladi. Soliq tushumlari davlat budjeta daromaddarining asosini tashkil qiladi. Masalan, AQSh da soliq tushumlari davlat budjeti daromadining 98% ini, Buyuk Britaniyada - 97%, Fransiya - 91 % ni tashkil etadi. Iqtisodiy hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IXDT) ga a'zo 24 davlatda soliq tushumlarining budjet daromadlaridagi ulushi 78% (Norvegiya) dan 97,8% (Italiya)² gacha tebranib turadi. MDX davlatlarida soliq tushumlarining davlat budjetidagi ulushi ko'rsatkichi Rossiyada - 82,7%, Ukrainada - 82,2%, Qozog'istonda - 97%, Belarus Respublikasida - 97,3%² ni tashkil etadi. O'zbekistan Respublikasida soliq tushumlari 2003 yilda jamlangan budjetga nisbatan 94% ni tashkil etdi.

Davlat o'z tasarrufiga ishlab chiqarilgan YAIM ning anchagina qismini solila tortish yo'li bilan oladi va qayta taqsimlaydi. Soliq tushumlarining ulushi (ijtimoiy fondlardagi to'lovlar bilan birgalikda) YAIM ga nisbatan AQSh da - 29%, Kanadada - 34%, Germaniyada - 41%, Fransiya - 43%, Shvetsiyada - 55%, Rossiyada - 24,3%, Qozog'istonda - 22,4%. Ukrainada - 23,0% va Belarus Respublikasida - 33,9% ni tashkil etadi. O'zbekistan Respublikasida 2003 yilda soliq tushumlari budjetdan tashqari fondlar (Pensiya fondi, Bandlikka

¹ Яхёев К.,А. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти. —Т.: Фан ва технологиялар маркази нашриёти, 2003. 14-6.

² Government Financial Statistics. IMF, 2001-2003

ko'maklashish fondi, Yo'l fondi) bilan birgalikda YAIM ga nisbatan 30,9% ni tashkil etdi.

Soliqlarning fiskal funksiyasi va taqsimlash funksiyalari uyg'unlashadi, desak hato qilmaymiz. Soliqlar to'g'risidagi darsliklarda qayd etilishicha, korxonalarning qo'shimcha qiymati yoki daromadlari avval taqsimlanadi, so'ngra budjetga beriladi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, avval ishlab chiqaruvchilarning manfaatlari ta'minlanadi va so'ngra daromadlarning bir qismi budjetga o'tkaziladi³³. Bundan tashqari, soliqlarning taqsimlovchilik funksiyasi aholining turli kategoriyalari o'rtasida umumiy daromadlarning qayta taqsimlanishini ta'minlashi nuqtai nazaridan ijtimoiy funksiyani ham bajaradi, degan qarashlar ham mavjud. Soliqqa tortish orqali "alohida ijtimoiy guruhlar o'rtasida tengsizlikni kamaytirish maqsadida ularning daromadlari bo'yicha o'zaro munosabatlarni o'zgartirish yo'li bilan ijtimoiy muvozanat qo'llab-quvvatlashga erishiladi". Boshqacha aytganda soliq yukining imkoniyati yuqori bo'lgan soliq to'lovchilarga ko'proq tushishi hisobidan fuqarolarning ijtimoiy yordamga muhtoj qismi foydasiga mablag'lar olinishi sodir bo'ladi. Shved iqtisodchisi Eklundning so'zlariga ko'ra: "davlat ishlab chiqarish va xizmatlarining katta qismi yig'ilgan soliqlar hisobidan moliyalashtiriladi va qolgan qismi fuqarolar o'rtasida taqsimlanadi. Bunga ta'lim, tibbiy xizmatlar, bolalarni tarbiyalash va shu kabi yo'nalishlar tegishlidir. Maqsad - hayotiy muhim vositalarni imkon qadar teng taqsimlanishiga erishish"⁴.

Fiskal-taqsimot funksiyasining amalga oshirilishiga aniq bir misol bu aksizlardir. Ular alohida turdagi tovarlarga, odatda juda qimmat turadigan va aholining boy qatlami o'ziga ravo ko'ra oladigan tovarlarga o'rnatiladi. Shuningdek, soliqqa tortishning progressiv mexanizmi ham bunga yaqqol

³ Яхёев К..А. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти. -Т.: Фан ва технологиялар маркази нашриёти, 2003. 15-6

⁴ Эклунд К. Эффективная экономика - шведская модель. /Пер. со швед. —М.: Экономика. 1991. стр.163.

misoldir. Iqtisodiyoti ijtimoiy yo'naltirilgan bir qancha mamlakatlarda (Shvetsiya, Norvegiya, Shveytariya) soliqlar aholining ko'p daromadli qismidan ijtimoiy barqarorlik uchun pastroq daromadga ega qismiga to'lov sifatida qabul qilinganligi deyarli rasmiy tan olingan.

Davlatning iqtisodiy rivojlanishida soliqlarning ushbu funksiyasining muhim rol o'ynashini ta'kidlash lozim. Bugungi kunda respublikamizda hududlarning iqtisodiy potentsiali va rivojlanish darajasi turlichadir. Hududlarni tenglashtirish maqsadida soliqlarning taqsimot vazifasidan foydalaniladi: kam rivojlangan hududlarda soliq tushumlari ushbu hududlar hisobida qoladi (masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm viloyati), o'z navbatida ularga nisbatan rivojlangan hududlar sifatida ayrim viloyatlarda soliq tushumlarining faqatgina ma'lum bir qismigina shu hududlar ehtiyojlari uchun qoldiriladi (Toshkent shaxri va viloyati, Buxoro, Qashqadaryo, Fapg'ona va Navoiy viloyatlari).

Soliqlar orqali davlat yaxshi va korxonalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati, shuningdek, daromad va xarajatlarning manbalari ustidan nazorat qiladi. Soliq so'mmasini pul ko'rinishida baholashning mavjudligi davlatning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini daromadlar ko'rsatkichlari bilan miqdoriy qiyoslash mumkinligi imkonini beradi. Soliqlarning nazorat funksiyasini amalga oshirish natijasida soliq tizimining samaradorligi baholanadi, faoliyat turlari va moliyaviy oqimlar ustidan nazorat o'rnatiladi. Bundan tashqari soliqqa tortishning nazorat funksiyasi orqali soliq tizimi va budjet siyosatida o'zgartirishlar kiritishning zarurligi aniqlanadi.

Soliqlar va yig'imlar tizimi ijtimoiy ishlab chiqarishga uning tarkibiy tuzilishiga va dinamikasiga, joylashishiga, ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga iqtisodiy ta'sir ko'rsatuvchi mexanizm bo'lib ham xizmat qiladi. Soliqlar yordamida tadbirkorlar faoliyatini rag'batlantirish yoki aksincha, cheklab qo'yish va demak, tadbirkorlik faoliyatining u yoki bu tarmog'i

rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin⁵. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va jahon bozorida milliy korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish uchun shart-sharoit yaratishda ham soliqlarning rag'batlantirish funksiyasi muhim rol uynaydi. Soliqlar yordamida erkin tovar bozori yoki proteksionistik iqtisodiy siyosatni amalga oshirish mumkin. Deyarli barcha mamlakatlarda ishlab chiqarishni taraqqiy ettirish va zamonaviylashtirish uchun ma'lum bir hududlarda investitsiyani rag'batlantirish siyosati soliqlar orqali amalga oshiriladi. 80-yillarning ikkinchi yarmiga kelib ko'plab mamlakatlarda yangi yuqori texnologiyali ishlab "chiqarishni rag'batlantirish usulini qo'llash keng tarqaldi.

A.Smit, D.Rikardo va ularning izdoshlari tomonidan ishlab chiqilgan soliqlarning klassik nazariyasi (soliqlarning neytraliteta nazariyasi)ga muvofiq, soliqlar xukumatni ta'minlashga kerak bo'ladigan xarajatlarini qoplashi lozim bo'lgan davlat daromadlarining bir turidir. Bunda soliqlarning boshqa rollar bajarishi (iqtisodiyotni boshqarish xizmatlarga haq va boshqalar) haqida keng fikr yuritilmagan. A.Smit bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning (davlat mulkidan keladigan) bevosita daromadlari ulushi tabiiy kamayadi, davlat boshqaruv xarajatlarini qoplashning asosiy manbai soliq tushumlari bo'lishi shart deb hisoblagan. Boshqa xarajatlarni, masalan yo'llarni ko'rish va saqlash, sud muassasalarini saqlash va boshqalarni moliyalashtirish bo'yicha xarajatlar manfaatdor fuqarolar tomonidan to'lanadigan tushumlar va yig'imga hisobidan qoplanishi kerak⁶. Franquz olimi Pol Mari Godme fikricha, soliqlarning yagona maqsadi - davlat xarajatlarini moliyalashtirish va xazinalarni ta'minlashdir⁷.

Keyinchalik neoklassik nazariya vakillari soliqlarni boshqaruvchilik ahamiyatini ko'rsatib berishdi. Ularning fikricha, iqtisodiy jarayonlarni buzilishidan kutulish uchun bir ishlab chiqarish sohasidagi qulaylik boshqasiga noqulaylik to'g'irdimasligi lozimligini o'qtirishdi.

⁵ Маликов Т.С. Солиқлар ва солиққа тортишнинг долзарб масалалари. -Т.: Академия, 2002. 53-6

⁶ Булатов А. Экономика. - М.: Бек, 1994. стр.310.

⁷ Годме.П.М. Финансовое право. - М.: Прогресс, 1978. стр.385

Klassik iqtisodiyotdagi qarashlarga ingliz iqtisodchisi D.Keyns va uning izdoshlari tomonidan ishlab chiqilgan keynschilik nazariyasi qarshi chiqdi. Ushbu nazariyaning markaziy fikricha, soliqlar iqtisodiyotni boshqarishni bosh dastagi hisoblanadi va uning muvaffaqiyatli rivojlanishining muhim komponentlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, soliqlarning eng muhim funksiyasi bu iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishdir⁸. Keynsning mashhur "Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" kitobida iqtisodiy o'sish faqat to'lik, bandlik sharoitida pul jamg'armalariga bog'liq, deb ko'rsatib o'tilgan. Biroq, amaliyotda to'liq bandlikka erishib bo'lmaydi. Bunday sharoitda katta jamg'armalar iqtisodiy o'sishga xalaqit beradi, chunki ular ishlab chiqarishga qo'yilmaydi va daromadlarning passiv manbasiga aylanishadi.

Bunday salbiy oqibatlarni bartaraf etish uchun ortiqcha pul jamg'armalari soliqlar yordamida olinishi zarurdir.

Bugungi kunda iqtisodiyotda soliqlarning ahamiyati juda katta ekanligi barcha zamonaviy iqtisodiy nazariya vakillari tomonidan e'tirof etiladi. 80-yillarda taklif iqtisodiyoti nazariyasi (Supply side economy) ni ilgari surgan amerikalik olimlar M.Berne, G.Stayn va A.Lafferlar soliqlar to'g'risidagi keynschilik nazariyasi qarashlarini rivojlantirib, soliqlarni iqtisodiyotni boshqarish va rivojlantirishning muhim omili ekanligi haqidagi fikrlarni qo'llab-quvvatlashadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, yuqori soliq solish tadbirkorlik va investitsion faoliyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi, oxir oqibatda soliq to'lovlarini kamayishiga olib keladi. Shuning uchun, soliq stavkasini kamaytirishni va Korporatsiyalarga turli xil imtiyozlar berish taklif qilinadi. Soliq yukining kamaytirilishi mazkur nazariya mualliflarining fikricha, iqtisodiyotning jadal sur'atlar bilan o'sishiga olib keladi⁹.

MDH davlatlarida 10 yil mobaynidagi iqtisodiy o'zgarishlar va bozor

⁸ Кейнс.Д.М. Общая теория занятости, процента и денег. - МЛ: Гелиос АРВ, 2002. стр.94-95.

⁹ Булатов А. Экономика. -М.: Бек, 1994. стр.310.

munosabatlariga o'tish jarayonida iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishda bozor instrumentlaridan foydalanish bo'yicha ma'lum tajriba orttirildi. Bozor munosabatlariga o'tish hamdo'stlik davlatlarvdan o'z mustaqil soliq tizimiga ega bo'lishni talab etdi. Soliq tizimini yaratish zaruriyati hamda bunda davlatlarning tajribasizligi natijasida bu tizimlar amalda eksperiment va kamchiliklar orqali yaratildi. Ko'p hollarda milliy iqtisodiyotga chet el soliq tizimining elementlarini mexanik ravishda kiritish ham kuzatildi. Bozor munosabatlariga o'tish hali yakunlanmagan va tuzilmaviy o'zgarishlar jarayonlari davom etayotgan paytda bu mamlakatlarda soliq tizimlarini shakllanib bo'lgan deyishga hali vaqt bor.

Dikretsion va nodiskreçion fiskal siyosat. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan fiskal siyosat odatda ikki yo'nalishda bo'ladi: diskreçion fiskal siyosat va nodiskreçion fiskal siyosat. Diskreçion fiskal siyosatda xukumatning maxsus qarorlari natijasida davlat xarajatlari, soliqlar va davlat budjeti qoldig'i miqdorining maqsadli o'zgarishi amalga oshiriladi. Bu qarorlar iqtisodiyotdagi bandlik darajasi, ishlab chiqarish hajmi va inflyatsiya sur'atlarini o'zgartirishga qaratilgan bo'ladi.

Nodiskreçion fiskal siyosatda davlat xarajatlari, soliqlar va davlat budjeti qoldig'ining avtomatik ravishda o'zgarishi ro'y beradi. Bu o'zgarishlar "avtomatik stabilizatorlar" harakati ta'sirida jami daromadning davriy tebranishlari natijasida paydo bo'ladi.

"Avtomatik stabilizator" - bu mexanizm davlat tomonidan maxsus choralarni qo'llamasdan avtomatik ravishda iqtisodiyotdagi davriy tebranishlarni silliqlashga imkoniyat beradi. Masalan, soliq solishning progressiv shkalasi, transfertlar tizimi, ishsizlik bo'yicha nafaqalar va boshqalar.

5.3. O'zbekistonda iqtisodiyotni soliqlar yordamida tartibga solib turilishining xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganining birinchi yillarida

solix siyosatining vazifalari sobiq sovet davridan meros bo‘lib qolgan hududlar xo‘jalik mexanizmlarining balanslashtirilmagan sharoitlari, yuqori inflyatsiya va mamlakatning qiyin moliyaviy va iqtisodiy holatidan kelib chiqib belgilandi. Davlat budjeti taqchilligini kamaytirish, aholini ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan xarajatlarni moliyalashtirish uchun manbalar qidirib topish va iqtisodiyotning ishlab chiqarish bazalarini yangilash va zamonaviylashtirishning ustuvor vazifalarini bajarish solix siyosati instrumentlaridan samarali foydalanishni zarur qilib qo‘ydi. Shu maqsadda, 1992-1997 yillar davomida solix solish tizimini shakllantirish va takomillashtirish bo‘yicha ishlar davlat budjetining samarali va barqaror daromad bazasini yaratishga yo‘naltirilgan edi.

O‘zbekiston solix tizimi umumdavlat solixlaridan (ularning asosiylari - foyda solig‘i, daromad solig‘i, qo‘shilgan klimat solig‘i (QQS) va aksizlar), mahalliy solixlar va yig‘imlar hamda budjetdan tashqari fondlarga ajratmalardan tashkil topgan. Umumdavlat solixlari davlat budjetining daromadlar qismining asosiy qismini tashkil qiladi va bundan tashqari ular yordamida mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligi ham ta‘minlanadi.

Asosiy solixlardan biri QQS 1992 yilda 30 foizli stavka bo‘yicha kiritilishi natijasida sotish va oborot solig‘i bekor qilindi. Keyinchalik QQS stavkasi bir necha marta ko‘rib chiqildi, u 1994 yildan 20 foizga, 1995 yilda 18 foizgacha va 1997 yilga kelib 17 foizgacha kamaytirildi. 1998 yildan QQS 20 foizli stavka bo‘yicha to‘lanmoqda.

Yuridik shaxslarga daromad (foйда) solig‘i QQS bilan bir vaqtda kiritildi va stavkalari 12 foizdan 30 foizgacha oralig‘ida belgilandi. Bunda solix stavkasi iqtisodiy tarmoqlar bo‘yicha differenziya qilinib, solix foydadan emas, balki yalpi daromaddan olingan. Solix solinadigan bazaga QQS respublika hududidan tashqariga olib chiqib ketilayotgan mahsulotlarga to‘lanadigan

xomashyo resurslari solig'i, aksizlar, sug'urta badallari va boshqa to'lovlar kiritilmagan. 1995 yilning boshidan daromad (foyda) solig'i 38 foiz asosiy stavkada bir qator kamaytirilgan koeffisientlar qo'llanilgan holda amalga kiritildi. Shu bilan birga banklar, sug'urta tashkilotlari, videosalonlar, auksionlar va boshqa kategoriyadagi soliq to'lovchilar uchun daromad solig'i saqlab qolindi.

Asosiy soliqlardan biri bo'lgan aksiz solig'i ham 1992 yil kiritilgan va boshlang'ich hollarda aksiz solig'ining so'mmasi aksiz osti tovarlarining natural yoki sotilgan qiymat ko'rsatkichidan kelib chiqib aniqlangan. 1993 yil noyabridan boshlab soliq so'mmasi korxonaning chiqarish qiymati, ya'ni o'z ichiga ishlab chiqarish xarajatlari, foyda va o'rnatilgan stavka bo'yicha olinadigan aksiz» solig'i so'mmasini o'z ichiga olgan qiymatidan aniqlanadi.

1998 yilning 1 yanvaridan kuchga kirgan Soliq Kodeksi soliq siyosatining asosiy masalalari: soliq turlari va stavkalari, umumdavlat va mahalliy soliqlar klassifikatsiyam, soliqqa tortish metodologiyasi asoslari va boshqa umumiy iqtisodiy masalalar aniq ravshan ko'rsatib berilishiga qaratilgan muhim qadam bo'ldi. Natijada respublika xalqaro ekspertizadan o'tgan zamonaviy soliq siyosatining barqaror huquqiy poydevoriga ega bo'ldi. Soliq Kodeksi mahalliy va chet el tovar ishlab chiqaruvchilari hamda investorlari uchun kafolatlar va imtiyozlarning keng tizimlarini yaxlit tizim sifatida birlashtirdi.

Ma'lumki, xarajatlar va soliqlarning yo'nalishlari va miqyosi ko'p jihatdan iqtisodiyotning, jumladan, har bir soliq tolovchining bundan keyingi rivojlanishi va moliyaviy barqarorligini belgilab beradi. Davlat budjetining o'ziga xos bir tomoni mavjud, bu ham bo'lsa soliq-budjet siyosati nafaqat davlat daromad bazasini oqilona shakllantirish va olingan mablag'ni to'g'ri taqsimlash, balki jamiyatda makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash qurolidir. Boshqacha so'z

bilan aytganda, mamlakatning markaziy iqtisodiy organlari uchun, shu jumladan, Moliya vazirligi uchun ularning iqtisodiy tadbirlari makroiqtisodiy barqarorlikni, inflyatsiyaning past darajasini saqlashni, iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini va aholining optimal bandligini ta'minlashi shart, degan barcha tomonidan tan olingan qoidasi bor.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyingi birinchi darajali vazifalardan biri sifatida mustaqil davlatning milliy soliq tizimini shakllantirish vazifasi qo'yildi. Kuchli iqtisodiyotni barpo etish va mamlakatning ustuvor yo'nalishlaridagi islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda davlat budjetini barqaror manbalar bilan to'ldirishni talab etishi aksioma edi.

Soliq siyosatining muhim vazifalari haqida Prezident I.Karimov shunday degan: "Soliq siyosatining vazifasi - bir tomondan, budjet daromadining barqaror safarbarligini ta'minlashdan, ikkinchi tomondan - korxonalarni respublika uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirishdan iborat"¹⁰.

Soliq yuki. Soliq yuki soliq to'lovlarining absolyut qiymati va nisbiy qiymatlarini xarakterlaydigan iqtisodiy tushunchadir. Soliq yukini xususiy soliq yuki, ya'ni alohida olingan soliq yuki sifatida yoki umumiy, ya'ni barcha soliq to'lovlari yuki sifatida qarash mumkin. Absolyut soliq yuki qiyosiy tahlillarda kam ishlatilganligi sababli nisbiy soliq yukini soliq yuki ko'rsatkichi sifatida qarashni taklif etamiz.

Odatda milliy iqtisodiyotdagi soliq yuki sifatida jamlangan budjet daromadining YAIM dagi ulushini qarashadi. Xaqiqatan ham, bu ko'rsatkich soliq yukini aks ettiradi, chunki ko'pchilik davlatlarda jamlangan budjet daromadlarining asosini soliq tushumlari tashkil etadi. Bizning fikrimizcha, soliq yukini jamlangan budjetga to'lanayotgan barcha soliqlar hajmining YAIM dagi

¹⁰ Каримов.И.А. Узбекистон буюк келажак сари. —Т.: Узбекистон, 1998. 52-6.

ulushi kabi aniqlash yanada to'g'riroq bo'ladi. Bunda jamlangan budjetning soliqsiz tushumlari chegirib tashlanishi lozim.

Respublikamizda soliq tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan dastlabki islohotlardayoq iqtisodiyotdagi soliq yukini kamaytirish muhim ekanligi ta'kidlanib kelingan. Muhim ahamiyat kasb etuvchi soliqlar bo'yicha soliq yukini kamaytirilishini muntazam ravishda amalga oshirilishi soliqlarning rag'batlantiruvchi mexanizmini kuchaytirishga qaratilgan. Korxonalar uchun daromad (fonda) solig'i stavkasi 1996 yildagi 37 foizdan 2017 yilga kelib 10 foizga, jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqning yuqori chegarasi 1999 yiddagi 45 foizdan 12 foizga kamaytirildi. Kichik korxonalar uchun soliq solishning engillashgan tartibi, qishloq xo'jaligi korxonalari uchun esa yagona er solig'i kiritilgan.

Soliq tizimini engillashtirish va optimallashtirish bo'yicha tadbirlar natijasida soliq yukini (jamlangan budjet daromadlarining YAIM dagi ulushi) 1996 yiddagi 45 foizdan 2017 yilda 12 foizgacha kamaytirishga erishiddi. Davlat budjetining soliq daromadlari tuzilishida bevosita soliqlar ulushi kamaygan bir vaqtning o'zida bilvosita soliqlar va resurs soliqlarining ulushi oshirildi. Umuman olganda, soliq tizimidagi islohotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish vazifasi hamda budjetni mablag' bilan ta'minlash vazifalarini uyg'unlashtirgan. Shu bilan birga iqtisodiy o'sishda yuqori darajaga erishishi vazifasi o'z navbatida iste'mol talabini oshishini talab qiladi, bu esa barcha soliqlar va majburiy to'lovlar to'langandan keyin qoladigan pul daromadlarining mos ravishda o'sishini talab qiladi. Shuning uchun, moliyaviy rag'batlantirish tizimini rivojlantirish va Yuridik hamda jismoniy shaxslar daromadlarini jadal sur'atlar bilan o'sishini ta'minlash uchun sharoit yaratish soliq siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib qolaveradi.

Aytib o'tish kerakki, rag'batlantiruvchi soliq siyosati ishlab chiqarish

sektori rivojlanishida zarur bo'lgan moliyaviy xizmatlar va bank bozorini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. 1994-1997 yillarda respublikaning tijorat banklari daromad solig'idan ozod etilishi hisobidan o'zining moddiy-texnika bazasini sezilarli mustahkamlab oldi va o'zining infratuzilmasini rivojlantirdi. Soliq Kodeksiga muvofiq yangidan tuzilgan xususiy tijorat banklarining infratuzilmasini rivojlantirishga va moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltiriladigan daromad (foyda)lari ham soliqdan ozod etiladi.

Xulosa qilib aytmoqchi bo'lsak, soliqlar iqtisodiyotda muhim funksiyalarni va vazifalarni bajaradi. Soliq tushumlari muhim makroiqtisodiy va mikroiktisodiy jarayonlar ko'lamini va ulardagi rivojlanish sur'atlariga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan, moliyaviy oqimlarni boshqarishda davlatning muhim instrumenta hisoblanadigan davlat budjetini mablag' bilan ta'minlaydi.

Mavjud makroiqtisodiy va mikroiktisodiy sharoitlar esa soliq siyosatining, shuning bilan birga budjet siyosatining ham imkoniyatlari va chegaralarini belgilab beradi. Shuning uchun ham iqtisodiyoti o'tish davrini boshidan kechirayotgan bizning respublikamizda esa soliq-budjet siyosatini ishlab chiqishda va uni amalga oshirishda balanslashgan yondashuv juda muhimdir. Soliq siyosati maqsadlari va imkoniyatlari o'rtasidagi oqilona balansning mavjud bo'lishi budjetning barqaror faoliyat ko'rsatishining, pirovardida esa uzoq muddatli va barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy shartidir.

Budjet taqchilligi va uni moliyalashtirish manbalari. Budjet taqchilligi - muayyan davrda budjet xarajatlarining budjet daromadlaridan ortiq bo'lgan so'mmasi.

Budjet taqchilligi manbalari asosan ikki guruhga bo'linadi: Noinflyatsion va Noinflyatsion manbalar.

Noinflyatsion manbalarga Markaziy bank tomonidan pul emissiyasini amalga oshirish, Markaziy bankda tijorat banklari tomonidan beriladigan

qarzlarni kiradi.

Noinflyatsion manbalarga ichki va tashqi zayomlar, to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari, oltin-valyuta zahiralarining bir qismini sotish, davlat mulkini xususiylashtirishdan olingan mablag'lar kiradi.

O'zbekistonda 2002 yildan boshlab davlat budjetini Noinflyatsion manbalar yordamida moliyalashtirish amalga oshirilmayapti.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Iqtisodiyotda davlatning fiskal siyosati deganda nimani tushunasiz?*
2. *Kapitalning xalqaro oqimiga daromadning ta'sirini izohlab bering?*
3. *O'zgaruvchan valyuta kursida ichki va tashqi balans deganda nimani tushunasiz?*
4. *O'zgaruvchan valyuta kursida kapitalning turlicha xarakatchanligida pul-kredit soliq siyosatini tushuntirib bering?*
5. *Milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash yo'llarini ayting?*
6. *Budjet tizimi, budjet jarayonlari, budjet ijrosini ta'minlash tushunchalariga izoh bering?*
7. *Ijtimoiy siyosatni moliyaviy ta'minlash yo'llarini ayting?*
8. *Budjet va soliq islohotlarni chuqurlashtirish hamda soliq yukini kamaytirish yo'llarini ayting?*

YI BOB. O‘SISH DVIGATELI

O‘quv maqsadi: iqtisodiy o‘shining aniq texnologik modellari va g‘oyalari, ilg‘or mamlakatlardagi texnologiyalar Boshqa bir davlatlarga nisbatan 2-3 yilga ilgarilab ketgan texnologik rivojlanishlarining nazariyalari, iqtisodiy o‘shining endogen nazariyasi, endogen va ekzogen omillar, texnologik jarayon asosida iqtisodiy kuchlarni hisobga olishning mazmunini aniqlashga doir nazariy bilimlarni shakllantirishdan iborat

Tayanch iboralar: iqtisodiy o‘sh, texnologik model, endogen, ekzogen, daromad, xarajat, g‘oya, intellektual mulk, kapital, texnologiya, model, patent, raqobat, yalpi milliy mahsulot (YAMM), yalpi ichki mahsulot (YAIM), milliy daromad (MD), davlat budjeti, deflyator, baholari indeksi, inflyatsiya, ishsizlik

6.1. Iqtisodiy rivojlanish omillari tasnifi

Iqtisodchi olimlarning iqtisodiy o‘sh omillarini o‘rganish hamda uning kelgusidagi natijalarini bashorat qilish borasidagi tadqiqotlari pirovardida turli iqtisodiy o‘sh modellarining yaratilishiga olib keldi. Bu modellar o‘z mazmuniga ko‘ra bir-birlaridan farqlansada, ularning asosida ikkita nazariya – makroiqtisodiy muvozanatning keynscha (keyinchalik neokeynscha) nazariyasi hamda ishlab chiqarishning klassik (keyinchalik neoklassik) nazariyasi yotadi.

Iqtisodiy o‘shni tahlil qilishda neoklassik nazariya namoyondalari quyidagi noto‘g‘ri nazariy shartlarga asoslanadilar:

1. mahsulotning qiymati barcha ishlab chiqarish omillari tomonidan yaratiladi;
2. ishlab chiqarish omillarining har biri o‘zining keyingi qo‘shilgan mahsulotiga tegishli ravishda mahsulot qiymatini yaratishga xissasini qo‘shadi. Shunga ko‘ra, bunga javoban barcha keyingi qo‘shilgan mahsulotga teng keluvchi daromad ham oladi;
3. mahsulot ishlab chiqarish va buning uchun zarur bo‘lgan resurslar o‘rtasida miqdoriy bog‘liqlik mavjud;
4. ishlab chiqarish omillarining erkin tarzda amal qilishi hamda ular o‘rtasida o‘zaro bir-birining o‘rnini bosish imkoniyati mavjud.

Biz oldingi boblarda aytganimizdek, neoklassik va boshqa ayrim yo‘nalishdagi nazariyotchilar bu yerda ham ikkita uslubiy xatoga yo‘l qo‘yadilar:

1. ular ishlab chiqarish omillarining barchasi bir xil qiymat yaratadi, ular qiymatni yaratishda baravar ishtirok etadi, deb hisoblaydilar. Xolbuki, barcha ishlab chiqarish vositalari hech qanday yangi qiymat yaratmaydilar, balki o‘zlarining qiymatlariga teng miqdordagi qiymatni jonli mehnat yordamida yangi yaratilgan mahsulotga o‘tkazadilar. Lekin barcha omillar yaratilgan va o‘sgan (ko‘paygan) mahsulotning nafliligini yaratishda qatnashadilar;
2. ular doimo barcha omillar ichida jonli mehnatning faol rol o‘ynashini, qolganlari esa passiv rol o‘ynashini unutadilar. Chunki hech bir tabiiy resurs, kapital resurlari jonli mehnat tomonidan harakatga keltirilmasa, o‘zicha harakatga kela olmasligi, irib-chirib o‘z joyida ham jismonan, ham qiymati yo‘q bo‘lib ketishi, ularning qiymati faqat jonli mehnat tomonidan saqlab qolinishi million yillardan beri milliard martalab tasdiqlanib kelmoqda. Lekin negadir ularning bunga e‘tibor bergisi kelmaydi.

Neoklassik model ko‘p omilli hisoblanib, amerikalik iqtisodchi P.Duglas va matematik Ch.Kobb yaratgan ishlab chiqarish funksiyasi asos qilib olingan. Kobb-Duglas modeli orqali ishlab chiqarish hajmining o‘shishida ishlab chiqarish turli omillarining ulushini aniqlashga harakat qilinib, u quyidagicha ifodalanadi:

bu yerda:

Y – ishlab chiqarish hajmi;

K – kapital sarflari;

L – ishchi kuchi sarflari;

A, α, β - ishlab chiqarish funksiyasining koeffitsientlari:

A – mutanosiblik koeffitsienti;

α va β - ishlab chiqarish hajmining ishchi kuchi va kapital sarflari bo‘yicha elastiklik koeffitsienti.

Elastiklik koeffitsienti bir ko‘rsatkich miqdorining o‘zgarishi natijasida boshqa bir ko‘rsatkich miqdorining o‘zgarishi darajasini ifodalaydi. Shunga ko‘ra, α

koeffitsienti kapital sarflarining 1%ga o'sishi ishlab chiqarish hajmining necha foizga o'sishini, β koeffitsienti esa ishchi kuchi sarflarining 1%ga o'sishi ishlab chiqarish hajmining necha foizga o'sishini ko'rsatadi. α va β ning yig'indisi ishchi kuchi va kapital sarflarining bir vaqtning o'zida 1%ga o'sishi ishlab chiqarish hajmining necha foizga o'sishini ko'rsatadi.

Ch.Kobb va P.Duglas o'z tadqiqotlarida AQSh qayta ishlash sanoatining 1899-1922 yillar mobaynidagi ish faoliyatini tahlil qilib, ishlab chiqarish funksiyasining ko'rsatkichlarini aniqlashga harakat qilganlar:

Bu ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, o'sha davrda AQSh qayta ishlash sanoatida kapital sarflarining 1%ga oshirilishi ishlab chiqarish hajmini 0,25%ga, ishchi kuchi sarflarining 1%ga oshirilishi esa ishlab chiqarish hajmini 0,75% ga oshishiga olib kelar ekan.

Keyinchalik Kobb-Duglasning ishlab chiqarish funksiyasini golland iqtisodchisi YAn Tinbergen yanada takomillashtirib, unga yangi omil – texnika taraqqiyoti ko'rsatkichini kiritdi. Natijada ishlab chiqarish funksiyasi formulasi quyidagi ko'rinishni oldi:

bu yerda: e^{rt} – vaqt omili.

Ishlab chiqarish funksiyasiga vaqt omilining kiritilishi endilikda nafaqat miqdor, balki «texnika taraqqiyoti» atamasi orqali uyg'unlashuvchi sifat o'zgarishlari – ishchi kuchi malakasining o'sishi, innovatsiya jarayonlarining kuchayishi, ishlab chiqarishni tashkil etishning takomillashuvi, jamiyat miqyosida ma'lumotlilik darajasining oshishi va boshqalarni ham aks ettirish imkonini berdi.

Iqtisodiy o'sishning keynscha modeli makroiqtisodiy muvozanatning keynscha nazariyasini rivojlantirish va unga tanqidiy yondoshish natijasida vujudga kelgan. Bu modellar orasida ingliz olimi R.Xarrod va amerikalik olim E.Domarning iqtisodiy o'sish modellari e'tiborga molik hisoblanadi. Har ikkala modelning umumiy jihatlari mavjud bo'lib, ular quyidagilar orqali shartlanadi:

1) ular neoklassik modellardan farqli o'laroq bir omilli model hisoblanadi. Ya'ni bu modellarda milliy daromadning o'sishi faqat kapital jamg'arishning funksiyasi

hisoblanib, kapital samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi ishchi kuchi bandligining oshishi, FTT yutuqlaridan foydalanish darajasining o'sishi, ishlab chiqarishni tashkil etishning yaxshilanishi kabi boshqa barcha omillar nazardan chetda qoldiriladi; 2) ishlab chiqarishning kapital sig'imi ishlab chiqarish omillari narxlarining nisbatiga bog'liq bo'lmay, faqat ishlab chiqarishning texnik sharoitlari orqali aniqlanadi.

Neokeynscha modelda investitsiyalarning o'sishi iqtisodiy o'sish va uning sur'atlarini belgilovchi omil hisoblanib, u bir tomondan, milliy daromadning o'sishiga imkon yaratadi, ikkinchi tomondan esa, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytiradi. O'z navbatida daromadning o'sishi bandlikning oshishiga imkon yaratadi. Investitsiya hajmining ko'payishi natijasida kengaygan ishlab chiqarish quvvatlari daromadning o'sishi orqali to'liq ishga tushirilishi lozim.

Shunga ko'ra, E.Domarning modelida quyidagi tenglik orqali muvozanatning ta'minlanishi shart qilib qo'yiladi.

Jahonda kechayotgan globallashuv va integratsiya sharoitida iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillarini ekonometrik usullar va kompyuter texnologiyalari yordamida o'rganish, tadqiq qilish va ularni ilmiy asosda miqdoriy baholash zarur hisoblanadi. Umuman, bular, nafaqat butun iqtisodiyotning rivojlanishini tartibga solishda, balki tarmoqlar, birlashmalar va korxonalar rivojlanish ko'rsatkichlarining tahlilida, ular uchun uzoq muddatli prognozlar tuzishda ham e'tiborga olinishi mumkin.

Iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillarini, talab va taklif tomon omillari, kabi guruhlash asosiysidir. Umuman, talab va taklif omillari o'zaro bog'liqdir. Jami talab oshsa va qo'shimcha resurslardan samarali foydalaniladigan bo'lsa, ishlab chiqarish potensialining, taklifning oshishi kuzatiladi. Jami talab miqdori, uning o'zgarishlari va taqsimlash va iste'mol mexanizmining takomillashishi eng muhim omildir, lekin bu qanchalik muhim bo'lmasin, uzoq muddat qaralganda, iqtisodiy o'sish natijalari, taklif va ishlab chiqarish tomondagi omillar (xususan, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, inson salohiyati omili, intensiv omillar, 1-jadval) bilan belgilanadi. Shuningdek,

tadbirkorlik, ishbilarmonlik, xususan, boshqaruv qobiliyatining, umummilliy ma'naviy-ruhiy muhitning ham roli beqiyosdir.

Milliy iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ifodalovchi mezon va ko'rsatkichlarni aniq bilish, ularning qaysi omillarga va qanday bog'liqliqda ekanligini aniq tasavvur qilish ham o'ta muhimdir. Iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini, aslida, ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlardan birginasi emas, ularning kompleksi bo'yicha baholash mumkin.

6.1.1-jadval

Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar majmuasi

Miqdoriy xarakteristikaga ega omillar	Sifat omillari	Shartli (ballarda) baholanadigan omillar
Asosiy (birinchi darajali) omillar	Ikkinchi darajali omillar	Tasodifiy omillar
Bevosita kuzatiladigan (o'lchanadigan) omillar	Bevosita kuzatilmaydigan (o'lchanmaydigan) omillar	
Murakkab (kompleks) omillar	Oddiy (birlamchi) omillar	
Ichki omillar	Tashqi omillar	
Juda chuqur yashirin (yuqori tartibli) omillar	YAshirin (2-tartibli latent) omillar	YUzaki ko'zga tashlanadigan (1-tartibli) omillar
Rostlanuvchi (boshqariluvchi) Omillar	Qisman rostlanuvchi omillar	Tartibga solinmaydigan omillar
Qisqa muddatli	O'rta muddatli	Uzoq muddatli ta'sirlar
Talab tomon omillari		Taklif tomon omillari
Iqtisodiy rivojlanishni bevosita tezlashtiruvchi omillar	Iqtisodiy rivojlanishga bilvosita ijobiy ta'sir etuvchi omillar	Iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiruvchi omillar (unga tahdidlar va xavflar)
Intensiv omillar	Ekstensiv omillar	Sintetik omillar
Iqtisodiy-ijtimoiy	Ilmiy-texnikaviy	Ma'naviy, ruhiy, axloqiy, siyosiy, ekologik, tabiiy-geografik tarzdagi va hokazo.

Barqaror iqtisodiy rivojlanishning va makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat:

- aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YAIM), milliy daromad (MD) ning qator yillar davomida o'sishi (YAIM, MD o'sishi aholi o'sishidan yuqoriligi);

- aholi real daromadlarining o'sishi;
- aholi daromadlarida jamg'armalar ulushining ortishi;
- inflyatsiya darajasining tabiiy minimumi;
- ishsizlik darajasining tabiiy minimumi;
- davlat budjeti kamomadi minimumi;
- joriy to'lov hisobi balansi kamomadi;
- tashqi va ichki qarzlar (barqarorlikka xavfsiz chegaradan oshmasligi);
- samaradorlik ko'rsatkichlarining yaxshilanishi (xususan, YAIMda energiya sig'imi ko'rsatkichining kamayishi; sanoat mahsulotlari material sig'iminining kamayishi; qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligining oshishi; mehnat unumdorligining o'sishi; ishlab chiqarish rentabelligining oshishi; eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushining oshishi).

Bular orasidan eng asosiysi, ya'ni eng asosiy makromaqsad: ishsizlik va inflyatsiyaning tabiiy minimumida maksimal iqtisodiy rivojlanishga (aholi turmush darajasining maksimumiga) erishishdir. Albatta, qolganlari ham, muhim, o'ta zaruriy shartlardir. Shunday ekan, aynan ushbu makromaqsad bilan, shunday barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sish bilan bog'liq muammolar va ko'rsatkichlar asosiy hisoblanishi va aynan shularni o'rganish, shularga e'tiborni qaratish muhimdir.

Ma'lumki, BMT tomonidan iqtisodiy o'sishning va turmush darajasining asosiy indikatori sifatida jon boshiga yalpi mahsulot (YAIM) yoki milliy daromad ko'rsatkichi tavsiya etilgan. YAIMning o'sishi to'g'ridan-to'g'ri aholining turmush darajasiga ta'sir qiladi. YAIMning o'sish sur'ati (dQ/Q) aholining o'sish sur'atidan (dL/L) qancha yuqori bo'lsa, uning turmush darajasi ham shuncha yuqori darajada o'sadi. Demak, bularni, iqtisodiy aksioma sifatida qabul qilib, sanalgan va quyida yana aniqlanadigan mezon va ko'rsatkichlarni ham e'tiborga olishimiz zarur. Boshqa tomondan, YAIMning o'sishi, o'sib borayotgan aholini ish bilan ta'minlashda ham muhimdir. Shuning uchun ham, har bir mamlakatda davlat organlari iqtisodiy o'sishga o'z e'tiborini qaratadi va u davlatning iqtisodiy siyosatida muhim o'rin tutadi.

Iqtisodiy rivojlanishning birlamchi manbasi - bu mamlakatdagi ishlab chiqarish omillari va resurslarning miqdori hamda sifatidir.

Asosiy ishlab chiqarish omillari quyidagilardan iborat:

- kapital - binolar, inshootlar, jihozlar, uskunalar, texnologik liniyalar va h.k.;
- mehnat - malakali va malakasiz mehnat, boshqaruv mehnati; hozirgi sharoitda tadbirkorlik qobiliyatiga ega bo'lgan o'ziga xos mehnat resurslarini ham alohida ajratish muhim;
- axborotlar - ayniqsa, bozor segmentlari va talab bo'yicha, tovarlarning narxлари bo'yicha axborotlar, xomashyo, uning sifati, miqdori, yangi texnologiyalar, yangi uskuna-jihozlar va yangi mahsulotlar to'g'risidagi axborotlar rivojlanish uchun muhimdir; hozirgi sharoitda har qanday iqtisodiy faoliyatni kerakli axborotlarsiz va bilimlarsiz tasavvur qilish qiyin;
- materiallar - xomashyo, elektr energiyasi, gaz, butlovchi qismlar va yarimfabrikatlar. Xomashyo manbasining etarli darajada bo'lishi, ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Iqtisodiy rivojlanishning yana bir muhim manbasi va omili - ilmiy-texnik taraqqiyot (ITT) dir. ITTning asosiy ko'rsatkichlari - bir yil davomida yaratilgan yangi jihozlar, uskunalar, texnologiyalar soni va ularni ishlab chiqarishga joriy qilinishi, yangi kashfiyotlar bo'yicha patentlar, raqionalizatorlik takliflari soni, har ming kishiga to'g'ri keladigan mutaxassislar soni (ayniqsa, zamonaviy yo'nalishdagi oliy ma'lumotli mutaxassislar, fan nomzodlari, fan doktorlari, akademiklar soni).

Iqtisodiy rivojlanishning yana bir manbai - bu ishlab chiqarishni tashkil etishning yuqori samarali shakllari, xususan, ichki va tashqi ixtisoslashuv, kooperatsiya va kombinatsiyalashdir.

Iqtisodiy o'sishning asosiy ko'rsatkichlari, manbalari va omillarini o'rganish, ularning ishlab chiqarishning o'sishiga ta'sirini miqdoriy tahlil etish, ulardan yanada samarali foydalanish imkoniyatlarini ochishga yordam beradi. Iqtisodiy rivojlanishni o'rganishda va omillar ta'sirini miqdoriy baholashda ishlab chiqarish funksiyasidan (ICHF) foydalanish maqsadga muvofiq. Ishlab chiqarish funksiyasi - ishlab chiqarishga

jalb qilingan asosiy ishlab chiqarish omillari (taklif tomon omillari) va ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori o'rtasidagi miqdoriy bog'lanishni aks ettiradi.

Iqtisodiy rivojlanishga yangi yondashuvlardan biri investitsiyalarga va ularning tashqi samarasiga asoslanadi. Investitsiyalar - nafaqat mehnatning, balki kapitalning ham samaradorligini oshiradi va "tashqi ijobiy ta'sirlarga" ega. Investitsiyalarning bu "tashqi samarasi" ko'pincha bevosita baholanmaydi, shuning uchun kapitalning iqtisodiy o'sishga qo'shgan "xissasi" odatda kamroq baholanadi. Ayniqsa, inson omiliga investitsiyalar o'ta muhimdir.

Jahonda va O'zbekistonda oxirgi yillarda iqtisodiy rivojlanishga bo'lgan munosabatda kuzatilayotgan ba'zi yangi tendensiyalarni ko'rib o'tamiz. Keyingi paytlarda an'anaviy miqdoriy iqtisodiy o'sish nazariyalaridan inson salohiyotining barqaror rivojlanish konsepsiyasiga o'tish kuzatilmoqda.

"Inson salohiyoti taraqqiyoti indeksi" (ISTI) - nafaqat moddiy farovonlikning oshishi, balki ta'lim, sog'likni saqlash, atrof-muhit muhofazasi kabi omillar bilan ham bog'liq. Ushbu indeks e'tiborga oladigan va baholaydigan asosiy ko'rsatkichlar: aholi jon boshiga real YAIM, o'rtacha kutiladigan umr va ma'lumot darajasidir.

ISTI indeksi 0 va 1 oralig'ida o'zgaradi. ISTI qanchalik yuqori bo'lsa, inson salohiyati rivojlanishi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Iqtisodiy jihatdan an'anaviy muammoning: mehnat unumdorligiga inson sifatlari va xarakteristikalarining ta'siri muammosining ham roli behad ahamiyatlidir, chunki "mehnat potensialining" muhim komponenti - aholining ma'lumot va ta'lim olish darajasidir.

6.2. Iqtisodiy rivojlanishni aks ettiruvchi asosiy modellar

Barcha rivojlangan mamlakatlarda matematik va instrumental usullar va modellar, ham amaliy masalalarni yechishda, ham ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni nazariy o'rganishda ishlatiladi. Yangi kompyuterlar va axborot texnologiyalarning takomillashib borishi jarayonida makroiqtisodiy ustuvor masalalarni yechishda bu usullar va modellarning roli yanada oshib boradi. Xususan, dinamik tarmoqlararo balanslar (DTAB) modellarini boshqa modellar bilan birgalikda qo'llash, tashqi

aloqalarni e'tiborga olish, zarurligi Yuqorida eslatilgan tizimli va situativ yondashuvlar yanada dolzarb bo'lib boradi. Jahon miqyosidagi globallashuv va integratsiya jarayoni shuni taqozo qiladi.

Nazariy jihatdan ham makroiqtisodiy tahlil va prognozning turli bosqichlari, darajalari va muddatlari bo'yicha bu modellarni tartiblash va tasniflash talab qilinadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etuvchi asosiy omillarni o'zida aks ettirish imkonini beruvchi makromodellarning asosiy turlari va tasnifi quyidagi 6.2.1-jadvalda keltirilgan.

6.2.1-jadval

Makroiqtisodiy modellarning tasnifi

№	Tasniflash alomatlari	Makroiqtisodiy modellarning asosiy turlari
1	Ilmiy-metodologik asos	Neoklassik, keynscha, monetar, endogen o'sish nazariyalari
2	Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar turlari	Rivojlangan industrial va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti, o'tish davri iqtisodiyoti makromodellari; abstrakt makromodellar
3	Makroiqtisodiy maqsad, dasturiy vazifa	Nazariy tahlil, prognoz, milliy iqtisodiyotni rostdash va moliyaviy dasturlash; konseptual-nazariy, konstruktiv va amaliy (davlat organlari, vazirliklar tomonidan ishlatiladigan va ishlatilmaydigan); empirik, grafik (illyustrativ) va analitik modellar
4	Asosiy problematika	Iqtisodiy muvozanat (shartlari), muvozanatli o'sish, balanslangan o'sish (shartlari), magistral traektoriya bo'yicha rivojlanish va optimal iqtisodiy o'sish (optimallik shartlari)
5	Dinamika	Statik, kinematik (ko'p davrli, ko'p qadamli), dinamik makromodellar; iqtisodiy jarayonlar (tikllar) e'tiborga olingan, olinmagan makromodellar; optimallik, magistral xossalar e'tiborga olingan, olinmagan dinamik makromodellar
6	Vaqt koordinatasi	Diskret (uzlukli-farqlar tenglamalari), uzluksiz vaqtli (differensial tenglamalar)
7	Funksional bog'lanishlar turi	Chiziqli, qavariq, nochiziqli (kvadratik, eksponensial va b.)
8	Stoxastika (ehtimollik	Stoxastik, determinatsiyalashgan

	elementi)	makromodellar
9	O'lchami (sektor yoki tarmoqlar soni)	Bir sektorli, ikki sektorli va ko'p sektorli; kichik (kam) o'lchamli, o'rta va ko'p o'lchamli (katta makroekonometrik modellar, KMEM)
10	O'lchov birligi	Miqdoriy-natural, pul-qiymat (doimiy va joriy narxlarda); absolyut va nisbiy ko'rsatkichlar
11	Qo'rib chiqish muddati	Qisqa, o'rta va uzoq muddatli
12	Butun iqtisodiy tizim yoki ba'zi alohida elementlari; boshqarish darajalari	Global, lokal; butun iqtisodiyotning makromodeli, tovarlar, xizmatlar, mehnat, kapital, valyuta bozori modellari; tashqi aloqalar e'tiborga olingan va olinmagan modellar; iste'mol, jamg'arma, investitsiyalar modellari; boshqarish darajalariga mos
13	Tashqi bog'lanishlar	Ochiq va yopiq modellar; kapital oqimi erkin, cheklangan, yo'q; valyuta almashuv rejimlari e'tiborga olingan, olinmagan makromodellar
14	Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot	Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot e'tiborga olingan, olinmagan makromodellar; ekzogen, endogen ITTli (avtonom, neytral ITTli)
15	Muvozanat	Dinamik muvozanat e'tiborga olingan, olinmagan
16	Balans, optimallashtirish shartlari	Balans modellari, optimizatsiya modellari, ekonometrik modellar; matematik-statistik; imitatsion va h.k.
17	Tarmoqlararo balanslar (TAB)	TABga asoslangan, asoslanmagan makromodellar
18	Indikatorlar	Indikatorlar qatnashgan, qatnashmagan modellar
19	Ssenariylar	Ssenariylar imkonini beradigan, bermaydigan
20	Kompyuter dasturlari	Standart dasturiy ta'minotga ega, o'rta murakkablikka ega, o'ta murakkab (xususan, evristik) modellar; qisqa muddatli makroindikativ rejalar, uzoq muddatli strategik reja-prognozlar tuzish, monitoring va maslahat axborot tizimlari
21	MHT (SNS) ma'lumotlari	MHT ma'lumotlari etarli, etarli emas; MHTga asoslangan, asoslanmagan makromodellar
22	Asosiy ifodalash shakli	Grafik, analitik, algoritmik va aralash

Makromodellar dinamik yoki statik turlarga bo‘linadi. Barqaror va muvozanatli iqtisodiy o‘rinish dinamikasini – shunga mos dinamik modellar asosida o‘rganish kerak. Ma’lumki, dinamik modellarda vaqt uzluksiz (t) yoki diskret tarzda (?) bo‘lishi mumkin. Shuningdek, makromodellar chiziqli va nochiziqli turlarga bo‘linadi. Bunday tasniflash alomatleri va shularga asoslanib ajratiladigan modellarning turlari 6.2.1-jadvalda ko‘rsatilgan.

Makroiqtisodiy tahlil usullari va modellarning tasnifi ularning funksional vazifalariga qarab ham bajarilishi mumkin. Masalan, mamlakat iqtisodiyotidagi makroiqtisodiy jarayonlarni o‘rganishda rivojlanishning umumiy tendensiyalari va qonuniyatlarini ifodalovchi modellarni, makroiqtisodiy indikatorlarni, tahlil va prognoz qilish modellari, ichki va tashqi “turtkilarni” (shoklar) aks ettiruvchi, ularning iqtisodiyotning real sektorlariga ta’sirini baholovchi modellarni alohida ajratish kerak.

Bulardan tashqari, ba’zi amaliy masalalarni yechishda umumiyroq tarzda model bilan birga, xususiy amaliy modellarni, jumladan, Milliy hisoblar tizimi (MHT)ga, boshqa ma’lumotlarga asoslangan ekonometrik modellarni ham qo‘llash mumkin va muhimdir.

Shuningdek, jami talab (QD) va taklif (QS) muvozanati dinamikasi modellari, jami talabning asosiy tarkibiy qismlari: iste’molga sarflar (C), investitsion sarflar (I), davlat sarflari (G) modellari, jami taklif funksiyasi sifatida qarash mumkin bo‘lgan ishlab chiqarish funksiyalarini ($ICHF$), tovarlar, xizmatlar, kapital, mehnat, pul, valyuta bozorlarining umumiy muvozanati modellari ham, qisqa muddatli prognozlar uchun ishlatish mumkin.

Konkret raqamlarga asoslangan katta makroekonometrik model biror mamlakat yoki jahon iqtisodiyotini ifodalovchi, yuzlab ko‘rsatkichlar orasidagi bog‘lanishlarni aks ettiruvchi modeldir. Bularni amalda tuzish uchun ko‘p mutaxassislar ishtiroki, ko‘plab ma’lumotlar va kompyuterlar kerak bo‘ladi. Ular, endogen (ekzogen) o‘zgaruvchilarning konkret qiymatlariga ekzogen (endogen) o‘zgaruvchilarning qaysi qiymatlari mos kelishini ko‘rsatadi. Shuningdek, kichik o‘lchamli makroekonometrik

modellarning ham o'z o'ri bor. Iqtisodiy rivojlanishning yana bir tur modellarida vaqt lagi (vaqt bo'yicha kechikib bo'ladigan ta'sirlar) ham ko'rib chiqiladi.

Iqtisodiy o'sishga ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning (ITT) ta'sirini makromodellarda e'tiborga olishning ikki asosiy varianti bor: avtonom (ekzogen) ITTlik modellar va endogen ITTlik modellar. Bu modellar – mamlakat, hudud va katta korxonalar uchun ishlab chiqarishning uzoq muddat davomida fan va texnika yutuqlarini qo'llab o'sishini ifodalaydi.

Ko'p sektorli modellardan nisbatan chuqurroq o'rganilganlari tarmoqlararo balanslar (TAB) modellariga asoslanadi. TAB: bir tomondan, iqtisodiy o'sish maqsadlarini va omillarini o'zaro moslash uchun, ikkinchi tomondan, mumkin bo'lgan (potensial, mobilizatsion) iqtisodiy o'sish sur'atlarini baholash uchun qo'llaniladi.

Muvozanatli va balanslangan iqtisodiy rivojlanish – ishlab chiqarish omillarining (kapital, mehnat va h.k.), iste'mol va jamg'armalarning o'zaro mutanosib bo'lishini talab qiladi.

6.3. Iqtisodiy rivojlanishning asosiy indikatorlari

Barcha mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanishni ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkich bo'lib, yalpi milliy mahsulot (YAMM) hisoblanadi. Chunki, YAMM mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning bozor baholaridagi qiymatidir. Uning asosida milliy iqtisodiyotning qanchalik samarali faoliyat olib borayotganligini aniqlash mumkin.

Yalpi milliy mahsulot (YAMM) ni hisoblash usullarini o'rganishdan oldin makroiqtisodiy holatni aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichlarga to'xtalib o'tamiz. Bu ko'rsatkichlarga:

- yalpi milliy mahsulot (YAMM), yalpi ichki mahsulot (YAIM), milliy daromad (MD);
- davlat budjeti taqchilligi, deflyator, iste'mol baholari indeksi, inflyatsiyaning o'sish sur'atlari;
- ishsizlik darajasi va ishsizlar soni, aholining ish bilan bandlik darajasi;

➤ aholining moddiy ne'matlar va xizmatlar iste'moli hajmi, ularning jamg'armalari, ish haqining quyi miqdori va boshqalar kiradi.

Bu ko'rsatkichlar iqtisodiy tizimning umumiy holatini ifodalab, ijtimoiy ishlab chiqarishda barcha qatnashuvchilar (korxona, tarmoq, mintaqa, davlat) va uy xo'jaligi faoliyatlari natijalari asosida aniqlanadi. Milliy hisoblar tizimiga ko'ra asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich YAMM ko'rsatkichi hisoblanadi va u iqtisodiyotda bir yil davomida ishlab chiqarilgan yakuniy tovar va xizmatlar jami hajmining bozor bahosi yig'nazar mahsulot joriy yilda ishlab chiqarilgan mahsulot hisoblanadi. Shu munosabat bilan YAMM tushunchasi ma'lum darajada izoh talab qiladi.

Birinchidan, YAMM yillik ishlab chiqarishning bozor qiymati orqali o'lchanadi va pulda ifodalanuvchi ko'rsatkich hisoblanadi. Turli yillarda ishlab chiqarilgan har xil mahsulotlar miqdorini solishtirish uchun ularning nisbiy qiymatini bilish lozim.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish hajmini to'g'ri hisoblash uchun joriy yilda ishlab chiqarilgan tovar va ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bir marta hisobga olinish kerak. Ko'pgina mahsulotlar bozorga borguncha bir nechta ishlab chiqarish bosqichini o'taydi. Shu sababli YAMMda ayrim mahsulotlarni ikki va undan ko'p marta hisobga olmaslik uchun, faqat pirovard mahsulotning bozor qiymati hisobga olinadi, oraliq mahsulotlar esa hisobga olinmaydi.

Pirovard mahsulot iste'mol uchun sotib olinadigan tugal mahsulot (tovar va xizmat) lardir.

Oraliq mahsulot deganda, qayta ishlash yoki sotish uchun sotib olingan tovar va xizmatlar tushuniladi. YAMMda mahsulotlarning yakuniy sotish qiymati hisobga olinadi, oraliq qiymat esa hisobga olinmaydi. Chunki, oraliq qiymat hisobga olinsa ayrim mahsulotlar qiymati ko'p marta hisobga olingan bo'lar edi. Milliy daromadni hisoblashda ikki yoqlama hisobga olmaslik uchun, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni har tomonlama o'rganib chiqish va faqat, har bir firmada yaratilgan qo'shilgan qiymatni hisobga olish zarur. Qo'shilgan qiymat tovar va xizmatlarning sotish bahosidan ularni ishlab chiqarish uchun sotib olingan xomashyo va materiallar qiymati ayirib tashlanib topiladi.

Uchinchidan, YAMMga noishlab chiqarish bitimlari bo'yicha tushumlar qo'shilmaydi. Noishlab chiqarish bitimlariga sof moliyaviy bitimlar va ishlatilgan tovarlarni sotish kiradi.

Moliyaviy bitimlar o'z navbatida uchta asosiy turga bo'linadi: davlat budjetidan transfert to'lovlari, xususiy transfert to'lovlar va qimmatli qog'ozlarni sotish.

Davlat budjetidan transfert to'lovlariga ijtimoiy sug'urta bo'yicha to'lovlar, ishsizlarga va nafaqaxo'rlarga, nogironlarga va kam daromadli oilalarga beriladigan nafaqalar, talabalarga stipendiyalar kiradi. Davlat transfert to'lovlarining asosiy xususiyati shundaki, nafaqaxo'rlar nafaqa evaziga davlatga hech narsa bermaydi. Xususiy transfert to'lovlariga masalan, talabalarga ota-onasi beradigan pul va qarindosh urug'lari beradigan bir martalik to'lovlar kiradi.

Sotilgan qimmatli qog'ozlar (akciya va obligatsiyalar) va ishlatilgan tovarlarni sotish ham YAMM tarkibiga kiritilmaydi, chunki, bunday tovarlarni sotish joriy ishlab chiqirashni bildirmaydi (6.3.1-jadval).

6.3.1-jadval.

YAMM ikki xil usulda - ishlab chiqarish xarajatlari va daromadlari bo'yicha aniqlash

Ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha	Ishlab chiqarishdan olingan daromadlar bo'yicha
1.Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari.	1.Daromadlarni to'lash bilan bog'liq bo'lmagan xarajat va to'lovlar (amortizatsiya va biznesga bilvosita soliqlar).
2. Biznesga investitsiya xarajatlari yoki yalpi xususiy ichki investitsiyalar.	2. Ish haqi.
3. Tovar va xizmatlarning davlat xaridi.	3. Renta to'lovlari.
4. Sof eksport.	4. Foiz.
	5. Individual mulkdan olingan daromad.

	6. Korporatsiyalar foydasi.
--	-----------------------------

To'rtinchidan, YAMMni hisoblashda ikki tomonlama yondashiladi. Birinchi yondashuvda YAMM iste'molchilarning yangidan yaratilgan yakuniy mahsulotlarni sotib olishga ketgan barcha xarajatlari miqdori bo'yicha aniqlanadi. Bu usul YAMMni hisoblashning xarajatlar usuli deyiladi. Ikkinchi yondashuvda esa YAMM tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan daromadlarning yig'indisi miqdori asosida aniqlanadi. Bu usul YAMMni daromadlar yordamida aniqlash usuli deyiladi.

YAMMni ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha hisoblashda asosan pirovard mahsulot va xizmatlarni yaratishga ketgan barcha xarajatlar hisobga olinadi. Bularga:

Uy xo'jaligining iste'moli xarajatlari (C):

- a) uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol buyumlari;
- b) kundalik foydalaniladigan iste'mol buyumlari;
- v) iste'mol xizmatlariga ketadigan xarajatlar.

YAlpi ichki xususiy investitsiya xarajatlari (I):

- a) asbob-uskunalar, mashinalarni yakuniy sotib olish;
- b) korxonalar, omborlar, turarjoy binolarini qurishga sarflangan xarajatlar;
- v) tovar zahiralarini o'rtasidagi farqlar yoki zahiralarining o'zgarishlaridan iborat bo'ladi.

Tovar va xizmatlarning davlat xaridi (G) bo'yicha xarajatlarga, chunonchi, mahalliy va markaziy boshqaruv hoqimiyat idoralari tomonidan korxonalarning pirovard mahsulotlar va resurslar xaridi (qurol-yarog' sotib olish, avtomobil yo'llari va pochta muassasalari qurilishi, davlat korxonalarida to'lanadigan ish haqi) xarajatlari kiritiladi. Lekin, bu o'rinda ta'kidlash lozimki, bu xarajatlarga davlat transfert to'lovlari kiritilmaydi.

Sof eksport (X_n) yoki mamlakatning import va eksport operatsiyalari bo'yicha xarajatlar o'rtasidagi farq (4-jadval).

Shunday qilib, YAMMni xarajatlar orqali hisoblash, asosan Yuqorida ko'rsatib o'tilgan 4 guruh xarajatlari orqali olib boriladi.

YAMM xarajatlar bo'yicha quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$YAMM = S + I + G + X_n.$$

YAMMni ishlab chiqaruvchilarning barcha daromadlari yig'indisi ko'rinishida hisoblashda asosan quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

birinchidan, iste'mol qilingan kapital hajmi (CCA) yoki amortizatsiya, ya'ni, joriy yildagi YAMMni ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan investitsiya tovarlarini sotib olishga mo'ljallangan ajratmalar bo'yicha ko'rsatkichlardan;

ikkinchidan, biznesga egri soliqlar (T) - mahsulot bahosini oshiruvchi, ishlab chiqarishga bog'liq bo'lmagan xarajatlar, hisoblanadi. Jumladan, sotishdan olinadigan soliq, aksizlar, mulkka soliqlar, liyenzia to'lovlari va bojxona bojlari bo'yicha ko'rsatkichlar;

uchinchidan, yollanma ishchilarning ish haqlari (W), ya'ni xususiy va davlat kompaniyalarining ish haqi to'lashga sarflagan umumiy xarajatlari (ish haqi va quyidagi qo'shimchalar: ijtimoiy sug'urta, nafaqa, bandlik va boshqa ijtimoiy fondlarga ajratmalar hamda badallar) bojlari bo'yicha ko'rsatkichlar;

to'rtinchidan, ijara haqi (R_1), xususan, bu iqtisodiyotni mulk resurslari bilan ta'minlovchi uy xo'jaliklarining daromadlari (masalan, ijaraga berilgan turarjoylar, binolar, asbob-uskunalar, er va boshqalardan olinadigan daromadlar) bo'yicha ko'rsatkichlar;

beshinchidan, foiz stavkalari yoki foizli daromadlar (R) - pul kapitalini etkazib beruvchilarga xususiy biznes daromadidan pul to'lovlari bo'yicha ko'rsatkichlar;

oltinchidan, mulkdan keladigan daromad yoki foyda (P), mulk egalarining daromadlari va Korporatsiyalar olgan foyda ko'rsatkichlaridan.

6.3.2-jadval

Yalpi milliy mahsulotni aniqlashga ikki xil yondashuv

№	YAMMni tovar va xizmatlar sotib olishga mo'ljallangan barcha	Shartli belgilar	Miqdor
---	--	------------------	--------

	xarajatlar bo'yicha o'lchash		
1.	Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari	S	63,0
2.	Biznesga investitsiya xarajatlari yoki yalpi xususiy ichki investitsiyalar	I	18,0
3.	Tovar va xizmatlarning davlat xaridi	G	21,0
4.	Sof eksport	Xn	-2,0
Jami: YAMM = S + I + G + Xn		Y	100,0
YAMMni barcha daromadlar bo'yicha o'lchash			
1.	Iste'mol qilingan kapital hajmi	A	9,0
2.	Biznesga egri soliqlar	T	7,0
3.		YOllanma ishchilarning ish haqlari va	
	Ijtimoiy sug'urta ajratmalari	W	61,0
4.	Ijara haqi	R1	1,0
5.	Foiz stavkasi	R2	7,0
6.	Individual mulkdan olinadigan daromadlar	P1	6,0
7.	Korporatsiyalar foydasiga soliqlar	P2.1	5,0
8.	Dividendlar	P2.2	2,0
9.	Taqsimlanmaydigan foydalar	P2.3	2,0
Jami: YAMM =A+T+W+R+R1+P1+P2.1+P2.2+P2.3		Y	100,0

Korporatsiyalarning foydasi quyidagilarga bo'linadi;

- a) olgan foydaga soliq yoki foyda solig'i;
- b) xissadorlar o'rtasida taqsimlanadigan dividendlar;
- v) taqsimlanmagan foyda.

Mamlakat milliy hisobchilik tizimida, YAMM ko'rsatkichidan tashqari, o'zaro aloqada bo'lgan bir nechta ko'rsatkichlar mavjud. Milliy hisobchilik tizimi

to'g'risidagi tushunchalarni kengaytirish uchun aynan shu ko'rsatkichlarning tashkil topish manbalarini o'rganamiz. Bu ko'rsatkichlar sirasiga YAIM, SMM, MD, ixtiyordagi daromad va soliqlar to'langandan keyingi daromadlarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni kiritishimiz mumkin.

YAIM ham YAMM kabi moddiy ishlab chiqarish va xizmatlar natijasida tashkil topadi.

YAIM - bu biror mamlakat hududida joylashgan korxona va tashkilotda ma'lum muddat davomida ishlab chiqarilgan pirovard tovar va ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy yig'indisidan iborat. YAIM YAMMdan muayyan mamlakat Yuridik va jismoniy shaxslarining xorijdan oladigan foyda va daromadlari hamda xorijiy investorlar shu mamlakatda olgan foyda va daromad o'rtasidagi farqlar bo'yicha ajralib turadi. Ya'ni:

YAMM	YAMM	Muayyan mamlakat		Xorijiy investorlar va
=	+	Yuridik va jismoniy		ishchilarni shu
		shaxslarining xorijdan		mamlakatda olgan
		oladigan foyda va	–	foyda va daromadlari
		daromadlari		

YAMMni hisoblashda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilishi tabiiy. Chunki, hisobot yilida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot miqdoriga shu mahsulotni ishlab chiqarishda iste'mol qilingan asosiy ishlab chiqarish vositalari qiymati qo'shiladi. Shuning uchun ham milliy hisobchilik tizimida SMM ko'rsatkichi hisoblanadi. SMMning YAMMdan farqi, Yuqorida aytganimizdek, amortizatsiya ajratmalari miqdoriga teng.

MD - bu, milliy ishlab chiqarishdan olingan daromad yoki ijtimoiy ishlab chiqarishdagi barcha daromad turlarining yig'indisidir. Demak, MD resurslarni etkazib beruvchilarning, shuningdek, boshqaruv xodimlarining hisobot yilidagi daromadlari miqdorini ko'rsatadi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, davlat o'zi oladigan biznesga egri soliqlar o'rniga ishlab chiqarishga hech narsa qo'ymaydi, ya'ni davlatni

iqtisodiy resurslar ta'minotchisi sifatida baholamaymiz. Demak, joriy yilda yaratilgan YAMM tarkibidan ish haqi, renta to'lovlari, foiz va olingan foydalarning umumiy miqdorini aniqlashda biz SMM tarkibidan biznesga egri soliqlar miqdorini olib tashlashimiz lozim. Shunday usulda olingan ko'rsatkich milliy daromad (MD) hisoblanadi. Resurslar ta'minlovchilar nuqtai nazaridan MD joriy ishlab chiqarishda qatnashish natijasida olgan daromadlar miqdorini bildirsa, kompaniyalar nuqtai nazaridan ishlab chiqarish omillari bahosini bildiradi. MD joriy ishlab chiqarishga ketgan iqtisodiy resurslarning bozor bahosini anglatadi. (6.3.3-jadval).

6.3.3-jadval

Milliy hisobchilik tizimida o'lchaniladigan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zaro nisbatlari (raqamlar shartli)*

Ko'rsatkichlar	Shartli belgilar	Miqdor
1. YA lpi milliy mahsulot	YAMM	100
«Minus», amortizatsiya	A	8
2. Sof milliy mahsulot	SIM	92
«Minus», biznesdagi egri soliqlar		12
3. Milliy daromad	MD	80
«Minus»- ijtimoiy sug'urta to'lovlari		-14
- daromad (foyda) solig'i		-10
- taqsimlanmaydigan daromad (foyda)		-12
«Plyus» + transfert to'lovlari		+ 10
4. Shaxsiy daromad	MD	54
«Minus»- individual soliqlar		-8
6. Soliq to'langandan keyingi daromad, ya'ni ixtiyordagi daromad	ID	46

Milliy daromad SMM ning biznesga bilvosita soliqlarni olib tashlagach, qolgan qismidan iborat.

Ishlab chiqarishda mehnat qilish evaziga olingan daromadlarning bir qismi (ijtimoiy sug'rtalarga to'lovlar, Korporatsiya foydasiga soliq va Korporatsiyaning taqsimlanmagan foydasi) amalda uy xo'jaligiga tushmaydi. Aksincha, ya'ni uy xo'jaligi hisobiga to'g'ri keladigan daromadlarning bir qismi, (masalan, transfert to'lovlari) mehnat natijalarini bildirmaydi. Transfert to'lovlariga sug'urta tashkilotlari tomonidan to'lanadigan, ya'ni, qarilikda va baxtsiz hodisalar ro'y berganda, shuningdek, ijtimoiy dasturlarga asoslangan holda ishsizlarga to'lanadigan nafaqalar, ishsizlarga va pensionerlarga to'lanadigan nafaqalar, iste'molchilar va davlat tomonidan to'lanadigan foiz to'lovlari va boshqa to'lovlar kiradi.

MDdan shaxsiy daromadlar ko'rsatkichiga o'tishda, aholi tomonidan haqiqatda ishlangan, ammo olinmagan daromadlarni olib tashlaymiz, shuningdek aholi tomonidan olingan, ammo joriy mehnat faoliyati natijalarini bildirmaydigan daromadlarni qo'shamiz.

Shaxsiy daromad hisoblangan daromadning individual soliqlar to'lagandan keyingi qismidir. Individual soliqlar - daromad solig'i, xususiy mol-mulklarga va meros qolgan mulklarga soliqlardan iborat.

YAMMni hisoblashda kompaniyalarning moliyaviy hujjatlaridan statistik ma'lumotlarni olamiz va ular YAMMning haqiqiy nominal ko'rsatkichini aniqlashga imkon beradi. Chunki, biror-bir yilda yaratilgan nominal YAMMning o'sishi bir tomondan ishlab chiqarish hajmining o'zgarishini, ikkinchi tomondan bahoning o'zgarishini bildiradi deya olmaymiz. Muammo shundan iboratki, qiymat (vaqt, miqdor) ko'rsatkichlarini shunday tuzatishimiz kerakki, u ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar fizik hajmining o'zgarishini aniq ifodalasin.

Bu muammo yechimi iqtisodchilar tomonidan topilgan. Ya'ni, baholar o'sib borganda nominal YAMM ko'rsatkichi kamaytiriladi va aksincha baholar kamayib borganda ko'paytiriladi. Bu to'g'rilashlar turli yillarda YAMM ko'rsatkichlarini solishtirish imkonini beradi. Joriy baholarda (baholarning o'zgarishini hisobga olmagan holda) hisoblangan YAMM nominal YAMM ni bildiradi. Demak, bunga teskari ravishda inflyatsiya darajasini (ya'ni, baholarning o'sishi) yoki deflyatsiya

(ya'ni, baholarning kamayishi) darajalarini hisobga olgan holda hisoblangan YAMM real YAMM sanaladi.

Real YAMM = (Nominal YAMM bo'lingan baho indeksi)x100%.

6.4. Iqtisodiy o'sish va rivojlanish tahlilining ekonometrik modellari

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish eng dolzarb iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni samarali hal qilish uchun quyidagi sharoitlar yaratishi lozim: jamiyat a'zolarining farovonligini oshirish, kambag'allikni tugatish, insonni har tomonlama rivojlantirish, mehnat va ijtimoiy hayot jarayonini insonparvarlashtirish. Iqtisodiy rivojlanishning yanada yuqori sifatini maqsadli shakllantirish zamonaviy iqtisodiyot fani tomonidan o'rganilayotgan murakkab vazifalardan biri hisoblanadi. Buning uchun zarur barcha ishlab chiqarish omillari, kapital tuzilmasini modernizatsiyalash, ijtimoiy munosabatlar tizimi va iqtisodiy agentlarning harakat modellarini jiddiy isloh qilish jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va institsional taraqqiyotini hamda hayot sifatini ko'p jihatdan belgilab beradi.

Global iqtisodiy inqirozning jamiyatga umumiy tizimli ta'siri zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning yangi sifatiga erishish vazifasini dolzarblikdan hayotiy zarur toifaga o'tkazadi va uni hal etishni oliy milliy ustuvorliklar qatoriga kiritadi. Uning ta'sirida shakllangan ijtimoiy buyurtma zamonaviy bosqichga mos amaliy yechimlarni izlashni faollashtiradi, bu esa qonuniy ravishda boshlang'ich nazariy qoidalar bazasini qayta anglashga va o'sish nazariyasi metodologiyasi kengayishiga olib keladi.

Olimlar e'tibori markazida iqtisodiyotni uzoq muddatli barqaror rivojlanish yo'liga olib chiquvchi iqtisodiy faoliyatni intellektuallashtirish jarayoning shartlari va omillarini aniqlash hamda tahlil qilishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish motivatsiyalari tizimini qurish vazifasi paydo bo'ldi. O'sib borayotgan ehtiyojlar, ijtimoiy ishlab chiqarish texnologik usuli va tuzilmasida fundamental transformatsiyalar jarayoni yuzaga kelmoqda. Yangi imkoniyatlar va harakatlantiruvchi rivojlanish kuchlari

shakllanmoqda: o'sib boruvchi mahsuldorlik sharti, multiplikativ tarmoq samaralari, intellektual texnologiyalar va intellektual renta.

Iqtisodiy o'sish nazariyasi rivojlanishining an'anaviy yondashuvni engib o'tayotgan zamonaviy bosqichi o'ziga xosligi umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini belgilab beruvchi rivojlanishning antropoentrik sifati nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Bunda iqtisodiy tizim dinamik beqarorligining endogen manbalari va tizimning o'zi ko'payib borayotgan sifat o'zgarishlari holatlarini yuzaga keltiradigan ijobiy teskari aloqa natijasida hosil bo'ladigan tuzilmaviy o'zgartirishlar samarasi asosiy masalaga aylanadi.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sifati O'zbekiston uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Milliy iqtisodiyotning yaqin o'tmishdagi juda qulay jahon kon'yunkturasi va ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik ko'rinishi sharoitidagi rivojlanish traektoriyasi bo'ylab harakati inson kapitaliga keng miqyosli investitsiyalar kiritish va asosiy kapitalni ommaviy o'zgartirish bilan birga olib borilmadi. Qayta o'zgartirilgan iqtisodiy fe'l-atvorning nisbiy qulayligi barqaror rivojlanish makroiqtisodiy dasturini amalga oshirish va tegishli institutlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy bilimlarning ushbu sohasida xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan doimiy izlanishlar olib borilayotganiga qaramasdan zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sifati konsepsiyasi yetarlicha ilmiy asoslanmaganligini qayd etishimiz mumkin. Tadqiqotchilik yondashuvlarining beqarorligi sharoitida zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sifati nazariyasining ko'pgina qoidalari noaniqligi ilmiy munozara uchun sharoit yaratadi, iqtisodiy siyosat yo'nalishlarini aniqlashtirishga xizmat qilmaydi. Inqirozdan chiqish yo'llarini izlash va barqaror iqtisodiy rivojlanish traektoriyasini tanlash mazkur sohadagi metodologik-nazariy tadqiqotlarni chuqurlashtirishni taqozo etadi.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish o'z tabiatiga ko'ra xususiyatlari tez o'zgaradigan dinamik jarayon hisoblanadi, bu to'plangan bilimlardan uning yangi sifatini tahlil qilish va iqtisodiyotning harakatlanish traektoriyasini prognozlash uchun foydalanishni sezilarli darajada murakkablashtiradi. Iqtisodiyotni

intellektuallashtirish sharoitida zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sifati sohasidagi asarlarni tizimlashtirish darajasi yetarlicha emas, bu uning sifat holatlari transformatsiyalarini, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va uning zamonaviy xususiyatlarini belgilovchi va uni yaxshilash dasturlarini ishlab chiqishni ta'minlovchi institutlarni qo'shimcha tahlil qilish zaruratini belgilaydi. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sifati iqtisodiyotni globallashtirish va intellektuallashtirish uning ichki omillariga aylanishi bilan belgilangan iqtisodiy rivojlanish sifat va miqdoriy xususiyatlari dinamik nisbati bilan belgilanadi. Ushbu asosda zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning yangi sifati mazmuni ochib beriladi, u texnologik tartiblar almashuvi, texnologik taraqqiyotning ekzogen rivojlanish omilidan endogen omilga aylanishi, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni va natijalariga intellektual mehnat ulushning ortishi, shuningdek, u zamonaviy texnologiyalarning nomoddiy ishlab chiqarish sohasiga jadal kirib kelishi umumiy iqtisodiy tendensiyalarini aks ettiradi.

Iqtisodiy faoliyatni intellektuallashtirish zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sifatining umumlashtiruvchi belgisi ekanligi isbotlandi, bu harakatning innovatsion traektoriyasini tanlashda o'z ifodasini topadi va ijtimoiy ishlab chiqarish texnologik asoslari va tuzilmasida hamda zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishining multiplikativ samaralaridagi o'zgarishlarning o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi.

Iqtisodiyotni intellektuallashtirish integral indeksini qurishning quyidagilarga asoslangan metodikasi ishlab chiqilishi lozim: 1) iqtisodiyotni intellektuallashtirish salohiyati, jarayoni va natijalarini aks ettiruvchi boshlang'ich ko'rsatkichlarni aniqlash; 2) boshlang'ich ko'rsatkichlarni iqtisodiyotni intellektuallashtirish integral indeksi oqilona tuzilmasini shakllantiruvchi alohida indeksarga aylantirish usulini asoslash, uni baholash milliy iqtisodiyot rivojlanishining sifat xususiyatlarini aniqlashni ta'minlaydi. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning yangi sifati qaror shakllanishining strategik yo'nalishlari belgilanganda quyidagilarga etibor qaratiladi: 1) uning maqsadi va asosiy omili sifatida inson kapitalining roli ortib borishi; 2) iqtisodiyotning ilm va texnika talab ishlab chiqarishlar ustuvorligiga yo'naltirilgan diversifikatsiyasi; 3) iqtisodiyotni texnologik modernizatsiyalash va

kompaniyalarning innova^uion faolligini rag'batlantirish; 4) barqaror agentlararo va tizimlararo aloqalar rivojlanishiga xizmat qiluvchi tub institsional islohotlarni o'tkazish; 5) ijtimoiy sohaning faoliyati samaradorligini oshirish.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sifatini faqat uni ijtimoiylashtirish tendensiyasi va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash hamda saqlashga yo'nalganligini hisobga olgan holda aniqlash mumkinligi isbotlanadi. Ushbu isbotlash asosini aniqlangan tendensiyalar tashkil qiladi: jamg'arishning nomoddiy shakllari rivojlanishi, iqtisodiy faoliyatni intellektuallashtirish, mehnatga nisbatan shaxsning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish jarayoni sifatidagi munosabtning shakllanishi.

Tuzilmaviy-iqtisodiy daraja pozitsiyasidan iqtisodiy rivojlanishning yuqori sifati tuzilmaviy diversifikatsiya vositasida ta'minlanadi, bu ilm talab ishlab chiqarishlar, xomashyoni qayta ishlash darajasi yuqori korxonalar ustuvorligiga hamda kapitalni nomoddiy jamg'arish infratuzilmasi rivojlanishiga olib keladi. Tahlilning ijtimoiy-iqtisodiy jihatida zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning inson ehtiyojlarini qondirishga relevantlik darajasi bilan belgilanadi, uning o'lchovi insonning mehnat jarayonida o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun sharoitlar mavjudligi hisoblanadi.

Iqtisodiy-matematik model tahlili asosida belgilangan resurs-maqсад cheklovlarida zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning texnogen jihatini yuqori darajada absolyutlashtirish «noiqtisodiy o'sish»ga o'tishga olib keladi.

Foydalanilayotgan o'zgaruvchan miqdorlar tegishli ravishda, ta'sir kattaligi, aholi soni, farovonlik va texnologiyalar rivojlanish darajasini baholaydi.

Noiqtisodiy rivojlanishga o'tishning ehtimoliy s^uenariysida iqtisodiy rivojlanishning maksimum samarasiga erishilgandan so'ng muqobil xarajatlarning ko'payib boruvchi oshishi namoyish qilinadi. Iqtisodiy zarar (*ED*) jahon yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmidan (*GWP*) orta boshlasa, iqtisodiy rivojlanish noiqtisodiy rivojlanishga o'tadi.

Zamonaviy antropo^uentrik iqtisodiy rivojlanish faqat iqtisodiy zarurat paradigmasi yangi yanada yuqori darajadagi ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan paradigmaga almashtirilgan holdagina amalga oshishi mumkin bo'ladi. Iqtisodiy rivojlanishning r^uqikllar xususiyatini shu bilan izohlash mumkin.

Mehnat iqtisodiy zarurat sifatida anglash iqtisodiy rivojlanish chegaralarining mavjudligini taqozo etadi. Ayni paytda mehnatga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish jarayoni sifatida qarash, ushbu chegaralarni olib tashlaydi. Aholining ko'plab yuqori ehtiyojlari turli-tuman va bitmas- tunganmas va shuning uchun iqtisodiy rivojlanish salohiyati ham rang-barang va cheksizdir.

6.5. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda intellektual iqtisodiyotni shakllantirish

Zamonaviy qivilizatsiya zamonaviy dunyoga bilimlarga asoslangan iqtisodiyotni taklif etdi. Moddiy boyliklar va xizmatlarni vositalar va mashinalar yordamida ishlab chiqarishni ikkinchi o'ringa suradigan intellektual faoliyat axborotlashtirish va kompyuterlashtirish negizida yuzaga kelgan yangi xo'jalik yuritish tarzining o'zagi hisoblanadi. Intellektual faoliyat uning qo'shimcha qismi bo'lishdan to'xtadi. Moddiy va pul shaklida kapital to'plash, axborotni to'plash va o'zlashtirish, kredit berish va ijodiy faoliyatga avans ajratishga o'z o'rnini bo'shatib bermoqda. Foydali qazilmalarni topish aqlli odamlar, g'oyalar, ixtiro va konsepsiyalarni topish sa'y-harakatlari tomonidan ikkinchi o'ringa surilishi mumkin. Shuningdek, bandlik tuzilmasida ham jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi: shu paytgacha noma'lum bo'lgan toifa – ilgari sanoat xodimlari yoki undan ham oldin dehqonlarga tegishli bo'lgan o'rinni egallaydigan bilimlar xodimlari (*knowledge workers*) asosiy ishlab chiqarish kuchiga aylanadi. "Axborot hamjamiyati" "bilimlarga asoslangan jamiyat", "axborot iqtisodiyoti", "intellektual iqtisodiyot", "bilimlarga asoslangan iqtisodiyot" tushuncha va atamalari ham bejiz paydo bo'lgani yo'q.

Insoniyat tarixi davomida bilimlar har doim intellektual va iqtisodiy rivojlanishning muhim omili bo'lib kelgan. Biroq, so'nggi yillarda yangi bilimga ega bo'lish jarayoni o'zgardi: innovatsiyalar bevosita innovatsiya jarayoniga ta'sir qildi. Bilimlar yaratilishi, joriy etilishi va ulardan foydalanishga yordam beradigan vositalar ham tubdan yangilandi. Axborotni qayta ishlash, jo'natishning yangi vositalari, 20-30 yil avval mumkin bo'lmagan taqsimlangan axborot tarmoqlari ko'plab jarayonlarni bixillashtirdi.

Menejment sohasida taniqli olim Piter Drukerl “Kapitalizmdan bilimlar jamiyati sari” maqolasida ikkinchi jahon urushidan keyin boshlangan va XX asrning 80-yillarida yorqin namoyon bo‘lgan boshqaruv sohasidagi inqilobni zamonaviy insoniyatni rivojlantirishning mustaqil bosqichi sifatida ajratgan.

Inson ehtiyojlari yuksalishi va qobiliyatlari shakllanishi jarayoni iqtisodiy rivojlanish bilan uzviy bog‘liqligi belgilangan. Agar insonda iqtisodiy faoliyatda o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish yuksak ehtiyoji shakllansa, iqtisodiy rivojlanish va inson kamoloti vektorlari o‘zaro mos keladi, demak iqtisodiy rivojlanish yangi antropoentrik sifat kasb etadi.

Progressiv adaptatsion imkoniyatlar iqtisodiyoti tizimli adaptatsion salohiyat xususiyatiga ega bo‘lib, bu unga tashqi ta’sirlarga, jumladan innovatsion iqtisodiyot tomonidan uzatiladigan impulslarga javob qaytarishda, uning maqsadlariga mos rivojlanish traektoriyasini tanlashda muayyan erkinlik darajasini kafolatlaydi. Ushbu adaptatsion salohiyat tashqi moliyaviy-iqtisodiy yoki institsional ekspansiya tahdidi oldidagi milliy raqobatbardoshlik resursini saqlash va ko‘paytirish garovi hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish polimorfizmi milliy iqtisodiyotlarning rivojlanish xususiyatlarini aks ettiruvchi turli xil statistik ma’lumotlar bilan tasdiqlanadi. Xususan, innovatsion iqtisodiyotlarga «Katta ettilik» mamlakatlarini kiritishi mumkin. Ular milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish imkoniyatlarini yaratuvchi jahon yalpi mahsulotiga katta ulushi va iqtisodiy rivojlanishning o‘rtacha sur’atlari bilan ajralib turadi.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning mohiyat aniqligini aks ettiruvchi konseptual belgilarning umumlashtiruvchi tavsiflari antropokratik muammolarga mansublik, iqtisodiy rivojlanishni barqaror va samarali sifatida belgilash layoqati hisoblanadi (2-rasm).

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish to‘g‘risidagi an’anaviy tasavvurni o‘zgartirgan holda biz uning ijtimoiy, umuminsoniy tabiatini asoslaymiz.

Iqtisodiy rivojlanishning dinamikligi harakat yo‘nalishini doimiy izlash zarurati bilan bog‘liq. Umumiqtisodiy ma’noda harakat traektoriyasi, amalga oshirilgan

tanlov natijasida hech bo'lmaganda bitta individning qoniqish darajasi oshishi sodir bo'lgan, bunda jamiyatning boshqa a'zolari ahvoli yomonlashmagan holdagina, samarali hisoblanadi.

Takrorlash joizki makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy belgilari quyidagilar hisoblanadi:

1. Iqtisodiy o'sish.
2. To'liq bandlik.
3. Ichki narxlarning barqarorligi (inflyatsiya).
4. Xorijiy valyutalarga almashuv kursining barqarorligi.
5. Kuchli to'lov balansi.
6. Davlat budjeti kamomadining YAIMga nisbatan 3 % dan oshib ketmasligi.
7. Daromadlarning oqilona taqsimlanish muammosi va aholi daromadlarining kam differentsiyanilashuvi.

Respublikamizda iqtisodiy o'sishning sifat o'zgarishlari yuz berdi. YAIM tezkor o'sishi natijasida aholi iste'moli ulushi nisbatan kamayishi, davlat xarajatlari kamayishi real sektorga investitsiya qilishga e'tiborni ko'paytirish imkonini yaratdi.

Milliy iqtisodiyotimizda sifat o'zgarishlaridan biri - davlatning izchil monetar siyosati tufayli inflyatsiya jarayonlarini jilovlashga erishilgandir.

Ekologik-iqtisodiy muvozanatlanganlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashning strategik sharti aholi sonini sarmoya bilan qurollanganlik ko'rsatkichi *rac* vositasida hisoblashdan iborat. Ushbu ko'rsatkich inson tomonidan yaratilgan sarmoya va tabiiy sarmoyadan tashkil topgan yalpi sarmoya zahirasini (*rac*) umumiy aholi soniga bo'lishdan alohida hisoblanadi. Tabiiyki, sarmoya bilan qurollanganlik o'zgarishi sur'atlari uzoq vaqt davomida salbiy bo'lsa, ya'ni , unda mamlakat rivojining ekologik-o'zgarish iqtisodiy muvozanatlanganligi yomonlashadi. bo'lganda rivojlanish barqorligi zahirasi ortadi. o'zgar

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning sifat belgilari 3-rasmda keltirilgan. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning antropoentrik sifati jamiyatning barcha a'zolari farovonligini oshirish imperativining ideal modeli sifatida individlar, guruhlar va

umuman jamiyatning o‘zaro zid manfaatlarini amalga oshirish aniq-tarixiy sharoitlarida shakllanadi. Shuning uchun aniq milliy iqtisodiyotga nisbatan konseptual belgilarni asoslashda iqtisodiy rivojlanish sifatini uning rivojlanish darajasiga bog‘liq ravishda differentsiialash zarur.

Differentsiialash yondashuvi insonning qanday iqtisodiy fe‘l-atvor modelini tanlashini belgilovchi inson tabiati, norasmiy institSIONal an‘analar va madaniyatlarni hisobga olishdan kelib chiquvchi yangi rivojlanish sifatini shakllantirish harakatlari samaradorligini rad etmaydi, balki oshiradi.

6.6. Yangi intellektual iqtisodiyotga transformatsiialanish jarayoni

Intellektual bilimlar iqtisodiy o‘shishni asosiy omillaridan biri deb tan olinishi resurslar tanqisligi masalasini qayta ko‘rib chiqish va YAIM kengaytirish cheklanganligini tan olmaslikni taqozo etadi. Yangi iqtisodiy o‘shish modellari mehnat va kapital oldindan berilgan deb talqin etadi, ammo ularning chiqib kelish manbalarini kapital va ish kuchi qayerdan vujudga kelishini ko‘rib chiqmaydi. Bilimlar yangi innovatsiyalar va ishlab chiqarish samaradorligi manbai texnologik rivojlanishi xalqaro savdoda raqobatbardoshlikni ta‘minlash, inson va jismoniy kapital manbai deb qaraladi. Darhaqiqat, joriy globallashtuv mamlakat iqtisodiyotining bilimlarga asoslangan iqtisodiyotga aylanishi natijasida yuz bermoqda, bilimlar va texnologiyalar global o‘zgarishlarning “yuragi” va “aqlli” rolini bajarmoqda. Yangi iqtisodiy o‘shish nazariyasi boshqacha qilib aytganda bilimlarga asoslangan o‘shish nazariyasi deb yuritilmoqda, chunki bilimlar mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashning eng muhim omili deb qaralmoqda. Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot materiallari umuman olganda quyidagicha ifodalanadi. Tarixiy jihatdan qaralganda klassik ishlab chiqarish funksiyasida monoton taxminga binoan yalpi mahsulot kapital va ish kuchiga nisbatan funksiya deb o‘rganiladi.

Kobba-Duglas tomonidan xususiy holdagi ishlab chiqarish funksiyasi taklif etilgan. Yuqoridagi shartlar saqlangan holda R.Solou neoklassik o‘shish modelini yaratdi. Darhaqiqat, Solouning modeli tugallanmagan hisoblanadi, chunki unda

bandlik darajasi o'zgarmas, tabiiy darajada deb qabul qilinadi. Shu tufayli model qisqa muddatli mahsulot hajmi tebranishini tahlil eta olmaydi. Shuningdek, model iqtisodiyotning bir holatdan ikkinchi muvozanat holatga o'tishini isbotlay olmaydi. Bu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida P.Romer yangi o'sish nazariyasiga asos soldi. Uning talqiniga binoan iqtisodiy rivojlanishda yangi davr boshlandi va bilimlarga asoslangan iqtisodiyotda yalpi mahsulot bilimlarga nisbatan funksiya hisoblanadi va u $Y=F(B)$ bilan belgilanadi. Yangi o'sish nazariyasi (YAO'N) klassik Kobba-Duglas va Solou jismoniy modellarini texnologik taraqqiyotni aks ettiruvchi yangi omil, ya'ni bilimlar bilan to'ldiradi.

Professor Romer bilimlarni kodlashgan va aniq bilimlarga ajratadi. Aniq bilimlar yozma shaklda yoki shaxsga tegishli bo'lib, tajriba yoki mahorat shaklida bo'lishi mumkin. Bilimlar ijtimoiy-iqtisodiy tovar bo'lib, ular yangi g'oya, kashfiyotlar tarzida bo'lishi ham mumkin. Shu tufayli ular cheksiz miqdorda qo'llanilishi mumkin va ularga marjinal qaytimning pasayish qonuni amal qilmaydi. Ayniqsa, bilimlarning bu xususiyatida YAO'N katta ahamiyatga ega. Modomiki, klassik modelda ishlab chiqarish omillarining unumdorligi past. Klassik modelda omillarning pasayish tendensiyasi va marjinal xarajatlar oshishi optimal mahsulot-narx muvozanatini topishni zarur qilib qo'yadi. Bilimlarga asoslangan iqtisodiyotda bilimlar oldin yaratilgani tufayli, ularning marjinal xarajati nolga teng bo'ladi. Demak, bilimlarga asoslangan o'sish nazariyasida bozor muvozanati tahlili o'zgacha bo'ladi. Bilimlar ilg'ab bo'lmaydigan asosiy vositalar jumlasiga kirib, ular miqdoriy o'lchanishi va mamlakatlar bo'yicha qiyosiy taqqoslanishi lozim. YApon olimi Komotso ta'kidlashicha, endigi bilimlar globallashtirishning etakchi omili bo'lib, ular nisbiy o'lchovda ifodalanishi lozim. Jahon banki bilimlarni baholash usuli (BBU) ni taklif etdi va unga binoan bilimlarga asoslangan iqtisodiyot indeksi (BAII) to'rtta ustunning yig'indisidan iborat.

Professor Saysana BAIIning to'rtta o'lchami uchun boshqacha usulni taklif etdi. Uning e'tirozi bo'yicha jamlangan indeks to'rtta ko'rsatkich natijasida hisoblanadi, ammo ular yagona mazmunga ega o'lchov birligiga tayanmagan. Demak, BAI

mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston uchun hisoblash noto'g'ri xulosaga va noto'g'ri qaror qilishga olib kelishi mumkin. Makrodarajada qaror qabul qilishda barcha BAI ko'rsatkichlar e'tiborga olinishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi aholisining moddiy farovonligini oshirish strategiyasida yaqin kelajakda bilimlarga asoslangan iqtisodiyotga o'tish maqsadida inson kapitaliga katta sarmoya sarflash mo'ljallangan. Aytish joizki O'zbekiston iqtisodiyoti bu sohada sust o'zgarmoqda. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston jahonda bu ko'rsatkich bo'yicha 93 o'rinda turadi va yillik yaxshilanish sur'ati past. O'zbekistonda bilimlarga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirishda quyidagilar katta e'tibor berish zarur:

- subsidiyalar berish va yangi tashkilotlarni barpo etish. Demak, texnologik rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydigan institutlarni yaratish lozim;

- ta'lim va innovatsion yangiliklarni jadallashtirish. Bu ikkala element BAIning asosiy ustunlari hisoblanadi.

Iqtisodiy va institsional rejim, ta'lim

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Iqtisodiy o'sishning aniq texnologik modellari va g'oyalariga izoh bering?*
2. *Ilg'or mamlakatlardagi texnologiyalar boshqa bir davlatlarga nisbatan 2-3 yilga ilgarilab ketishiga asosiy sababini tushuntirib bering?*
3. *Texnologik rivojlanish nazariyalarini tushuntirib bering?*
4. *Iqtisodiy o'sishning endogen nazariyasini tushuntirib bering?*
5. *Endogen va ekzogen omillar deganda nimani tushunasiz?*
6. *Ekzogen omillar deganda nimani tushunasiz?*
7. *Texnologik jarayon asosida iqtisodiy o'sish omillarni tushuntirib bering?*
8. *G'oya deganda nimani tushunasiz?*
9. *Texnologiyalarning rivojlanishi Iqtisodiyotga bevosita ta'sirining mazmun va mohiyatini ayting?*
10. *Texnologiyalarning rivojlanishi Iqtisodiyotga bilvosita ta'sirining mazmun va mohiyatini ayting?*

YII BOB. TO‘LIQ BIR TARMOQLI NEOKLASSIK O‘SISH MODEL

O‘quv maqsadi: 20 asr boshlarida boy davlatlarning qashshok davlatlarga nisbatan rivojlanganligi va boyligi 20-40 baravar yukori bo‘lgan, 1870- 1990 yillardagi davlatlar ikgisodiyoti va ularda neoklassik modellarning rivojlanganlik darajasiga hamda iqtisodiy o‘shiga ta’sirining mazmunini aniqlashga doir nazariy bilimlarni shakllantirishdan iborat

Tayanch iboralar: ishlab chiqarish, noishlab chiqarish, investitsiya, innovatsiya, sifat, empirik model, mehnat omili, iqtisodiy o‘sh, texnologik model

7.1 Neoklassik o‘sh modellari tahlili

Iqtisodiy o‘sh modellari yalpi ishlab chiqarishning uzoq muddatli ko‘payishini taklif omillariga tayangan holda tahlil etish imkonini beradi. Boshqa iqtisodiy modellar singari iqtisodiy o‘sh modellari ham real jarayonlarni mavhum va soddalashgan ko‘rinishda, shartli tarzda grafiklarda va tenglamalarda aks ettiradi.

Iqtisodiy o‘shning keynscha va neoklassik modellari mavjud. Keynscha modellarning mohiyati quyidagicha asoslanadi:

ularning barchasi Keynsning yalpi talab to‘g‘risidagi bosh g‘oyasiga tayanadi. Ya’ni ularni tuzishda mualliflar iqtisodiyotni uzoq muddatli mutanosib rivojlanishining hal qiluvchi shart – yalpi talabni oshirish deb qaraladi;

iqtisodiy o‘shning asosiy omili investitsiyalar hisoblanadi, boshqa ishlab chiqarish omillari e’tiborga olinmaydi.

Keynscha iqtisodiy o‘sh modelidan farqli va soddaroq model 40-yillarda E.Domar tomonidan taklif etilgan. Keyns o‘z tahlilida investitsiyalarnig yalpi talabga ta’sirini o‘rgangani holda, yalpi taklifga ta’sirini ko‘rib chiqmaydi. Undan farqli tarzda Domar modelida mehnat bozorida ortiqcha taklif mavjud, bu baholarni barqaror holatda ushlab turadi, investitsion lag (**Lag** kapitalnix vlojeniy – razriv vo vremeni mejdu kapitalnimi vlojeniyami v proizvodstvo i polucheniem ekonomicheskogo effekta. Ishlab chiqarishga kiritilgan investitsiyadan olinadigan samaradorlikning namoyon bo‘lishi uchun ketgan vaqt) «0» ga teng, kapital quyilmalarning chegaraviy unumdorligi doimiy deb olinadi.

E.Domar investitsiyalarni ham talab ham taklif omili deb qaraydi. Ya'ni, investitsiyalar nafaqat multiplikativ ta'sir ko'rsatib yalpi talabni oshiradi, balki ishlab chiqarish quvvatlarini yuzaga keltirib, ishlab chiqarishni rivojlantiradi, tovarlar taklifini oshiradi – degan fikrni olg'a suradi. Shunday ekan, yalpi talabning o'sishi yalpi taklifning o'sishiga teng bo'lishi uchun investitsiyalar qanday o'sishi kerak degan savol paydo bo'ladi. Bu savolga javob topish uchun Domar uch tenglamani o'z ichiga olgan tenglamalar sistemasini tuzadi, bu:

taklif tenglamasi;

talab tenglamasi;

talab va taklif tengligini ifodalovchi tenglama.

1. Taklif tenglamasida investitsiyalar ishlab chiqarish omillarining qanchaga qo'shimcha o'sishini ko'rsatadi. Agar berilgan sharoitda investitsiyalar I o'ssa, yalpi ishlab chiqarish $DK\alpha$ miqdorga o'sadi, ya'ni: **$DYs = DK\alpha$**

DK investitsiyalar hisobiga ta'minlanganligi uchun tenglikni: **$DYs = I\alpha$** deb yozish mumkin. Bunda, α – kapital quyilmalar (investitsiyalar)ning chegaraviy unumdorligi. Agar bir yilda yalpi ishlab chiqarishni 1 mlrd. so'mga oshirish uchun 4 mlrd so'm investitsiya talab etilsa $\alpha=0,25$ bo'ladi. **$\alpha=DYs / I$** bir so'mlik investitsiya hisobiga yaratilgan yangi mahsulot miqdorini ko'rsatadi.

2. Talab tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega: $DYd = DI (1/\mu)$

bu yerda, $1/\mu$ – xarajatlar multiplikatori, μ – jamg'arishga chegaralangan moyillik.

Bu tenglama milliy daromad **DYd** , yoki yalpi talab qo'shimcha investitsiyalarning multiplikativ ko'payishiga teng miqdorda o'sishini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarishning to'plangan jami kapital bilan ta'minlanishi, milliy daromad esa qo'shimcha investitsiyalarning multiplikativ ta'siri ostida ko'payishi sababli, taklif tenglamasida jami investitsiyalar, talab tenglamasida esa qo'shimcha investitsiyalargina ko'rib chiqiladi.

3. Daromadlar va ishlab chiqarish quvvatlarining qo'shimcha o'sish sur'atlari tengligi tenglamasi: $DI (1/\mu) = I\alpha$

Bu tenglamani echib quyidagi natijani olamiz: **$D I / I = \mu \alpha$**

(DI / I) – investitsiyalarning yillik o'sish sur'ati bo'lib, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish yordamida to'liq bandlilikni ta'minlab turish uchun **($\mu \alpha$)** miqdorga teng bo'lishi kerak. Bundan xulosa shuki, investitsiyalarning mutanosib o'sish sur'ati jamg'arishga chegaralangan moyillik va investitsiyalarning unumdorligi (kapital qaytimi) darajalarining hosilasi ekan.

Agar $\mu=0,2$ $\alpha=0,4$ bo'lsa $DI/I = 0,2 * 0,4 = 0,08$ yoki 8 %

Demak, investitsiyalarning o'sish sur'ati 8% bo'lishi talab etiladi.

E.Domar modelidan kelib chiqadigan umumiy xulosa shuki, iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun investitsiyalar hajmini oshirish, buning uchun esa jamg'arish meyori hamda fan texnika taraqqiyoti orqali kapitalning samaradorligini oshirish zarur.

7.2. Neoklassik modellarning rivojlangan darajasiga va iqtisodiy o'sishga ta'siri

Iqtisodiy o'sishga ta'sir qiluvchi va ishlab chiqarishda amal qiladigan kuchlar - uning omillari hisoblanadi. O'sish yuz bermasa iqtisodiyot statik (o'zgarmas), aksincha bo'lsa, dinamik (rivojlanuvchi) holatda bo'ladi. Iqtisodiy dinamikani esa ishlab chiqarishni o'stiruvchi omillar ta'minlaydi. Eng so'nggi iqtisodiy o'sish nazariyalariga ko'ra, omillarning asosiylari: tabiiy resurslarning miqdori va sifati; mehnat resurslarining miqdori va sifati; ishlab chiqarishdagi asosiy kapital (fond) miqdori va tarkibi; ishlab chiqarishning texnologiya darajasi. Bu ishlab chiqarish omillarining hajmi va sifatini bildiradi, iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini anglatadi.

Iqtisodiy o'sishni ta'minlashning quyidagi yo'llari mavjud:

- ishlab chiqarish strukturasi yaxshilash;
- fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, ishlab chiqarish va mahsulotning texnik-iqtisodiy darajasini ko'tarish, fan va texnika yutuqlarini joriy etish muddatini qisqartirish;
- ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, kooperatsiyalash, kombinatsiyalash va hududiy joylashtirish darajasini oshirish;
- boshqarishning strukturasi, moliyalash, baholash va kreditlash hamda rag'batlantirish tizimini takomillashtirish;

- inson omilini kuchaytirish asosida mehnatkashlarning ijodiy faolligini va tashabbusini oshirishni yo'lga qo'yish;
- investitsiyalarni keng jalb qilish.

Iqtisodiy o'sishini ta'minlashning hal qiluvchi yo'llaridan yana biri - fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish orqali innovatsiyalarni joriy qilishdir.

Innovatsiyalar qo'llash xususiyatlariga ko'ra ikkita guruhga ajratiladi:

- yangi mahsulotlarni, buyumlar, moddalar, yarimfabrikatlar, butlovchi qismlarni qo'llashni yangi yoki mukammallashtirilgan mahsulotlarni yaratishni qamrab olgan mahsulot ko'rinishidagi innovatsiyalar;
- ishlab chiqarishni tashkil qilish yangi usullarni, yangi jarayonlarni, yangi texnologiyalarni va ular bilan bog'langan yangi jihozlar va asbob-uskunalarni qamrab olgan jarayon ko'rinishidagi innovatsiyalar.

Innovatsiyalarni quyidagi turlarini ajratiladi:

1. Yangiligiga ko'ra:

- yirik ixtirolarni amalga oshiradigan va texnikani yangi bo'g'inlarini va rivojlanish yo'nalishlarini shakllantirishga asos bo'ladigan bazis innovatsiyalar; odatda mayda va o'rta ixtirolarni amalga oshiradigan va ilmiy-texnik rivojlanish davrni tarqalish va barqaror bosqichlarida ustunlik qiladigan yaxshilaydigan innovatsiyalar; eskirgan texnika va texnologiya bo'g'inlarini qisman yaxshilanishiga qaratilgan soxta innovatsiyalar.

2. Qo'llanish xususiyatlariga ko'ra:

- yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishga va ishlatishga yo'naltirilgan mahsulot innovatsiyalari; yangi texnologiyani yaratishga va tatbiq qilishga qaratilgan texnologik innovatsiyalar;
- yangi tuzilmalarni qurish va harakatlantirishga moslangan ijtimoiy bir necha o'zgarishlarni ifodalaydigan kompleks innovatsiyalar; yangi bozorlarda mahsulotlarga, xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondiradigan bozor innovatsiyalari.

3. Kelib chiqish sababi va manbasi bo'yicha:

- fan va texnika rivojlanishidan kelib chiqqan innovatsiyalar;

- ishlab chiqarishning ehtiyojlarlaridan kelib chiqqan innovatsiyalar;
- bozor ehtiyojlarlaridan kelib chiqqan innovatsiyalar.

4. Qayta ishlab chiqarish jarayonidagi ahamiyatiga ko'ra:

- iste'mol innovatsiyalar; investitsion innovatsiyalar.

5. Innovatsiyani masshtabi bo'yicha:

- murakkab (sintetik) innovatsiyalar;
- sodda innovatsiyalar.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga faqatgina makroiqtisodiy barqarorlik va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash sifatida emas, balki aholi daromadlari manbalari turlarining ko'payishi, aholini ish bilan ta'minlash, mahalliyashtirish, ichki bozorni tovarlar bilan to'ldirish, mamlakat eksport salohiyatini oshirish masalalari sifatida ham qaralmoqda. Masalan, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida aholi daromadlari tarkibida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. Asosan daromad shakllari o'zgarishi, daromadlarning miqdor va sifat jihatidan tarkibiy qismlari o'zgarishi, daromadlardan foydalanishning yangi yo'nalishlari paydo bo'lishi aholini moddiy jihatdan rag'batlantirib, intilishi va izlanishi uchun rag'bat vazifasini o'tamoqda. O'z navbatida modernizatsiya jarayonlari ishlab chiqarish korxonalarini ham rag'batlantiradi, ham yangi tovar turlarini ishlab chiqarish, mahsulot sifatini yaxshilash talabini qo'yadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonlari inovatsiyalarning joriy qilinishi bilan birga yuz beradi. Modernizatsiya yangilash, zamonaviylashtirish ma'nolarini bildirsa, innovatsiya yangiliklarni joriy qilish degan ma'noni bildiradi. Innovatsiya jarayonlari modernizatsiyaning ichida ketadi. Agar modernizatsiyalashni strategiya deb olsak, innovatsiya jarayonlarini strategiyani amalga oshirish borasidagi taktik faoliyat desa bo'ladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilinishida innovatsion jarayonlarning asosan uchta yo'nalishi muhim hisoblanadi:

1. Xorijiy texnika-texnologiyalarning ishlab chiqarishga joriy qilinishi.

2. Mamlakatning ilm-fan slohiyati, ilm fan yutuqlarini, yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy qilish, ilmiy muassasalar va ishlab chiqarish korxonalarining o‘zaro hamkorligi.

3. Ishchi kuchining sifat darajasining yuqori bo‘lishi, tayyorlanayotgan kadrlarning bilim darajasi va ularning yangilikka intilishi, yangi texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirish ko‘nikma va qobiliyatlarining shakllantirilganligi.

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish sharoitida davlatning ilmiy-texnologik taraqqiyot sohasida innovatsiya va investitsiya faoliyati uchun zarur iqtisodiy imkoniyatlar yaratish o‘z tarkibiga soliq, moliya, kredit va bojxona siyosati kabilarni qamrab oluvchi bilvosita tartibga solishni amalga oshirish davlatning asosiy vazifalaridan sanaladi. Demak, davlat innovatsiya jarayonlarini bugungi kunda aynan ular mamlakat taraqqiyoti istiqbolini belgilaganligi tufayli ham tartibga solishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta’kidlash mumkinki, davlat innovatsiya siyosati 3 asosiy yo‘nalishga ajratiladi:

- innovatsiya faoliyatini faollashtirishni ta’minlash. U o‘z navbatida quyidagilarga bo‘linadi: fundamental tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, mamlakatda korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan tijorat innovatsiyalari uchun zarur iqtisodiy-ijtimoiy muhitni yaratish;
- ta’lim, ma’naviyat, ekologiya, ijtimoiy himoya, mudofaa kabi sohalarda davlat mas’uliyati talablariga javob beruvchi innovatsiyalarni yaratish va tarqatish borasidagi maqsadli dasturlar bo‘yicha davlat buyurtmalarini moliyalashtirish;
- alohida korxonalar uchun manfaatdor, ammo zarur darajada yuqori daromad keltirmaydigan ishlanmalar va yangiliklarni qo‘llab-quvvatlash va tanlab rag‘batlantirishni amalga oshirish.

Yuqorida berilgan yo‘nalishlarni birinchisi, umuman, milliy korxonalar raqobatbardoshligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan, jumladan, korxonalarda ishchi o‘rinlarini saqlash va yaratish bo‘lib, mazkur maqsadlar uchun soliq to‘lovchilar hisobidan tushuvchi mablag‘lar sarflanadi.

Ikkinchi yo‘nalish ta‘minotchilar va individual iste‘molchilar o‘rtasida bevosita ikki tomonlama kelishuvlar asosida o‘zlashtirilishi yoki sotilishi mumkin bo‘lmagan iste‘mol bozoriga xizmat ko‘rsatadi.

Uchinchi yo‘nalish ikkinchi yo‘nalish bilan munosabatga ega, ammo uncha kuchli bo‘lmagan oraliq hodisalar uchun mos bo‘lib, ularning tashqi ijtimoiy samaralari o‘z o‘rniga ega va davlatning notijorat mezonlari u yoki bu innovatsiyalarga nisbatan qo‘llaniladi.

Ayni damda, innovatsion faoliyatini an‘anaviy ishlab chiqarish faoliyatidan ajratuvchi tamoyillar tavsifi mavjudligini hisobga olish zarur:

1. Innovatsiya xarakteriga ega bo‘lgan va faqat kelgusida qoplanishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha xarajatlarga ehtiyojning mavjudligi. Shuni ta‘kidlash lozimki, har bir alohida olingan innovatsiyalarda bu sarflar individual xarakterga ega bo‘ladi – ular hajmi, qaytarish tezligi ko‘pgina ob‘ektiv va sub‘ektiv holatlarga bog‘liq bo‘ladi.

2. Innovatsiyaga sarflar va uni joriy etishdan olinadigan samara vaqt bo‘yicha mos kelmaydi. Jumladan, qandaydir yangi mahsulotni ishlab chiqarish butun davri davomida amalga oshirilgan sarflar uni sotish boshlanishi bilan qoplanmay, ma‘lum muddat o‘tishini talab etadi. Innovatsiyalarning qoplanish hisob-kitobida vaqt omili diskontlash usulini qo‘llash oqali amalga oshiriladi. Bu xo‘jalik sub‘ektining joriy va istiqboldagi manfaatlari birligini buzuvchi xususiyat bo‘lib, innovatsiya faoliyati bilan shug‘ullanish istagiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Ilg‘or innovatsiyalarning kichik foizlarni tashkil etishi, bunda ilg‘or innovatsiyalar nafaqat o‘zi uchun, shuningdek, samarasiz g‘oyalar uchun sarflarni kompensatsiyalaydi.

1. An‘anaviy ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar moliyaviy ko‘rsatkichlari yomonlashuvining oldini olish uchun alohida budget zarurati.

2. An‘anaviy faoliyatdan farq qiluvchi innovatsiya faoliyatini baholash mezonlarining qo‘llanishi. Masalan “foydaning yillik o‘sishi” mezonini har doim ham qo‘llab bo‘lmaydi, chunki innovatsiya mahsuloti yaqin istiqbol uch-to‘rt yilda

hech qanday foyda bermasdan, shundan so'ng foyda keskin ko'tarilib ketishi mumkin.

3. Barcha eskirgan vositalardan tizimli ravishda voz kyechish, bu esa o'z navbatida resurslarni yangi ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun ozod etish imkonini beradi.

4. Natijalardan resurslar sarfiga investitsiyalarga qarab uzviy aloqaning yo'qligi.

5. Aniq oraliq natijalar bermaydigan innovatsiyaga mablag' sarflashning oldini olish maqsadida ishni to'xtatish mumkin bo'lgan muddatni to'g'ri tanlash.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash o'z-o'zidan mamlakatimizda tovarlar ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan barcha turdagi iqtisodiy resurslarni oqilona ishlatishda asos bo'ladi.

Bizga ma'lumki, har qanday mamlakat milliy boyligining ortishi, uning iqtisodiy o'sishi, faqat tabiiy resurslar hisobidan emas, balki ishlab chiqarishda foydalanilayotgan texnika va texnologiyasining rivojlanganlik darajasiga ham bog'liq. Bu holatni P.Piluer quyidagi formula orqali izohlagan:

$$W = P \times Tn,$$

bu yerda: W – mamlakatning boyligi, P – tabiiy resurslar, T – texnologiya, n – texnika taraqqiyotining texnologiyaga ta'sir darajasi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Ishlab chiqarishning miqdoriy o'zgarishlari nimalardan iborat?*
2. *Miqdoriy o'zgarishda resurslarning rolini tushuntirib bering.*
3. *Unumdorlik nima va u qanday o'lchanadi?*
4. *Qaysi tamoyillar asosida ishlab chiqarish sohalariga investitsiyalar ajratiladi?*
5. *Xorijiy investitsiyalar qanday taqsimlanadi?*
6. *Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini tushuntirib bering.*
7. *Tarmoqlarda xorijiy investitsiyalar samaradorligini qanday aniqlash mumkin?*
8. *Ishlab chiqarishdagi sifat o'zgarishlar qanday aniqlanadi?*
9. *Innovatsiya nima va uni tarmoqlar va korxonalarda qanday aniqlash mumkin?*

VIII BOB. O'SISH VA RIVOJLANISHNING SODDA MODELI

O'quv maqsadi: rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy o'sish, Romer va Shempeter modellari, mikroiqtisodiy asosga ko'ra davlatlarda texnologik rivojlanishning sabablari, o'sish dvigatellari, bir yo'nalishdagi texnologiyalarning turli davlatlarda turli samaradorlikka egaligining mazmunini aniqlashga doir nazariy bilimlarni shakllantirishdan iborat

Tayanch iboralar: model, texnologiya, mikroiqtisodiyot, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish, noishlab chiqarish, investitsiya, innovatsiya, sifat, empirik model, mehnat omili, iqtisodiy o'sish, texnologik model

8.1. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy o'sish

Ma'lumki, pirovard mahsulot o'zida ishlab chiqarish va ishlab chiqarishdagi kapital qo'yilmalarni, har xil turdagi ishlab chiqarish zahiralarining o'zgarishlarini, ijtimoiy va shaxsiy iste'mol kabi sarf-xarajatlarni o'zida mujassamlaydi. Shuning uchun ham pirovard mahsulot hajmiga asoslangan bir o'lchamli iqtisodiy o'sish tahlilida asosiy e'tiborni

205pirovard mahsulotlarga taalluqli bo'lgan milliy hisoblar tizimiga o'tkazilishi zarur. Chunki, har qanday ijtimoiy foydali faoliyat unumli mehnat hisoblanadi va demak, uning qiymati pirovard mahsulotlar ko'rsatkichlarida qayd etiladi.

Jahonda kechayotgan globallashuv va integratsiya sharoitida iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillarini ekonometrik usullar va kompyuter texnologiyalari yordamida o'rganish, tadqiq qilish va ularni ilmiy asosda miqdoriy baholash zarur hisoblanadi. Umuman, bular, nafaqat butun iqtisodiyotning rivojlanishini tartibga solishda, balki tarmoqlar, birlashmalar va korxonalar rivojlanish ko'rsatkichlarining tahlilida, ular uchun uzoq muddatli prognozlar tuzishda ham e'tiborga olinishi mumkin.

Iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillarini, talab va taklif tomon omillari, kabi guruhlash asosiysidir. Umuman, talab va taklif omillari o'zaro bog'liqdir. Jami talab oshsa va qo'shimcha resurslardan samarali foydalaniladigan bo'lsa, ishlab chiqarish

potensialining, taklifning oshishi kuzatiladi. Jami talab miqdori, uning o'zgarishlari va taqsimlash va iste'mol mexanizmining takomillashishi eng muhim omildir, lekin bu qanchalik muhim bo'lmasin, uzoq muddat qaralganda, iqtisodiy o'sish natijalari, taklif va ishlab chiqarish tomondagi omillar (xususan, ilmiy- texnikaviy taraqqiyot, inson salohiyati omili, intensiv omillar, 1-jadval) bilan belgilanadi. Shuningdek, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, xususan, boshqaruv qobiliyatining, umummilliy ma'naviy-ruhiy muhitning ham roli beqiyosdir.

Milliy iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ifodalovchi mezon va ko'rsatkichlarni aniq bilish, ularning qaysi omillarga va qanday bog'liqliqda ekanligini aniq tasavvur qilish ham o'ta muhimdir. Iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini, aslida, ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlardan birginasi emas, ularning kompleksi bo'yicha baholash mumkin.

8.1.1-jadval

Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar majmuasi

Miqdoriy xarakteristikaga ega omillar	Sifat omillari	Shartli (ballarda) baholanadigan omillar
Asosiy (birinchi darajali) omillar	Ikkinchi darajali omillar	Tasodifiy omillar
Bevosita kuzatiladigan (o'lchanadigan) omillar	Bevosita kuzatilmaydigan (o'lchanmaydigan) omillar	
Murakkab (kompleks) omillar	Oddiy (birlamchi) omillar	
Ichki omillar	Tashqi omillar	
Juda chuqur yashirin (yuqori tartibli) omillar	Yashirin (2-tartibli latent) omillar	Yuzaki ko'zga tashlanadigan (1-tartibli) omillar
Rostlanuvchi (boshqariluvchi) Omillar	Qisman rostlanuvchi omillar	Tartibga solinmaydigan omillar
Qisqa muddatli	O'rta muddatli	Uzoq muddatli ta'sirlar
Talab tomon omillari	Taklif tomon omillari	
Iqtisodiy rivojlanishni bevosita tezlashtiruvchi omillar	Iqtisodiy rivojlanishga bilvosita ijobiy ta'sir etuvchi omillar	Iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiruvchi omillar (unga tahdidlar va xavflar)

Intensiv omillar	Ekstensiv omillar	Sintetik omillar
Iqtisodiy-ijtimoiy	Ilmiy-texnikaviy	Ma'naviy, ruhiy, axloqiy, siyosiy, ekologik, tabiiy-geografik tarzidagi va hokazo.

Barqaror iqtisodiy rivojlanishning va makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat:

- aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YAIM), milliy daromad (MD) ning qator yillar davomida o'sishi (YAIM, MD o'sishi aholi o'sishidan yuqoriligi);
- aholi real daromadlarining o'sishi;
- aholi daromadlarida jamg'armalar ulushining ortishi;
- inflyatsiya darajasining tabiiy minimumi;
- ishsizlik darajasining tabiiy minimumi;
- davlat budjeti kamomadi minimumi;
- joriy to'lov hisobi balansi kamomadi;
- tashqi va ichki qarzlar (barqarorlikka xavfsiz chegaradan oshmasligi);
- samaradorlik ko'rsatkichlarining yaxshilanishi (xususan, YAIMda energiya sig'imi ko'rsatkichining kamayishi;
- sanoat mahsulotlari material sig'imining kamayishi;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligining oshishi;
- mehnat unumdorligining o'sishi;
- ishlab chiqarish rentabelligining oshishi; eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushining oshishi).

Bular orasidan eng asosiysi, ya'ni eng asosiy makromaqsad: ishsizlik va inflyatsiyaning tabiiy minimumida maksimal iqtisodiy rivojlanishga (aholi turmush darajasining maksimumiga) erishishdir. Albatta, qolganlari ham, muhim, o'ta zaruriy shartlardir. Shunday ekan, aynan ushbu makromaqsad bilan, shunday barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sish bilan bog'liq muammolar va ko'rsatkichlar asosiy hisoblanishi va aynan shularni o'rganish, shularga e'tiborni qaratish muhimdir.

Ma'lumki, BMT tomonidan iqtisodiy o'sishning va turmush darajasining asosiy indikatori sifatida jon boshiga yalpi mahsulot (YAIM) yoki milliy daromad ko'rsatkichi tavsiya etilgan. YAIMning o'sishi to'g'ridan- to'g'ri aholining turmush darajasiga ta'sir qiladi. YAIMning o'sish sur'ati (dQ/Q) aholining o'sish sur'atidan (dL/L) qancha yuqori bo'lsa, uning turmush darajasi ham shuncha yuqori darajada o'sadi. Demak, bularni, iqtisodiy aksioma sifatida qabul qilib, sanalgan va quyida yana aniqlanadigan mezon va ko'rsatkichlarni ham e'tiborga olishimiz zarur. Boshqa tomondan, YAIMning o'sishi, o'sib borayotgan aholini ish bilan ta'minlashda ham muhimdir. Shuninguchun ham, har bir mamlakatda davlat organlari iqtisodiy o'sishga o'ze'tiborini qaratadi va u davlatning iqtisodiy siyosatida muhim o'rin tutadi.

Iqtisodiy rivojlanishning birlamchi manbasi - bu mamlakatdagi ishlab chiqarish omillari va resurslarning miqdori hamda sifatidir.

Asosiy ishlab chiqarish omillari quyidagilardan iborat:

- kapital - binolar, inshootlar, jihozlar, uskunalar, texnologik liniyalar va h.k.;
- mehnat - malakali va malakasiz mehnat, boshqaruv mehnati; hozirgi sharoitda tadbirkorlik qobiliyatiga ega bo'lgan o'ziga xos mehnat resurslarini ham alohida ajratish muhim;
- axborotlar - ayniqsa, bozor segmentlari va talab bo'yicha, tovarlarning narxlari bo'yicha axborotlar, xomashyo, uning sifati, miqdori, yangitexnologiyalar, yangi uskuna-jihozlar va yangi mahsulotlar to'g'risidagi axborotlar rivojlanish uchun muhimdir; hozirgi sharoitda har qanday iqtisodiy faoliyatni kerakli axborotlarsiz va bilimlarsiz tasavvur qilish qiyin;
- materiallar - xomashyo, elektr energiyasi, gaz, butlovchi qismlar va yarimfabrikatlar. Xomashyo manbasining etarli darajada bo'lishi, ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Iqtisodiy rivojlanishning yana bir muhim manbasi va omili - ilmiy- texnik taraqqiyot (ITT) dir. ITTning asosiy ko'rsatkichlari - bir yil davomida yaratilgan yangi jihozlar, uskunalar, texnologiyalar soni va ularni ishlab chiqarishga joriy

qilinishi, yangi kashfiyotlar bo'yicha patentlar, raqionalizatorlik takliflari soni, har ming kishiga to'g'ri keladigan mutaxassislar soni (ayniqsa, zamonaviy yo'nalishdagi oliy ma'lumotli mutaxassislar, fan nomzodlari, fan doktorlari, akademiklar soni).

Iqtisodiy rivojlanishning yana bir manbai - bu ishlab chiqarishni tashkil etishning yuqori samarali shakllari, xususan, ichki va tashqi ixtisoslashuv, kooperatsiya va kombinatsiyalashdir.

Iqtisodiy o'sishning asosiy ko'rsatkichlari, manbalari va omillarini o'rganish, ularning ishlab chiqarishning o'sishiga ta'sirini miqdoriy tahlil etish, ulardan yanada samarali foydalanish imkoniyatlarini ochishga yordam beradi. Iqtisodiy rivojlanishni o'rganishda va omillar ta'sirini miqdoriy baholashda ishlab chiqarish funksiyasidan (IChF) foydalanish maqsadga muvofiq. Ishlab chiqarish funksiyasi - ishlab chiqarishga jalb qilingan asosiy ishlab chiqarish omillari (taklif tomon omillari) va ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori o'rtasidagi miqdoriy bog'lanishni aks ettiradi.

Iqtisodiy rivojlanishga yangi yondashuvlardan biri investitsiyalarga va ularning tashqi samarasiga asoslanadi. Investitsiyalar - nafaqat mehnatning, balki kapitalning ham samaradorligini oshiradi va "tashqi ijobiy ta'sirlarga" ega. Investitsiyalarning bu "tashqi samarasi" ko'pincha bevosita baholanmaydi, shuning uchun kapitalning iqtisodiy o'sishga qo'shgan "xissasi" odatda kamroq baholanadi. Ayniqsa, inson omiliga investitsiyalar o'ta muhimdir.

Jahonda va O'zbekistonda oxirgi yillarda iqtisodiy rivojlanishga bo'lgan munosabatda kuzatilayotgan ba'zi yangi tendensiyalarni ko'rib o'tamiz. Keyingi paytlarda an'anaviy miqdoriy iqtisodiy o'sish nazariyalaridan inson salohiyotining barqaror rivojlanish konsepsiyasiga o'tish kuzatilmoqda.

8.2. Iqtisodiy rivojlanishni aks ettiruvchi asosiy modellar

Barcha rivojlangan mamlakatlarda matematik va instrumental usullar va modellar, ham amaliy masalalarni yechishda, ham ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni nazariy o'rganishda ishlatiladi. Yangi kompyuterlar va axborot texnologiyalarning takomillashib borishi jarayonida makroiqtisodiy ustuvor masalalarni yechishda bu usullar va modellarning roli yanada oshib boradi. Xususan, dinamik tarmoqlararo

balanslar (DTAB) modellarini boshqa modellar bilan birgalikda qo‘llash, tashqi aloqalarni e’tiborga olish, zarurligi Yuqorida eslatilgan tizimli va situativ yondashuvlar yanada dolzarb bo‘lib boradi. Jahon miqyosidagi globallashuv va integratsiya jarayoni shuni taqozo qiladi.

Nazariy jihatdan ham makroiqtisodiy tahlil va prognozning turli bosqichlari, darajalari va muddatlari bo‘yicha bu modellarni tartiblash va tasniflash talab qilinadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etuvchi asosiy omillarni o‘zida aks ettirish imkonini beruvchi makromodellarning asosiy turlari va tasnifi quyidagi 8.2.1-jadvalda keltirilgan.

8.2.1-jadval

Makroiqtisodiy modellarning tasnifi

№	Tasniflash alomatlari	Makroiqtisodiy modellarning asosiy turlari
1	Ilmiy-metodologik asos	Neoklassik, keynscha, monetar, endogen o‘shish nazariyalari
2	Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar turlari	Rivojlangan industrial va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti, o‘tish davri iqtisodiyoti makromodellari; abstrakt makromodellar
3	Makroiqtisodiy maqsad, dasturiy vazifa	Nazariy tahlil, prognoz, milliy iqtisodiyotni rostdash va moliyaviy dasturlash; konseptual-nazariy, konstruktiv va amaliy (davlat organlari, vazirliklar tomonidan ishlatiladigan va ishlatilmaydigan); empirik, grafik (illyustrativ) va analitik modellar
4	Asosiy problematika	Iqtisodiy muvozanat (shartlari), muvozanatli o‘shish, balanslangan o‘shish (shartlari), magistral traektoriya bo‘yicha rivojlanish va optimal iqtisodiy o‘shish (optimallik shartlari)

5	Dinamika	Statik, kinematik (ko‘p davrli, ko‘p qadamli), dinamik makromodellar; iqtisodiy jarayonlar (tikllar) e‘tiborga olingan, olinmagan makromodellar; optimallik, magistral xossalar e‘tiborga olingan, olinmagan dinamik makromodellar
6	Vaqt koordinatasi	Diskret (uzlukli-farqlar tenglamalari), uzluksiz vaqtli (differensial tenglamalar)
7	Funksional bog‘lanishlar turi	Chiziqli, qavariq, nochiziqli (kvadratik, eksponensial va b.)
8	Stoxastika (ehtimollik elementi)	Stoxastik, determinatsiyalashgan makromodellar
9	O‘lchami (sektor yoki tarmoqlar soni)	Bir sektorli, ikki sektorli va ko‘p sektorli; kichik (kam) o‘lchamli, o‘rta va ko‘p o‘lchamli (katta makroekonometrikmodellar, KMEM)
10	O‘lchov birligi	Miqdoriy-natural, pul-qiymat (doimiy va joriy narxlarda); absolyut va nisbiy ko‘rsatkichlar
11	Qo‘rib chiqish muddati	Qisqa, o‘rta va uzoq muddatli
12	Butun iqtisodiy tizim yoki ba’zi alohida elementlari; boshqarish darajalari	Global, lokal; butun iqtisodiyotning makromodeli, tovarlar, xizmatlar, mehnat, kapital, valyuta bozori modellari; tashqi aloqalar e‘tiborga olingan va olinmagan modellar; iste‘mol, jamg‘arma, investitsiyalar modellari; boshqarish darajalariga mos modellar

13	Tashqi bog‘lanishlar	Ochiq va yopiq modellar; kapital oqimi erkin, cheklangan, yo‘q; valyuta almashuv rejimlari e‘tiborga olingan, olinmagan makromodellar
----	----------------------	---

14	Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot	Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot e'tiborga olingan, olinmagan makromodellar; ekzogen, endogen ITTli(avtonom, neytral ITTli)
15	Muvozanat	Dinamik muvozanat e'tiborga olingan, olinmagan
16	Balans, optimallashtirish shartlari	Balans modellari, optimizatsiya modellari, ekonometrik modellar; matematik-statistik; imitatsion va h.k.
17	Tarmoqlararo balanslar (TAB)	TABga asoslangan, asoslanmagan makromodellar
18	Indikatorlar	Indikatorlar qatnashgan, qatnashmagan modellar
19	Ssenariylar	Ssenariylar imkonini beradigan, bermaydigan
20	Kompyuter dasturlari	Standart dasturiy ta'minotga ega, o'rta murakkablikka ega, o'ta murakkab (xususan, evristik) modellar; qisqa muddatli makroindikativ rejalar, uzoq muddatli strategik reja-prognozlar tuzish, monitoring va maslahat axborot tizimlari
21	MHT (SNS) ma'lumotlari	MHT ma'lumotlari etarli, etarli emas; MHTga asoslangan, asoslanmagan makromodellar
22	Asosiy ifodalash shakli	Grafik, analitik, algoritmik va aralash

Makromodellar dinamik yoki statik turlarga bo'linadi. Barqaror va muvozanatli iqtisodiy o'sish dinamikasini – shunga mos dinamik modellar asosida o'rganish kerak. Ma'lumki, dinamik modellarda vaqt uzluksiz (t) yoki diskret tarzda (t) bo'lishi mumkin. Shuningdek, makromodellar chiziqli va nochiziqli turlarga bo'linadi.

Bunday tasniflash alomatlari va shularga asoslanib ajratiladigan modellarning turlari 2-jadvalda ko'rsatilgan.

Makroiqtisodiy tahlil usullari va modellarning tasnifi ularning funksional vazifalariga qarab ham bajarilishi mumkin. Masalan, mamlakat iqtisodiyotidagi makroiqtisodiy jarayonlarni o'rganishda rivojlanishning umumiy tendensiyalari va qonuniyatlarini ifodalovchi modellarni, makroiqtisodiy indikatorlarni, tahlil va prognoz qilish modellari, ichki va tashqi "turtkilarni" (shoklar) aks ettiruvchi, ularning iqtisodiyotning real sektorlariga ta'sirini baholovchi modellarni alohida ajratish kerak.

Bulardan tashqari, ba'zi amaliy masalalarni yechishda umumiyroq tarzdagi modellar bilan birga, xususiy amaliy modellarni, jumladan, Milliy hisoblar tizimi (MHT)ga, boshqa ma'lumotlarga asoslangan ekonometrik modellarni ham qo'llash mumkin va muhimdir.

Shuningdek, jami talab (Q^D) va taklif (Q^S) muvozanati dinamikasi modellarini, jami talabning asosiy tarkibiy qismlari: iste'molga sarflar (C), investitsion sarflar (I), davlat sarflari (G) modellari, jami taklif funksiyasi sifatida qarash mumkin bo'lgan ishlab chiqarish funksiyalarini (IChF), tovarlar, xizmatlar, kapital, mehnat, pul, valyuta bozorlarining umumiy muvozanati modellarini ham, qisqa muddatli prognozlar uchunishlatish mumkin.

Konkret raqamlarga asoslangan katta makroekonometrik modellar biror mamlakat yoki jahon iqtisodiyotini ifodalovchi, yuzlab ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanishlarni aks ettiruvchi modellardir. Bularni amalda tuzish uchun ko'p mutaxassislar ishtiroki, ko'plab ma'lumotlar va kompyuterlar kerak bo'ladi. Ular, endogen (ekzogen) o'zgaruvchilarning konkret qiymatlariga ekzogen (endogen) o'zgaruvchilarning qaysi qiymatlari mos kelishini ko'rsatadi. Shuningdek, kichik o'lchamli makroekonometrik modellarning ham o'z o'rnini bor. Iqtisodiy rivojlanishning yana bir tur modellarida vaqt lag (vaqtbo'yicha kechikib bo'ladigan ta'sirlar) ham ko'rib chiqiladi.

Iqtisodiy o'sishga ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning (ITT) ta'sirini makromodellarda e'tiborga olishning ikki asosiy varianti bor: avtonom (ekzogen) ITTlik modellar va endogen ITTlik modellar. Bu modellar – mamlakat, hudud va katta korxonalar uchun ishlab chiqarishning uzoq muddat davomida fan va texnika yutuqlarini qo'llab o'sishini ifodalaydi.

Ko'p sektorli modellardan nisbatan chuqurroq o'rganilganlari tarmoqlararo balanslar (TAB) modellariga asoslanadi. TAB: bir tomondan, iqtisodiy o'sish maqsadlarini va omillarini o'zaro moslash uchun, ikkinchi tomondan, mumkin bo'lgan (potensial, mobilizatsion) iqtisodiy o'sish sur'atlarini baholash uchun qo'llaniladi.

Muvozanatli va balanslangan iqtisodiy rivojlanish – ishlab chiqarish omillarining (kapital, mehnat va h.k.), iste'mol va jamg'armalarning o'zaro mutanosib bo'lishini talab qiladi.

Barcha mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanishni ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkich bo'lib, yalpi milliy mahsulot (YAMM) hisoblanadi. Chunki, YAMM mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning bozor baholaridagi qiymatidir. Uning asosida milliy iqtisodiyotning qanchalik samarali faoliyat olib borayotganligini aniqlash mumkin.

YAlpi milliy mahsulot (YAMM) ni hisoblash usullarini o'rganishdan oldin makroiqtisodiy holatni aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichlarga to'xtalib o'tamiz. Bu ko'rsatkichlarga:

- yalpi milliy mahsulot (YAMM), yalpi ichki mahsulot (YAIM), milliy daromad (MD);
- davlat budjeti taqchilligi, deflyator, iste'mol baholari indeksi, inflyatsiyaning o'sish sur'atlari;
- ishsizlik darajasi va ishsizlar soni, aholining ish bilan bandlikdarajasi;
- aholining moddiy ne'matlar va xizmatlar iste'moli hajmi, ularning jamg'armalari, ish haqining quyi miqdori va boshqalar kiradi.

Bu ko'rsatkichlar iqtisodiy tizimning umumiy holatini ifodalab, ijtimoiy ishlab chiqarishda barcha qatnashuvchilar (korxona, tarmoq, mintaq, davlat) va uy xo'jaligi faoliyatlari natijalari asosida aniqlanadi. Milliy hisoblar tizimiga ko'ra asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich YAMM ko'rsatkichi hisoblanadi va u iqtisodiyotda bir yil davomida ishlab chiqarilgan yakuniy tovar va xizmatlar jami hajmining bozor bahosi yig'indisi orqali aniqlanadi.

Ma'lumki, hisobot yilida ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlar hamsotilmaydi, ularning ayrimlari zahirani to'ldiradi. Zahiralarni to'ldirishga ketgan har qanday mahsulot YAMMni hisoblashda hisobga olinishi lozim. Chunki, YAMM miqdori orqali sotilgan yoki sotilmaganidan qat'iy nazar mahsulot joriy yilda ishlab chiqarilgan mahsulot hisoblanadi. Shumunosabat bilan YAMM tushunchasi ma'lum darajada izoh talab qiladi.

Birinchidan, YAMM yillik ishlab chiqarishning bozor qiymati orqali o'lchanadi va pulda ifodalanuvchi ko'rsatkich hisoblanadi. Turli yillarda ishlab chiqarilgan har xil mahsulotlar miqdorini solishtirish uchun ularning nisbiy qiymatini bilish lozim.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish hajmini to'g'ri hisoblash uchun joriy yilda ishlab chiqarilgan tovar va ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bir marta hisobga olinish kerak. Ko'pgina mahsulotlar bozorga borguncha bir nechta ishlab chiqarish bosqichini o'taydi. Shu sababli YAMMda ayrim mahsulotlarni ikki va undan ko'p marta hisobga olmaslik uchun, faqat pirovard mahsulotning bozor qiymati hisobga olinadi, oraliq mahsulotlar esa hisobga olinmaydi.

Pirovard mahsulot iste'mol uchun sotib olinadigan tugal mahsulot (tovar va xizmat) lardir.

Oraliq mahsulot deganda, qayta ishlash yoki sotish uchun sotib olingan tovar va xizmatlar tushuniladi. YAMMda mahsulotlarning yakuniy sotish qiymati hisobga olinadi, oraliq qiymat esa hisobga olinmaydi. Chunki, oraliq qiymat hisobga olinsa ayrim mahsulotlar qiymati ko'p marta hisobga olingan bo'lar edi. Milliy daromadni hisoblashda ikki yoqlama hisobga olmaslik uchun, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni

har tomonlama o'rganib chiqish va faqat, har bir firmada yaratilgan qo'shilgan qiymatni hisobga olish zarur. Qo'shilgan qiymat tovar va xizmatlarning sotish bahosidan ularni ishlab chiqarish uchun sotib olingan xomashyo va materiallar qiymati ayirib tashlanib topiladi.

Uchinchidan, YAMMga noishlab chiqarish bitimlari bo'yicha tushumlar qo'shilmaydi. Noishlab chiqarish bitimlariga sof moliyaviy bitimlar va ishlatilgan tovarlarni sotish kiradi.

Moliyaviy bitimlar o'z navbatida uchta asosiy turga bo'linadi: davlat budjetidan transfert to'lovlari, xususiy transfert to'lovlar va qimmatli qog'ozlarni sotish. Davlat budjetidan transfert to'lovlariga ijtimoiy sug'urta bo'yicha to'lovlar, ishsizlarga va nafaqaxo'rlarga, nogironlarga va kam daromadli oilalarga beriladigan nafaqalar, talabalarga stipendiyalar kiradi. Davlat transfert to'lovlarining asosiy xususiyati shundaki, nafaqaxo'rlar nafaqa evaziga davlatga hech narsa bermaydi. Xususiy transfert to'lovlariga masalan, talabalarga ota-onasi beradigan pul va qarindosh urug'lari beradigan bir martalik to'lovlar kiradi.

Sotilgan qimmatli qog'ozlar (akuiya va obligatsiyalar) va ishlatilgan tovarlarni sotish ham YAMM tarkibiga kiritilmaydi, chunki, bunday tovarlarni sotish joriy ishlab chiqirashni bildirmaydi (8.2.2-jadval).

**YAMM ikki xil usulda - ishlab chiqarish xarajatlari va daromadlari
bo'yicha aniqlash**

Ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha	ndan olingan daromadlarbo'yicha
1. Uy xo'jaliklarining iste'molxarajatlari. 2. Biznesga investitsiya xarajatlari yoki yalpi xususiy ichki investitsiyalar. Tovar va xizmatlarning davlat xaridi. Sof eksport.	1. Daromadlarni to'lash bilan bog'liq bo'lmagan xarajat va to'lovlar (amortizatsiyava biznesga bilvosita soliqlar). Ish haqi. Renta to'lovlari. Foiz. Individual mulkdan olingan daromad. Korporatsiyalar foydasi.

To'rtinchidan, YAMMni hisoblashda ikki tomonlama yondashiladi. Birinchi yondashuvda YAMM iste'molchilarning yangidan yaratilgan yakuniy mahsulotlarni sotib olishga ketgan barcha xarajatlari miqdori bo'yicha aniqlanadi. Bu usul YAMMni hisoblashning xarajatlar usuli deyiladi. Ikkinchi yondashuvda esa YAMM tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish jarayonidayaratilgan daromadlarning yig'indisi miqdori asosida aniqlanadi. Bu usul YAMMni daromadlar yordamida aniqlash usuli deyiladi.

YAMMni ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha hisoblashda asosan pirovard mahsulot va xizmatlarni yaratishga ketgan barcha xarajatlar hisobga olinadi. Bularga: Uy xo'jaligining iste'moli xarajatlari (C):

a) uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol buyumlari; b) kundalik foydalaniladigan iste'mol buyumlari;

v) iste'mol xizmatlariga ketadigan xarajatlar. YAlpi ichki xususiy investitsiya xarajatlari (I):

a) asbob-uskunalar, mashinalarni yakuniy sotib olish;

b) korxonalar, omborlar, turarjoy binolarini qurishga sarflangan xarajatlar;

v) tovar zahiralari o'rtasidagi farqlar yoki zahiralarning o'zgarishlaridan iborat bo'ladi.

Tovar va xizmatlarning davlat xaridi (G) bo'yicha xarajatlarga, chunonchi, mahalliy va markaziy boshqaruv hoqimiyat idoralari tomonidan korxonalarning pirovard mahsulotlar va resurslar xaridi (qurol-yarog' sotib olish, avtomobil yo'llari va pochta muassasalari qurilishi, davlat korxonalarida to'lanadigan ish haqi) xarajatlari kiritiladi. Lekin, bu o'rinda ta'kidlash lozimki, bu xarajatlarga davlat transfert to'lovlari kiritilmaydi.

Sof eksport (Xn) yoki mamlakatning import va eksport operatsiyalari bo'yicha xarajatlar o'rtasidagi farq (4-jadval).

Shunday qilib, YAMMni xarajatlar orqali hisoblash, asosan Yuqorida ko'rsatib o'tilgan 4 guruh xarajatlari orqali olib boriladi.

YAMM xarajatlar bo'yicha quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$YAMM = S + I + G + Xn.$$

YAMMni ishlab chiqaruvchilarning barcha daromadlari yig'indisi ko'rinishida hisoblashda asosan quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

- birinchidan, iste'mol qilingan kapital hajmi (CCA) yoki amortizatsiya, ya'ni, joriy yildagi YAMMni ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan investitsiya tovarlarini sotib olishga mo'ljallangan ajratmalar bo'yicha ko'rsatkichlardan;
- ikkinchidan, biznesga egri soliqlar (T) - mahsulot bahosini oshiruvchi, ishlab chiqarishga bog'liq bo'lmagan xarajatlar, hisoblanadi. Jumladan, sotishdan olinadigan soliq, aksizlar, mulkka soliqlar, liqenziya to'lovlari va bojxona bojlari bo'yicha ko'rsatkichlar;
- uchinchidan, yollanma ishchilarning ish haqlari (W), ya'ni xususiy va davlat kompaniyalarining ish haqi to'lashga sarflagan umumiy xarajatlari (ish haqi va quyidagi qo'shimchalar: ijtimoiy sug'urta, nafaqa, bandlik va boshqa ijtimoiy fondlarga ajratmalar hamda badallar) bojlari bo'yicha ko'rsatkichlar;
- to'rtinchidan, ijara haqi ($R1$), xususan, bu iqtisodiyotni mulk resurslari bilan ta'minlovchi uy xo'jaliklarining daromadlari (masalan, ijaraga berilgan turarjoylar,

binolar, asbob-uskunalar, yer va boshqalardan olinadigan daromadlar) bo'yicha ko'rsatkichlar;

➤ beshinchidan, foiz stavkalari yoki foizli daromadlar (R) - pul kapitalini etkazib beruvchilarga xususiy biznes daromadidan pul to'lovlari bo'yicha ko'rsatkichlar;

➤ oltinchidan, mulkdan keladigan daromad yoki foyda (P), mulk egalarining daromatlari va Korporatsiyalar olgan foyda ko'rsatkichlaridan.

8.2.5-jadval

YAlpi milliy mahsulotni aniqlashga ikki xil yondashuv

№	YAMMni tovar va xizmatlar sotib olishga mo'ljallangan barcha xarajatlari bo'yicha o'lchash	Shartli Belgilar	Miqdor
1.	Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari	S	63,0
2.	Biznesga investitsiya xarajatlari yoki yalpi xususiy ichki investitsiyalar	I	18,0
3.	Tovar va xizmatlarning davlat xaridi	G	21,0
4.	Sof eksport	Xn	-2,0
	Jami: $YAMM = S + I + G + Xn$	Y	100,0
	YAMMni barcha daromadlar bo'yicha o'lchash		
1.	Iste'mol qilingan kapital hajmi	A	9,0
2.	Biznesga egri soliqlar	T	7,0
3.	Yollanma ishchilarning ish haqlari va		
	Ijtimoiy sug'urta ajratmalari	W	61,0
4.	Ijara haqi	$R1$	1,0
5.	Foiz stavkasi	$R2$	7,0
6.	Individual mulkdan olinadigan daromadlar	$P1$	6,0
7.	Korporatsiyalar foydasiga soliqlar	$P2.1$	5,0
8.	Dividendlar	$P2.2$	2,0
9.	Taqsimlanmaydigan foydalar	$P2.3$	2,0
	Jami: $YAMM = A + T + W + R + R1 + P1 + P2.1 + P2.2 + P2.3$	Y	100,0

Korporatsiyalarning foydasi quyidagilarga bo‘linadi; a) olgan foydaga soliq yoki foyda solig‘i;

b) xissadorlar o‘rtasida taqsimlanadigan dividendlar; v) taqsimlanmagan foyda.

Mamlakat milliy hisobchilik tizimida, YAMM ko‘rsatkichidan tashqari, o‘zaro aloqada bo‘lgan bir nechta ko‘rsatkichlar mavjud. Milliy hisobchilik tizimi to‘g‘risidagi tushunchalarni kengaytirish uchun aynan shu ko‘rsatkichlarning tashkil topish manbalarini o‘rganamiz. Bu ko‘rsatkichlar sirasiga YAIM, SMM, MD, ixtiyordagi daromad va soliqlar to‘langandan keyingi daromadlarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni kiritishimiz mumkin.

YAIM ham YAMM kabi moddiy ishlab chiqarish va xizmatlar natijasida tashkil topadi.

YAIM - bu biror mamlakat hududida joylashgan korxona va tashkilotda ma‘lum muddat davomida ishlab chiqarilgan pirovard tovar va ko‘rsatilgan xizmatlarning umumiy yig‘indisidan iborat. YAIM YAMMdan muayyan mamlakat Yuridik va jismoniy shaxslarining xorijdan oladigan foyda va daromadlari hamda xorijiy investorlar shu mamlakatda olgan foyda va daromad o‘rtasidagi farqlar bo‘yicha ajralib turadi. Ya’ni:

YAMM	YAMM	Muayyan mamlakat		Xorijiy investorlar va
=	+	Yuridik va jismoniy	–	ishchilarni shu
		shaxslarining xorijdan		mamlakatda olgan
		oladigan foyda		foyda
		va daromadlari		va daromadlari

YAMMni hisoblashda ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘yilishi tabiiy. Chunki, hisobot yilida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot miqdoriga shu mahsulotni ishlab chiqarishda iste‘mol qilingan asosiy ishlab chiqarish vositalari qiymati qo‘shiladi. Shuning uchun ham milliy hisobchilik tizimida SMM ko‘rsatkichi hisoblanadi. SMMning YAMMdan farqi, Yuqorida aytganimizdek, amortizatsiya ajratmalari miqdoriga teng.

MD - bu, milliy ishlab chiqarishdan olingan daromad yoki ijtimoiy ishlab chiqarishdagi barcha daromad turlarining yig'indisidir. Demak, MD resurslarni etkazib beruvchilarning, shuningdek, boshqaruv xodimlarining hisobot yilidagi daromadlari miqdorini ko'rsatadi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, davlat o'zi oladigan biznesga egri soliqlar o'rniga ishlab chiqarishga hech narsa qo'ymaydi, ya'ni davlatni iqtisodiy resurslar ta'minotchisifatida baholamaymiz. Demak, joriy yilda yaratilgan YAMM tarkibidan ish haqi, renta to'lovlari, foiz va olingan foydalarning umumiy miqdorini aniqlashda biz SMM tarkibidan biznesga egri soliqlar miqdorini olib tashlashimiz lozim. Shunday usulda olingan ko'rsatkich milliy daromad (MD) hisoblanadi. Resurslar ta'minlovchilar nuqtai nazaridan MD joriy ishlab chiqarishda qatnashish natijasida olgan daromadlar miqdorini bildirsa, kompaniyalar nuqtai nazaridan ishlab chiqarish omillari bahosini bildiradi. MD joriy ishlab chiqarishga ketgan iqtisodiy resurslarning bozor bahosini anglatadi. (8.2.6-jadval).

8.2.6-jadval

Milliy hisobchilik tizimida o'laniladigan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zaro nisbatlari (raqamlar shartli)*

Ko'rsatkichlar	Shartli belgilar	Miqdor
1.YAlpi milliy mahsulot	YAMMA	100
«Minus», amortizatsiya		8
2. Sof milliy mahsulot	SIM	92
«Minus», biznesdagi egri soliqlar		12
3. Milliy daromad	MD	80
«Minus»- ijtimoiy sug'urta to'lovlari		-14
- daromad (foyda) solig'i		-10
- taqsimlanmaydigan daromad (foyda)		-12
«Plyus» + transfert to'lovlari		+ 10
4. Shaxsiy daromad	MD	54
«Minus»- individual soliqlar		-8

6. Soliq to‘langandan keyingi daromad, ya’ni ixtiyordagi daromad	<i>ID</i>	46
--	-----------	----

Milliy daromad SMM ning biznesga bilvosita soliqlarni olib tashlagach, qolgan qismidan iborat.

Ishlab chiqarishda mehnat qilish evaziga olingan daromadlarning bir qismi (ijtimoiy sug‘rtalarga to‘lovlar, Korporatsiya foydasiga soliq va Korporatsiyaning taqsimlanmagan foydasi) amalda uy xo‘jaligiga tushmaydi. Aksincha, ya’ni uy xo‘jaligi hisobiga to‘g‘ri keladigan daromadlarning bir qismi, (masalan, transfert to‘lovlari) mehnat natijalarini bildirmaydi. Transfert to‘lovlariga sug‘urta tashkilotlari tomonidan to‘lanadigan, ya’ni, qarilikda va baxtsiz hodisalar ro‘y berganda, shuningdek, ijtimoiy dasturlarga asoslangan holda ishsizlarga to‘lanadigan nafaqalar, ishsizlarga va pensionerlarga to‘lanadigan nafaqalar, iste’molchilar va davlat tomonidan to‘lanadigan foiz to‘lovlari va boshqa to‘lovlar kiradi.

MDdan shaxsiy daromadlar ko‘rsatkichiga o‘tishda, aholi tomonidan haqiqatda ishlangan, ammo olinmagan daromadlarni olib tashlaymiz, shuningdek aholi tamonidan olingan, ammo joriy mehnat faoliyati natijalarini bildirmaydigan daromadlarni qo‘shamiz.

Shaxsiy daromad hisoblangan daromadning individual soliqlar to‘lagandan keyingi qismidir. Individual soliqlar - daromad solig‘i, xususiy mol-mulklarga va meros qolgan mulklarga soliqlardan iborat.

YAMMni hisoblashda kompaniyalarning moliyaviy hujjatlaridan statistik ma’lumotlarni olamiz va ular YAMMning haqiqiy nominal ko‘rsatkichini aniqlashga imkon beradi. Chunki, biror-bir yilda yaratilgan nominal YAMMning o‘sishi bir tomondan ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishini, ikkinchi tomondan bahoning o‘zgarishini bildiradi deya olmaymiz. Muammo shundan iboratki, qiymat (vaqt, miqdor) ko‘rsatkichlarini shunday tuzatishimiz kerakki, u ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar fizik hajmining o‘zgarishini aniq ifodalasin.

Bu muammo yechimi iqtisodchilar tomonidan topilgan. Ya’ni, baholar o‘sib borganda nominal YAMM ko‘rsatkichi kamaytiriladi va aksincha baholar kamayib

borganda ko'paytiriladi. Bu to'g'rilashlar turli yillarda YAMM ko'rsatkichlarini solishtirish imkonini beradi. Joriy baholarda (baholarning o'zgarishini hisobga olmagan holda) hisoblangan YAMM nominal YAMM ni bildiradi. Demak, bunga teskari ravishda inflyatsiya darajasini (ya'ni, baholarning o'sishi) yoki deflyatsiya (ya'ni, baholarning kamayishi) darajalarini hisobga olgan holda hisoblangan YAMM real YAMM sanaladi.

$$\text{Real YAMM} = (\text{Nominal YAMM bo'lingan baho indeksi}) \times 100\%.$$

8.3. Iqtisodiy o'sish va rivojlanish tahlili

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish eng dolzarb iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni samarali hal qilish uchun quyidagi sharoitlar yaratishi lozim: jamiyat a'zolarining farovonligini oshirish, kambag'allikni tugatish, insonni har tomonlama rivojlantirish, mehnat va ijtimoiy hayot jarayonini insonparvarlashtirish. Iqtisodiy rivojlanishning yanada yuqori sifatini maqsadli shakllantirish zamonaviy iqtisodiyot fani tomonidan o'rganilayotgan murakkab vazifalardan biri hisoblanadi. Buning uchun zarur barcha ishlab chiqarish omillari, kapital tuzilmasini modernizatsiyalash, ijtimoiy munosabatlar tizimi va iqtisodiy agentlarning harakat modellarini jiddiy isloh qilish jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va institSIONal taraqqiyotini hamda hayot sifatini ko'p jihatdan belgilab beradi.

Global iqtisodiy inqirozning jamiyatga umumiy tizimli ta'siri zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning yangi sifatiga erishish vazifasini dolzarblikdan hayotiy zarur toifaga o'tkazadi va uni hal etishni oliy milliy ustuvorliklar qatoriga kiritadi. Uning ta'sirida shakllangan ijtimoiy buyurtma zamonaviy bosqichga mos amaliy yechimlarni izlashni faollashtiradi, bu esa qonuniy ravishda boshlang'ich nazariy qoidalar bazasini qayta anglashga va o'sish nazariyasi metodologiyasi kengayishiga olib keladi.

Olimlar e'tibori markazida iqtisodiyotni uzoq muddatli barqaror rivojlanish yo'liga olib chiquvchi iqtisodiy faoliyatni intellektuallashtirish jarayoning shartlari va omillarini aniqlash hamda tahlil qilishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish motivatsiyalari tizimini qurish vazifasi paydo bo'ldi. O'sib borayotgan ehtiyojlar, ijtimoiy ishlab chiqarish texnologik usuli va tuzilmasida fundamental transformatsiyalar jarayoni yuzaga kelmoqda. Yangi imkoniyatlar va harakatlantiruvchi rivojlanish kuchlari shakllanmoqda: o'sib boruvchi

mahsuldorlik sharti, multiplikativ tarmoq samaralari, intellektual texnologiyalar va intellektual renta.

Iqtisodiy o'sish nazariyasi rivojlanishining an'anaviy yondashuvni engib o'tayotgan zamonaviy bosqichi o'ziga xosligi umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini belgilab beruvchi rivojlanishning antropoentrik sifati nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Bunda iqtisodiy tizim dinamik beqarorligining endogen manbalari va tizimning o'zi ko'payib borayotgan sifat o'zgarishlari holatlarini yuzaga keltiradigan ijobiy teskari aloqa natijasida hosil bo'ladigan tuzilmaviy o'zgartirishlar samarasi asosiy masalaga aylanadi.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sifati O'zbekiston uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Milliy iqtisodiyotning yaqin o'tmishdagi juda qulay jahon kon'yunkturasi va ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik ko'rinishi sharoitidagi rivojlanish traektoriyasi bo'ylab harakati inson kapitaliga keng miqyosli investitsiyalar kiritish va asosiy kapitalni ommaviy o'zgartirish bilan birga olib borilmadi. Qayta o'zgartirilgan iqtisodiy fe'l-atvorning nisbiy qulayligi barqaror rivojlanish makroiqtisodiy dasturini amalga oshirish va tegishli institutlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy bilimlarning ushbu sohasida xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan doimiy izlanishlar olib borilayotganiga qaramasdan zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sifati konsepsiyasi yetarlicha ilmiy asoslanmaganligini qayd etishimiz mumkin. Tadqiqotchilik yondashuvlarining beqarorligi sharoitida zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sifati nazariyasining ko'pgina qoidalari noaniqligi ilmiy munozara uchun sharoit yaratadi, iqtisodiy siyosat yo'nalishlarini aniqlashtirishga xizmat qilmaydi. Inqirozdan chiqish yo'llarini izlash va barqaror iqtisodiy rivojlanish traektoriyasini tanlash mazkur sohadagi metodologik-nazariy tadqiqotlarni chuqurlashtirishni taqozo etadi.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish o'z tabiatiga ko'ra xususiyatlari tez o'zgaradigan dinamik jarayon hisoblanadi, bu to'plangan bilimlardan uning yangi sifatini tahlil qilish va iqtisodiyotning harakatlanish traektoriyasini prognozlash uchun foydalanishni sezilarli darajada murakkablashtiradi. Iqtisodiyotni intellektuallashtirish sharoitida zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sifati sohasidagi asarlarni tizimlashtirish darajasi yetarlicha emas, bu uning sifat holatlari transformatsiyalarini, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va uning

zamonaviy xususiyatlarini belgilovchi va uni yaxshilash dasturlarini ishlab chiqishni ta'minlovchi institutlarni qo'shimcha tahlil qilish zaruratini belgilaydi.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sifati iqtisodiyotni globalashtirish va intellektuallashtirish uning ichki omillariga aylanishi bilan belgilangan iqtisodiy rivojlanish sifat va miqdoriy xususiyatlari dinamik nisbati bilan belgilanadi. Ushbu asosda zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning yangi sifati mazmuni ochib beriladi, u texnologik tartiblar almashuvi, texnologik taraqqiyotning ekzogen rivojlanish omilidan endogen omilga aylanishi, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni va natijalariga intellektual mehnat ulushning ortishi, shuningdek, u zamonaviy texnologiyalarning nomoddiy ishlab chiqarish sohasiga jadal kirib kelishi umumiy iqtisodiy tendensiyalarini aks ettiradi.

Iqtisodiy faoliyatni intellektuallashtirish zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sifatining umumlashtiruvchi belgisi ekanligi isbotlandi, bu harakatning innovatsion traektoriyasini tanlashda o'z ifodasini topadi va ijtimoiy ishlab chiqarish texnologik asoslari va tuzilmasida hamda zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishining multiplikativ samaralaridagi o'zgarishlarning o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi.

Iqtisodiyotni intellektuallashtirish integral indeksini qurishning quyidagilarga asoslangan metodikasi ishlab chiqilishi lozim: 1) iqtisodiyotni intellektuallashtirish salohiyati, jarayoni va natijalarini aks ettiruvchi boshlang'ich ko'rsatkichlarni aniqlash; 2) boshlang'ich ko'rsatkichlarni iqtisodiyotni intellektuallashtirish integral indeksi oqilona tuzilmasini shakllantiruvchi alohida indeks larga aylantirish usulini asoslash, uni baholash milliy iqtisodiyot rivojlanishining sifat xususiyatlarini aniqlashni ta'minlaydi. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning yangi sifati qaror shakllanishining strategik yo'nalishlari belgilanganda quyidagilarga e'tibor qaratiladi: 1) uning maqsadi va asosiy omili sifatida inson kapitalining roli ortib borishi; 2) iqtisodiyotning ilm va texnika talab ishlab chiqarishlar ustuvorligiga yo'naltirilgan diversifikatsiyasi; 3) iqtisodiyotni texnologik modernizatsiyalash va kompaniyalarning innovatsion faolligini rag'batlantirish; 4) barqaror agentlararo va tizimlararo aloqalar rivojlanishiga xizmat qiluvchi tub institutsional islohotlarni o'tkazish; 5) ijtimoiy sohaning faoliyati samaradorligini oshirish.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sifatini faqat uni ijtimoiylashtirish tendensiyasi va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash hamda saqlashga yo'nalganligini hisobga olgan holda

aniqlash mumkinligi isbotlanadi. Ushbu isbotlash asosini aniqlangan tendensiyalar tashkil qiladi: jamg'arishning nomoddiy shakllari rivojlanishi, iqtisodiy faoliyatni intellektuallashtirish, mehnatga nisbatan shaxsning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish jarayoni sifatidagi munosabtning shakllanishi.

Tuzilmaviy-iqtisodiy daraja pozitsiyasidan iqtisodiy rivojlanishning yuqori sifati tuzilmaviy diversifikatsiya vositasida ta'minlanadi, bu ilmiy talab ishlab chiqarishlar, xomashyoni qayta ishlash darajasi yuqori korxonalar ustuvorligiga hamda kapitalni nomoddiy jamg'arish infratuzilmasi rivojlanishiga olib keladi. Tahlilning ijtimoiy-iqtisodiy jihatini zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning inson ehtiyojlarini qondirishga relevantlik darajasi bilan belgilanadi, uning o'lchovi insonning mehnat jarayonida o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun sharoitlar mavjudligi hisoblanadi.

Iqtisodiy-matematik model tahlili asosida belgilangan resurs-maqсад cheklovlarida zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning texnologik jihatini yuqori darajada absolyutlashtirish «noiqtisodiy o'sish»ga o'tishga olibkeladi. Modellashda P.Erlax va Dj.Xoldrenning insonning atrof-muhitga moddiy ta'siri formulasidan «IPAT»⁹ foydalandik:

$$I = PChAChT \quad (1)$$

Foydalanilayotgan o'zgaruvchan miqdorlar tegishli ravishda, ta'sir kattaligi, aholi soni, farovonlik va texnologiyalar rivojlanish darajasini baholaydi.

Noiqtisodiy rivojlanishga o'tishning ehtimoliy sценariysida iqtisodiy rivojlanishning maksimum samarasiga erishilgandan so'ng muqobil xarajatlarning ko'payib boruvchi oshishi namoyish qilinadi. Iqtisodiy zarar (*ED*) jahon yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmidan (*GWP*) ortib boshlasa, iqtisodiy rivojlanish noiqtisodiy rivojlanishga o'tadi.

Zamonaviy antroposentrik iqtisodiy rivojlanish faqat iqtisodiy zarurat paradigmasi yangi yanada yuqori darajadagi ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan paradigmaga almashtirilgan holdagina amalga oshishi mumkin bo'ladi. Iqtisodiy rivojlanishning shakllari xususiyatini shu bilan izohlash mumkin.

Mehnat iqtisodiy zarurat sifatida anglash iqtisodiy rivojlanish chegaralarining mavjudligini taqozo etadi. Ayni paytda mehnatga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish jarayoni sifatida qarash, ushbu chegaralarni olib tashlaydi. Aholining ko'plab yuqori ehtiyojlari turli-tuman va bitmas- tunganmas va shuning uchun iqtisodiy rivojlanish salohiyati ham rang-barang vacheksizdir.

Har xil moddiy boyliklar va ko'rsatiladigan xizmatlar mavjud narxlar pirovard mahsulotlar yoki milliy daromad hajmiga katta ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy o'sish tezligini va erishilgan darajasini belgilaydi.

Milliy daromad yoki pirovard mahsulot hajmiga asoslangan bir o'lchamli iqtisodiy o'sish tushunchasining o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, bu tushuncha o'zida faqat mehnat sarfini ifodalagan bo'lib, ishlab chiqarishda bo'layotgan o'zgarishlarni va talablarni qondirish darajalarni aks ettirmaydi.

Ko'p o'lchamli, murakkab iqtisodiy o'sish tushunchasining negizini insonning iqtisodiy faoliyati tashkil qiladi. Har qanday iqtisodiy o'sish inson faoliyatining natijasidir. Faqat insongina mavjud tabiiy resurslarni o'z talablarini qondirishga moslab o'zgartira olishi mumkin. Iqtisodiy o'sish insonlar mehnati natijasidir. Demak, iqtisodiy o'sishning bir yoki ko'p o'lchamligini uning sifat belgisi bo'lsa, iqtisodiy ko'rsatkichlar ularning miqdor ko'rsatkichlaridir.

Iqtisodiy holat yoki iqtisodiy faoliyatni xarakterlashda to'plangan mehnatning ham sifat va ham miqdor ko'rsatkichlaridan foydalanish uchun katta hajmdagi iqtisodiy ko'rsatkichlarni to'plash va ularni amalda qo'llash zarur.

Ko'p ko'rsatkichli iqtisodiy o'sish va u bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy faoliyatlar shakllari umuman olganda bir o'lchamli bo'lib, ularni tushunish uchun katta miqdordagi ko'rsatkichlardan foydalanishni talab qiladi.

Iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri - tabiiy resurslar hisoblanadi. Albatta mavjud tabiiy resurslarning miqdori va sifati insonning iqtisodiy faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Ammo, tabiiy resurslar insonning iqtisodiy faoliyatida passiv o'rin tutadi.

Iqtisodiy o'sish inson talablarini qondirish darajasini ikki taraflama izohlaydi. Birinchidan, yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar qanday talablar yuzaga kelishlarini belgilaydi va ulardan ozgina ilgari bo'lishlari lozim. Ikkinchidan, yaratilgan moddiy va

ma'naviy boyliklar va ularning taqsimlanish usullari, jamiyatning va uning har bir a'zosining talablarining qondirilish darajalarini aniqlaydi.

Ko'p o'lchamli iqtisodiy o'sishni amalda keng qo'llaniladigan bitta ko'rsatkich - milliy boylik bilan xarakterlash mumkin. Chunki, milliy boylik tarkibiga tabiiy resurslar, ishchi kuchlari, ishlab chiqarish fondlari, ilm-fan va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar kiradi.

Iqtisodiy o'sishning faqat ikkitagina turini ko'rib chiqdik. Iqtisodiy o'sishning bu tushunchalarni taqqoslab iqtisodiy o'sishning bir ko'rsatkichlisining qanday kamchiliklari mavjud va ularni iqtisodiy o'sishning ko'p ko'rsatkichlisi yordamida qanday tuzatish mumkinligini aniqlaymiz.

Bir va ko'p ko'rsatkichli iqtisodiy o'sishning qiyosiy tahlilida ularning har birining o'ziga xos jihatlari ajratib olinadi, keyin ularning miqdoriy baholanish muammosi ko'rib chiqiladi, oxirida kerakli statistik axborotlarni to'plash va qayta ishlash hal qilinadi. Bir ko'rsatkichli iqtisodiy o'sishda moddiy boylik kancha ko'p ishlab chiqilsa, iqtisodiyot shuncha rivojlangandir degan tushuncha mavjuddir. Ko'p ko'rsatkichli iqtisodiy o'sishda esa iqtisodiy boylik va xizmatlar hajmi shu jumladan, har xil shakldagi ishlab chiqarish va iste'moldagi jamlangan mehnat miqdori ham belgilaydi. Umuman olganda bir ko'rsatkichli iqtisodiy o'sish vaqtning ma'lum bir intervalidagi iqtisodiy holatni ko'rsatsa, ko'p ko'rsatkichli iqtisodiy o'sish iqtisodiyotning ma'lum bir paytdagi holatni belgilaydi. Bir ko'rsatkichli iqtisodiy o'sish iqtisodiy faoliyatning faqat ko'rib chiqilayotgan vaqt intervalini oxirida erishilgan natijalarni e'tiborga olib, ungacha erishilgan natijalarni e'tiborga olmaydi. Ko'p ko'rsatkichli iqtisodiy o'sish, aksincha avvali erishilgan iqtisodiy natijalarning barchasini e'tiborga oladi va amalda qo'llaydi. Iqtisodiy o'sishning bu ikkala turlari bir-biridan miqdoriy ifodalanishlari va statistik bazislari bilan ham farq qiladi.

Yaratilgan moddiy boyliklarni bir o'lchamga keltirish ham nazariy, ham amaliy jihatdan mumkin. Faqat xo'jalik faoliyatini ayrim sohalarini yoki ayrim mahsulotlarning natural miqdoriy o'zgarishini sifat jihatidan baholash murakkab jarayondir. Chunki, mahsulotlarning sifat o'zgarishi uning barcha o'ziga xos xususiyatlarining ham o'zgarishiga olib keladi. Sifat o'zgarishlarning barchasini (kompleksini) bir qancha sifat

o'zgarishlarni, bir yo'la e'tiborga oluvchi o'zgaruvchilar to'plami yordamida ko'rsatishimiz mumkin.

Ko'p ko'rsatkichli iqtisodiy o'sishning tahlilida iqtisodiy faoliyatning ayrim yo'nalishlarini va mahsulotlarining ayrim xususiyatlarini miqdoriy aniqlash qo'shimcha murakkabliklar bilan bog'liq.

Iqtisodiy o'sishning asosiy elementlari bir-biridan ham shaklan, ham mazmunan farq qiladi. Bu elementlarning natural ko'rinishlari ham, ko'rinishlari ham bir xil bo'lmaydi. Har xil sifat xususiyatlarni agregirlashni ham turli sifatlarini bir vaqt o'lchaydigan va baholaydigan yagona, umumiy shart mavjud bo'lgandagina amalga oshirilishi mumkin.

Bir ko'rsatkichli iqtisodiy o'sish uchun bunday umumlashgan mezon baho, narx hisoblanadi. Ko'p ko'rsatkichli iqtisodiy o'sish uchun baho kabi umumlashgan mezon mavjud emas. Shuning uchun ko'p ko'rsatkichli iqtisodiy o'sishda har xil xususiyatlar agregirlanmaydi. Statistik axborotlar bilan ta'minlanishda bir ko'rsatkichli iqtisodiy o'sishda imkoniyatlar ko'proq. Chunki, aksariyat davlatlarda yaratilgan moddiy boyliklar va xizmatlar bo'yicha ayrim hollarda bir necha natural birliklarda har xil ko'rsatkichlarni hisobga olish, foydalarni taqsimlash va qayta taqsimlashlar bo'yicha oddiy va agregirlashgan statistik ma'lumotlar mavjud.

Ko'p ko'rsatkichli iqtisodiy o'sishda statistik ma'lumotlar bilan ta'minlash muammolari yuzaga keladi. Ayrim hollarda iqtisodiy o'sishning elementlarini va qoidalarini kisman baholashgagina imkon beradigan statistik ma'lumotlar mavjud.

Ko'p sonli iqtisodiy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sish zamon va makonda - doimo bir xil bo'lmay, balki o'zgaruvchandir. Ayrim davlatlarning iqtisodi tez rivojlansa, ayrim davlatlarning iqtisodi sekin rivojlanadi. Alohida bir davlatning iqtisodi ham goh tez rivojlansa, goh sekin rivojlanadi.

Iqtisodiy o'sish nazariyasi umuiqtisodiyot va uning ayrim sohalari rivojlanishining notekisligini iqtisodiy o'sishga har xil omillar ta'sir qilishi bilan izohlaydi. Umuman olganda, iqtisodiy o'sish bilan qandaydir bog'liq bo'lgan barcha iqtisodiy resurslar, xo'jalik faoliyatlari turlari va ularning natijalari iqtisodiy o'sish omillari hisoblanadi. Katta miqdordagi iqtisodiy o'sish omillaridan eng asosiylari ajratib olish ancha murakkab

masaladir. Bundan tashqari, iqtisodiy o'sishga ta'sir qiluvchi asosiy omillar to'plamini aniqlashda ham har xil fikrlar mavjud.

Iqtisodiy o'sishni ko'pchilik modellariga kam omilli konsepsiyasi xarakterlidir. Iqtisodiy o'sish modellari odatda ikki omilli yoki ayrim hollarda bir omilli bo'ladi. To'rt omilli iqtisodiy o'sish modellari ham uchrashi mumkin. Iqtisodiy o'sishning ikki omilli modellarining eng ko'p uchraydigani mehnat va asosiy fondlarga bog'liq bo'lgan modellaridir.

Iqtisodiy o'sish nuqtai nazarida mehnatning nafaqat miqdori balki, sifati ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. Mehnat sifati, ya'ni uning murakkabligi uni bajaruvchilarning bilim darajalari, amaliy tajribalari, murakkab operatsiyalarni bajarish qobiliyatlari, chaqqonligi kabi ko'rsatkichlar bilan baholanadi.

Empirik modellarga omil sifatida kiruvchi mehnat inson faoliyatning faqat miqdoriy ko'rsatkichini ifodalovchi tor ma'nodagi tushunchadir. Bunday modellarda mehnat hajmi ko'p hollarda bajarilgan ish saotlari yoki ishlab chiqarishda band bo'lgan odamlar soni bilan belgilanadi. Ayrim hollarda mehnat sifatini aniqlashga harakatlar bo'lgan edi. Bunda mehnat sifatini aholining bilim darajasi, mehnatkashlarning yoshi va jinsi kabi ko'rsatkichlar bilan izohlangan.

Iqtisodiy o'sish modelining ikkinchi omili kapital (asosiy vositalar) nazariy va amaliy jihatdan bir xil ma'noga ega emas. Ayrim iqtisodchilar kapital natural o'lchamlarda aniqlangan moddiy boyliklar miqdoridir deyishsa, ayrim iqtisodchilar kapital bu qiymatlar yig'indisidir va u sarf qilingan mehnat miqdorini ifodalaydi deyishadi.

Umuman, iqtisodiy o'sishning ikkinchi omili kapital (asosiy fond) nafaqat miqdor qiymatga balki, sifat qiymatga ham egadir. Chunki, bir qarashdayoq asosiy fondlarning elementlarining bir-biridan farqi yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ham asosiy fondlarning hajmlarini aniqlashda umumiy baholash usullarini topishga harakat qilingan. Natijada asosiy fondlarning nafaqat miqdor balki, ularning sifati va uning o'zgarishlari ham hisobga olingan. Asosiy fondlarni baholashda ko'p hollarda ularning qayta yaratish sarflari va ularning ekspluatatsiyasidan olinishi mumkin bo'lgan foyda miqdoridan foydalanadi.

Amaliy maqsadlarda birinchi ko'rsatkich ya'ni asosiy vositalarni yaratish yoki sotib olish ko'rsatkichidan foydalaniladi. Bunda boshlang'ich sarf xarajatlar yoki narxlar o'zgarishini hisob olingan holda hisoblangan xarajatlar hisobiga olinadi. Demak, asosiy fondlar, ya'ni kapital ularni takroriy ishlab chiqarish xarajatlari bilan belgilanadi. Baholash tizimining mavjudligi asosiy fondlarni faqat miqdor jihatidan emas, balki sifat jihatidan ham baholash imkoniyatini beradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Bir omilli iqtisodiy rivojlanishning mohiyati nimadan iborat?*
2. *Mehnat va uning xususiyatlarini tushuntirib bering?*
3. *Bir omilli empirik modelning mohiyatini tushuntirib bering.*
4. *Mehnat unumdorligining o'sishga olib keluvchi omillarni tushuntirib bering?*
5. *Fan-texnika taraqqiyotini mohiyati nimalardan iborat?*
6. *Ishlab chiqarish real hajmining o'zgarishi nimalarga bog'liq?*
7. *Ko'p omilli iqtisodiy rivojlanish modelida qatnashuvchi omillar nimalar?*

IX BOB. IKKI TARMOKLI VA IKKI TURDAGI IQTISODIYOT

O‘quv maqsadi: tarmoklarning rivojlanishida ikki model kelgirilgan, an'anaviy tarmokda uy xujaligi, er resurslari va mehnat aks etgan, fabrika yoki bir zavod, mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun og'ir va mukammal texnikalar mavjud emas, bunday texnologiyalar vujudga kelishi tarmok rivojlanishini keskin o'zgartirib yuboradi, ishlab chiqarish revolyuuiyaga olib keladi, ikki tarmokli iktisodiyotda uy xujaligi va rivojlangan ishlab chiqarish tarmog'i kurib chikiladi, tashki savdo alokalari tarmoklar rivojlanishi uchun o'ziga xos imkoniyatlar ochib beradi, xalkaro savdo amalga oshirayotgan davlatlarning birida texnologik rivojlanish kolgan davlatlar Iqtisodiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatishining mazmunini aniqlashga doir nazariy bilimlarni shakllantirishdan iborat

Tayanch iboralar: model, texnologiya, mikroiktisodiyot, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish, noishlab chiqarish, investitsiya, innovatsiya, sifat, empirik model, mehnat omili, iqtisodiy o'sish, texnologik model

9.1. Ikki tarmoqli iqtisodiyotda rivojlanish tendensiyalari

Iqtisodiy o'sish kategoriyasi iqtisodiyot amal qilishining asosiy ko'rsatkichlari jumlasiga kirgan holda, u real yalpi ichki mahsulotning yildan-yilga hajmining ko'payishini yoki aniqroq qilib aytganda aholi jon boshiga real yalpi ichki mahsulot miqdorining oshishini ko'rsatadi. "Iqtisodiy rivojlanish" kategoriyasi "iqtisodiy o'sish" bilan chambarchas bog'liq ko'p o'lchamli va ko'p qirrali ko'rsatkich bo'lib, mamlakatda ijtimoiy institsional va siyosiy o'zgarishlar, aholining turmush darajasini, inson ehtiyojlarining qondirish darajasini ifodalaydi. Darhaqiqat, "iqtisodiy rivojlanish" kategoriyasi "iqtisodiy o'sish" tushunchasiga nisbatan keng ma'noli hisoblanadi. Ba'zan iqtisodiy o'sish yaqqol ta'minlangan holda "iqtisodiy rivojlanish" yuz bermasligi mumkin. Demak, "iqtisodiy rivojlanish" inson ehtiyojlarini ta'minlash, yashash sharoitini, tibbiy xizmatni, ta'lim olish, barkamol avlodni taraqqiy etish imkoniyatlarini o'zida qamrab oladi. Tahlillarga ko'ra, iqtisodiy rivojlanish sifati iqtisodiyotni intellektuallashtirish va globallashtirish uning ichki

omillariga aylanishi bilan belgilangan iqtisodiy rivojlanish sifat va miqdoriy xususiyatlari dinamik nisbati bilan belgilanadi.

Ushbu asosda zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning yangi sifati mazmuni ochib beriladi, u texnologik tartiblar almashuvi, texnologik taraqqiyotning ekzogen rivojlanish omilidan endogen omilga aylanishi, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni va natijalariga intellektual mehnat ulushning ortishi, shuningdek, u zamonaviy texnologiyalarning nomoddiy ishlab chiqarish sohasiga jadal kirib kelishi umumiqtisodiy tendensiyalarini aks ettiradi.

Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi ko'p omilli va shu bilan birga ziddiyatli jarayon hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanish hech qachon bir tekis, yuqorilab boruvchi chiziq bo'yicha ro'y bermaydi. Iqtisodiy rivojlanish o'z ichiga yuksalish va inqiroz davrlarini, iqtisodiyotdagi miqdor va sifat o'zgarishlarni, ijobiy va salbiy tamonlarni olib notekis boradi.

Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy rivojlanish qiyin aniqlanadigan jarayon bo'lganligi sababli, uning mezonlaridan biri bo'lgan iqtisodiy o'sish ko'proq tahlil qilinadi. Iqtisodiy o'sish iqtisodiy rivojlanishning tarkibiy qismi bo'lib, o'z ifodasini real YAIM (YAIM) hajmining va uning aholi jon boshiga ko'payishida topali.

Mahsulotning o'sish sur'ati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o'zgarishi o'rtasidagi nisbat iqtisodiy o'sishning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi.

Ekstensiv iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning avvalgi mexnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi tufayli erishiladi. Aytaylik, mahsulot ishlab chiqarishni ikki xisso ko'paytirish uchun mavjud korxona bilan bir qatorda o'rnatilgan uskunalarni quvvati, miqdori va sifati bo'yicha, ishchi kuchining soni va malaka tarkibi bo'yicha xuddi o'shanday yana bir korxona quriladi. Ekstensiv rivojlanishda, agar u sof holda amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o'zgarmay qoladi.

Iqtisodiy o'sishning intensiv turi sharoitida mahsulot chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish: yanada progressivroq ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo'llash, ishchi kuchi malakasini oshirishi, shuningdek mavjud ishlab chiqarish potensialidan yaxshiroq

foydalanish yo'li bilan erishiladi. Intensiv yo'l ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarning har bir- birligidan olinadigan samara, pirovard mahsulot miqdorining o'sishida, mahsulot sifatining oshishida o'z ifodasini topadi. Bunda mahsulot ishlab chiqarishni ikki xissa oshirish uchun mavjud korxonaga teng bo'lgan yana bir korxona qurishga hojat yo'q. Bu natijaga ishlab turgan korxonani rekonstruksiya qilish va texnik qayta qurollantirish, mavjud resurslardan yaxshiroq foydalanish hisobiga erishish mumkin.

Real hayotda ekstensiv va intensiv omillar sof holda, alohida-alohida mavjud bo'lmaydi, balki muayyan uyg'unlikda, bir-biri bilan qo'shilgan tarzda bo'ladi. Shu sababli ustuvor ekstensiv va ustuvor intensiv iqtisodiy o'sish turlari tahlil qilinadi.

Iqtisodiy o'sish murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Shu sababli uni baholash uchun qandaydir bitta ko'rsatkich kifoya qilmaydi, muayyan ko'rsatkichlar tizimi talab qilinadi. Bu ko'rsatkichlar tizimida jismoniy va qiymat ifodasidagi ko'rsatkichlar farqlanadi.

Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari ancha aniq natija beradi, (chunki ular inflyatsiya ta'siriga berilmaydi), lekin universal emas (iqtisodiy o'sish sur'atlarini hisoblashda har xil ne'matlar ishlab chiqarishni umumiy ko'rsatkichga keltirish qiyin). Iqlim ko'rsatkichlar keng qo'llaniladi, ammo xar doim ham uni inflyatsiyadan to'liq «tozalash» mumkin bo'lavermaydi. Shu sababli iqtisodiy o'sish sur'atlari qiyosiy yoki doimiy narxlarda hisoblanadi.

Makroiqtisodiy darajada iqtisodiy o'sishish asosiy qiymat ko'rsatkichlari quyidagalar hisoblanadi:

- YAMM (SMM) yoki milliy daromad hajmining real ko'payishi;
- YAMM (SMM) yoki milliy daromadning axoli jon bosh hisobiga o'sishi;
- YAMM (SMM) yoki milliy daromadning iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ortishi

Iqtisodiy o'sishni aniqlashda har uchala ko'rsatkichdan ham foydalanish mumkin, lekin ularning ahamiyati turlicha.

Masalan: agar diqqat markazida iqtisodiy salohiyat muammosi tursa, birinchi ko'rsatkichdan aniqlash ko'proq mos keladi. Aloxida mamlakat va hududlardagi

aholining turmush darajasini taqqoslashda, ko'proq ikkinchi ko'rsatkichdan foydalaniladi. Iqtisodiy samaradorlikni baholashda uchinchi ko'rsatkichga ustuvorlik beriladi.

Odatda iqtisodiy o'sish foizda o'sishni yillik sur'ati sifatida aniqlanadi. Masalan, agar o'tgan yili real YAMM 60 mlrd. so'mni va joriy yilda 70 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, o'sish sur'atini joriy yildagi real YAMM hajmiga bo'lish yo'li bilan aniqlash mumkin. Bu holda o'sish sur'ati $16,6\%$ ni $(70/60 \cdot 100)$ tashkil qiladi.

Iqtisodiy o'sishning alohida tomonlarni xarakterlovchi ko'rsatkichlari ham mavjud bo'lib, ulardan asosiylari ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanish darajasi, mehnat unumdorligi va ish vaqtini tejash, shaxsiy daromad va foyda massasi, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi kabilar hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi:

- a) ishlab chiqarish vositalarining rivojlanish darajasi, ya'ni uning unumdorligi;
- b) xodimning malakasi va tayyorgarlik darajasi;
- v) ishlab chiqarishning moddiy va shaxsiy omili o'rtasidagi nisbat;
- g) mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishning tashkil etilishi, kooperatsiyasi va ixtisoslashtirilishi.

Iqtisodiy o'sishning jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan boshqa ko'rsatkichi iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi hisoblanadi. U tarmoqlar bo'yicha hisoblab chiqilgan, YAMM ko'rsatkichi asosida tahlil qilinadi. Bunda milliy iqtisodiyotning yirik sohalari, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasidagi nisbat ham o'rganiladi.

9.2. Ikki turdagi iqtisodiyotda iqtisodiy o'sish

Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh omillar iqtisodiyotning jismoniy o'sish darajasini belgilab beradi, ular taklif omillari deb ham ataladi. Bu omillar quyidagilar:

- 1) tabiiy resurslarning miqdori va sifati;
- 2) mehnat resurslari miqdori va sifati;
- 3) asosiy kapital (asosiy fondlar) ning hajmi;
- 4) texnologiya va fan-texnika taraqqiyoti.

Iqtisodiy o‘rishga taqsimlash omillari ta’sir qiladi. Ishlab chiqarish potensialidan maqsadga muvofiq foydalanish uchun nafaqat resurslar iqtisodiy jarayonga to‘liq jalb qilingan bo‘lishi, balki juda samarali ishlatilish ham zarur. Resurslarni o‘rsh boruvchi hajmidan real foydalanish va ularni kerakli mahsulotning mutlaq miqdorini oladigan qilib taqsimlash ham zarur bo‘ladi.

Iqtisodiy o‘rshga ta’sir ko‘rsatuvchi, taklif va taqsimlash omillari o‘zaro bog‘liq va bir-birini taqozo qiladi. Masalan, resurslar miqdorining o‘rshi va sifatining yaxshilaniigi, texnologiyani takomillashtirish iqtisodiy o‘rsh uchun imkoniyat yaratadi. To‘liq bandlik va resurslarni samarali taqsimlash bunday o‘rshni ruyobga chiqaradi. Iqtisodiy o‘rshda resurslarni taqsimlash omillari ham o‘z o‘rniga ega bo‘lsada, bu muammoni tahlil qilishda asosiy e’tibor taklif omillariga qaratilishi zarur. Taklif omillarining iqtisodiy o‘rshga ta’sir qilishiquyidagicha (9.2.1-rasm).

9.2.1-rasm. Real mahsulot o‘rshini aniqlab beruvchi omillari



1-rasmdan ko‘rish mumkinki, real mahsulot ikki asosiy usulda ko‘paytirilar ekan:

- 1) resurslarning ko‘proq hajmini jalb etilishi;
- 2) ulardan ancha unumli foydalanish yo‘li bilan.

Mamlakatning iqtisodiy o‘rsh sur’atini xarakterlovchi ko‘rsatkichlar (real YAMM va aholi jon boshiga real YAMMning o‘rshi) miqdoriy ko‘rsatkichlar bo‘lib, ular:

- birinchidan, mahsulot sifatining oshishini to‘liq hisobga olmaydi va shu sababli farovonlikniig haqiqiy o‘rshini to‘liq, xarakterlab beraolmaydi;
- ikkinchidan, real YAMM va aholi jon boshiga YAMMning o‘rshi bo‘sh vaqtning sezilarli ko‘payishini aks ettirmaydi va farovonlik real darajasining pasaytirib ko‘rsatilishiga olib keladi;

- uchinchidan, iqtisodiy o'sishni miqdoriy hisoblash boshqa tomondan uning atrof-muhitga va insonning hayotiga salbiy ta'sirini hisobga olmaydi.

Iqtisodiy o'sish ishlab chiqarish natijalari va omillari nisbatibilan farqlanadi.

Birinchi shakli iqtisodiy resurslarning hajmini o'sishi (ishlab chiqarish omillari) bilan xarakterlanadi, ya'ni yangi korxonalarni, elektr tarmoklari, yo'llar qurilishi, foydalaniladigan yangi erlar, tabiiy va mehnat resurslarini va h.k. o'zlashtirilishi. Bu shakl ekstensiv iqtisodiy o'sish nomini olgan. Bu shakldagi iqtisodiy o'sishda YAIMni o'sishi jonli va ijtimoiy mehnat hajmini o'sishi hisobiga erishiladi, shu bilan birga jamiyatdagi mehnat unumdorligi o'zgarmasdan qoladi.

Buni quyidagicha ifodalash mumkin. Aytib o'tilganidek, iqtisodiy o'sishning o'lchovi bo'lib YAIMni ma'lum bir davr ichida o'sish jadalligi xizmat qiladi:

$$Y = Y_t - Y_{t-1} / Y_{t-1},$$

bu yerda: Y_t - YAIMning t davr ichida o'zgarishi;

Y_{t-1} - YAIMning o'tgan davrdagi hajmi.

Bu holda ekstensiv o'sishni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin.

$$Y_t / N_t = \text{SONST} \text{ yoki } \dot{Y}_t = \check{N}_t,$$

bu yerda: N_t - foydalanilayotgan resurslar soni (masalan, band bo'lganlar soni);

$\check{N}_t$ - resurslarning ma'lum davrda o'sishi.

Iqtisodiy o'sishning ikkinchi shakli intensiv o'sish deb atalib, bunda YAIMning o'sishi foydalanilayotgan resurslar hajmini o'sishiga qaraganda tezroq bo'ladi.

$$\dot{Y}_t > \check{N}_t.$$

Ma'lumki, iqtisodiyotning intensiv o'sishi jamiyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Shu bilan birga ekstensiv o'sish iqtisodiy o'sishning sodda shakli hisoblanadi.

Uning asosiy afzalligi xo'jalik rivojlanishi sur'atini oshirishning oson yo'li ekanligi hamda mamlakat iqtisodini nisbatan tez va arzon o'sishni ta'minlaydi. Ekstensiv o'sish tarixan intensiv o'sishdan oldin kechadigan jarayon. Har bir mamlakat

o'z vaqtida ekstensiv o'sishni boshdan kechiradi. Misol uchun, G'arb mamlakatlari XX asrning birinchi yarmida ekstensiv o'sishdan intensiv o'sishga o'tganlar. Golland iqtisodchisi YA.Tinbergenning ma'lumotlariga ko'ra 1870-1914 yillarda ekstensiv va intensiv o'sishning o'zaro nisbati quyidagi ko'rinishda bo'lgan (9.2.1-jadval)

9.2.1-jadval

Iqtisodiy o'sishda ekstensiv va intensiv omillarning nisbati

Mamlakat	O'sishning ekstensiv/intensiv omillari %
Buyuk Britaniya	80/20
Germaniya	60/40
AQSh	73/27

Keyinroq amerikalik iqtisodchi R.Solou AQShda 1909-1949 yillarda YAIMning 80%dan ortiq o'sishiga texnik taraqqiyot, ya'ni intensiv o'sish sabab bo'lganini aniqladi.

Turli omillarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini hisoblash bo'yicha yirik tadqiqotchilardan biri bo'lib amerikalik iqtisodchi E.Denison tanilgan. U iqtisodiy o'sishni izohlovchi omillarni ikki toifaga ajratadi. Birinchi toifaga ishlab chiqarishning jismoniy omillari (mehnat va kapital), ikkinchi toifaga mehnat unumdorligini oshishi kiritildi.

Inson omilining ta'sirini hisoblashda faqat ishchi kuchining sonigina emas, balki ishchilarning jinsi, yoshi, ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligidan kelib chiqadigan mehnat unumdorligini hisobga olgan, Kapital omili ta'sirini hisoblashda ham u bir qator o'zgartirishlar kiritgan, ya'ni turar joy, ishlab chiqarish dastgohlari, sanoat inshootlari, tovarlar zahirasi, xorijiy investitsiyalar ta'sirini ham hisobga olgan. Shularni hisobga olgan holda har bir alohida omilning iqtisodiy o'sishga qo'shgan xissasini aniqlagan.

Mehnat unumdorligani iqtisodiy o'sishga ta'sirini hisoblashda E.Denison fikricha bu ta'sir quyidagi jarayonlar natijasida hosil bo'ladi:

1. Texnologik bilimlarni chuqurlashuvi yoki ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish sharoitni yaxshilanishi.

2. "Qo'ldan berilgan imkoniyatni qayta tiklash", bu yuqori rivojlangan mamlakatlar tomonidan qoloq mamlakatlarga o'z bilim va tajribalarini berish va bu

orqali ularni optimal nuqtaga etkazish.

3. Ishlab chiqarishning jismoniy omillarini yaxshilanishi, bu omillarni ko'proq foyda keltiradigan soha va mintaqalarga sarflanishi. Qachon omillarni joylashtirishda optimal holat yuzaga kelsa, ishlab chiqarish o'sadi. E.Denisonning fikricha bu xildagi optimallashtirishning quyidagi imkoniyatlari mavjud:

a) qishloq xo'jaligini intensivlashuvi natijasida hosil bo'lgan ortiqcha ishchi kuchini joylashtirilishi natijasida yig'ilgan kapitalni yaxshiroq ishlatilishini ta'minlanadi;

b) kichik, mustaqil ishlab chiqaruvchilar sektorini qisqartirish (qishloq xo'jaligidan tashqari band bo'lganlar) orqali agrar sektorda bo'layotgan o'xshash o'zgarishlarga erishish;

v) xalqaro savdodagi mavjud cheklovlarni bekor qilish orqali xalqaro mehnat taqsimotini yaxshilash.

4. Ishlab chiqarishni ixtisoslashuvi va milliy bozorlarning yiriklashuvi orqali iqtisodiyot masshtablarining o'sishi.

Yaponiyada iqtisodiy o'sishning 50% mehnat va kapital sarfi xarajatlarini oshirish hisobiga, qolgani mehnat unumdorligini o'stirish hisobiga ro'y berdi. E.Denisonning fikricha, Yaponiyadagi iqtisodiy o'sishning asosiy omili - bu kapital ko'yilmalarning hajmini oshishiga bog'liq bo'lgan. Bu omil hisobiga 1948-1969 yillardagi yillik 8,81% iqtisodiy o'sishning 2,1% ga to'g'ri kelgan. Texnologik rivojlanish hisobiga 1,97%, ishlab chiqarishning kengaytirilishi hisobiga 1,94%, iqtisodiy resurslarning samarali joylashtirilishi hisobiga 0,94% to'g'ri kelgan. Oxirgi omilning ta'sirini yuzaga kelishiga sabab qishloq xo'jaligining iqtisodiyotdagi salmog'ini tahlil qilinayotgan oralikda 35,6%dan 14,6%ga qisqarishi hisoblanadi.

E.Denison tahlili juda qiziqarli va kutilmagan xulosalarga boy, mantiqiy ketma-ketlikda va aniq edi, shunga qaramay bu tahlil e'lon qilingach, juda ko'p tanqidiy fikrlar paydo bo'ldi. Tadqiqotlarning asosiy kamchiligi – E.Denison tomonidan omillarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini alohida o'rganganligida va bunda ularning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'sirini e'tibordan chetda koldirganligida bo'ldi.

1970 yillarda AQSh va boshqa rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotning o'sishi sekinlashdi. Bunga asosiy sabab, mehnat unumdorligi o'sish sur'ati pasayganligi bo'ldi.

1980-1990 yillarda bu sur'at bir muncha o'sgan bo'lsada, lekin "tez iqtisodiy o'sishning oltin davri" deya ta'riflangan 1960 yillardagi darajaga eta olmadi. Mehnat unumdorligi o'sishining pasayishini iqtisodchilar qator sabablar ta'siri bilan izohlaydilar:

- Ishchi kuchini jinsiy/yoshi tuzilmasi holatini yomonlashishi bilan (yoshlar sonini nisbatan ko'payishi, urushdan keyingi yillarda tug'ilganlar sonini ko'payishi va qisman ish bilan bandlar sonini ko'payishi);
- atrof-muhitni yaxshilash uchun xarajatlarning ko'payishi;
- shu davrda dunyo bozorida neft narxlarining oshib ketishi (10-11 barobar);
- yangiliklarni kiritishni kamayib ketishi;
- davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning kuchayishi.

Ba'zi mualliflarning ta'kidlashlaricha, neft narxlarining oshishi natijasida mavjud kapitalning qadrsizlanishi va yangi sarmoyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish o'rniga mazkur kapitalni qoplashga yo'naltirilishi sababli iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'sir ko'rsatadi. Shubhasiz, bunday argument tahlil qilinayotgan davrga nisbatan to'g'ri bo'lishi mumkin, biroq, energiya jamg'arish tarmoqlarida energetik texnologiyalarni almashtirgandan so'ng iqtisodiyotning teskari rivojlanishi - ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishi kuzatiladi (80-90 yillar bunga misol bo'la oladi).

Ba'zi olimlarning fikricha, davlat nazoratining kuchayishi esa barcha tarmoklarda iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, R.Dornbush va S.Fisher bu to'g'risida shunday adolatli fikrni bildirganlar:

«Davlatning aralashuvi, masalan iflosgarchilikni oldini olishga qaratilgan harakatlari atrof-muhitning tozaligiga va millatning sog'ligiga katta xissa qo'shadi, ammo YAIM o'sishida hech qanday ta'siri bo'lmaydi».

Intensiv o'sish modeli bir qator yangi tavsiflarga, xususiyatlarga va ustunliklarga ega:

- iqtisodiyot o'sishining bir muncha qiyin usuli bo'lib, unda ilmiy- texnik rivojlanish hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Shunga muvofiq, u ishlab chiqarish kuchlari, texnika, texnologiyalarning yuqori darajada o'sishini va xodimlarning yuqori ma'lumotini va mutaxassisligini nazarda tutadi;
- iqtisodiyotning aynan mana shu o'sish usuli resurslarning chegaralanganlik

muammosini hal etish imkonini beradi. Bu esa, aynan mana shu usulda iqtisodiy o'sishining asosiy manbalaridan biri bo'lib, resurslarni tejash hisoblanadi, bu jamiyat uchun resurslar o'sishiga qaraganda bir muncha arzonga tushadi. Misol uchun, 1 t. yoqilg'ini tejash (7 ming kilokaloriya), 1 t. yoqilg'ini qazib chiqarishga qaraganda 3-4 marotaba kam xarajatni talab qiladi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish ko'rsatkichlarining barchasini uch guruhga birlashtirish mumkin:

- asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning vaqt bo'yicha darajasini aks ettiruvchi ekstensiv foydalanish ko'rsatkich;
- asosiy fondlardan quvvati unumdorligi bo'yicha foydalanish darajasini aks ettiruvchi intensiv foydalanish ko'rsatkichi;
- barcha omillar ta'sirini hisobga oluvchi, ham intensiv va ham ekstensiv, asosiy fondlardan foydalanishning integral ko'rsatkichi.

Birinchi guruhga - jihozlardan ekstensiv foydalanish koeffisienti, jihozlar ishining o'zgarishi koeffisienti, jihozlarni ish bilan band qilish koeffisienti, jihozlar ishi smena tartibi (rejimi) vaqti koeffisienti.

Jihozlardan ekstensiv foydalanish koeffisientini qo'yidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$K_{eks} = t_{j.h.}/t_{j.r.}$$

bu yerda: $t_{j.h.}$ - jihozlarning haqiqiy ishlagan vaqti, soat;

$t_{j.r.}$ - jihozlarning reja (me'yor) bo'yicha ishlash vaqti (korxona ish rejimi va rejali ta'mir o'tkazish uchun kerak minimal vaqtni hisobga olib, o'rnatiladi).

Misol. Agar 8 soatlik smenada, ta'mirlash o'tkazish uchun rejalashtirilgan ishlar vaqti 1 soat, dasturning haqiqiy ishlagan vaqti 5 soat bo'lsa, ekstensiv foydalanish koeffisienti quyidagiga teng:

$$K_{eks} = 5/8 - 1 = 0,71.$$

Demak, dastgohning (stanok) rejalashtirilgan ish vaqtidan 71% foydalanilgan.

Jihazdan ekstensiv foydalanish uning ishining smenalik koeffisienti bilan ham tavsiflanadi. Smenalik koeffisienti berilgan turdagi jihozlarning kun davomida

ishlaganlari umumiy sonini eng katta smenada ishlagan dastgohlar soniga nisbati kabi aniqlanadi.

Bu koeffisient har bir jihoz yil davomida o'rtacha necha smena ishlaganligi ko'rsatadi.

Smenalik koeffisientning soddalashtirilgan hisobi qo'yidagicha: uexda 270 dona jihoz o'rnatilgan, ulardan birinchi smenada 200 ta jihoz, ikkinchi smenada 190 ta jihozlar ishladi. Smenalik koeffisienti:

$$K_{sm}=(200+190/270)=1,44 \text{ bo'ladi.}$$

Jihozlar ishining smenalik koeffisientini oshirish korxona iqtisodiga katta ahamiyatga ega.

Jihozlarning smenalik ishini oshirishning asosiy yo'nalishlari:

- ta'mir ishlarini yaxshi tashkil etish, ta'mir ishini tashkil etishning ilg'or usullarini qo'llash;
- ommaviy ishlab chiqarishni va jihozlarni ish bilan yuklanishini o'sishini ta'minlovchi ish o'rning ixtisoslashtirilganlik darajasini oshirish;
- ishning bir me'yordaligini oshirish;
- ish o'rniga xizmat ko'rsatishni tashkil etishda, dastgoh ishchilariga tayyorlov mahsulotlari, uskunalar bilan ta'minotida kamchiliklar bilan bog'liq to'xtashlarni kamaytirish;
- asosiy va ayniqsa, yordamchi ishchilarning mehnatini mexanizatsiyalash va avtomatizatsiyalash. Bu ishchi kuchini bo'shatish va uni og'ir yordamchi ishdan ikkinchi va uchinchi smenadagi asosiy ishga o'tkazishga imkon beradi.

Jihozlarni ish bilan yuklash koeffisienti ham jihozlarni vaqt ichida foydalanishni bildiradi. U asosiy ishlab chiqarishda bo'lgan mashina narxining hammasi uchun o'rnatiladi va jihozda tayyorlanadigan hamma mahsulotlar mehnatga talabchanligining jihoz ishining vaqt fondiga nisbati kabi hisoblanadi. Shunday qilib, jihozlarni ish bilan yuklash koeffisienti smenalik koeffisientidan farqli ularoq, mahsulotlarning mehnatga talabchanligi haqida ma'lumotlarni hisobga oladi.

Amalda, ish bilan ta'minlanganlik koeffisienti, odatda, smenalik koeffisientining yarimiga (ikki smenalik ish rejimida) va uchdan bir qismiga (uch smenalik rejimda) teng deb olinadi. Bizning misolda:

$$K_{i.t} = 1,44/2 = 0,72.$$

Jihozlardan intensiv foydalanish koeffisienti asosiy texnologik jihozning faktik unumdorligi uning normativ (me'yoriy) unumdorligiga nisbati bilan aniqlanadi. Ya'ni, progressiv, texnik asoslangan unumdorlik.

Bu ko'rsatkichni hisoblashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$K_{int.} = M_f/M_t$$

bu yerda: M_f – vaqt birligida jihozda ishlab chiqarilgan mahsulotning faktik miqdori;

M_t - vaqt birligida jihozning texnik asoslangan mahsulot ishlab chiqarishi (jihozning pastport ma'lumotlariga asosan olinadi).

Misol. Jihoz smena davomida 5 soat ishladi. Uning 3 soatlik bekor turishini faraz qilib, jihozdan intensiv foydalanish koeffisientini hisoblab, 5 soat ichida undan foydalanish samaradorligini tahlil qilamiz. Faraz qilaylik, jihozning pasport bo'yicha quvvati bir soatda 100 mahsulot birligiga teng, 5 soat davomida haqiqatdan ham u 80 mahsulot birliginichiqardi. Unda,

$$K_{int.} = 80/100 = 0,8.$$

Demak, jihoz quvvatidan 80% foydalanildi.

Asosiy fondlardan foydalanishning uchinchi guruh ko'rsatkichlariga, jihozlardan foydalanishning integral koeffisienti, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffisienti, fond qaytimi, fond sig'imi koeffisientlari kiradi.

Jihozlardan foydalanishning integral koeffisienti jihozlardan foydalanishning ekstensiv va intensiv koeffisientlarining hosilasi sifatida aniqlanadi va jihozlarni vaqt bo'yicha hamda quvvati bo'yicha ekspluatatsiya qilinishini ifodalaydi.

Bizning misolda $K_{ekst}=0,71$; $K_{int.}=0,8$. Demak, integral foydalanish koeffisienti:

$$K_{int.f.} = K_{eks.} \times K_{int.} = 0,71 \times 0,8 = 0,57.$$

Shunday qilib, bu ko'rsatkich miqdori hamma vaqt oldingi ikki ko'rsatkich miqdorlaridan past, chunki u jihozlardan ekstensiv, ham intensiv foydalanish

kamchiliklarini bir yo‘la hisobga oladi. Ana shu ikki omillarni hisobga olganda jihozdan faqatgina 57% foydalanilgan.

Asosiy fondlardan yaxshi foydalanishning natijasi hammadan oldinishlab chiqarish hajmining oshishidir. Shuning uchun asosiy ishlab chiqarish fondlardan foydalanish samaradorligining umumlashtiruvchi ko‘rsatkichi ishlab chikarilgan mahsulotni uni ishlab chiqarishida ishlatiladigan jami asosiy fondlar bilan andozalash tamoyili asosida qurilishi kerak. Bu ishlab chiqarilgan mahsulotning har bir so‘m asosiy fondlar qiymatiga to‘g‘ri keladigan miqdoriy ko‘rsatkichi bo‘lib, u fond qaytimi deyiladi.

Fond qaytimi ko‘rsatkichini aniqlash uchun qo‘yidagi formuladan foydalaniladi:

$$F_q = T/F.$$

bu yerda, T - tovar yoki yalpi, yoki sotib bo‘lgan mahsulot hajmi, so‘m;

F - korxona asosiy ishlab chiqarish fondlarining o‘rta yillik qiymati.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarning o‘rta yillik qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$F_{o'y.} = F_1 + \frac{F_k \cdot n_1}{12} - \frac{F_2 \cdot n_2}{12}$$

bu yerda: F_1 - korxonaning asosiy ishlab chiqarish fondlarining yil boshidagi qiymati, so‘m;

F_k - yil davomida yangi qo‘shilgan asosiy ishlab chiqarish fondlar qiymati, so‘m;

F_2 - yil davomida eskirib, ishdan chiqqan asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati, so‘m;

n_1 – yangi fond qo‘shilgan vaqtdan boshlab, to‘liq oylar soni;

n_2 – eski fondning chiqqan vaqtdan boshlab, to‘liq oylar soni.

Fond qaytimi asosiy fondlardan foydalanishning eng muhim ko‘rsatkichidir. Fan-texnika taraqqiyoti sharoitida fond qaytimining o‘sishi murakkablashadi, chunki, mehnat sharoitini yaxshilash, tabiatni asrash va hokazolarga yo‘naltirilgan xarajatlar ko‘payishi, joriy etishga tayyor jihozlarni almashtirilishi, bu ko‘rsatkichni pasaytiradi.

Fond qaytimini oshiruvchi omillar 2-rasmda ko‘rsatilgan.



9.2.2-rasm. Fond qaytimi o'sish omillari

Mahsulotning fond sig'imi – fond qaytimining teskari ko'rsatkichi bo'lib, har bir so'm chiqarilgan mahsulotga asosiy fondlar qiymatining ulushini ko'rsatadi. Agar fond qaytimi oshishga mayl etilishi lozim bo'lsa, mahsulotning fondga talabchanligi esa pasayishga mayl bo'lishi kerak.

Korxona ishining samaradorligi ko'p miqdorda mehnatni fond bilan qurollanganligi darajasi bilan bog'liqdir. Bu ko'rsatkich korxona asosiy ishlab chiqarish fondi qiymatining ishchilar soniga nisbati sifatida aniqlanadi. Bu miqdor uzluksiz o'smog'i kerak, chunki, texnik qurollanish bunga bog'liq, demak mehnat unumdorligi ham bog'liq.

Ekstensiv iqtisodiy o'sishni tahlil qilishda turli usullardan foydalaniladi: ekonometrik usullar, sценariy usuli, IMM, shu jumladan, TABni ishlab chiqish usuli.

Bu tenglamalar sistemasi har bir tarmoqning ishlab chiqarilgan oraliq mahsuloti va belgilangan hajmdagi yakuniy mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash uchun ketgan xarajatlarni aniqlash imkonini beradi.

Tenglamalar quyidagi ko'rinishga ega:

$$x_i = a_{i1} x_1 + a_{i2} x_2 + \dots + a_{in} x_n + Y_i.$$

Yoki umumiy ko'rinishda:

$$x_i = \sum_{j=1}^n a_{ij} x_j + Y_i,$$

bu yerda: x_i - berilgan tarmoqning (i -) yalpi ishlab chiqarish hajmi;

a_{ij} - to'g'ri xarajatlar koeffitsientlari, ya'ni (j) tarmoq mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun (i) tarmoq oraliq mahsulotlarining xarajat me'yorlari;

Y_i -berilgan (i -) tarmoq mahsulotining yakuniy noishlab chiqarish iste'moli (talab).

Agar barcha tarmoqlarning mahsulotlariga talab aniqlangan (prognozlangan) bo'lsa, retrospektiv tahlil asosida olingan bevosita xarajatlar koeffitsientlari (texnologik koeffitsientlar)dan foydalanib, tarmoqlarning oraliq mahsuloti va mos ravishda yalpi mahsuloti hajmini hisoblash mumkin. Lekin, texnologiyalarning rivojlanishi (FTT) ishlab chiqariladigan mahsulot birligiga yoqilg'i-energetika va material resurslar xarajatini pasaytirishi va progressiv xomashyo va materiallarga, jamlovchilarga sxema va uzellarga o'tishga imkon berishini ko'zda tutib, prognoz hisob-kitoblarda turli variantlardagi FTT prognozi natijalarini hisobga olish zarur.

Asosiy qiyinchiliklar shundaki, prognozni shakllantirishning asosi bo'lgan moliyaviy hisobot ma'lumotlari har xil turdagi mahsulot ishlab

chiqaruvchi xo'jalik tarmoqlari bo'yicha tuziladi, TAB esa «sof» tarmoq tamoyiliga ko'ra, ya'ni matriqa ustunining har bir qatorida bir turdagi mahsulot bo'yicha tuzilgan. «Sof» tarmoq bo'yicha bog'liqliklarni aniqlash juda muhim, chunki u ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy ta'minlanganligini va aniq turdagi resurslarning takror ishlab chiqarishlashini baholash, budjet va aholi uchun resursni ishlab chiqarishdan daromadni baholash imkonini beradi.

Umumiy tarzda, makroiqtisodiy tahlil (iqtisodiy rivojlanish tahlili) uchta asosiy bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda alohida firmalar va uy xo'jaliklarining qarorlari nazariy jihatdan o'rganiladi. Ikkinchi bosqichda jami individual qarorlarning umumiy holatga ta'siri ko'riladi, ya'ni ular agregirlashgan holda makrodarajada qaraladi. Uchinchi bosqichda amaldagi makroiqtisodiy ma'lumotlar yordamida ushbu nazariya yoki nazariy faraz (konsepsiya, model) to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi tekshiriladi.

Makroiqtisodiy dinamikaning asosiy tahlil varianti - bu jami (yalpi) talab va

taklif nisbati, muvozanati va bunga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganishdir. Umuman, muvozanatli iqtisodiy o'sish - bu talab va taklif muvozanatining dinamikasidir. Demak, yalpi talab va taklifga ijobiy va salbiy, bevosita va bilvosita ta'sir etuvchi omillar - iqtisodiy o'sishga ham xuddi shunday ta'sir ko'rsatadi.

Analitik (formulalar asosidagi) talqinda iqtisodiyotdagi jami talab (Q^D) quyidagi asosiy tarkibiy qismlar bilan aniqlanadi:.

$$Q^D = C + I + G + (Ex - Im), \quad (4.1)$$

bu yerda: C - iste'mol, investitsion sarflar (I), davlat sarflari (G) va sof eksport ($Ex-Im$) bilan bog'liq.

Iqtisodiyotdagi narxlar (P) va mavjud daromadlar doirasida tarkib topadigan jami talab (Q^D), boshqa variantda, yana davlat sarflariga,

solliqlarga (Tax), bo'lg'usi qo'ldagi daromadlarga - $[Q-Tax]^f$, kapitalning chegaraviy unumdorligiga (MPK^e) va pul taklifiga (M) bog'liq, deb ham qaralishi mumkin:

$$Q^D = Q^D (G, Tax, [Q-Tax]^f, MPK^e, M, P). \quad (4.2)$$

Jami taklif (Q^S) - iqtisodiyotda mavjud sharoitlarda, narxlarga va ish haqi darajasiga qarab, yaratilgan jami mahsulotlar va xizmatlardan iborat. YAkuniy mahsulotlarga bo'lgan talabga va ularning narxlariga, sarflanadigan omillarga, kapital va texnologiyaga qarab, firmalar foyda maksimum bo'ladigan ishlab chiqarishni, uy xo'jaliklari esa, ish haqi darajasiga va qulayligiga qarab, ish joylarini tanlashadi.

Jami taklif (Q^S) yoki ishlab chiqarish, o'z navbatida, asosiy omillar miqdorlariga (K , L va $\square$, ya'ni kapital, mehnat sarflari va texnologiyalarga, yoki, umumiyroq, ITTga) bog'liq,

$$Q = Q (K, L, \square) \text{ yoki } Q^S = Q (K^{(+)}, L^{(+)}, \square^{(+)}) , \quad (4.3)$$

ya'ni, an'anaviy umumlashgan ishlab chiqarish funksiyasidek (IChF) ifodalanadi. Umumiy holda bularda: $Q^S=f(X_1, X_2,...,X_n)$ - n ta ishlab chiqarish omilini: kapital, mehnat, texnologiya, ITT, energiya, er, suv resurslarini va boshqalar

cheklangan omillar sarflarini, shuningdek, jami talabda m ta talab omilini: $Q^D=f(Y^1, Y^2,...,Y^m)$ e'tiborga olish mumkin.

IchFning muhim jihati shundaki, bu funksiyalar nafaqat ishlab chiqarish hajmi, balki uning orttirmalari uchun ham o'rinlidir: xususan, dQ/dK ; dQ/dL ; $dQ/d\pi$ larni baholash mumkin. Bular omillarning chegaraviy unumdorligi ham deyiladi. IchFning har bir omil bo'yicha grafiki - doim o'suvchan, lekin o'sish sur'ati kamayuvchi egri chiziqqa mos. Lekin, soddalik uchun, u ko'pincha to'g'ri chiziqdek qaraladi.


Grafik holda jami talab (Q^D) va jami taklif (Q^S) muvozanati - quyidagidek eng oddiy an'anaviy grafik modellar asosida ko'riladi.

Jami talab va jami takliflarning muvozanati - muvozanat narxlarini, zarur ishlab chiqarish hajmini va bandlik darajasini belgilaydi. Talab

o'zgarishidan (ekspansiyasidan, o'zgarish impulsidan) keyingi yangi muvozanat holati 3-5-rasmlarda ifodalangan.

a) An'anaviy holda talab ekspansiyasida (3-rasm), faqat narxlar oshadi, aniqrog'i, ularning faqat masshtablari o'zgaradi. Narxlar o'sishi real ish haqini kamaytiradi.


b) Asosiy keynscha holda (4-rasm), talab ekspansiyasi ham narxlarga va ham taklifga ta'sir qiladi.




Q_0 Q_1 Q

Q_0 Q_1 Q

3-rasm



4-rasm



5-rasm

Talab ekspansiyasi (shoki): a) an'anaviy hol; b) Keynscha asosiy keynscha hol; v) Keynscha chegaraviy hol.




v) Keynscha chegaraviy holda (5-rasm), talabning oshishi narxlar darajasi o'zgarmaganda ham, ishlab chiqarishni (taklifni) Q_0 dan Q_1 gacha oshishiga olib keladi. Shunday qilib, keynscha hol ikkala holda ham, jami talabning o'sishi ishlab chiqarishning va bandlikning o'sishiga olib keladi.

Taklif ekspansiyasi yoki shoklaridan keyingi bo'ladigan muvozanat 6-7 va 8-rasmlarda ko'rsatilgan.

a) An'anaviy holda taklif Q^S dan Q^{S1} ga siljiganda, 6-rasm, yangi muvozanat holatiga mos narxlar pasaygan P_1 bo'ladi.

b) Asosiy keynscha holda, 7-rasm, taklifning keskin o'sishi, uning chizig'ini o'ngga Q^S dan Q^{S1} ga siljitadi va ishlab chiqarish Q_0 dan Q_1 gacha o'sgan, narxlar esa, P_0 dan P_1 ga tushgan yangi muvozanat holati bo'ladi.

v) Keynscha chegaraviy holda, (8-rasm), texnologik takomillashuv natijasida yangi muvozanat holatida ishlab chiqarish o'sadi ($Q_1 > Q_0$), narxlar esa, tushadi ($P_1 < P_0$).



7- rasm

8- ras

Taklif ekspansiyasi (shoki): a) an'anaviy hol; b) asosiy keynscha hol; v) Keynscha chegaraviy hol.

Iste'mol va jamg'armalarning tahliliy modellari jami talab va taklifning muvozanati hamda bu muvozanatning dinamikasi, ya'ni muvozanatli iqtisodiy o'sish - birinchi galda mehnat bozorining muvozanatiga (to'liq bandlikka erishishga), keyin esa, daromadlarning iste'mol va jamg'armalarga qanday taqsimlanishiga bog'liqdir. Iste'mol va jamg'armalarni zamonaviy tarzda tahlil etishni Dj.M.Keyns boshlagan. U birinchilardan bo'lib, joriy daromadlar va joriy iste'molni o'zaro bog'lovchi, iste'mol funksiyasi tushunchasini kiritgan: $C=f(Y)$. Bu yondashuv iste'molning tahlilida muhim qadam bo'lib, keyinchalik ko'p davrli iste'mol va jamg'armalarning dinamikasini o'rganishga olib keldi. Bu konsepsiyaga muvofiq, uy xo'jaliklari o'z daromadlarini hozirgi iste'molga (C) va keyingisiga (jamg'armalarga, S) shunday taqsimlaydiki, bularning jami umumiy nafi maksimal bo'ladi. Agar hozirgi va keyingi iste'molning vaqt ($t=0,1,2,...,T$) davomida taqsimlanishini ($C_0, C_1,...,C_T$) kabi belgilab va uni iste'mol traektoriyasi desak, xo'jaliklar u bo'yicha jami iste'molning ko'p davrli (dinamik) budjet chegaralovi doirasida maksimum bo'lishiga intilishadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Iqtisodiy o'sish omillari qanday turlarga bo'linadi?*
2. *Bir omilli iqtisodiy o'sishni qanday tushunasiz?*
3. *Ko'p omilli iqtisodiy o'sishga ta'rif bering.*
4. *Darajali va chiziqli funksiyalarning xususiyatlarini tushuntirib bering.*
5. *Ishlab chiqarish funksiyalari va ularning turlari.*
6. *Ishlab chiqarish funksiyasining xarakteristikalarini tushuntirib bering.*
7. *Iqtisodiy tizimda chegaralangan resurslar qanday taqsimlanadi?*
8. *Iqtisodiyotning nisbiy o'sish tezligiga tavsif bering.*
9. *Elastiklik koeffisientini tushuntirib bering.*
10. *Bir va ko'p o'lchamli o'sishning qiyosiy tahlili nimadan iborat?*

X BOB. IJTIMOIIY INFRATUZILMA VA UZOQ MUDDATLI

IQTISODIY KO'RSATKICHLAR

O'quv maqsadi: davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy o'sishlarning turlichaligiga sabab ayrim davlatlar investitsiyaga va yangi texnologiyalarni o'rganishga ko'prok mablag' va inson kapitalini sarflashlari, bunga yana bir sabab ularning geografik jixatdan joylashgan xududi sanaladi, ya'ni tabiiy boyliklarning mavjudligi va iklimi, bundan tashkari madaniyati va dini ham bunga ta'sir etuvchi omil bulib xisoblanadi, Maks Veber g'oyalarining mazmunini aniqlashga doir nazariy bilimlarni shakllantirishdan iborat

Tayanch iboralar: ijtimoiy infratuzilma, investitsiya, texnologiya, inson kapitali, tabiiy resurslar, ta'lim, aholi bandligi, real daromad, madaniyat, sport, turizm

10.1. Iqtisodiy o'sishga investitsiyalarning ta'siri

Jahon mamlakatlarida barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, yuqori qo'shilgan qiymatli raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, korxonalarni texnologik yangilash, yangi ish o'rinlarini yaratishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv jarayoni va xalqaro kapital migratsiyasi rivojlanayotgan mamlakatlar va mintaqalarda xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobiga milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun muhim istiqbolli imkoniyatlarni yaratmoqda. 2019 yilda jahon iqtisodiyotiga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) hajmi 2010 yilga nisbatan 1,1 barobarga oshgan holda 1539,0 mlrd. AQSh dollarini, rivojlangan mamlakatlarda 1,13 barobarga oshgan holda 800,2 mlrd. AQSh dollarini, rivojlanayotgan mamlakatlarda 1,1 barobarga oshgan holda 684,7 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan¹¹.

Pandemiya va undan keyingi davrlarda iqtisodiy o'sishda yuzaga kelgan turg'unlikni bartaraf qilish maqsadida mamlakatlar o'rtasida xorijiy investitsiyalar jalb qilish bo'yicha keskin raqobat kurashining yuzaga kelishi xorijiy

¹¹ World Investment report 2020. <https://worldinvestmentreport.unctad.org/>

investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish bo'yicha yangi strategik yo'nalishlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, hududlarni faol ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarga muhim vosita sifatida qaralmoqda. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida ta'kidlanganidek, "...iqtisodiy o'sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko'paytirish orqali erishiladi"¹².

Investitsiyalarning ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilash, ilmiy asoslangan investitsiya qarorlarini qabul qilish, investitsiya faoliyatini oqilona tartibga solish asosida ichki va tashqi moliyaviy manbalarni, barcha shart-sharoitlarni hisobga olgan holda jalb qilish, milliy iqtisodiyotning kelajagini belgilaydi. Investitsiya va sarmoyalar haqida gap borganda, bir muhim masalaga ya'ni, joylarda iqtisodiyotni yuksaltirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarni barpo etish hamda ta'mirlash uchun xorijiy sarmoyalarni jalb qilish ko'zda tutiladi. Bu borada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish sohasi hamda kasanachilikni rivojlantirish nechog'liq katta, hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini kimgadir isbot qilib berishga hojat yo'q. Bu avvalambor, aholi bandligi, uning ish haqi va daromadlarini oshirish, bu oxir-oqibatda respublikamiz hududlari, shahar hamda tumanlaridagi eng muhim ijtimoiy muammolarni yechish demakdir.

Bunda albatta sanoat ishlab chiqarishining ulushi nisbatan ko'proq bo'lishi hammaga ma'lum. Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xususiylashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, respublikaning ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'lgan mintaqalarda yangi ish o'rinlarini yaratish dasturlarini amalga oshirish uchun o'zak tarmoqlarni rivojlantirishdir.

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha xorijiy investitsiyalarning tarkibida ma'lum

¹² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 28 декабрдаги Олий Мажлисга мурожаатномаси //Халқ сўзи. 2020 йил 29 декабрь.

o'zgarishlar sodir bo'ldi. 2000 yilda o'tgan 1999 yilning mos davriga

nisbatan xorijiy investitsiyalar sanoat tarmoqlarida 15,6 foiz daraja kamaygan bo'lsa, qishloq xo'jaligida esa 5,7 foiz darajaga ortgan. Investitsiyaning katta miqdordagi qismini sanoat tarmog'iga kiritilishi natijasida, sanoat tarmog'ida dastlabki besh yil mobaynida o'rtacha 117,52 mlrd. so'mga ortib, YAIM ishlab chiqarishdagi ulushi o'rtacha 209,87 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2012-2017 yillarda bu ko'rsatkichlar mos ravishda 676,82 mlrd. so'm va 2167,62 mlrd so'mga etdi.

Yuqoridagi yutuqlar bilan birga shuni ta'kidlash lozimki, 2017 yilda sanoat ishlab chiqarishining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi joriy bahoda 55472,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Sanoat sohasiga kiritilayotgan investitsiyalarning samaradorlik darajalari 1995-2000 yillarda o'rtacha 1,68 foizni tashkil etdi va 2012-2017 yillarda bu ko'rsatkich 1,24 foizga ortib, 2,86 foizga teng bo'ldi. Olingan natijalardan ko'rinadiki, sanoat tarmog'iga kiritilgan investitsiyalardan foydalanish o'z samarasini bermoqda.

Tarmoqda ishlab chiqarilgan mahsulotning umumiy sanoat hajmidagi ulushi 6,4%ni tashkil etdi. Shu bois, sanoatga kiritilgan investitsiya miqdori va uning samaradorligi tahlilini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. 2017 yilda kiritilgan investitsiya miqdori 1240,5 mlrd. so'mni tashkil etib, YAIM ishlab chiqarishdagi joriy baholardagi qiymati 5423,5 mlrd. so'mga etdi. 2017 yilda sanoat korxonalariga kiritilgan investitsiyalarni oshishi natijasida YAIMdagi ulushi 2016 yilga nisbatan 4,4 foizga o'sdi.

Mamlakatimiz agrar sohaga ixtisoslashgani uchun qishloq xo'jaligi tarmog'iga ham katta ahamiyat berildiki, qishloq xo'jaligi tarmog'iga kiritilgan investitsiya miqdori va YAIM dagi ulushi bo'yicha o'zgarish albatta, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida amalga oshirilgan ishlarning samarali natijasi deb qarash imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligi salmog'ining 2017 yilda 19,4 foizga qadar pasayishi esa mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tarkibining takomillashib, unda sanoat, qurilish va xizmat ko'rsatish sohalarining ulushi yildan-yilga oshib

borayotganligini anglatadi. Ayni paytda yalpi ichki mahsulot tarkibidagi sof soliqlar xissasining 9,3 foizga qadar qisqarganligi mamlakatimizdagi soliq yukining tobora pasayib borayotganligi ko'rsatadi. Bu o'z navbatida mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi bilan aholini ijtimoiy turmush tarzini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amaliyotga tadbiq etib borayotganligidan dalolat beradi. Bunday islohotlarni amalga oshirilishi natijasida 2017 yilda qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 47849,4 mlrd. so'mni yoki 2016 yilning shu davriga nisbatan 106,8 foizni tashkil qildi, jumladan, dehqonchilik mahsulotlari - 18452,5 mlrd. so'mni (106,4 foiz), chorvachilik mahsulotlari - 12396,9 mlrd. so'mni (107,4 foiz) tashkil etdi. Qishloq xo'jalik iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiya samaradorligini yillar davomidagi dinamik o'zgarishini quyidagi 2-rasmdan ko'rish mumkin.

Tahlil qilish natijasi bo'yicha qishloq xo'jaligiga kiritilgan investitsiyaning samaradorlik darajasi 1995-2000 yillarda o'rtacha 15,23 foizga teng bo'lgan bo'lsa, 2012-2017 yillarda 38,58 foizni tashkil etdi.

Kiritilgan investitsiyalar YAIM ishlab chiqarishdagi ulushida ijtimoiysoha ob'ektlarini qurish va foydalanishga topshirish masalalariga ustuvor ahamiyat berilishi natijasida 113 ming 200 o'quvchiga mo'ljallangan 169 ta kasb-hunar kolleji va 14 ming 700 o'rinli 23 ta akademik liuey qurilishi va rekonstruksiya qilinshi hamda shular qatorida 184 ta bolalar sporti inshootlari, 26 ta qishloq vrachlik punkti va 7 million 240 ming kvadrat metr turar-joy binolari va boshqa ob'ektlar qurilishi bilan izohlash imkoniyati mavjud.

Umumta'lim maktablarni qurish va qayta ta'mirlashda 154,2 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi, bu esa noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 1,7 foizini va ta'lim sohasiga kiritilgan

investitsiyalarning 20,8 foizini tashkil qildi. Shunga qaramay qurilish tarmog'iga kiritilayotgan investitsiyaning samaradorlik darajasini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Bu amalga oshirilgan ishlarning o'zgarish jarayonlarini tahlil etish bilan samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash quyidagi natijalarni o'zida

mujassamlashtiradi: Samaradorlik ko'rsatkichi 1995-2000 yillarda 46,2 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2001-2007 yillarda bu ko'rsatkich 9,8 foizgacha kamayib, 36,4 foizga tushib qolgan bo'lsa, 2017 yil yakuniga ko'ra qurilish ishlariga 53,5 mlrd. so'm mablag' kiritilib, YAIM ishlab chiqarishdagi ulushi 40,4 foizga o'sishini ta'minladi.

2017 yilning yanvar-dekabrida 15080,8 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2016 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 116,6 foizni tashkil etdi. Qurilish ishlari umumiy hajmining 79,5 foizi korxonalarni yangi qurilishi, rekonstruktsiya qilish, kengaytirish va texnik jihatdan qayta jihozlashga, 19,0 foizi kapital, joriy ta'mirlashga va 1,5 foizi boshqa pudrat ishlariga to'g'ri keladi.

2017 yil yanvar-dekabrda chakana tovar aylanmasi 47463,7 mlrd. so'mni yoki 2016 yil yanvar-dekabriga nisbatan 114,8 foizni tashkil qildi. Pullik xizmatlar hajmi 18278,6 mlrd. so'mni, uning o'sish sur'ati 2016 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 113,7 foizni tashkil qildi.

Pullik xizmatlar umumiy hajmida maishiy xizmatlar 9,2 foizni yoki 1690,6 mlrd. so'mni tashkil qildi, ularning real hajmi 2016 yil yanvar-dekabriga nisbatan 19,6 foizga oshdi. Maishiy xizmatlarning 87,7 foizi xususiy tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilib, ushbu sektorning xizmatlar hajmi 1481,9 mlrd. so'mni tashkil qildi va 20,2 foizga oshdi.

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport (logistika xizmatlarini ko'shgan holda) (jami xizmatlarning 27,7 foizi), savdo va umumiy ovqatlanish (22,4 foizi), moliyaviy xizmatlar (8,5 foizi), aloqa va axborotlashtirish (5,5 foizi) xizmatlari xissasiga to'g'ri keldi.

10.2. Hududlarning geografik joylashuvi iqtisodiy o'sishga ta'siri

Investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha Qashqadaryo viloyati O'zbekiston Respublikasida eng etakchilardan biri bo'lishiga qaramay, investitsiyalar ulushida yoqilg'i-energetika majmuasining ulushi yuqoriligicha saqlanib qolmoqda. Hududiy loyihalarni amalga oshirish va ushbu loyihalarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha Qashqadaryo viloyati O'zbekiston

Respublikasida quyi o‘rinlarda bormoqda. Shundan kelib chiqqan holda, Qashqadaryo viloyati hududlaridagi xorijiy investitsiyalarning rag‘batlantiruvchi va to‘siq bo‘layotgan omillarini tadqiq etish, hududlarning iqtisodiy “o‘shish nuqta”larini belgilab beruvchi sohalarning ustuvorligini aniqlash hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish masalalari bo‘yicha taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim vazifa hisoblanadi va mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 26 oktyabrdagi PF-4853-sonli “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2018 yil 1 avgustdagi PF-5495-sonli “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019 yil 13-sentyabrdagi PF-5823-sonli “Chiroqchi erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019 yil 8 yanvardagi PQ-4102-sonli “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019 yil 29 iyuldagi PQ-4406-sonli “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi , 2020 yil 1 maydagi PQ-4702-sonli “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi Qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xizmat qiladi.

investitsiyalarni jalb qilishga ta’sir ko‘rsatadigan omillar va Qashqadaryo viloyati hududlari uchun investitsiya kiritish uchun eng qulay soha(tarmoq)ni aniqlash, hududlarning “o‘shish nuqta”lari ierarxik tahlil usuli (ITU)dan foydalangan holda 3 bosqichda tahlil qilingan.

Birinchi bosqich ierarxik struktura tuzish bosqichi bo‘lib, strukturaga tadqiq qilinayotgan muammo, uning yechimini tanlash uchun mezonlar, yechimga ta’sir qiluvchi omillar, muammo yechimi bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha muqobil

variantlar va ular orasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatuvchi munosabatlar sxematik ravishda kiritilgan. Xorijiy investorlar qaroriga ta’sir etuvchi bozor, xom-ashyo resurslari, mehnat resurslari, hududning geografik joylashuvi, ishlab chiqarish infratuzilmasi, moliyaviy infratuzilma, mahalliy ishlab chiqaruvchilar tarkibi, institSIONal va huquqiy holat, texnologik va innovatsion rivojlanish darajasi ierarxik struktura mezonlari sifatida tanlandi. Ierarxik strukturaning muqobil variantlari sifatida sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish, turizm sohalarini tanlandi.

Ikkinchi bosqich ustunlikni aniqlash bosqichi bo‘lib, unda ierarxiyaning har bir pog‘onasidagi elementlar muhimlik darajasiga qarab, solishtirma tahlil asosida tartibga solindi va har bir element uchun ustunlik koeffitsienti hisoblandi. Tanlangan mezonlarni baholashda Qashqadaryo viloyatida faoliyat olib borayotgan salohiyatli xorijiy kompaniyalarning 10 nafar ekspertlari jalb qilindi

Uchinchi bosqich qaror qabul qilish bosqichi bo‘lib, unda ierarxiya pog‘onalaridagi elementlarning ustunlik koeffitsientlari va pog‘onalar orasidagi bog‘liqlik munosabatlaridan foydalanib, muammo yechimi bo‘lishi mumkin bo‘lgan muqobil variantlarning ustunlik darajasi aniqlandi. Ushbu bosqichga Qashqadaryo viloyatidagi 15 tuman (shahar) hokimlarining investitsiya masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari jalb etilib, viloyatning har bir hududi uchun sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish, turizm sohalarining ustuvorlik darajasi aniqlandi va eng ustuvor sohalarining “o‘sishtirish nuqta”lari belgilandi.

Tanlangan mezon va sohalar ustuvorligini o‘zaro solishtirishda amariKalik matematik T.Saati tomonidan taklif etilgan baholash shkalasidan foydalanildi (8-jadval). Shkalaga 1 dan 9 gacha bo‘lgan butun sonlar asos qilib olingan va ikkita A va B variantlar o‘zaro solishtirilgan. Solishtirishda nisbatan muhim elementga 3,5,7,9 butun sonlari, ikkinchisiga esa butun songa teskari kasr son mos qo‘yiladi. Baholash jarayonida ayrim holatlarda 2, 4, 6, 8 raqamlari oraliq qiymatlar uchun ishlatiladi.

Tanlangan mezonlarning ustunlik jadvali¹³

A ning B dan ustunlik darajasi	Tavsifi	B ning A dan ustunlik darajasi
1	A va B teng imkoniyatga ega	1
3	A Bdan engil ustunlikka ega	1/3
5	A Bdan kuchli ustunlikka ega	1/5
7	A Bdan yetarlicha kuchli ustunlikka ega	1/7
9	A Bdan mutlaq ustunlikka ega	1/9
2,4,6,8	A ning B dan ustunligi Yuqoridagi holatlarning orasida	1/2, 1/4, 1/6, 1/8

Faraz qilaylik, $S = \{C_j | j = 1, 2, \dots, n\}$ tanlangan mezonlar to'plami bo'lsin. Mezonlarni o'zaro juft solishtirish natijalari A matritsasi orqali amalga oshiriladi va $a_{ij} (i, j = 1, 2, \dots, n)$ ning har bir elementi quyidagi mezon o'lchovlari asosida nisbatlanadi:

$$A = \begin{bmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \vdots & \vdots & \ddots & \vdots \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{bmatrix}, a_{ii} = 1, a_{ji} = \frac{1}{a_{ij}}, a_{ij} \neq 0 \quad 1)$$

Shundan so'ng, matematik amallar bajarilib, har bir matritsaning ustuvorlik elementlari topiladi.

$$A_w = \lambda_{\max} W \quad (2)$$

Ekspert baholash tomonidan amalga oshirilgan mulohazalarning mantiqiy jihatdan bog'liqligini baholash uchun "bog'liqlik indeksi" (SI) yoki "bog'liqlik nisbati" (CR) tushunchalaridan foydalaniladi. Agarda $CR \leq 0.1$ bo'lsa, solishtirma matritsani ishlatish tavsiya etiladi. Aks holda ($CR \geq 0.1$) mantiqiy mulohazalar ketma-ketligi buzilgan va matritsani to'ldirishda ekspertlar xatoga yo'l qo'ygan hisoblanadi hamda baholash ishlari qaytadan amalga oshiriladi.

^{13 13} Saaty, T.L. Fundamentals of Decision Making and Priority Theory. RWS Publications, Pittsburgh: 2001

$$CI = (l_{max} - n)/(n - 1) \quad (3)$$

$$CR = CI/RI \quad (4)$$

Tahlil natijalariga ko'ra, xorijiy investorlar qaroriga ta'sir etuvchi eng muhim omil sifatida hududlarning mavjud xom-ashyo resurslari salohiyati (0,245 ball), keyingi o'rinlarda hududning institSIONal va huquqiy holat (0,205 ball), hududdagi bozor hajmi va mahsulot(xizmat)larga bo'lgan talab, aholi daromadlari darajasi (0,190 ball), ishlab chiqarish infratuzilma ob'ektlarining mavjudligi va sifati (0,170 ball) omillari baholandi.

Yuqoridagi qayd etilgan 4 ta omil investitsiya qarorini qabul qilishda eng muhim mezonligi qayd etilib, ularning tanlangan mezonlar ichida jami ustuvorlik darajasi 81 foiz (0,810 ball) ni tashkil etdi. Qolgan mezonlarning jami ustuvorlik vektori 19 foiz (0,190 ball)ni tashkil etib, hududning qulay joylashuvi 0,060 ball, ishchi kuchi tarkibi, malakasi, ish haqi darajasi 0,050 ball, moliyaviy infratuzilma holati 0,040 ball, hududning texnologik va innovaTION rivojlanish darajasi 0,023 ball, mahalliy ishlab chiqaruvchilar tarkibi 0,017 ballga baholandi.

“O'sish qutblari” nazariyasiga asoslangan holda, mamlakatning nisbatan kam taraqqiy etgan hududlarida sanoatni jadal rivojlantirish, ularda “sanoat karkasi”ni tashkil etuvchi “o'sish nuqtalari”ni tanlab olish va rivojlantirish orqali hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirish mumkin. Bugungi bozor talabi va “o'sish nuqtalari”dan kelib chiqib, Qashqadaryo viloyati hududlarini muayyan soha va tarmoqlarga ixtisoslashtirish, ichki va xorijiy investitsiyalar hisobidan amalga oshiriladigan investitsion loyihalarni hududlarga optimal joylashtirish talab etiladi.

Tanlangan mahalliy ekspertlar (tuman, shahar hoqimining investitsiya masalalari bo'yicha o'rinbosarlari) tomonidan Qashqadaryo viloyatining har bir tuman(shahar)i kesimida sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, turizm tarmoqlari bo'yicha ustuvorlik ketma-ketligi baholandi va “o'sish nuqta”lari aniqlandi (10.2.2-jadval).

10.2.2-jadval

Qashqadaryo viloyati tuman(shahar)lari uchun istiqbolda xorijiy investitsiyalarni jalb qilinishi mumkin bo'lgan sohalarning ustuvorlik matriqasi va "o'sish nuqta"lari¹⁴

Tuman (shahar)lar	Sanoat	Qishloq xo'jaligi	Xizmat ko'rsatish	Turizm	O'sish nuqtalari
G'uzor	0,382	0,2 94	0,234	0,090	neft-gaz sanoati uchun butlovchi va ehtiyot qismlar ishlab chiqarish, soya etishtirish, parrandachilik va chorvachilik
Dehqonobod	0,334	0,3 21	0,265	0,080	qurilish materiallari, tog' oldi bog'dorchiligi, chorvachilik, pista va kovrak etishtirish
Qamashi	0,341	0,3 72	0,197	0,090	bog'dorchilik, issiqxona xo'jaligi, qurilish materiallari
Qarshi t.	0,443	0,3 35	0,139	0,083	to'qimachilik, issiqxona xo'jaligi, bog'dorchilik va parrandachilik
Koson	0,245	0,4 18	0,197	0,140	chorvachilik, issiqxona xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati, terini qayta ishlash sanoati

¹⁴ Экспертлар баҳоси асосида муаллиф томонидан Mpriority-1.0 дастурида ҳисобланган.

Kitob	0,310	0,1 92	0,126	0,372	turizm, qurilish materiallari, vinochilik sanoati
Mirish kor	0,329	0,4 24	0,157	0,090	chorvachilik, baliqchilik, to'qimachilik, terini qayta ishlash sanoati
Mubor ak	0,499	0,2 79	0,132	0,090	neft-gaz sanoati uchun butlovchi va ehtiyot qismlar ishlab chiqarish, muqobil energiya ishlab chiqarish
Nishon	0,392	0,4 58	0,142	0,008	chorvachilik, baliqchilik, to'qimachilik, terini qayta ishlash sanoati
Kasbi	0,376	0,3 87	0,147	0,090	bog'dorchilik, chorvachilik, to'qimachilik
Chiroq chi	0,292	0,4 42	0,176	0,090	chorvachilik, bog'dorchilik, qurilish materiallari, oziq-ovqat sanoati
Shaxris abz t.	0,152	0,2 91	0,110	0,447	turizm, bog'dorchilik
YAkka bog'	0,248	0,3 74	0,150	0,228	bog'dorchilik, to'qimachilik, qurilish materiallari
Qarshi sh	0,421	X	0,365	0,214	farmatsevtika, qurilish sanoati, xizmat ko'rsatish

Shahris abz sh.	0,312	X	0,196	0,492	turizm, elektronika sanoati
--------------------	--------------	---	-------	--------------	--------------------------------

Iqtisodiyot tarmoqlari uchun ustuvorlik darajasini belgilashda, har bir tumanning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olindi, mahsulot va xizmatlar yaratish bo'yicha keskin tabaqalashuvga yo'l qo'yilmadi, sohalar bo'yicha tumanlar o'zaro bog'liq va ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar qo'shni tumanlar bozoridagi taqchillikni to'ldiradi.

Tadqiqotda qo'yilgan vazifadan kelib chiqib, Qashqadaryo viloyatining YAHM va xorijiy investitsiyalar oqimining 2000-2020 yillarda kuzatilgan qiymatlari asosida ARIMA (autoregressive integrated moving average) modelining mavsumiylik indeksleri kuzatilmagan tenglamalaridan foydalangan holda, tanlangan ko'rsatkichlarning 2021-2025 yillar uchun prognoz ko'rsatkichlari 3 ta sценariy asosida baholandi. Hisob-kitoblar 2019 yil joriy narxlariga nisbatan amalga oshirildi (10.1.3-jadval).

10.1.3-jadval

Qashqadaryo viloyatida YAHM va xorijiy investitsiyalar oqimi dinamikasining prognoz qiymatlari (2021-2025 yillar)

	Ko'rsat kich lar	Prognoz sценariylari	Yillar				
			2021	2022	2023	2024	2025
YAlpi hududiy mahsulot		Pessimistik sценariy ARIMA (1,1,0)	1,9	3,6	5,1	6,5	7,8
		O'rtacha sценariy ARIMA (1,1,2)	2,2	4,4	6,5	8,6	10,6
		Optimistik sценariy ARIMA (0,2,1)	2,5	5,3	8,0	10,7	13,4
	Xorijiy	Pessimistik	14,4	16,3	17,	17,4	17,5

investitsiyalar hajmi	sūenariy ARIMA (1,1,0)			1		
	O‘rtacha sūenariy ARIMA (1,1,2)	21,6	31,8	41, 3	50,2	58,5
	Optimistik sūenariy ARIMA (0,2,1)	26,7	40,0	53, 4	66,7	80,0

Pessimistik sūenariyda ARIMA (1,1,0) – birinchi tartibli avtoregressiya farqi modelidan foydanildi. Ushbu sūenariyga muvofiq, Qashqadaryo viloyatida 2026 yilda 2020 yilga nisbatan YAHM hajmi 7,8 foizga, xorijiy investitsiyalar hajmi 17,5 foizga oshishi prognoz qilindi.

O‘rtacha sūenariyda ARIMA (1,1,2) – o‘zgarmas qiymatsiz, chiziqli trend hisobga olingan holda silliqlash modeli qo‘llanildi. Ushbu model asosida olingan prognoz natijalariga ko‘ra, Qashqadaryo viloyatida YAHM o‘shishi 2025 yilda kelib 2021 yildagi 2,2 foizlik ko‘rsatkichdan 10,6 foizga etadi. Mos ravishda xorijiy investitsiyalar o‘shishi 21,6 foizdan 58,5 foiz ko‘rsatkichiga erishadi.

Optimistik sūenariyda ARIMA (0,2,1) – o‘zgarmas qiymatsiz, chiziqli eksponensial silliqlash modelidan foydalanildi. Ushbu model asosida olingan sūenariyga ko‘ra, Qashqadaryo viloyatida YAHM, xorijiy investitsiyalar hajmi jadal sur‘atlarda oshib, o‘shish ko‘rsatkichi 2025 yilga kelib, 2020 yilga nisbatan 13,4 va 80,0 foizlarni tashkil etadi.


Pandemiya va undan keyingi davrlarda iqtisodiy o‘shishda yuzaga kelgan turg‘unlikni bartaraf qilish maqsadida mamlakatlar o‘rtasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha keskin raqobat kurashi yuzaga keladi. Shunday ekan, O‘zbekiston Respublikasining boshqa mintaqalari qatorida Qashqadaryo viloyatida ham investitsion loyihalarning miqdor va sifat ko‘rsatkichlarini oshirish tizimli yondashuvni talab etadi. Shularni inobatga olgan holda, muallif tomonidan hududlarda investitsion faoliyat samaradorligini oshirishning sxematik modeli ishlab chiqildi (3-rasm) va Qashqadaryo viloyati hududlari misolida quyidagilar ustuvor vazifalar sifatida belgilandi:

- hududlarda iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan, xorijiy va ichki investitsiyalarni jalb qilishning "drayver" sohalari bo'yicha puxta iqtisodiy asoslangan investitsion loyihalarni ishlab chiqishni tashkil etish, ularni monitoring qilish, investorlarga huquqiy ko'mak berish ishlarini amalga oshirish maqsadida viloyat markazlarida malakali mutaxassislarni jalb etgan holda "Loyihalar fabrikasi"ni tashkil etish lozim;

- Qashqadaryo viloyatida istiqbolli, dolzarb investitsion loyihalarni tezkor moliyalashtirish uchun viloyatda mahalliy budjetning orttirib bajarilgan qismidan ustav kapitali 10,0 mln AQSh dollaridan kam bo'lmagan maxsus investitsion fond tashkil qilish lozim;

- "Chiroqchi" erkin iqtisodiy zonasi va hududlarda yangi tashkil etilayotgan kichik sanoat zonalaridagi lotlar uchun tanlov g'oliblarini aniqlashda xorijiy investitsiyali loyihalarga ustuvorlik berish;

- hududlardagi sobiq sanoat zonolari faoliyatini qaytadan hatlovdan o'tkazish va aniqlangan bo'sh er maydonlari va bo'sh turgan ishlab chiqarish binolarini investitsion majburiyatlar asosida xorijiy investorlarga berish;



10.2.1-rasm. Hududlarda investitsion faoliyat samaradorligini oshirish modeli

- Davlat aktivlarini boshqarish agentligi ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda Qashqadaryo viloyatida 1800 dan ortiq bo'sh turgan ob'ektlar mavjud bo'lib, ushbu ob'ektlardan samarali foydalanish maqsadida jozibador investitsion loyihalarni ishlab chiqish hamda mahalliy tadbirkorlar uchun salohiyatli xorijiy investorlar sherik sifatida tanlash maqsadga muvofiq;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 oktyabrdagi "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6096-sonli Farmoni asosida Qashqadaryo viloyatidagi 56 ta korxonalarning davlat ulushi ommaviy savdolar orqali xususiy sarmoyadorlarga sotilishi rejalashtirilgan. Bizningcha, davlat ulushlarini sotish jarayoniga mahalliy sarmoyadorlar bilan birgalikda xorijiy sarmoyadorlarni keng jalb etish maqsadga muvofiq;

- O'zbekistonning xorijdagi elchixonalari ko'magida hududlardagi istiqbolli investitsion loyihalarni amalga oshirish ishlariga mamlakatimizda biznes yuritishga qiziqishi yuqori bo'lgan xorijda yashayotgan va kelib chiqishi etnik o'zbek bo'lgan salohiyatli tadbirkorlarni jalb qilish maqsadga muvofiq.

13.3 Ishlab chiqarishdagi sifat o'zgarishlarning iqtisodiy o'sishga ta'siri

Iqtisodiy o'sishga ta'sir qiluvchi va ishlab chiqarishda amal qiladigan kuchlar - uning omillari hisoblanadi. O'sish yuz bermasa iqtisodiyot statik (o'zgarmas), aksincha bo'lsa, dinamik (rivojlanuvchi) holatda bo'ladi. Iqtisodiy dinamikani esa ishlab chiqarishni o'stiruvchi omillar ta'minlaydi. Eng so'nggi iqtisodiy o'sish nazariyalariga ko'ra, omillarning asosiylari: tabiiy resurslarning miqdori va sifati; mehnat resurslarining miqdori va sifati; ishlab chiqarishdagi asosiy kapital (fond) miqdori va tarkibi; ishlab chiqarishning texnologiya darajasi. Bu ishlab chiqarish omillarining hajmi vasifatini bildiradi, iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini anglatadi.

Iqtisodiy o'sishni ta'minlashning quyidagi yo'llari mavjud:

- ishlab chiqarish strukturasini yaxshilash;
- fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, ishlab chiqarish va mahsulotning texnik-iqtisodiy darajasini ko'tarish, fan va texnika yutuqlarini joriy etish muddatini qisqartirish;

- ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, kooperatsiyalash, kombinatsiyalash va hududiy joylashtirish darajasini oshirish;
- boshqarishning strukturasi, moliyalash, baholash va kreditlash hamda rag'batlantirish tizimini takomillashtirish;
- inson omilini kuchaytirish asosida mehnatkashlarning ijodiy faolligini va tashabbusini oshirishni yo'lga qo'yish;
- investitsiyalarni keng jalb qilish.

Iqtisodiy o'sishini ta'minlashning hal qiluvchi yo'llaridan yana biri - fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish orqali innovatsiyalarni joriy qilishdir.

Innovatsiyalar qo'llash xususiyatlariga ko'ra ikkita guruhga ajratiladi:

- yangi mahsulotlarni, buyumlar, moddalar, yarimfabrikatlar, butlovchi qismlarni qo'llashni yangi yoki mukammallashtirilgan mahsulotlarni yaratishni qamrab olgan mahsulot ko'rinishidagi innovatsiyalar;

- ishlab chiqarishni tashkil qilish yangi usullarni, yangi jarayonlarni, yangi texnologiyalarni va ular bilan bog'langan yangi jihozlar va asbob-uskunalarni qamrab olgan jarayon ko'rinishidagi innovatsiyalar.

Innovatsiyalarni quyidagi turlarini ajratiladi:

1. Yangiligiga ko'ra:

- yirik ixtirolarni amalga oshiradigan va texnikani yangi bo'g'inlarini va rivojlanish yo'nalishlarini shakllantirishga asos bo'ladigan bazis innovatsiyalar; odatda mayda va o'rta ixtirolarni amalga oshiradigan va ilmiy-texnik rivojlanish davrni tarqalish va barqaror bosqichlarida ustunlik qiladigan yaxshilaydigan innovatsiyalar; eskirgan texnika va texnologiya bo'g'inlarini qisman yaxshilanishiga qaratilgan soxta innovatsiyalar.

2. Qo'llanish xususiyatlariga ko'ra:

- yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishga va ishlatishga yo'naltirilgan mahsulot innovatsiyalari; yangi texnologiyani yaratishga va tatbiq qilishga qaratilgan texnologik innovatsiyalar;

- yangi tuzilmalarni qurish va harakatlantirishga moslangan ijtimoiy bir necha o'zgarishlarni ifodalaydigan kompleks innovatsiyalar; yangi bozorlarda

mahsulotlarga, xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondiradigan bozor innovatsiyalari.

3. Kelib chiqish sababi va manbasi bo'yicha:

- fan va texnika rivojlanishidan kelib chiqqan innovatsiyalar;
- ishlab chiqarishning ehtiyojlarlaridan kelib chiqqan innovatsiyalar;
- bozor ehtiyojlarlaridan kelib chiqqan innovatsiyalar.

4. Qayta ishlab chiqarish jarayonidagi ahamiyatiga ko'ra:

- iste'mol innovatsiyalar; investitsion innovatsiyalar.

5. Innovatsiyani masshtabi bo'yicha:

- murakkab (sintetik) innovatsiyalar;
- sodda innovatsiyalar.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga faqatgina makroiqtisodiy barqarorlik va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash sifatida emas, balki aholi daromadlari manbalari turlarining ko'payishi, aholini ish bilan ta'minlash, mahalliyashtirish, ichki bozorni tovarlar bilan to'ldirish, mamlakat eksport salohiyatini oshirish masalalari sifatida ham qaralmoqda. Masalan, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida aholi daromadlari tarkibida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. Asosan daromad shakllari o'zgarishi, daromadlarning miqdor va sifat jihatidan tarkibiy qismlari o'zgarishi, daromadlardan foydalanishning yangi yo'nalishlari paydo bo'lishi aholini moddiy jihatdan rag'batlantirib, intilishi va izlanishi uchun rag'bat vazifasini o'tamoqda. O'z navbatida modernizatsiya jarayonlari ishlab chiqarish korxonalarini ham rag'batlantiradi, ham yangi tovar turlarini ishlab chiqarish, mahsulot sifatini yaxshilash talabini qo'yadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonlari innovatsiyalarning joriy qilinishi bilan birga yuz beradi. Modernizatsiya yangilash, zamonaviylashtirish ma'nolarini bildirsa, innovatsiya yangiliklarni joriy qilish degan ma'noni bildiradi. Innovatsiya jarayonlari modernizatsiyaning ichida ketadi. Agar modernizatsiyalashni strategiya deb olsak, innovatsiya jarayonlarini strategiyani

amalga oshirish borasidagi taktik faoliyat desabo'ladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilinishida innovatsion jarayonlarning asosan uchta yo'nalishi muhim hisoblanadi:

1. Xorijiy texnika-texnologiyalarning ishlab chiqarishga joriy qilinishi.
2. Mamlakatning ilm-fan slohiyati, ilm fan yutuqlarini, yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy qilish, ilmiy muassasalar va ishlab chiqarish korxonalarining o'zaro hamkorligi.
3. Ishchi kuchining sifat darajasining yuqori bo'lishi, tayyorlanayotgan kadrlarning bilim darajasi va ularning yangilikka intilishi, yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish ko'nikma va qobiliyatlarining shakllantirilganligi.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish sharoitida davlatning ilmiy-texnologik taraqqiyot sohasida innovatsiya va investitsiya faoliyati uchun zarur iqtisodiy imkoniyatlar yaratish o'z tarkibiga soliq, moliya, kredit va bojxona siyosati kabilarni qamrab oluvchi bilvosita tartibga solishni amalga oshirish davlatning asosiy vazifalaridan sanaladi. Demak, davlat innovatsiya jarayonlarini bugungi kunda aynan ular mamlakat taraqqiyoti istiqbolini belgilaganligi tufayli ham tartibga solishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkinki, davlatinnovatsiya siyosati 3 asosiy yo'nalishga ajratiladi:

- innovatsiya faoliyatini faollashtirishni ta'minlash. U o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi: fundamental tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, mamlakatda korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan tijorat innovatsiyalari uchun zarur iqtisodiy-ijtimoiy muhitni yaratish;
- ta'lim, ma'naviyat, ekologiya, ijtimoiy himoya, mudofaa kabi sohalarda davlat mas'uliyati talablariga javob beruvchi innovatsiyalarni yaratish va tarqatish borasidagi maqsadli dasturlar bo'yicha davlat buyurtmalarinimoliyalashtirish;
- alohida korxonalar uchun manfaatdor, ammo zarur darajada yuqori daromad keltirmaydigan ishlanmalar va yangiliklarni qo'llab-quvvatlash vatanlab rag'batlantirishni amalga oshirish.

Yuqorida berilgan yo'nalishlarni birinchisi, umuman, milliy korxonalar

raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan, jumladan, korxonalarda ishchi o'rinlarini saqlash va yaratish bo'lib, mazkur maqsadlar uchun soliq to'lovchilar hisobidan tushuvchi mablag'lar sarflanadi.

Ikkinchi yo'nalish ta'minotchilar va individual iste'molchilar o'rtasida bevosita ikki tomonlama kelishuvlar asosida o'zlashtirilishi yoki sotilishi mumkin bo'lmagan iste'mol bozoriga xizmat ko'rsatadi.

Uchinchi yo'nalish ikkinchi yo'nalish bilan munosabatga ega, ammo uncha kuchli bo'lmagan oraliq hodisalar uchun mos bo'lib, ularning tashqi ijtimoiy

samaralari o'z o'rniga ega va davlatning notijorat mezonlari u yoki bu innovatsiyalarga nisbatan qo'llaniladi.

Ayni damda, innovation faoliyatini an'anaviy ishlab chiqarish faoliyatidan ajratuvchi tamoyillar tavsifi mavjudligini hisobga olish zarur:

1. Innovatsiya xarakteriga ega bo'lgan va faqat kelgusida qoplanishi mumkin bo'lgan qo'shimcha xarajatlarga ehtiyojning mavjudligi. Shuni ta'kidlash lozimki, har bir alohida olingan innovatsiyalarda bu sarflar individual xarakterga ega bo'ladi – ular hajmi, qaytarish tezligi ko'pgina ob'ektiv va sub'ektiv holatlarga bog'liq bo'ladi.

2. Innovatsiyaga sarflar va uni joriy etishdan olinadigan samara vaqt bo'yicha mos kelmaydi. Jumladan, qandaydir yangi mahsulotni ishlab chiqarish butun davri davomida amalga oshirilgan sarflar uni sotish boshlanishi bilan qoplanmay, ma'lum muddat o'tishini talab etadi. Innovatsiyalarning qoplanish hisob-kitobida vaqt omili diskontlash usulini qo'llash oqali amalga oshiriladi. Bu xo'jalik sub'ektining joriy va istiqboldagi manfaatlaribirligini buzuvchi xususiyat bo'lib, innovatsiya faoliyati bilan shug'ullanish istagiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ilg'or innovatsiyalarning kichik foizlarni tashkil etishi, bunda ilg'or innovatsiyalar nafaqat o'zi uchun, shuningdek, samarasiz g'oyalar uchun sarflarni kompensatsiya qilaydi.

1. An'anaviy ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar moliyaviy ko'rsatkichlari yomonlashuvining oldini olish uchun alohida budjet zarurati.

2. An'anaviy faoliyatdan farq qiluvchi innovatsiya faoliyatini baholash mezonlarining qo'llanishi. Masalan "foydaning yillik o'sishi" mezonini har doim ham qo'llab bo'lmaydi, chunki innovatsiya mahsuloti yaqin istiqbol uch-to'rt yilda hech qanday foyda bermasdan, shundan so'ng foyda keskin ko'tarilib ketishi mumkin.

3. Barcha eskirgan vositalardan tizimli ravishda voz kyechish, bu esa o'z navbatida resurslarni yangi ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun ozod etish imkonini beradi.

4. Natijalardan resurslar sarfiga investitsiyalarga qarab uzviy aloqaning yo'qligi.

5. Aniq oraliq natijalar bermaydigan innovatsiyaga mablag' sarflashning oldini olish maqsadida ishni to'xtatish mumkin bo'lgan muddatnito'g'ri tanlash.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash o'z-o'zidan mamlakatimizda tovarlar ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan barcha turdagi iqtisodiy resurslarni oqilona ishlatishda asos bo'ladi.

Bizga ma'lumki, har qanday mamlakat milliy boyligining ortishi, uning iqtisodiy o'sishi, faqat tabiiy resurslar hisobidan emas, balki ishlab chiqarishda foydalanilayotgan texnika va texnologiyasining rivojlanganlik darajasiga ham bog'liq. Bu holatni P.Piluer quyidagi formula orqali izohlagan:

$$W = P \times Tn,$$

bu yerda: W – mamlakatning boyligi, P – tabiiy resurslar, T – texnologiya, n – texnika taraqqiyotining texnologiyaga ta'sir darajasi.

Iqtisodiy o'sishni ko'pchilik modellariga kam omilli konsepsiyasi xarakterlidir. Iqtisodiy o'sish modellari odatda ikki omilli yoki ayrimhollarda bir omilli bo'ladi. Iqtisodiy o'sish nuqtai nazarida mehnatning nafaqat miqdori balki, sifati ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. Mehnat sifati, ya'ni uning murakkabligi uni bajaruvchilarning bilim darajalari, amaliy tajribalari, murakkab operatsiyalarni bajarish qobiliyatlari,

chaqqonligi kabi ko'rsatkichlar bilan baholanadi.

Empirik modellarga omil sifatida kiruvchi mehnat inson faoliyatning faqat miqdoriy ko'rsatkichini ifodalovchi tor ma'nodagi tushunchadir. Bunday modellarda mehnat hajmi ko'p hollarda bajarilgan ish soatlari yoki ishlab chiqarishda band bo'lgan odamlar soni bilan belgilanadi.

Ayrim hollarda mehnat sifatini aniqlashga harakatlar bo'lgan edi. Bunda mehnat sifatini aholining bilim darajasi, mehnatkashlarning yoshi va jinsi kabi ko'rsatkichlar bilan izohlangan.

Yuqorida qayd qilganimizdek, kam omilli modellarda mehnat va asosiy fondlardan tashqari ayrim hollarda boshqa omillardan ham foydalanishimiz mumkin. Bu omillar o'z ma'nolarini bo'yicha uch guruhga bo'linadi.

Birinchi guruh ishlab chiqarish resurslarining turlari, masalan ekin maydonlari va er osti qazilma boyliklaridir.

Ikkinchi guruh mehnat va asosiy fondlarning sifat xususiyatlari hisoblanadi.

Uchinchi guruh omillari ishlab chiqarish shart-sharoitlarini ifodalovchi xususiyatlardir. Masalan, ishlab chiqarishni tashkil qilinish darajasi, ishlab chiqarishning institsional shakllarining miqdor va sifat xususiyatlari, tashqi savdo aloqalari omillarning birinchi yoki uchinchi guruhlariga taalluqli bo'ladi.

Mehnatning har bir aniq shakli har xil murakkablik darajasida namoyon bo'ladi. Sarf qilingan mehnatlarning murakkablik darajasini o'lchash, aniqlash imkoniyati mavjud emas, ularning har birining sifat o'zgarishini alohida taxminiy baholash mumkin. Bu sifat o'zgarishlarini ko'rsatuvchi ko'rsatkichlar ishchilar tarkibi malakasi va uning o'zgarishi, har xil kasbiy tayorgarliklarini va malakalarini talab qiluvchi mehnat turlari o'rtasidagi nisbatlar bo'ladi.

Bir omilli empirik model quyidagi ko'rinishda bo'ladi:


$$Y \square f(L)$$

Agar iqtisodiy o'sishni bir ko'rsatkichning vaqt davomidagi dinamikasi bilan berishning imkoniyati bo'lmasa, ko'p ko'rsatkichli iqtisodiy o'sish konsepsiyasidan foydalanishga to'g'ri keladi. Umuman iqtisodiy o'sishni bitta

jamlangan mehnat kabi umumlashgan iqtisodiy ko'rsatkich yordamida ham ifodalash mumkin emas. Chunki, mehnat har xil shakldagi moddiy va ma'naviy boyliklar va xizmatlar hamda, har xil shaklda moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish va taqsimlash ko'rinishida yuzaga keladi. Shuning uchun ham mehnatning vaqt davomida bunday o'zgarib turadigan shakllarini va natijalarini bitta ko'rsatkich yordamida ifodalash mumkin emas, buni faqat ko'p ko'rsatkichlar yordamida amalga oshirish mumkin.

Mehnat unumdorligining o'sishga olib keluvchi omillarni to'laroq ko'rib chiqamiz. Fan-texnika taraqqiyoti mehnat unumdorligi va iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Texnika taraqqiyoti o'z ichiga nafaqat ishlab chiqarishning butunlay yangi usullarini, balki boshqarish va ishlabchiqarish tashkil qilishning yangi shakllarini ham oladi. Umuman aytganda, fan-texnika taraqqiyoti deyilganda, pirovard mahsulot chiqarishni ko'paytirish maqsadida mavjud resurslarni yangicha uyg'unlashtirishni taqozo qiluvchi yangi usullarning topilishi ham tushuniladi. Amaliyot texnika taraqqiyoti va investitsiyalar mustahkam o'zaro bog'liq, texnika taraqqiyoti ko'pincha yangi mashina va uskunalarga investitsiyalar qo'yishga olib keladi. Masalan, quyosh energiyasidan foydalanish bo'yicha texnologiyani qo'llash uchun quyosh elektrostansiyalarini qurish zarur bo'ladi.

Quyidagi 1-rasmdan ko'rinadiki, real mahsulotni ikki asosiy usulda ko'paytirishi mumkin :



10.3.1.rasm. Real mahsulotni ko'paytirishi usullari

Respublika oldida texnika taraqqiyoti sohasidagi asosiy vazifa, ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyani qo'llash, ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarishning yangi usul va shakllarini joriy qilish hisoblanadi. Mehnat unumdorligining o'sishini aniqlab beruvchi asosiy omil har bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi asosiy kapital hajmi hisoblanadi.

Ma'lum vaqt ichida kapitalning hajmi mutlaq ko'payishi mumkin, ammo ishchi kuchi soni tezroq o'ssa, mehnat unumdorligi pasayadi, chunki har bir ishchining asosiy kapital bilan qurollanganlik darajasi kamayadi. Buni oldini olish uchun:

1. Asosiy kapitaldan ancha unumli foydalanish.
2. Real mahsulot hajmini ko'paytirish zarur.

Ta'lim va malaka tayyorgarligi mehnat unumdorligini oshiradi va natijada

ancha o'sish haqiga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Inson kapitaliga investitsiyalar qo'yish mehnat unumdorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. O'z-o'zidan aniqki, ishchi kuchi sifatining eng oddiy ko'rsatkichi ta'lim darajasi hisoblanadi. Hozirgi davrda respublikamiz iqtisodiyotida band bo'lganlarning 80 foizga yaqini oliy va o'rta maxsus ta'limga ega.

10.4. Ishlab chiqarishda ko'p omilli iqtisodiy rivojlanish modeli

Ko'p omilli iqtisodiy o'sish bir nechta tanlab olingan omillar ta'siri natijasi bo'lmasdan, ko'p omillar birgalikdagi ta'siri natijasidir. Ma'lumki, iqtisodiy o'sish modellaridagi omillar sonlari cheklangandir. Ammo, iqtisodiy o'sishning empirik (amaliy) tahlillarida ko'p omilli yondashuvlar ham uchraydi.

Iqtisodiy o'sishning ko'p omilli konsepsiyasi Yuqorida ko'rib chiqilgan ko'p ko'rsatkichli iqtisodiy o'sish tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, iqtisodiy o'sishning asosiy ko'rsatkichlari jamlangan mehnatning miqdori va sifatidir. Bu mehnat moddiy va ma'naviy boylik va qadriyatlarda jamlangan bo'lib, ularni ishlab chiqarish va taqsimlashning har xil shakllari mavjuddir. Demak, iqtisodiy o'sishga ta'sir qiluvchi barcha omillarni e'tiborga olish uchun jamlangan mehnatga xos bo'lgan barcha shakldagi ko'rinishlarni mustaqil ko'rib chiqilishi kerak. Bu faqat moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchi omillarnigina hisobga olish etarli emasligini ko'rsatadi. Moddiy va ma'naviy boyliklarni va har xil ishlab chiqarish va taqsimot shakllarini yaratishda katnashuvchi barcha asosiy omillarni e'tiborga olinishini taqozo etadi.

Ko'p o'lchamli iqtisodiy o'sishni amalda keng qo'llaniladigan bitta ko'rsatkich milliy boylik bilan xarakterlashimiz mumkin. Chunki, milliy boylik tarkibiga tabiiy resurslar, ishchi kuchi, ishlab chiqarish fondlari, ilm-fan va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar kiradi.

Ko'p ko'rsatkichli iqtisodiy o'sish tahlilida iqtisodiy faoliyatning ayrim yo'nalishlarini va mahsulotlarining ayrim xususiyatlarini miqdoriy aniqlash qo'shimcha murakkabliklar bilan bog'liq.

Iqtisodiy o'sishning asosiy elementlari bir-biridan ham shaklan, ham mazmunan farq qiladi. Bu elementlarning natural ko'rinishlari ham, boshqa

ko'rinishlari ham bir xil bo'lmaydi. Har xil sifat xususiyatlarni

agregirlashni ham turli sifatlarni bir vaqtda o'lchaydigan va baholaydigan yagona, umumiy shart mavjud bo'lgandagina amalga oshirilishi mumkin.

Ko'p ko'rsatkichli iqtisodiy o'sishda statistik ma'lumotlar bilan ta'minlash muammolari yuzaga keladi. Chunki, ma'naviy boyliklar va ishlab chiqarish hamda iste'mol bo'yicha ko'p hollarda kuzatuvlar olib borilmaydi. Ayrimlarini faqat tanlab baholanadi va bu esa to'liq bo'lmagan statistik axborotga ega bo'lishga sabab bo'ladi. Ayrim hollarda iqtisodiy o'sishning elementlarini va qoidalarini qisman baholashgagina imkon beradigan statistik ma'lumotlar mavjuddir.

Nazorat savollari

1. Ishlab chiqarishning miqdoriy o'zgarishi nimalardan iborat?
2. Miqdoriy o'zgarishda resurslarning rolini tushuntirib bering.
3. Unumdorlik nima va u qanday o'lchanadi?
4. Qaysi tamoyillar asosida ishlab chiqarish sohalariga investitsiyalar ajratiladi?
5. Xorijiy investitsiyalar qanday taqsimlanadi?
6. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini tushuntirib bering.
7. Tarmoqlarda xorijiy investitsiyalar samaradorligini qanday aniqlash mumkin?
8. Ishlab chiqarishdagi sifat o'zgarishlar qanday aniqlanadi
9. Innovatsiya nima va uni tarmoqlar va korxonalarda qanday aniqlash mumkin?
10. Bir omilli iqtisodiy rivojlanishning mohiyati nimadan iborat?
11. Mehnat va uning xususiyatlarini tushuntirib bering.
12. Bir omilli empirik modelning mohiyatini tushuntirib bering.
13. Mehnat unumdorligining o'sishga olib keluvchi omillarni tushuntiribbering.
14. Fan-texnika taraqqiyotini mohiyati nimalardan iborat?

15. Ishlab chiqarish real hajmining o'zgarishi nimalarga bog'liq?
16. Ko'p omilli iqtisodiy rivojlanish modelida qatnashuvchi omillarnimalar?

XI BOB. URBANIZATSIYA

O'quv maqsadi: migratsiya va uning urbanizatsiyaga ta'siri ko'rib chikiladi, tuzilmaviy o'zgarishlarning iqtisodiy o'sishga ta'siri kurib chikpladi, migratsiya ham uz navbatida tarmoklar rivojlanishiga uz tasirini ko'rsatadi. Ushbu mavzuda asosiy e'tibor shaxar va kishloklarda ko'rsatilayotgan xizmatlar va bularning Iqtisodiyotga ta'sirining mazmunini aniqlashga doir nazariy bilimlarni shakllantirishdan iborat

Tayanch iboralar: migratsiya, immigratsiya, aholi bandligi, ishsizlik, daromad, tabiiy o'sish, inson kapitali, tabiiy resurslar, real daromad, ish haqi

11.1. Migratsiya va urbanizatsiyaning iqtisodiy o'sishga ta'siri

Urbanizatsiya (franz. urbanisation, ing. urbanization, lot. urbanus — shaharga mansub, urbs — shahar) — jamiyat hayotida shaharlar rolining ortib borishi; ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashuvi, aholining ijtimoiy, demografik tarkibi, turmush tarzi va madaniyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Urbanizatsiya — tarixiy rivojlanish asosida shakllangan jamiyat bosqichlari va hududiy mehnat taqsimoti natijasida sodir bo'lgan ko'p qirrali geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayondir. Urbanizatsiyaning torroq doiradagi demografikstatistik tushunchasi dunyoda, alohida hududlarda, mamlakatlarda shaharlarning (ayniqsa, katta shaharlarning) va shahar aholisi salmog'ining ko'payib borishini anglatadi.

Dastlabki shaharlar mil. av. 3—1ming yilliklarda Misrda, Mesopotamiya, Suriya, Hindiston, Kichik Osiyo, Xitoy, Hindixitoy, shuningdek, Evropa va Afrikaning O'rta dengiz sohillarida vujudga kelgan. YUnonrim dunyosida esa Rim va Karfagen sh. larining mavqei yuqori bo'lgan. O'rta asrlar va Uyg'onish davrida kapitalistik i. ch. unsurlari shakllana boshladi. Bu jarayon shaharlarda aholi sonining o'sib borishiga, konuentratsiyalashuviga olib keldi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda yirik shaharlar paydo bo'la boshladi.

Urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi shaharlarning o'sishi va shahar axrlisining shakllanishi, shahar aholisining tabiiy o'sishi, shahar atrofi hududlarining ma'muriy jihatdan shaharga qo'shib borishi, qishloq aholi manzilgohlarining shahar maqomini olishi bilan bog'liqdir. Shaharlarning o'sishida shahar atrofi zonalarida shahar turmush tarzining shakllanib borishi, ya'ni

Urbanizatsiya jarayonining kuchayishi ham ahamiyatlidir. Katta shahar atrofida kichik shaharlar paydo bo'lib, katta shaharlarga qo'shib boradi va shaharlar aglomeratsiyasini hosil bo'ladi.

Rivojlangan mamlakatlarda aglomeratsiya jarayoni avj olgan, alohida aglomeratsiyalarning qo'shib ketishi natijasida megapolislar vujudga kelmoqda.

Urbanizatsiyaning asosiy ko'rsatkichi shaharliklar sonining o'sishi va jami aholi tarkibida shahar aholisi salmog'ining ortib borishidir. 20-a. ning oxiri va 21-a. boshlarida dunyoda shahar turmush tarzining qishloq joylariga tarqalishi, ya'ni Urbanizatsiya jarayoni kuzatilmoqda. Bu esa shahar aholisi salmog'ining ortib borishiga olib kelmokda. 1950 y. [dunyo](#) aholisining 28,9% shaharlarda yashagan. 1960 y. bu ko'rsatkich 33,9% ni, 1970 y. 37,4%, 1980 y. 41,1%, 1990 y. 45,8% va 2000 y. 51,2% ni tashkil etdi. Shahar aholisining salmog'i rivojlangan mamlakatlarda ancha yuqori (2000 y. da AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Shvetsiyada 75% va Germaniyada 94%, Rossiyada 73% bo'lgan). [Osiyo](#) va Afrikadagi rivojlanayotgan mamlakatlarda Urbanizatsiya jarayoni dunyoning o'rtacha ko'rsatkichidan ancha past. 2000 y. da shahar aholisining salmog'i [Afg'oniston](#) va Efiopiyada 11 — 14% ni, Mier va Turkiyada 45% ni tashkil etdi.

Urbanizatsiyaning hoz. bosqichida katta shaharlarda aholi konzentratsiyalashuvining o'sishi kuzatilmoqda. Bu jarayonda millioner (1 mln. va undan ortiq aholi yashaydigan) shaharlar alohida o'rin egallaydi. 1900 y. da dunyo bo'yicha millioner shaharlar soni o'nta bo'lgan bo'lsa, 21-a. ga kelib bu ko'rsatkich 200 dan oshdi. Dunyoda aholisi 10 mln. dan ortiq yirik shaharlar [Mexiko (25 mln.), [Tokio](#) (20 mln.), [Seul](#) (13 mln.), [Pekin](#) (11 mln.), Parij, Qohira, BuenosAyres va [London](#) (10 mln.)] mavjud.

O'zbekistonda urbanizatsiya jarayoni o'z tarixiy rivojlanish bosqichlariga ega. Uning rivojlanishi o'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va demografik xususiyatlari bilan bog'liq. O'zbekistonda eng qad. shaharlar bilan birga 20-a. ning 2yarmida vujudga kelgan shaharlar ham mavjud. 1913—80 y. larda [O'zbekiston](#) shaharlari soni va shahar aholisi salmog'i o'sdi. O'zbekistonda 120 ta shahar bo'lib, ularda 8249,3 [ming](#) kishi yashaydi (2003). Ularning 38 tasida aholi

soni 20 mingga bo'lgan kichikroq shaharlar, 65 tasi 20 mingdan 100 mingga bo'lgan o'rta shaharlar, 16 tasi aholisi 100 mingdan 500 mingga bo'lgan yirik shaharlar va [Toshkent](#) millioner shahardir. 19-a. ning oxiridan boshlab O'zbekistonda Urbanizatsiya jarayoni rivojlanib kelmokda.

O'zbekistonda keyingi yillarda Urbanizatsiya ko'lamiga, asosan, shahar aholisining tabiiy o'sish jarayoni kamayib borishi ta'sir etmokda. 1991 y. O'zbekistonda har 1000 aholiga nisbatan tabiiy o'sish 19,9 kishini tashkil etgan bo'lsa, 2002 y. da bu ko'rsatkich 10,8 kishini tashkil etdi.

11.2. Urbanizatsiya va migratsiyaning tarmoqlar rivojlanishiga ta'siri

Urbanizatsiya (lotincha urbanus — shaharlik) jamiyat rivojida shaharlar, shahar madaniyati va shaharlarga xos boshqa munosabtlarning rivojlanish jarayoni hisoblanadi. Urbanizatsiya qishloq aholi punktlarining shaharlarga aylanishi, shahar atrofi zonalarining kengayishi va qishloq aholisining shaharlarga ko'chib borishi hisobiga yuz beradi.

Bu jarayon yildan yilga tezkorlik bilan aks etib bormoqda. Masalan, 1800 yilda dunyo aholisining 2 foizi shaharlarda yashagan bo'lsa, 1950 yilda bu ko'rsatkich 30 foizni, hozir esa 50 foizni tashkil qiladi. 2050 yilga borib esa Er shari aholisining 2/3 qismi shaharlarda yashashi kutilmoqda.

Urbanizatsiyaning o'ziga xos ijobiy va salbiy xususiyatlari borligi barchaga ma'lum. Lekin bu — alohida mavzu. Shuni aniqlik, urbanizatsiyaning qay darajada ijobiy yoki salbiy ahamiyatga ega bo'lishi uning davlat tomonidan tartibga solinishi yoki solinmasligi bilan bog'liq.

Soddaroq qilib aytganda, agar urbanizatsiya jarayonlari yetarlicha tartibga solinmasa shaharlar aholisining soni va u yerda mavjud infratuzilma, uy-joy, ish o'rinlari soni o'rtasida katta tafovut paydo bo'ladi. Bu esa, shaharning umumiy qiyofasini ayanchli ahvolga olib kelishi bilan bir qatorda juda ko'plab ijtimoiy va iqtisodiy muammolar, masalan, ishsizlik, narx-navoning ortishi, uy-joy tanqisligi, ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarining etishmasligi kabilarni keltirib chiqaradi.

Prezidentning «Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni aynan ana shu muammolarning paydo bo'lishiga yo'l

qo'ymaslik, urbanizatsiya darajasini har tomonlama puxta o'ylab, aql bilan tartibga solish uchun qabul qilindi.

Yangi tashkil etilgan Urbanizatsiya agentligining asosiy vazifasi ham aynan shu jarayonlarni tartibga solishdan shundan iborat bo'ladi.

Erni xususiylashtirishdan maqsad nima?

Prezidentning «Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonining yana bir muhim ahamiyati shundaki, 2019- yil 1 iyuldan boshlab jismoniy va Yuridik shaxslarga o'zlariga tegishli uy-joylar, bino va inshootlar egallab turgan er uchastkalarini xususiylashtirish huquqi beriladi.

Er uchastkalariga nisbatan xususiy mulk biz uchun mutlaqo yangi tushuncha emas. Amaldagi Er kodeksida ham savdo va xizmat ko'rsatish ob'ektlari xususiylashtirilayotganda ular egallagan er uchastlari bilan birgalikda xususiylashtirish mumkinligi, shuningdek xorijiy diplomatik vakolatxonalar mamlakatimizda er uchastkalarini xususiy mulk sifatida sotib olishlari mumkinligi nazarda tutilgan.

Lekin qabul qilingan farmonning ko'lami juda keng. Bunda barcha Yuridik va jismoniy shaxslarga o'zlari egallagan er uchastklarini xususiylashtirish huquqi beriladi.

Erlarni xususiylashtirishdan maqsad nima? Shuni aytish kerakki, bundan ko'zlangan eng asosiy maqsad ayrim tahlilchilar tushunib-tushunmay aytayotganlaridek davlat budjetini qo'shimcha daromad bilan to'ldirish emas.

Birinchi navbatda bu islohot odamlarni mulkdor qilishga qaratilgan. Ya'ni fuqarolar va tashkilotlar o'zlari egalik qilyotgan yoki foydalanayotgan er uchastkasini davlatdan muayyan nominal qiymatda xarid qilgan holda, bozor narxida undan bir necha barobar qimmat mol-mulkka ega bo'ladi. Xususiylashtirilgan erlar fuqarolik oborotiga kirishi natijasida esa, uning narxi borgan sari ortib boraveradi. Natijasida fuqarolar qo'lidagi mol-mulkning qiymati, o'z navbatida ularning iqtisodiy holati ortib boraveradi.

Erga nisbatan xususiy mulkni joriy etishdan ko'zlangan keyingi maqsad mulk huquqini to'liq kafolatlashdan iborat. Er uchastkasi mulk huquqi asosida tegishli

bo'lgandan keyin uning o'zi ham, uni ustida joylashgan bino ham to'liq daxlsiz bo'ladi. Bu investorlar uchun eng muhim kafolat hisoblanadi.

Urbanizatsiyani boshqarish va erlarni xususiyLashtirish o'rtasida qanday bog'liqlik bor?

Har ikki islohot (urbanizatsiyani boshqarishga o'tish va er uchastkalarini xususiyLashtirish) alohida olganda juda katta va mustaqil, shu bilan birga, bir-biri bilan chambarchas bog'liq islohot hisoblanadi.

Oddiy bir misol. Urbanizatsiya jarayonlari samarali boshqarilgan shaharlarda shahar markazida biznes-markazlar, mehmonxonalar, aholi dam olishi uchun mo'ljallangan saylgohlar bo'lishi, aholi turar joylari shaharning nisbatan chetrog'ida yoki shahar atrofi bo'ylab joylashgan yo'ldash-shaharlarda bo'lishi, ishlab chiqarish ob'ektlari esa, shahardan imkon qadar olisda bo'lishi kerak.

Bunday ideal holatni kuch bilan yoki biror majburiyatni mulkdorlar zimmasiga yuklab qilib bo'ladimi? Aslo yo'q. Chunki hech kim o'zi egallab turgan joyning buzilishi ki ko'chirilishiga rozi bo'lmaydi.

Mana shu joyda xususiyLashtirish bizga yordamga keladi. Biz er uchastklarini xususiyLashtirish orqali ularning mulk sifatidaga qiymati oshirishiga sabab bo'lamiz. Har bir fuqaro yoki tashkilot o'z eriga shunchaki qulay joydagi hudud sifatida emas, kapital sifatida qaray boshlaydi.

Masalan, siz Toshkent shahrida joylashgan qandolat fabrikasi egasisiz. Fabrika joylashgan er uchastkasini muayyan nominal narxda xususiyLashtirib oldingiz. Endi xususiy mulk sifatida uning narxi o'z-o'zidan oshib ketaveradi. Shunga yarasha siz to'laydigan mol-mulk solig'i ham ortib boradi.

Shunda siz o'z-o'zingizga savol berasiz: shu qandolat fabrikasini Toshkentni markazida bo'lishi menga kerakmi? Shahar tashqarida tursa nimasi yomon? Keyin kalkulatoringizni olib hisoblashga o'tasiz. Siz egallab turgan erning bozor narxi 100 million so'm bo'lsin. Toshkentdan tashqarida, masalan, Bo'ka tumanida huddi shu maydondagi erni 10 million so'mga sotib olsa bo'ladi. Fabrikaning uskunalarini ko'chirib qayta o'rnatish ham taxminan 10 million so'mga tushadi. Qarabsizki, siz bu ko'chirishdan 80 million foyda topasiz va uni o'z biznesingizga kiritangiz bo'ladi.

Siz sotuvga qo'ygan er uchastkasini esa boshqa fabrika egasi emas, balki yuqori mol-mulk solig'i to'lasa ham aynan shahar markazida joylashishi shart bo'lgan ob'ekt, masalan, mehmonxona, yirik savdo markazi, yirik kompaniyalar va banklar uchun ofis qurish niyatida bo'lgan boshqa tadbirkor sotib qoladi.

Shu tariqa, hamma xursand, urbanizatsiya jarayoni esa bozor qonuniyalari orqali tartibga solingan bo'lib chiqadi.

11.3. Shahar va qishloqlarda kursatilayotgan xizmatlarning iqtisodiyotga ta'siri

Olib borilayotgan tarkibiy islohotlar doirasida yirik strategik investitsiya loyihalarini amalga oshirish bilan bir qatorda, shaharlar aholisi farovonligining o'sishi va barqaror rivojlanishiga etaklovchi omil sifatida urbanizatsiya jarayoni tegishli darajada hisobga olinmagan. Natijada so'nggi yillarda urbanizatsiya darajasining pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda, shahar aholi punktlari soni esa atigi 1065 dan 1071 gacha ko'paygan.

Yirik qishloq aholi punktlarini shahar posyolkalariga aylantirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlarga qaramasdan, bugungi urbanizatsiya darajasi shaharlarni kompleks rivojlantirish bo'yicha zamonaviy talablarga javob bermaydi va jahon tendensiyalaridan sezilarli darajada qolib ketmoqda. Bunda urbanizatsiya darajasi hanuzgacha barqaror xususiyatga ega emas.

Urbanizatsiya jarayonlarining davlat tomonidan samarali tartibga solinishini ta'minlash hamda er uchastkalarining aylanmasi va ulardan foydalanishda zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish maqsadida:

1. Quyidagilar **mamlakatda urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari** etib belgilandi:

mutlaqo yangi uy-joy siyosatini amalga oshirish asosida urbanizatsiya jarayonlarini faollashtirish, bunda muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilmalar bilan ta'minlangan, ipotekani kreditlash va tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy resurslarini jalb qilish mexanizmlaridan foydalangan holda, shu jumladan, kam va

oʻrta daromadli oilalar uchun arzonlashtirilgan turarjoylarni qurishga yoʻnaltirilgan investitsiyalarni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha maxsus chora-tadbirlarni nazarda tutish;

jismoniy va Yuridik shaxslar uchun turarjoy va noturarjoy bino va inshootlar ostidagi er uchastkalariga egalik qilish huquqini amalga oshirishni kafolatlash, er uchastkalarini fuqarolik muomalasiga kiritish uchun shart-sharoitlar yaratish;

migratsiya jarayonlarini maʼmuriy tartibga solish tizimini takomillashtirish yoʻli bilan aholining qishloq joylardan shaharlarga erkin harakatlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

yirik shaharlar aholisining farovonligini taʼminlash, iqtisodiy va sanoat resurslaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga ushbu shaharlar aholisining toʻliq va samarali bandligini taʼminlashga koʻmaklashish, shuningdek, hududlardagi oliy taʼlim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari asosida texnoparklar tashkil qilish va ularning tizimini mustahkamlash;

avvalambor sanoat, xizmat va servis sohaslarida aholining daromadlarini oshirish va barqaror ish joylarini yaratish omili sifatida aglomeratsiyalarning afzalliklaridan foydalanishni nazarda tutgan holda, oʻrta shaharlarni, shu jumladan, tuman markazlarini boshqarishda ilgʻor xalqaro tajribani keng joriy etish;

yirik shaharlarga tutash boʻlgan va qulay transport aloqasiga ega yoʻldosh-shaharlar tarmogʻini kengaytirish, yirik shaharlarning markaziy qismida sanoat va boshqa zonalar hududlarini qisqartirgan holda, ijtimoiy-ishbilarmonlik zonalar hududlarini kengaytirish.

2. 2019 yil 1 iyuldan boshlab shunday tartib oʻrnatilsinki, unga muvofiq:

Yuridik shaxslar — Oʻzbekiston Respublikasi rezidentlari ularga mulk huquqi asosida tegishli boʻlgan yoki ular tomonidan xususiylashtirilayotgan bino va inshootlar, sanoat infratuzilmasi obʼektlari joylashgan er uchastkalarini, shuningdek, ularga tutash hududlardagi ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur miqdordagi **er uchastkalarini xususiylashtirish huquqiga ega**;

jismoniy shaxslar — Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari ularga yakka tartibda uy-joy qurish va turarjoyga xizmat koʻrsatish uchun ajratilgan er uchastkalarini **xususiylashtirish huquqiga ega**;

ko'rsatilgan er uchastkalarini xususiylashtirish jismoniy va Yuridik shaxslarning arizalari asosida mahalliy davlat hoqimiyati organlarining qarori bilan amalga oshiriladi;

jismoniy va Yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan xususiylashtirilgan er uchastkalari **xususiy mulk (fuqarolik muomalasi ob'ektlari) hisoblanadi va daxlsizdir**, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi [Qonuni](#)ga muvofiq, davlat tomonidan muhofaza qilinadi;

er uchastkalarini xususiylashtirish **faqatgina kadastr hujjatlari mavjud bo'lgan holda** hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan miqdorlarda **pullik asosda** amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

ikki oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga O'zbekiston Respublikasining "**Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan er uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida**"gi qonuni loyihasini kiritсин;

2019 yil 1 iyunga qadar xususiylashtiriladigan er uchastkalari uchun tabaqalashtirilgan to'lovlar miqdorlari, shuningdek, ularni to'lash tartibini belgilovchi hukumat qarorini qabul qilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda, shuningdek, mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda 2019 yil 1 iyulga qadar belgilangan tartibda, shu jumladan, kompleks uy-joylar qurilishi hisobidan yangi shaharlar va yo'ldosh-shaharlar tashkil etishni nazarda tutadigan **O'zbekiston Respublikasida 2030 yilgacha urbanizatsiyani rivojlantirish Konsepsiyasini** (keyingi o'rinlarda — Konsepsiya) tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasini kiritсин.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Urbanizatsiya deganda nimani tushunasiz?*
2. *Migratsiyaning urbanizatsiyaga qanday ta'siri mavjud?*

3. *Immigraçiyaning urbanizatsiyaga qanday ta'siri mavjud?*
4. *Tuzilmaviy o'zgarishlarning urbanizatsiyaga va iqtisodiy o'sishga ta'siri qanday?*
5. *Migraçiya ham uz navbatida tarmoklar rivojlanishiga qanday ta'sirini ko'rsatadi?*
6. *Shaxar va kishloklarda ko'rsatilayotgan xizmatlar va bularning Iqtisodiyotga ta'sirining mazmun va mohiyatini tushuntirib bering?*
7. *Mayatnikli migraçiya degandan nimani tushunasiz?*

XII BOB. TABIIY RESURLAR VA IQTISODIY O‘SISH

O‘quv maqsadi: tabiiy resurslar cheklangan sharoitda faqatgina kishlok xo‘jaligiga suyanish axoli turmush sharoitini pasayishiga olib kelishi, axoli turmush sharoiti ham, axoli soni ham ishlab chiqarishdagi revolyuuiyalar xisobiga o‘sib kelmokda. Maltusning karashlari, Tomas Karlaylning Iqtisodiyotni "zerikarli fan" deb ta'riflashi noto'g'ri ekanligini ko'rsatib berdi,. Stenford universiteti biologi Pol Erlix va Donelli Midous g'oyalari, qarashlari, va nazariyalarining mazmunini aniqlashga doir nazariy bilim kurib chikilgan

Tayanch iboralar: tabiiy resurs, iqtisodiy o'sish, qishloq xo'jaligi, uy xo'jaligi, aholi real daromadi, daromad, xarajat, g'oya

12.1.Mineral va xomashyo resurslarining iqtisodiy o'sishga ta'siri

Hozirgi kunda sayyoramizda kechayotgan qurg'oqchilik hamda cho'llanish jarayoni xalqaro jamoatchilikning doimiy diqqat-e'tiborida turgan global muammolar sirasiga kiradi.

Bu bejiz emas. Chunki cho'llanish, er degradaiiyasi va qurg'oqchilik jiddiy iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik muammo sifatida dunyoning ko'plab mamlakatlari oziq-ovqat xavfsizligiga, insonlar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatayapti.

Bugungi kunda 100 dan ziyod davlatning 1,2 milliard aholisi ana shunday holatdan aziyat chekayotgani fikrimiz tasdig'idir. Qolaversa, 1994 yilda BMT tomonidan ushbu dolzarb masalaga jahon hamjamiyati e'tiborini kengroq jalb etish, ekologik muammoga qarshi kurashda hamkorlikni kuchaytirish maqsadida Qattiq qurg'oqchilikni boshdan kechirayotgan va/yoki cho'lga aylanib borayotgan mamlakatlarda, ayniqsa Afrikada cho'lga aylanib borishlarga qarshi kurash bo'yicha Konvenuiya qabul qilingani ham muammoning nechog'li jiddiy ekanligini anglatadi. Binobarin, mazkur Konvenuiya uni ratifikasiya qilgan davlatlar o'rtasida hamkorlikni kengaytirish, bu borada aholi xabardorligini oshirish, shuningdek, qurg'oqchilik oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo miqyosida cho'llanish hamda qurg'oqchilik oqibatida har yili 42 milliard AQSh dollariga teng qishloq xo'jaligi

ekinlari nobud bo‘ladi. Qolaversa, kelgusida iqlimning tobora isishi va cho‘llarning kengayishi sababli oziq-ovqat mahsulotlari etishtirish hajmi kamayishi barobarida, hayvonot hamda o‘simlik dunyosida ham keng ko‘lamli ko‘chishlar kuzatilishi mumkin. Bu esa faolligi sustroq bo‘lgan turlar yangi sharoitga moslasha olmay, butunlay yo‘q bo‘lib ketish xavfi bor, deganidir.

BMT Bosh Assambleyasi 2010 yilning yanvar oyidan 2020 yilning dekabr oyiga qadar “BMTning cho‘llanish va qurg‘oqchilikka qarshi kurashish 10 yilligi” deb e‘lon qilishidan maqsad ham mazkur muammoni bartaraf etishga qaratilgan sa‘y-harakatlarni birlashtirishdan iboratdir.

Shu o‘rinda yurtimizda cho‘llanishga sabab bo‘luvchi ayrim omillar xususida to‘xtalib o‘tsak. Ma‘lumki, Qizilqum cho‘lida bir paytlar qorako‘lchilikni rivojlantirish va chorva tuyog‘ini muvofiqlashtirish maqsadida quduqlar bunyod qilingan edi. Endilikda esa ushbu quduqlarning aksariyati o‘z faoliyatini tugatgan yoki ta‘mirtalab bo‘lib qolganligi, shuningdek, juda kamsonli quduqlar atrofida chorva tuyog‘i sonining oshib ketishi yaylovdan samarali foydalanishning izdan chiqishiga olib keldi.

Bundan tashqari, ayrim hududlarda o‘zlashtirilgan maydonlarda ham cho‘llanish jarayoni kuchayib, bunday joylar suv tanqisligi hamda tuproqning o‘ta sho‘rlanishi oqibatida tashlandiq hududlarga aylanib bormoqda. Bularning barchasi sobiq ittifoq davrida puxta o‘ylanmasdan amalga oshirilgan ishlarning noxush oqibatlaridir, albatta.

Ta‘kidlash joizki, istiqlol yillarida O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 1999 yilda Konvenziya majburiyatlari bajarilishini ta‘minlash maqsadida Milliy harakatlar dasturi ishlab chiqilgani, cho‘l ekotizimlari barqarorligiga erishish, o‘rmonlarni tiklash, er va suv resurslaridan oqilona foydalanish borasida ko‘rilayotgan chora-tadbirlar bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Shuningdek, bugungi kunga kelib, yurtimizda qishloq xo‘jaligining ko‘p suv talab etuvchi tarmoqlari sezilarli darajada qisqartirildi, sohaga yuqori texnologiyalar joriy qilinmoqda. YUrtboshimiz tashabbusi bilan Sug‘oriladigan erlarning meliorativ

holatini yaxshilash jamg'armasi tuzilib, manzilli dastur doirasida amalga oshirilgan ishlar natijasida respublika bo'yicha 1 million 200 ming gektardan ortiq sug'oriladigan maydonlarning meliorativ holati yaxshilandi.

O'z navbatida, 2013 — 2017 yillar davomida jami 25 ming gektar maydonda tomchilatib sug'orish tizimi, 45,6 ming gektar maydonda plyonka to'shab sug'orish usuli hamda 34 ming gektar maydonda esa o'qariqlar o'rniga ko'chma egiluvchan quvurlar yordamida sug'orish usullari joriy etilishi belgilangan.

E'tiborlisi, bunday sa'y-harakatlar o'z samarasini bermoqda. Ayni paytda mamlakatimiz qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan suvning umumiy miqdori o'tgan asrning 80-yillaridagiga nisbatan yiliga qariyb 13 mlrd. kub metrgacha kamaytirildi. Jumladan, mustaqillikning dastlabki yillarida bir gektar sug'oriladigan maydonga 18 ming kub metr obihayot ishlatilgan bo'lsa, endilikda bu ko'rsatkich 10,5 ming kub metrni tashkil qilmoqda.

O'rmonlarni, xususan, ihotazorlarni barpo etish ham cho'llanishga qarshi kurashishda asosiy choralardan biri hisoblanadi. Shu bois o'rmonlarni kengaytirish, yangi daraxtzorlar barpo etish ishlarini takomillashtirish, sohada faoliyat yuritishga bel bog'lagan Yuridik va jismoniy shaxslarga har taraflama ko'mak ko'rsatish muhim ahamiyatga ega.

Mutaxassislarning fikricha, bioxilmaxillikni saqlash, cho'llanish hamda qurg'oqchilikka qarshi kurashishda biologik resurslarni muhofaza qilish talablariga to'liq rioya etilishini ta'minlash, shamol va suv eroziyasiga qarshi kurashish samaradorligini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilishda davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda keng jamoatchilik bilan hamkorlikni rivojlantirish ijobiy samara beradi. Shuningdek, suv va er resurslarini boshqarishdagi iqtisodiy mexanizmlar hamda huquqiy asoslarni takomillashtirish va me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga qat'iy rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirish kabi masalalarga ham e'tibor qaratish zarur. Zero, aynan er hamda suv resurslarini barqaror boshqarish yo'li bilan bioxilmaxillikni saqlash, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, iqlimning noqulay oqibatlariga moslashish mumkin.

Aslida «resurs» so'zi fransuz tilidan olingan bo'lib, «yashash vositasi» degan

ma'noni anglatadi. Resurs deganda, tabiiy jismlar va foydalaniladigan energiya turlari tushuniladi. Tabiiy resurslar insonning yashashi uchun zarur bo'lgan shunday vositalardirki, ular jamiyatga bevositaemas, balki ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish vositalari orqali ta'sir etadi.

O'zbekiston er osti va er usti tabiiy resurslariga boy. Uning tabiat manbalari xilma-xil bo'lib, ularning asosiy turlari mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishda bevosita ishtirok etadi.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish nuqtai nazaridan uning tabiiy resurslaridan eng muhimi, foydali qazilmalaridir. Foydali qazilmalar esa mamlakatning turli hududlarida keng tarqalgan. «O'zbekiston, o'z er osti boyliklari bilan haqli sur'atda fahrlanadi - bu yerda mashhur Mendeleev davriy sistemasining deyarli barcha elementlari topilgan. Hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma'dan namoyon bo'lgan istiqbolli joylar aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral xom ashyo turlarini o'z ichiga oladi. Ularning tasdiqlangan zahiralari 970 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Shu bilan birga, umumiy mineral-xom ashyo potentsiali 3,3 trillion AQSh dollaridan ortiqroq baholanayotganini ham aytib o'tish kerak.

Mustaqil taraqqiyotning hozirgi bosqichidayoq har yili respublika konlaridan taxminan 5,5 milliard dollarlik miqdorda foydali qazilmalar olinmoqda va ular yoniga 6,0—7,0 milliard dollarlik yangi zahiralalar qo'shilmoqda.

O'zbekiston hududi ayniqsa, rangli metall rudalariga boy. Jumladan, O'zbekiston mis rudasining zahirasi bo'yicha MDHda Rossiya va Qozogistondan keyingi o'rinda turadi. Mamlakat mis konlari mis-porfir formauiyasiga mansub bo'lib, u Qurama tog'larida keng tarqalgan. Uning Olmaliq atrofidagi Qalmokqir, Dalniy va Sarichek konlari eng yiriklaridir. Qo'rg'oshin — rux konlari janubi-g'arbiy Hisor tog'larida joylashgan. Qurama tog'idagi Lashqarak polimetall konidan qadimda kumush, qo'rg'oshin qazib olingan. Ular endilikda sanoat asosida Qo'rg'oshinkon konidan olinadi va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida qayta ishlanadi. Shimoliy Nurota tizmasi yonbag'irlarida ma'dan konlari, Xonjiza (Surxondaryo)da yirik polimetall konlari topilgan.

O'zbekiston oltin zahirasi juda boy, qimmatbaho oltinning bir necha endogen va ekzogen konlari topilgan. Uning eng yirik konlari Markaziy Qizilqum (Muruntov va Kakpatas)da joylashgan. «Muruntov koni dunyodagi gigant konlar jumlasiga kiradi. U Evrosiyo qit'asidagi ruda tarkibida oltin yuqori darajada bo'lgan eng yirik konidir. Muruntov konining topilishi xalqaro geologiya jamoatchiligi tomonidan XX asrning ikkinchi yarmida oltin sohasida qilingan eng katta kashfiyot deb e'tirof etildi». «Oltin zahiralar bo'yicha respublika dunyoda 4-o'rinda, uni qazib olish bo'yicha 7-o'rinda turadi», deb ta'kidladi Sh.M.Mirziyoev.

Oltinning Muruntov va Kakpatas konlari tokembriy va quyi paleozoy jinslarida, Olmaliq guruh konlari esa intruziyalarda joylashgan. Tarkibida oltin bo'lgan rudalar g'arbiy O'zbekiston va Chotqol-Qurama tog'larida ham ko'p uchraydi. Oltin Marjonbuloq, Zarmitan, Chodak, Uchbuloq, Qoraqo'ton, Kauldi konlarida katta zahiralar ega. Umuman, mamlakatimiz hududida oltinning 30 dan ortiq konlari topilgan va ularning zahirasi aniqlangan. Shuni ham ta'kidlash joizki, mamlakatimiz hududida oltin konlarining mavjudligi qadimda ham ma'lum bo'lgan. Arxeologik qazilma (topilma)larning guvohlik berishicha, miloddan avvalgi VII-VIII asrlarda ham O'zbekiston oltini aholi tomonidan ishlatilgan.

O'zbekistonda kumush konlari ham ko'p. Uning asosiy konlari Qurama tog'larida joylashgan. Navoiy viloyatidagi Visokovoltnoe, Ukjetpes, Kosmonachi konlari va Namangan viloyatidagi Oqtepa zahiralar aniqlangan kumush konlaridir. Mamlakatimiz hududida shuningdek, turli tuzlarning, fosforit, oltingugurt, alyuminiy xom ashyosi (boksit rudalari), pardozlovchi va qurilish materiallarining katta zahiralar mavjud.

Nodir metallardan vol'fram (Langar, Qoratepa, Quytosh, Ingichka, YAxton, Chochtepa konlari), molibden (Hisor, Qurama va Chotqol tizmalarida) ko'p uchraydi. Qalayning mamlakatimizda 100 dan ortiq to'plami(konlari) bor. Shulardan Qarnob koni 1950 yillarda ishga tushirilgan. Vismut rudalari Chotqol-Qurama tog'larida topilgan. Simob va surma tarkibli rudalar respublikamizning ko'p joylarida uchraydi. Jumladan, Janubiy Farg'onada simobning 100 dan, surmaning 10 dan ortiq konlari istiqbolli hisoblanadi.

12.2. Yoqilg'i-energetika resurslarning iqtisodiy o'sishga ta'siri

Mamlakat qazilma boyliklari orasida rudali resurslardan oltin, mis va boshqalar qatori temir rudasining ham ulushi ancha. Cho'kindi jinsli temir ruda konlari bur va uchlamchi davr yotqiziqlarida joylashgan bo'lib, bunday konlar Orolbuyi regionida, Qizilqumda va Jizzax viloyati hududida uchraydi. 1999 yilda geologlar tomonidan zahirasi qayta aniqlangan Jizzax viloyati Forish tumanidagi temir ruda konining sanoat ahamiyati juda katta bo'lib, uning tarkibida 60 foiz atrofida sof temir borligi qayd qilindi. Bu, endilikda mamlakat qora metallurgiyasi istiqbolini belgilamoqda.

O'zbekistonda marganets konlari ham ko'p. Uning Zarafshon tog'larida Ziyovuddin, Dovtosh, Qizilbayroq, Taxtaqoracha, Tersaksoy, Cho'ponota konlaridagi zahiralarining tarkibi toza rudaga ancha boy (ruda tarkibida toza marganets 8 foizdan 28 foizgacha). Shuningdek, marganets konlari Korjontog va Morguzar tog'larida ham bor.

Mamlakatimizning ayrim hududlarida sanoatning qimmatbaho xom ashyosi bo'lgan uran ham bor. Uran bilan yo'l-yo'lakay reniy, skandiy, lantanoidlar ham qazib olinmoqda. Mazkur elementlarning aksariyati ma'lum darajada eritmaga o'tadi. Binobarin, ularni ajratib olish texnologiyasini joriy etish konlarni ishlash samaradorligini ancha oshirish imkonini bergan bo'lur edi.

O'zbekiston energetika sanoatini rivojlantirish uchun zahirolari ancha katta bo'lgan neft, tabiiy gaz va ko'mir konlariga ega. Mazkur tabiiy boyliklar mamlakatimizning turli mintaqalari bo'ylab tarqalgan.

Neft. U o'tgan asrning boshlari va o'rtalarida Farg'ona vodiysidan ko'plab qazib olingan. O'zbekistonda dastlab neft qazib olish 1904 yilda Farg'ona vodiysidagi Chimyon konida boshlangan. Keyinchalik shu hududda Xujaobod, Janubiy Olamushuk, Shimoliy Olamushuk, Polvontosh, Xo'ja Usmon, Hartum kabi yangi konlar topilgan va ishga tushirilgan. 1959 yilda Fargona neftni qayta ishlash zavodining birinchi navbati ishga tushgan. O'sha yillarda Janubiy O'zbekiston — Surxondaryo va Qashqadaryoda yangi-yangi neft konlari (Kokayti, Lalmikor, Xaudak, Uchqizil) topilgan. Mazkur konlarning ko'pida neft bilan birga yo'ldosh gaz ham qazib olinadi. Ayniqsa, mamlakat neft sanoatini rivojlantirishga Mingbuloq

(Namangan viloyati) va Ko'kdumaloq (Buxoro viloyati) konlarining ochilishi va ishga tushirilishi keskin ta'sir ko'rsatdi. Mazkur konlarining topilishi va ishga tushirilishi mamlakatimiz yoqilgi-energetika resurslari geografiyasini va yoqilg'i sanoatining markazini o'zgartirib yubordi.

Tabiiy gaz. Hududimiz tabiiy gaz zahiralariga ham boy. Uning yirik konlari neft bilan yonma-yon (ko'pincha birga) uchraydi. XX asrning o'rtalarida G'arbiy O'zbekistonda topilgan va zahirasi nihoyat darajada katta bo'lgan Jarqoq va Gazli konlarining zahirolari tugab bormoqda. Tabiat O'zbekistondan ne'matlarini ayamagan ekan, uning yangi-yangi konlari topilmoqda. Uchqir, O'rtabuloq, Chaqmoqli, Qoravulbozor, Setlyantepa gaz konlari ketma-ket ochildi. Hozirgi davrda zahirasi juda katta bo'lgan gaz koni Qashkadaryo viloyatidagi Sho'rtan konidir. Shuningdek, Buxoroning Ko'kdumaloq konidan ham neft bilan birga ko'p miqdorda tabiiy gaz ajratib olinadi.

Bugungi kunda mamlakatimizning turli mintaqalarida 150 dan ortiq neft va gaz konlari ochilgan bo'lib, ulardan 92 tasida ish olib borilmoqda. Hozirgi paytda istiqbolli Ko'kdumaloq konida burg'ulash, obodonchilik va tezda ishga tushirish bo'yicha faol ish ketyapti. Bularning barchasi uzoq yillarga etadigan ishonchli xom ashyo bazasini barpo qiladi, respublika iqtisodiyotining uglevodorod xom ashyosini qayta ishlovchi mahsulotlarga ehtiyojini ta'minlashga imkon beribgina qolmay, respublikaning eksport salohiyatini ham ancha oshiradi.

Ko'mir. Mamlakatimizda uchta: Angren (Toshkent viloyati), Shargun va Boysun (Surxondaryo viloyati) ko'mir konlari ishga tushirilgan. Uchala ko'mir koni ham yura davri qatlamlarida joylashgan.

Ohangaron daryosi vodiysida joylashgan Angren Qo'ngir ko'mir koni 1933—1934 yillarda topilgan va 40-yillarning boshida ishga tushirilgan. Unda ko'mir ko'pincha kar'er (ochik) usulida qazib olinadi. Uning zahirasi 2 mlrd. tonnaga yaqin. Agar mamlakatda yiliga 10 mln. tonnadan ko'mir qazib olingan taqdirda ham, Angren ko'mirining zahirasi yana 200 yilga etadi.

Sharg'un ko'mir koni Hisor tog'ining janubiy yonbag'ri (dengiz sathidan 700—800 m. balandlik)da joylashgan. Geolog E. A. Repman tomonidan (1941y.) topilgan

ushbu konning ham zahirasi katga. Uning sifat va issiqlik quvvati Donbass, Kuzbas va Qaraganda havzalari ko'miridan qolishmaydi. U Angren ko'miriga nisbatan ikki marta ko'p issiqlik beradi. 1963 yilda Sharg'un ko'miri asosida Markaziy Osiyoda birinchi marta briket(g'isht shaklida iskanjalangan) fabrikasi qurildi. Bu fabrika kuniga 160 ming tonna briket tayyorlab berish quvvatiga ega. Shaxtyorlar shahri Sharg'undan kongacha 18 kilometr osma sim yo'li o'tgan. Bu yo'lga o'rnatilgan har bir vagonetka 1 tonna ko'mirga mo'ljallangan. Sutka mobaynida osma yo'l orqali ko'mir shaxtasidan briket fabrikasiga 7 ming tonnagacha ko'mir tashiladi.

Surxondaryoning tog'li Boysun tumanida ham yuqori quvvatli To'da ko'mir koni ishga tushirilgan. Uning zahirasi chet ellik (AQSh) mutaxassislar tomonidan 160 mln. tonnaligi aniqlangan. Dengiz sathidan 1246 m. balandlikda joylashgan To'da ko'mir konidan yiliga 500 ming tonna ko'mir qazib olish yo'lga qo'yilmoqda.

Tog'-kimyo xom ashyo resurslari. Mamlakatimiz hududida kaliy, osh tuzi va fosforitning katta zahiraları aniqlangan. Magniy va natriyning sul'fat tuzlari esa kam uchraydi. Mineral tuzlar dengiz va quruqlik shakllanish guruhlariga mansub bo'lib, yuqori yura, pastki bo'r, neogen va antropogen davrlarda hosil bo'lgan. Xo'jaikon, Boybichakon, Tubekatan, Lalmikon, Oqbosh va boshqa, jami 8 ta tuz konlari katta ahamiyatga ega. Pastki bo'r davriga mansub tuzlar ko'l sharoitida vujudga kelgan, qatlami qalinligi 120-200 metrgacha boradi. Ular ayniqsa, Ko'xitang tog'ida ko'p tarqalgan. Birgina Xo'jaikon tuz koni zahirasi 140 mln. tonna bo'lib, hozirgi davrdagi mamlakat ehtiyoji bo'yicha yana 100 yildan ko'proq vaqtga etar ekan.

Fosforitning katta konlari Qizilqumda topilgan. Uning Ovminzatog', Bukantog', Toshqazgan, Quljiktog' va Boysun tog'laridan topilgan konlari ayniqsa, istiqbollidir.

Oltingugurt Shursuv koni (Farg'ona vodiysi)dan qazib olinadi. Biroq, uning yirik koni Tubekatanda. U yura davri yotqiziqlarida uchraydi. Hozirgi vaqtda esa, O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan oltingugurtning katta qismi Muborak gazni qayta ishlash majmuasida gazdan ajratib olinmoqda.

12.3. Yer-suv resurslari, o‘simlik va hayvonot dunyosining iqtisodiy o‘shiga ta’siri

O‘zbekistonning er fondi 44,8 mln. gektarni tashkil etadi. 22,3 mln. gektar, ya’ni 50 foizdan ortiq erlardan qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida foydalanilmoqda. O‘rmon xo‘jaligi korxonalari er fondi jami er fondining 19,5 foizni tashkil etib, 8,6 mln. gektardan iborat. Cho‘l – tog‘ mintaqasida joylashgan davlat zahirasidagi unumdorligi past erlar 23,4 foiz, ya’ni 10,4 mln.gektar. Sanoat va transport erlari 4,4 foiz, ya’ni 1,9 mln.gektar. Aholi manzilgohlari egallagan erlar 0,5 foiz, ya’ni 0,2 mln.gektarni tashkil etadi. Boshqa maqsadlarda 0,5 million gektar yerdan foydalanilmoqda.

Qishloq xo‘jalik erlari ichida ancha katta salmoqni 83,5 foizni o‘tloqlar va yaylovlar egallaydi. Undan keyingi qatorlarda haydaladigan erlar 14,9 foiz, ko‘p yillik ekinlar – bog‘lar va tokzorlar 1,4 foiz erga joylashgan. Qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan va boshqa turdagi erlarning ulushi Respublika jami er fondining 49,88 foiziga teng.

Hududi cho‘l va dasht mintaqalarda joylashgan viloyatlarda yaylovlarning salmog‘i ancha yuqori. Bu ko‘rsatgich Navoiy viloyatida jami qishloq xo‘jalik erlarining 98,7 foizini, Buxoro viloyatida – 92,5 foizini, Surxondaryo viloyatida 73,8 foizini, Qashadaryo viloyatida – 68,8 foizini, Samarqand viloyatida 61,6 foizini, Xorazm viloyatida 59,8 foizini, Toshkent viloyatida 54,8 foizini Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa 91,6 foizini tashkil etadi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining deyarli 95,0 foizdan ortig‘ini etishtirib beradigan haydaladigan erlar Respublika hududi bo‘yicha notekis taqsimlangan.

Haydaladigan erlarning eng katta maydonlari Qashqadaryo viloyatida 16,9 foiz, Jizzax viloyatida 11,1 foiz, Samarqand viloyatida - 10,9 foiz hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida - 10,5 foizdan iborat. Shu vaqtning o‘zida nisbatan kichik maydonlar Namangan viloyatida - 4,8 foiz, Buxoro viloyatida - 4,9 foiz, Andijon viloyatida - 5,0 foiz, Xorazm viloyatida - 5,2 foiz va Navoiy viloyatida - 2,7 foiz.

Haydaladigan erlarning eng mahsuldor va samarali qismi sug‘orma erlardir.

O‘zbekiston - qadimdan sug‘orma dehqonchilik mamlakati bo‘lib kelgan.

Sug'orma dehqonchilik oziq-ovqat sohasida O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining negizi va asosiy eksport mahsulotining manbaidir.

O'zbekiston hozirda jahonda sug'orma dehqonchilik markazlaridan biri hisoblanadi. Sug'oriladigan erlarning umumiy maydoni salkam 4,3 mln. gektarni tashkil etib, uning asosiy qismi tuproq-suv sharoiti nisbatan qulay bo'lgan vodiylar va vohalarda joylashgan. Farg'ona, Zarafshon vodiylari, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm vohalari shular jumlasidandir. 1960 yillardan so'ng sug'oriladigan erlar maydoni ikki martadan ziyod ko'paydi. O'sish asosan Mirzacho'l, Qarshi cho'li, Ellikqal'a massivi hisobiga ta'minlangan.

Respublika uchun hayotiy muhim bo'lgan narsa - bu suv resurslaridir. Er yuzasi suvlari respublika hududi bo'ylab notekis taqsimlangan. O'zbekiston hududining uchdan ikki qismini egallagan keng tekisliklarda suv manbalari juda kam. O'zbekiston sharqidagi tog' rayonlari esa juda zich daryo tarmoqlari bilan qamrab olingan. Suv manbalarining bunday notekis taqsimlanganligi, O'zbekistonning iqlim va geografik xususiyatlari bilan belgilanadi.

Suv oqimi shakllanuvchi asosiy rayonlar bu tog'li zonalardir, chunki ularga ko'p yog'in tushadi, bug'lanish esa nisbatan kamroq. O'zbekiston daryolarining suv manbai - asosan qor va muzlik suvlaridir. O'zbekistonning, shuningdek O'rta Osiyoning eng yirik daryolari - Amudaryo va Sirdaryodir. Amudaryoning umumiy uzunligi 1437 km, Sirdaryoniki - 2137 km.

Har ikki daryo va ularning irmoqlari O'zbekiston tashqarisidan boshlanadi. Amudaryo Panj va Vaxsh daryolari, Sirdaryo - Norin va Qashqadaryoning qo'shilishidan tarkib topadi. Uzunligi bo'yicha Sirdaryo Amudaryodan oshsada, sersuvligi jihatidan unga etmaydi.

O'rta Osiyodagi yirik daryolar ikki daryo havzasi: Sirdaryo va Amudaryoni tashkil etadi. Sirdaryo havzasiga - Norin, Qoradaryo, Chirchiq, Ohangaron, So'x, Isfara, Oq'bura, Isfayramsoy, Shohimardon, Gavasoy va Kosonsoy, Amudaryo havzasiga Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, To'polondaryo, Sherobod daryolari kiradi. Amudaryoning ham, Sirdaryoning ham irmoqlari asosan respublika hududini o'rta va quyi oqimlari kesib o'tadilar.

O'zbekiston Respublikasi hududida Amudaryo suvi qishloq xo'jalik erlarini sug'orishga asosan Xorazm vohasi va Qoraqalpog'istonda sarflanadi. Bu daryo suvining katta qismi kanal orqali Buxoro va Qashqadaryo vohalaridagi erlarni sug'orishga sarflanadi. Dehqonchilik asosan sun'iy sug'orish orqali amalga oshiriladigan O'zbekiston Respublikasida daryolar va suv havzalarining ahamiyati mavjud vohalarni saqlashdagina emas, balki yangi erlarni o'zlashtirish va sug'orishda ham nihoyatda kattadir. Bu xususiyatni hisobga olgan holda qadimdan odamlar turli miqyosdagi kanallar qurganlar. Bugungi kunda bunday kanallarni bunyod etish sur'ati va miqyosi qisqardi. Kanallar nafaqat sug'orish maqsadlari, balki gidroelektr stantsiyalarini barpo qilish uchun ham muhimdir. Bunday kanallar qatoriga Narpay, Janubiy Farg'ona, Shimoliy Farg'ona, Katta Farg'ona, Eskiangor, Amu-Buxoro, katta Namangan va boshqalarni kiritish mumkin.

Respublika hududida ko'llar kam. Ulardan eng yirigi - Orol dengizidir. Uning maydoni katta bo'lganligi sababli, dengiz deyiladi. Yana boshqa yirik ko'llar Sudoch'e va Arnasoydir. So'nggi 30 yil ichida Orol dengizi sathi 12-14 metrga pasaydi, qirg'oq o'nlab-yuzlab km ichkariga kirib ketdi. Uning suv yuzasi taxminan besh barobar kichraydi.

Orol dengizi ustida yuzaga keluvchi iliq va nam havo oqimlari ilgari Rossiya va Qozog'istondan keladigan havo oqimlarini to'sib turardi. Endilikda bu to'siq buzilgan, natijada ekin maydonlari bo'ylab O'rta Osiyo hududiga sovuq havo jala va sellarni olib kiradi. Ular hattoki yoz oylarida ham bo'lib, katta zarar keltiradi. Orol va Orol bo'yida ekologik vaziyatning yomonlashuvi bu hududida yashovchi aholining sog'lig'ini yomonlashuviga olib kelmoqda.

Orol dengizi muammosi sayyora miqyosidagi muammoga aylandi. Biroq, uni bir-ikki davlat o'zi hal qila olmaydi.

So'nggi o'n yil ichida Respublika hududida sun'iy ko'l-suv omborlari, jumladan Chorvoq, Ohangaron, Tuyabo'g'iz, Janubiy Surxon, Chimqo'rg'on va boshqalar yuzaga keldi. Ular mavsumiy oqimni boshqarishni amalga oshiradilar va o'z xususiyatlariga ko'ra irrigatsiya vazifasidagi suv omborlari qatoriga kiritiladi.

Respublika hududidagi suv resurslari faqat er yuzasidagi suvlardan emas, balki

qisman er osti suvlaridan ham tarkib topadi. O'zbekiston hududi suvga tanqis arid zonasida joylashganligi sababli, bu yerdagi er osti suvlaridan suv ta'minoti, sug'orish, shuningdek chorvachilikdagi suv ehtiyojini qoplash uchun keng foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasi mineral suv manbalariga ham boy. Bu suvlar o'z kimyoviy tarkiblariga ko'ra inson organizmiga shifo beruvchi ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi o'n yillar ichida O'zbekistonda topilgan mineral suvlar ichida vodorod sul'fidli, yodli, radon va kam minerallashgan ishqorli issiq mineral suvlar ayniqsa ahamiyatli hisoblanadi.

O'zbekiston o'simlik va hayvonot dunyosiga o'ta boy. Ayniqsa, o'simliklarning 25 mingdan ortiq xili mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi Qizil kitobga kiritilgan. O'simliklarning aksariyatidan oziqa sifatida foydalansa, ba'zilaridan farmatsevtika sohasida keng ishlatiladi. Hayvonot dunyosida 97 ga yaqin sut emizuvchilar, qushlarning 410 ga yaqin turi, sudralib yuruvchilarning 57 turi, baliqlarning 60 ga yaqin turi, hashoratlarning 15 mingdan ortiq turi uchraydi. Tulki, chiyabo'ri, bo'rsiq, andatra, nutriya kabi mo'yna beradigan hayvonlar, 60 dan ortiq turdagi ovlanadigan qushlar, ayiq, qoplon, bars kabi hayvonlar respublika flora va faunasini boyitib kelmoqda.

Aslida, tabiiy resurslar ikkita asosiy guruhga bo'linadi:

1. Moddiy ishlab chiqarish resurslari. Bu guruhga yoqilg'i mahsulotlari, metall, suv, yog'och-taxta, baliq, ovlanadigan hayvonlar kiradi.
2. Ishlab chiqarishdan tashqari tabiat resurslari. Bu guruhga ichimliksuvi, daraxtzorlar, iqlim resurslari va hokazolar kiradi.


Tabiiy resurslar 2 turga bo'linadi.

1. Tugaydigan tabiiy resurslar.
2. Tugamaydigan tabiiy resurslar.

Tugaydigan tabiiy resurslar o'z navbatida 2 guruhga bo'linadi.

1. Tiklanadigan resurslar.
2. Tiklanmaydigan resurslar.

Tabiiy resurslarning tasnifi (sinflarga bo'linishi) quyidagi 1-rasmda ko'rsatilgan.



12.3.1-rasm. Tabiiy boyliklar tasnifi.

Foydali qazilmalar guruhiga ma'danli va ma'dansiz metallar, neft, gaz, ko'mir, torf va er osti suvlari kiradi. Ular insoniyat uchun yoqilg'i va energiya manbalari hisoblanadi. Ulardan foydalanish yildan-yilga ortib bormoqda. Agar so'nggi 25 yil mobaynida dunyoda ko'mirga bo'lgan talab 2 marotaba, kaliy, marganeç va fosfor tuzlariga 2-3 marotaba, temirga 3 marotaba, neft va gazga 6

marotaba oshgan bo'lsa, shu davr mobaynida aholining o'sishi 40% ni tashkil etdi.

Respublikamizda 33 ta nodir metallar va 32 ta rangli metallar konlarining xom-ashyolari hisobiga 16 ta tog'-metallurgiya korxonalari

faoliyat ko'rsatmoqda. Mamlakatimiz miqyosida 27 ta oltin va kumush konlari mavjud bo'lib, shundan 16 ta oltin va 3 ta kumush konlari aniqlangan. Hozirgi paytda Muruntov, Marjonbuloq va Kamokqir kabi 7 ta oltin konlari ishlatilib kelinmoqda. Faqat Muruntov oltin konidan yiliga 50-55 tonna sof oltin olinadi. Nodir metallarning aniqlangan zahiralarini ishlab turgan korxonalarning 20-30 yil ishlashini ta'minlanishi mumkin. Hozirgi paytda Qizilqum va Toshkent atrofidagi iqtisodiy mintaqalarda qidiruv ishlari olib borilmoqda.

Olmalik tog'-metallurgiya kombinatining asosiy xom-ashyo bazasini Qalmoqqir, Saricheku, Uchquloq, Qo'rg'onshikon va boshqa mis-molibden va qo'rg'oshin-rux konlari tashkil etadi. Ushbu konlarning ma'danlari tarkibida misdan tashqari oltin, kumush, molibden, selen va boshqa nodir elementlar mavjudligi aniqlangan.

Hozirgi paytda 5 ta aniqlangan volfram konlaridan 2 tasi (Qo'ytosh va Ingichka konlari) ishlatilmoqda. 2 ta volfram konlari (Saritau va Sautboy konlari) va 2 ta qalay koni (Qarnob va Zirabuloq-Ziyoutdin konlari) ochildi.

Prognozlarga qaraganda, respublikamizda fosforitlarning zahirasi (asosan fosfor angidrid) 100 mln. tonna deb baholanmoqda. Fosforli o'g'itlar ishlab chiqaruvchi zavodlar Qozog'istonning Qoratau ma'dan konlaridan keltirayotgan xom-ashyolar hisobiga ishlaymoqda.

Respublikamizdagi tog' jinslarining kompleksi va yaratilgan mineral xomashyolari qurilish materiallari (marmar, granit, qement va boshqalar)ni ishlab chiqarish imkonini beradi.

Respublikada mineral issiq suv va sanoat suvlarining zahiralarini mavjud. Hozirgi paytda 32 ta mineral suv zahiralarini aniqlangan bo'lib, ularning 12 tasida dam olish maskanlari tashkil etilgan. Iste'mol ehtiyojlarini qondirish maqsadida 9

ta suv qadoqlash zavodlari ishga tushirildi. Mineral suv zahirolari 8208 ming m³/sutkani tashkil etmoqda. YUqori haroratli issiq suv maskanlari Farg‘ona vodiysida, Buxoro, Samarqand va boshqa viloyatlarda topilgan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. O‘zbekistonda qanday metalli foydali qazilmalarning zahirasi ko‘p?
2. O‘zbekiston yoqilg‘i-energetika resurslariga nimalar kiradi?
3. O‘zbekistonda qanday ko‘mir konlari bor va ularning sifati qanday?
4. Ko‘kdumaloq va Mingbuloq neft konlari qaysi viloyatlar hududida joylashgan?
5. O‘zbekiston er resurslari bilan qanday ta‘minlangan?
6. O‘zbekistonning suv resurslari o‘z ehtiyojlari uchun etarli mi?
- O‘zbekistonda qanday istiqbolli konlar mavjud?
7. O‘zbekistonda qanday metalli foydali qazilmalarning zahirasi ko‘p?
8. O‘zbekiston yoqilg‘i-energetika resurslariga nimalar kiradi?
9. O‘zbekistonda qanday ko‘mir konlari bor va ularning sifati qanday?
10. Ko‘kdumaloq va Mingbuloq neft konlari qaysi viloyatlar hududida joylashgan?
11. O‘zbekiston er resurslari bilan qanday ta‘minlangan?
12. O‘zbekistonning suv resurslari o‘z ehtiyojlari uchun etarli mi?

XIII BOB. IQTISODIY O‘SISHNI TUSHUNISH

O‘quv maqsadi: *Iqtisodiyotning murakkab sirlarini tushunish, butun dunyo davlatlaridagi iqtisodiy o‘shish va rivojlanishning turlichaligi, rivojlangan, rivojlanayotgan va qoloq mamlakatlarda ishlayotgan ishchilarning daromadlari tahlil qilingan va iqtisodiy o‘shishning asosiy omillari, ayrim davlatlar Iqtisodiyotining tezkor rivojlanishi sabablarining mazmunini aniqlashga doir nazariy bilim kurib chikilgan*

Tayanch iboralar: *tabiiy resurslar, mehnat resurslari, kapital, texnologiyalar, ishlab chiqarish, tadbirkorlik, bozor, monopoliya, soliq, kredit, bank, iste‘mol, investitsiya, davlat xarajatlari, davlat daromadlari, eksport*

13.1. Iqtisodiy o‘shish tushunchasiva o‘lchanish usullari

Real ishlab chiqarish hajmlarining uzoq muddatli o‘shishi sur‘atlarini, ko‘lamlarini, samaradorligi va sifati oshishini belgilovchi hodisa va jarayonlar iqtisodiy o‘shish omillari deyiladi. Iqtisodiy o‘shish omillari ikki guruhga ajratiladi:

Birinchi guruh omillari iqtisodiy o‘shishni fizik (ashyoviy) jihatdan ta‘minlaydi. Bu guruh ishlab chiqarish omillariga quyidagilar kiritiladi:

tabiiy resurslar soni va sifati;

mehnat resurslari soni va sifati;

asosiy kapital hajmi;

texnologiyalar va ishlab chiqarishning tashkil etilganlik darajasi;

jamiyatda tadbirkorlik malakalarining rivojlanish darajasi.

Agar iqtisodiyotning qisqa muddatli holati ko‘proq yalpi talab bilan belgilansa, uzoq davrga iqtisodiyotning rivojlanishi ko‘proq ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shu sababli iqtisodiy o‘shishni modellashtirishda diqqat markazida real sektor turadi.

Ikkinchi guruhga omillari jamiyatdagi iqtisodiy o‘shish potensialini yuzaga chiqarish imkonini beruvchi omillar – talab va taqsimot omillari (bilvosita omillari) kiritiladi:

bozorning monopollashuvi darajasining pasayishi;

iqtisodiyotdagi soliq muhiti;

kredit-bank tizimi samaradorligi;

iste‘mol, investitsiya va davlat xarajatlarining o‘shishi;

eksport hajmining o‘shishi;

iqtisodiyotda ishlab chiqarish resurslarini qayta taqsimlash imkoniyatlari;

daromadlarni taqsimlashning shakllangan tizimi.

Agar o'sish qo'shimcha resurslarni jalb etish hisobiga ta'minlansa va jamiyatdagi resurslardan foydalanishning shakllangan o'rtacha samaradorligi darajasini oshirmasa ekstensiv iqtisodiy o'sish deb ataladi. Ekstensiv iqtisodiy o'sish [yangi korxonalar](#), yo'llar, elektrostansiyalar qurish, yangi erlarni o'zlashtirish, mehnat va tabiiy resurslarni qo'shimcha jalb etish kabilar hisobiga ta'minlanadi. Ammo bu resurslarning cheklanganligi rivojlanishning ma'lum bir bosqichida ekstensiv iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini kamaytiradi va uni ziddiyatli qilib qo'yadi.

YAIMning o'sishi iqtisodiyotda band bo'lganlar sonidan yuqori sur'atga ega bo'lsa intensiv iqtisodiy o'sish ro'y beradi. "Iqtisodiy o'sishning intensiv tipi ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga bog'liq. U foydalanilayotgan resurs birligiga to'g'ri keladigan mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishni, ishlab chiqarishning texnik xususiyatlarini yaxshilashni ko'zda tutadi. Bunday jarayonlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

fan va texnika yutuqlaridan foydalanish va ishlab chiqarishni yangilashda;

xodimlar malakasini oshirishda;

ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish, assortimentini yangilashda"

Iqtisodiy o'sishning bu ikki tipi sof holda ro'y bermaydi. Iqtisodiy o'sish uni ta'minlashdagi ekstensiv yoki intensiv omillarning ulushi darajasiga qarab ko'proq ekstensiv, yoki ko'proq intensiv bo'lishi mumkin.

13.2. Iqtisodiy o'sishning modellari

Agar E.Domar o'z modelida investitsiyalarni ekzogen tarzda berilgan miqdor deb olgan bo'lsa, R.F.Xarrodning 1939 yilda ishlab chiqilgan iqtisodiy o'sish modeliga akselerator prinsipi va tadbirkorlarning kutishiga asoslangan endogen funksiyasi ham kiritildi. Akselerator prinsipiga ko'ra, nafaqat investitsiyalar ishlab chiqarishning o'sishini keltirib chiqaradi, balki ishlab chiqarish va daromadlarning o'sgan hajmi ham investitsiya jarayonlarining jadallashishiga olib keladi. R.Xarrod o'z modeliga uch tenglamani kiritadi:

1) haqiqiy o'sish sur'ati tenglamasi;

2) kafolatlangan o'sish sur'ati tenglamasi;

3) tabiiy o'sish sur'ati tenglamasi.

Xarrod modelida haqiqiy o'sish sur'ati ishchi kuchining o'sish sur'ati va kapital unumdorligining o'sish sur'ati bilan belgilanadi va bu quyidagicha ifodalanadi:

$$G \cdot c = s$$

bu yerda, G - YAIMning haqiqiy qo'shimcha o'sish sur'ati, ya'ni: $\Delta Y / Y$;

c - ishlab chiqarishning kapital talabchanligi koeffisienti, ya'ni: $I / \Delta Y$

s - milliy daromaddagi jamg'arish hajmi, yoki jamg'arishga o'rtacha moyillik, ya'ni: S / Y ;

Tadbirkorlar dinamik muvozanat ta'minlangan o'sish sur'ati bo'lgan kafolatlangan (prognoz qilingan) o'sish sur'atiga asoslanib, o'z investitsiya rejalarini tuzadilar. Kafolatlangan o'sish sur'ati jamg'arishga o'rtacha moyillik darajasini akseleratorga nisbati sifatida aniqlanadi va buni quyidagicha ifodalash mumkin: $Gw = s / cr$

bu yerda: Gw - kafolatlangan o'sish sur'ati;

cr - talab etiladigan kapital talabchanlik koeffisienti (o'tgan yillardagi shakllangan darajasi).

Bu ko'rsatkichlar doimiy bo'lganligi sababli kafolatlangan o'sish sur'atlari ham doimiy bo'ladi.

Agar haqiqiy o'sish sur'ati kafolatlangan o'sish sur'atiga mos kelsa iqtisodiyotda barqaror uzluksiz o'sish ta'minlanadi. Amaliyotda bunga doimo erishib bo'lmazligi tufayli qisqa muddatli davriy tebranishlar ro'y beradi. Xarrod modelida resurslardan to'liq foydalangan sharoitda ta'minlanishi mumkin bo'lgan maksimal o'sish sur'ati tabiiy o'sish sur'ati deb nomlandi. Uni quyidagicha ifoda etiladi: $Gn cr = yoki \neq s$

Iqtisodiyotning barqaror dinamik muvozanati to'liq bandlilik sharoitida kafolatlangan va tabiiy o'sish sur'atlari o'zaro teng bo'lganda ta'minlanadi. Ammo bunday tenglikka davlatning faol aralashuvi orqaligina erishiladi.

13.3. Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar va tiplar

Iqtisodiyot nazariyasida iqtisodiy o'sishning yuzaga kelishi shakllari izohida ikki asosiy yondashuv mavjud. Ulardan keng tarqalgani iqtisodiy o'sishni YAIM (MD) real hajmi o'sish sur'ati yoki bu ko'rsatkichlarni aholi ehtiyoji hisobida oshirish sur'ati bilan o'lchanadigan aniq vaqtda milliy iqtisodiyot rivojlanishining jami xarakteristikasi bilan tushunish hisoblanadi. Iqtisodiy o'sishni hisoblaydi u yoki bu uslubni qo'llash zarurati odatda tadqiqot masalalari bilan bog'liq. Iqtisodiy o'sishni hisoblashning birinchi usuli, qoidaga ko'ra, mamlakatning iqtisodiy salohiyati kengayish sur'atlarini baholashda qo'llaniladi, ikkinchisidan esa aholining qulay sharoiti dinamikasi tahlilida yoki turli xududlar va mamlakatlarning hayot darajasini solishtirishda foydalaniladi. Hozirgi vaqtda o'sish nazariyasida ikkinchi hisoblash usuli afzal deb qaraladi.

Iqtisodiy o'sishda real milliy daromad oshish sur'atlari aholi o'sishi sur'atlarini oshiradigan milliy iqtisodiyot rivojlanishi nazarda tutiladi. Bu o'sish muammolarini tashqi kuzatuvchi nuqtai nazaridan emas, mamlakat aholisi

poziçiyasidan turib ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Iqtisodiy o‘shishni ishlab chiqarish real hajmining oshish sur‘atlari nuqtai nazaridan qarab chiqishda odatda (aniq va noaniq shaklda) iqtisodiyotda chuqur tuzilmaviy va institsional o‘zgarishlari yuz bermasligi taxmin qilinadi. Ishlab chiqarish tuzilmasi va institsional muhit murakkab va o‘zgarmas hisoblanadi. Bunday rivojlanish xarakteri tashqi muhit bilan o‘zaro ta’sirda balanslangan va yaxlitlik xususiyatiga ega bo‘lgan iqtisodiy tizim uchun o‘ziga xos.

Uzoq muddatli davr sifatida asosiy kapitalning tekis hayotiylik doirasi ko‘rib chiqiladi. Bunday yondashuv iqtisodiy o‘shishning neokeynscha va neoklassik nazariyasi uchun xarakterli.

Iqtisodiy o‘shish nazariyasidagi boshqa yondashuv industrial va postindustrial jamiyatni takror ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. Bu nazariyalar qachonki, o‘zgarishlarga hokimlik, boshqaruv, infratuzilma ob’ektlari, iqtisodiyotdagi tuzilmaviy o‘zaro ta’sir va uning tashqi muhit bilan o‘zaro aloqasining asosiy institutlari duch kelganda, “yuqori uzun” davrda iqtisodiy dinamika muammolarini tahlil qiladi. Ta’kidlash kerakki, “uzoq muddatli” va “yuqori uzun” davrlar tushunchalari dinamika nazariyasida iqtisodiy vaqt haqida gap borar ekan, xuddi o‘zining vaqtinchalik masofasi va konseptual yo‘nalish kabi farqlanadi (hodisalar sodir bo‘lish tezligi). “YUqori uzun” davr o‘zining vaqtinchalik masofasi hodisalari qatorida uzoq muddatli davr va uning an’anaviy tushunchasida qisqa bo‘lishi mumkin. Xususan, bu mamlakatimiz rivojlanishining zamonaviy bosqichida, uning uchun xarakterlidir. Bunda tuzilmaviy, institsional va funksional o‘zgarishlar ishlab chiqarish real hajmi tabiiy o‘shish jarayonini aniqlaydigan ishlab chiqarishning tekis omillari o‘zgarishidan ko‘ra tezroq yuz beradi.

Yuqori uzun davrdagi iqtisodiy o‘shish tahlilining ikki asosiy xususiyatini ajratish mumkin:

- iqtisodiy o‘shish iqtisod rivojlanishining tashkiliy elementi sifatida qaraladi. U bir tomondan rivojlanishning uqlik xarakterini ifodalaydi, ikkinchi tomondan o‘zi pasayish va depressiya davrlariga tayyorlovchi o‘zgarishlar natijasi

hisoblanadi. Shuning uchun asosiy e'tibor iqtisodiy o'sish sur'atlariga emas, balki iqtisodiyotdagi global o'zgarishlar, barqaror tendensiya va qonunchiliklar va ularning yangi sifat o'zgarishlariga qaratiladi;

- makroiqtisodiy tanaffuslar qatorida iqtisodiy rivojlanishning va industrial asoslari, tadbirkorlik muammolari, ishlab chiqaruvchilar qiziqishlari ziddiyatli siljishlari, iste'molchilar va davlat hoqimiyati institutlari iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshishiga yo'l qo'ymaydigan yangi iqtisodiy tuzilmaning shakllanishi va uning tashqi muhit o'zgaruvchanligi sharoitidagi barqarorligini tekshiradi.

Iqtisodiy dinamika deb – ma'lum bir iqtisodiy tizimda vaqt oralig'ida o'zgarib turuvchi iqtisodiy holatga aytiladi.

Iqtisodiy dinamika statik va dinamik bo'lishi mumkin.

Statik dinamika deganda, bu iqtisodiy tizimda ma'lum bir o'zgarishlar bo'lmasligi, iqtisodiy faollikning pasayib borishi tushuniladi.

Dinamik holatda esa iqtisodiy tizim turli xil omillar va jarayonlarning ta'siri ostida doimiy ravishda o'zgarib borishi tushuniladi.

Iqtisodiy dinamikaning asosiy ko'rsatkichlaridan biri – bu iqtisodiy o'sishdir.

Iqtisodiy o'sish deganda, odamlarning talab-ehtiyojini qondirish uchun zarur bo'lgan moddiy mahsulot va xizmatlarni, ya'ni barcha noz-ne'matlarni ishlab chiqarishning ko'payib borishi tushuniladi. Iqtisodiy o'sish nafaqat iste'mol buyumlari, balki ishlab chiqarish vositalari, ya'ni resurslarni ham ko'plab ishlab chiqarishini anglatadi, chunki o'sish jamiyat a'zolarining joriy iste'molini qondirish bilan cheklanmay, kelajakda ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali bo'lg'usi iste'molni qondirishni ham mo'ljallaydi. Ishlab chiqarish faoliyati jamiyat hayotining birlamchi asosi bo'lganidan iqtisodiy o'sish ijtimoiy taraqqiyot uchun moddiy zamin yaratib beradi. Jamiyatdagi chuqur va sifatli o'zgarishlar iqtisodiy o'sish sur'atlariga qarab yuz beradi. Hozirgi bosqichda jamiyat hayotidagi shiddatli o'zgarishlar barqaror o'sish natijasidir. Iqtisodiy o'sish jamiyatdagi ishlab chiqarish hajmini yoki aholi jon boshiga yaratilgan mahsulotlar va xizmatlar hajmini ortib borishi bilan o'lchanadi. Uni albatta real yalpi milliy mahsulot yoki real milliy daromadning

ko'payishi ifoda etadi.

Makroiqtisodiy o'sish – butun jamiyat miqyosidagi, masalan, mamlakat miqyosidagi iqtisodiyotni o'sishdir. U jamiyat ishlab chiqarish faoliyatining natijasi bo'ladi, turli korxona va tarmoqlardagi makroiqtisodiy o'sishning mazmuni sifatida yuzaga keladi.

Mikroiqtisodiy o'sish – bu korxona, xo'jalik firma va tarmoq doirasidagi o'sishdir, shu doiradagi mehnat qiluvchilar iqtisodiy aniqrog'i guruxiy faoliyatning natijasidir.

Iqtisodiy o'sish jarayoni jamiyatdagi bir qator miqdoriy va sifat jihatdagi o'zgarishlar bilan kuzatiladi. Shulardan birinchi navbatda iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasini alohida ko'rsatish kerak.

Iqtisodiy o'sishni ko'zlagan mamlakatlarda birinchi navbatda qishloq xo'jaligining milliy mahsulot va bandlikdagi ulushini kamaytirishi xarakterlidir. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, AQShda 1920 yilda ishchi kuchining 70% i qishloq xo'jaligida band bo'lgan, bu ulush 1941 yilga kelib 20% dan kamni va 1987 yilga kelib atigi 3% ni tashkil qilgan.

Jamiyat tomonidan ishlab chiqariladigan va iste'mol qilinadigan xizmatlar turli xildagi kategoriyalarga bo'linadi:

- maxsus bilimlarni talab qiluvchi intellektual xizmatlar (ta'lim berish, vositachilik, reklama faoliyat turlari);
- sog'liqni saqlash, ta'lim bilan bog'liq xizmatlar;
- mehmonxona va restoranlar faoliyati bilan bog'liq xizmatlar;
- aloqa vositalari (transport, pochta, telekommunikatsiya);
- moliyaviy xizmatlar (banklar, tomonidan takdim qilinadigan kredit va boshqa xizmatlar, sug'urtalash);
- jamiyat himoyasini ta'minlovchi va uning a'zolari o'rtasidagi aloqalarni tartibga solib turuvchi umumiy xizmatlar (mamlakat mudofasi, jamoat tartibini saqlash, adliya, milliy va mahalliy darajadagi umumiy boshqaruv).

Iqtisodiyot jabhalaridagi o'zgarishlar ijtimoiy institutlar, insonlar xatti-harakatlari va mafkuralarida sezilarli o'zgarishlarga olib keladi. Mazkur o'zgarishlar

modernizatsiya deb yuritiladi.

Shved iqtisodchisi G. Myurtal «uchinchi dunyo» mamlakatlari iqtisodiy taraqqiyotiga bag'ishlangan «Osiyo dramasi» nomli kitobida modernizatsiyaning quyidagi tamoyillarini ko'rsatib o'tgan:

1. Raʼionalizm. An'anaviy fikrlash tarzi va ishlab chiqarish shakling o'zgartirish, jamoatchilik va inson faoliyatining barcha sohalarida yangi metod va modellarni qo'llash.

2. Iqtisodiy rejalashtirish. Xo'jaliklar taraqqiyotini oshirish maqsadida qo'llaniladigan iqtisodiy siyosat.

3. Tenglik. Barcha uchun yanada teng ijtimoiy va huquqiy mavqe, daromadlar va hayot tarzining yaratilishini ta'minlash.

Ijtimoiy institutlar va aql-idrokda o'zgarishlar. Bu yerda mehnatunumdorligini oshiradigan, raqobatni rivojlantirib tadbirkorlikka yo'l ochadigan, ma'lum bir ma'noda insonlar xohish va imkoniyatlaridan foydalanishga zamin yaratadigan o'zgarishlar to'g'risida fikr yuritiladi.

Institsional o'zgarishlar o'z ichiga er islohotlari, monopoliyaga qarshi kurash, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish va davlat boshqaruvining o'zgarishini oladi.

Turli xildagi ishlab chiqarish omillarini birikishi hamda har-xil davlatlarning rivojlanishi sharoiti, iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilab berishga yo'l qo'ymaydi, degan bir fikr mavjud. Buning uchun bir qator asosiy ko'rsatkichlar qo'llaniladi:

1. Aholi soniga to'g'ri keladigan YAIM.
2. Aholi soniga to'g'ri keladigan ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlari.
3. Aholini turmush darajasi va sifati.
4. Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarining natijasi.

Aytib o'tish joizki iqtisodiy rivojlanish darajasi bu tarixiy tushuncha bo'lib, milliy iqtisodiy rivojlanishning har bir pog'onasi hamda jahon hamjamiyatiga uning asosiy ko'rsatkichlariga ozmi-ko'pmi o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Aholi soniga to'g'ri keladigan YAIM ko'rsatkichi iqtisodiy rivojlanish darajasini aniqlab beruvchilardan hisoblanadi. Bir qancha rivojlangan davlatlar 90

yillarning o'rtalarida aholi soniga YAIM ko'rsatkichi juda yuqori darajada boshqa rivojlangan davlatlarga solishtirganda, lekin boshqa ko'rsatkichlarga qaraganda iqtisodiyot sohasining tizimi aholi soniga to'g'ri kelgan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning turlari va boshqalar bunday davlatlar rivojlangan davlatlar sarasiga kirmaydi. Boshqa ko'rsatkichlar xalqaro ko'lamda keng qo'llaniladigan, iqtisodiyot sohasining tizimi hisoblanadi, tizimlarga bo'lib chiqarilib, unga YAIM asnosida tashhisqo'yiladi.

Birinci navbatda milliy iqtisodiyot sohasida yirik tizimlardan, ya'ni moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan mahsulotlar orasidagi farq o'rganilib chiqiladi. Bu solishtiruv birinci navbatda ishlab chiqarishni umumiy belgilab beradi. Boshqa sohalarning tizimini o'rganib chiqish ham katta ahamiyatga ega.

Davlatning iqtisodiy rivojlanish darajasini uni asosiy ishlab chiqarayotgan mahsulotiga qarab belgilanadi (milliy iqtisodiyotning tayanchi hisoblangan mahsulotlarni). Shu asosiy ishlab chiqarishgan mahsulotlarning qanchalik davlat uchun ehtiyojini qondirayotganligiga qarab beriladi. Birinci o'rinda bunday asosiy ishlab chiqarishga etarli darajada elektr quvvati olinadi. Elektr quvvati rivojlanish asosi hamda buning orasida yana bir soha chambarchas yotadi, ya'ni texnik rivojlanish hamda ularning ishlab chiqarish sifati soni va xizmat ko'rsatish e'tiborga molikdir va h.k.

Hozirgi vaqtda rivojlangan hamda rivojlanish past bo'lgan davlatlarda bu ko'rsatkich 500 ta ga 1 ta to'g'ri keladigan, ba'zi hollarda undan ham ko'proq. Bu aholi soniga to'g'ri keladigan asosiy ishlab chiqarilayotgan mahsulotdir.

Statistika shuni ko'rsatadiki ya'ni, mis ishlab chiqarish, metall eritish, stanoklar, avtomobillar, mineral o'g'itlar, kimyoviy tolalar va bir qator boshqa mahsulotlar. Davlatda ishlab chiqarayotgan mahsulot aholi soniga to'g'ri keladigan asosiy iste'mol mahsulotlaridan qo'yidagilardir:

- Don mahsulotlari;
- Sut mahsulotlari;
- Go'sht mahsulotlari;
- Shakar;

- Kartoshka va h.k.

YAshash sharoiti darajasi qo'yidagi ko'rsatkichlar orqali ham belgilanishi mumkin:

- Mehnat resurslarining holati, o'rtacha hayot davomiyligi, aholining savodxonligi darajasi, aholi soniga to'g'ri keladigan asosiy mahsulotlarning iste'mollik darajasi, mehnat resurslarining kvalifikasiya darajasi, 10 ming aholi soni ichidan qanchasi o'qiyotgani va talabalarning soni YAIM dagi bilimlarni oshirishdagi sarf xarajatlarning soni.

- Soha xizmatlarining rivojlanishi (10 ming aholiga to'g'ri keladigan shifokorlar soni, ming aholiga to'g'ri keladigan shifoxonadagi o'rinlar soni, aholining o'y-joy bilan ta'minlaganligi, o'y jihozlari va h.k.).

Oxirgi yillarda jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, turmush sifatini aniqlash uchun o'z ichiga ijtimoiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni hamda aholining savodxonligini oshishi hayot kechirish davomiyligi ayrim ko'rsatkichlardan yoki bo'lmasa umumjamiyat rivojlanishini ta'minlovchi indekslardan foydalanmoqda va h.k. o'z ichiga qamrab olgan.

Shu ko'rsatkichlarga alohida to'xtalib o'tib, eng muhimlarini aytib o'tishimiz lozim:

- Mehnat bilan ta'minlash (ishlab chiqarish va agrar xo'jalik, ishlab chiqarish alohida sohalari);

- YAIM kapital sig'iminin birligi yoki aniq bir ishlab chiqarish ko'rinishi;
- Fondlarning asosiy fond taqsimlash birligi;
- YAIM xomashyo sig'imi birligi va asosiy ishlab chiqarish ko'rinishi.

Ohirgi yillarda Xalqaro Valyuta Fondi hamda MDH da qabul qilingan keng qamrovli raqobatbardosh ko'rsatkichlardan foydalanilmoqda, bir qator ko'rsatkichlar narx-navoni o'sishini o'lchash uchun hamda davlatda ishlab chiqarilgan mahsulotni qolib ketishini va boshqa rivojlangan davlatlarda nisbatan solishtirish ko'rsatkichlaridir:

- maosh to'lash uchun ketayotgan sarf xarajatlar (bir-birlik

ishlabchiqarilgan mahsulotning hisobiga);

- bir ish kuni ketadigan me'yoriy xarajatlar (bir-birlik ishlabchiqarilgan mahsulotning hisobiga);
- narx-navo ustiga qo'shilgan elementlarning darajasi va h.k. birinchi ishlab chiqarish omillarining xarajatlari ko'rsatkichlari;
- mahsulotning chakana narxining solishtirish darajasi.

Eksport qilinadigan tovarning solishtirish darajasi. Albatta bu tizim davlatning iqtisodiy rivojlanishining to'laqonli ko'rsatib bera olmaydi, lekin ayrim faoliyati sohasi xalqaro bozorda raqobatbardoshligi yaqqol ko'rsata oladi.

Ko'pchilik mamlakatlarning tarixiy tajribasida tasdiqlangan qonuniyat borki, unga ko'ra iqtisodiy o'sishning ko'lami va sur'atlari o'zaro teskari mutanosiblikda o'zgaradi, ya'ni o'sish ko'lami miqdoran oshgan sari, uning sur'atlari pasayishiga moyil bo'ladi. Iqtisodiy o'sishning nafaqatmiqdoriy, balki sifat me'yori ham mavjud .

Iqtisodiy rivojlanishning umumiy tendensiyasi iqtisodiy o'sishni baholashning eng asosiy usuli bo'lmasdan, ko'plab usullaridan biridir. Iqtisodiy rivojlanishni baholashda alohidagi hududlarga va alohidagi davrlarga individual yondashish maqsadga muvofiq. Chunki, umumiqtisodiyotning o'sish tezligi iqtisodiy o'sish muammolari bo'yicha kerakli ma'lumotlarni bera olmaydi. Iqtisodiy rivojlanish yo'llarini o'rganishda differensial yondashish uchun va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi yoki unga halaqit qiluvchi tuzilmaviy o'zgarishlarni tahlil qilish uchun, iqtisodiy o'sishning barcha taraflarga taalluqli bo'lgan ko'rsatkichlar dinamikasini o'ziga xos xususiyatlari aniqlanishi kerak.

Iqtisodiy rivojlanish yo'llarini xarakterlovchi iqtisodiy ko'rsatkichlarning vaqt davomida o'zgarishlarida quyidagilarga alohida e'tibor berilmog'i lozim:

a) har bir ko'rsatkichlarning vaqt davomida shakllanish bir tekisda bo'lmay, tez o'sish, sekin o'sish bilan ayrim hollarda turg'unlik bilan almashib turadi;

b) ma'lum bir vaqtda aniqlangan har bir iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sish tezligi, chunki ayrim o'zgaruvchilar tez o'sayotgan bo'ladi, ayrim o'zgaruvchilar sekin o'sayotgan bo'ladi yoki butunlay turg'un holatda bo'ladi;

v) o'zgaruvchilarning uzoq davrlardagi o'sish tezligi qisqa davrlardagidan nisbatan bir-biridan kam farq qiladi.

Iqtisodiy rivojlanish yo'llari bilan iqtisodiy o'sish tushunchasi o'rtasida bog'liqlik mavjuddir. Ammo, milliy iqtisodiyotning o'sishi iqtisodiy o'sish yo'llarini qisman belgilaydi. Masalan, bir ko'rsatkichli iqtisodiy o'sish tushunchasida iqtisodiy bir tekis o'sish tushunchasi yo'q (3- jadval).

Ko'p ko'rsatkichli iqtisodiy o'sish ham doimiy, ham o'zgaruvchan iqtisodiy o'sish tendensiyasi bilan bog'langan. Demak, iqtisodiy o'sish tushunchasi uning dinamikasini aniq aniqlamaydi. Balki iqtisodiy o'sish yo'llarini taxminiy belgilaydi. Bir ko'rsatkichli iqtisodiy o'sish iqtisodiy jarayonlarning faqat dinamikasini tavsiflasa, ko'p ko'rsatkichli iqtisodiy o'sish esa, bu jarayonlarning nafaqat dinamikasi va tuzilmaviy o'zgarishlarini balki, ayrim ko'rsatkichlarning vaqt davomida shakllanishini ham tavsiflaydi.

12.3.1-jadval

O'zgarmas va o'zgaruvchan o'sish tezliklariga ega bo'lgan iqtisodiy o'sish yo'llarining asosiy tavsiflari

Asosiy xususiyatlari	Mohiyatlarning xarakterlari	
	Doimiy o'sish tezligida	O'zgaruvchan o'sish tezligida
Asosiy ma'nolari iqtisodiy o'sish yo'llari ifodalanadi	Bir ko'rsatkichning vaqt qatori bilan	Ko'rsatkichlar to'plamining har birining alohida vaqt qatori bilan va ular barchasining birgalikdagi vaqt qatori bilan
Iqtisodiy o'sish yo'llari uchun xos	Faqat vaqt davomida o'zgarish	Vaqt davomida tuzilmaviy o'zgarishlar bilan birgalikda kechadigan o'zgarishlar

O'sish tezligi	Doimo	O'zgaruvchan
Iqtisodiy o'sish yo'llari xususiyatlari vaqt omiliga bog'liqmi?	Bog'liq emas	Bog'liq
Iqtisodiy o'sish yo'llari xususiyatlari agregirlanish darajasiga bog'liqmi?	Bog'liq emas	Bog'liq
Foydalishdagi qulayliklar iqtisodiy o'sish yo'llarini tasvirlash mumkin	Bitta oddiy funksiya yordamida	Ko'rib chiqiladigan davrni qisqa vaqt bo'laklariga bo'linsa va iqtisodiy o'sishning ayrim xususiyatlari bilan chegaralansa oddiy funksiya yordamida

Ko'p ko'rsatkichli iqtisodiy o'sishning o'ziga xos xususiyatlari iqtisodiy o'sish tezliklariga qat'iy talablar qo'yilmagan holdagina amalda qo'llanishi mumkin.

Iqtisodiy o'sish tezliklarini o'zgaruvchanligi haqiqatga ancha yaqin tushunchadir, chunki u iqtisodiy o'sishning davrlarda va tarmoqlarda har xil bo'lishiga mos keladi.

Iqtisodiy o'sishning o'zgaruvchi funksiyalar yordamida aks ettirishda ayrim noaniqliklar bo'lishi mumkin. Ko'rib chiqiladigan vaqt davomida iqtisodiy o'sishni aniq va to'liq ifodalovchi eksponentani yoki boshqa oddiy funksiyani topish murakkab masaladir. Iqtisodiy o'sishning o'zgaruvchan tezligini murakkab funksiyalar yordamida aks ettirishimiz mumkin, ammo bunda parametrlarni baholash va olingan natijalarni talqin qilishda kiyinchiliklar yuzaga keladi (12.3.2-jadval).

12.3.2-jadval

Iqtisodiy o'sishning oddiy va murakkab konsepsiyasini asosiy belgilari

Asosiy belgilar	Mohiyatlarning xarakterlari	
	oddiy	murakkab
Ma'nolarning xoli o'zig rivojlanish gi tushunchasi	Bir ko'rsatkichli	Ko'p ko'rsatkichli
Rivojlanish tushunchasiga kiradi	Moddiy boylik a izmatlarini yaratish	Moddiy va ma'naviy boylik va xizmatlar, har xil shakldagi ishlab chiqarish va xizmatlarda mehnatning jamlanishi
Iqtisodiy o'sishni belgilovchi omillar soni	Kam	Katta
Tanlangan omillarning o'ziga xos xususiyatlari	Asosan miqdoriy	Miqdoriy va sifatiy
O'sish belg bosqichlarini ilash mumkin	Har xil o'sish omillari bo'yicha	O'sishning har yo'nalishlari il bo'yicha
O'sish va uning omillari o'rtasida bog'liqlik	Texnik-iqtisodiy bog'liqlik	Ijtimoiy-iqtisodiy bog'liqliklar
O'zaro almashish	Bir omilning ikkinchisi bilan almashinishi cheklanmagan, uzluksiz va bir xil	Bir yo'nalish ikkinchisi bilan cheklangan, davriy va har xil tezlikda

	tezlikda	
O'sish tezligi	Doimiy, o'zgarmas	O'zgaruvchan
Amaliy qo'llashdagi qulayliklar, statistik bazis, asosiy bog'liqliklarni shakllantirish mumkinmi?	Mos kelishi mumkin	To'liqmas, qisman mumkin
O'sish matematik modellarida barcha konsepsiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini qamrab olish mumkinmi?	Mumkin	Mumkin emas

Bu muammolarni ko'riladigan vaqtni kichik-kichik qismlarga bo'lib ko'rib chiqish bilan hal qilinishi mumkin. Bunda vaqtning har bir bo'lagini oddiy funksiya bilan ifodalashga olib kelinadi. Bu usulning kamchiligi butun ko'rib chiqiladigan vaqt davomida bo'ladigan iqtisodiy o'sishni bir butunligicha tasavvur qilib bo'lmaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Iqtisodiy o'sishning mazmun mohiyatini ayting?*
2. *Rivojlangan mamlakatlarda ishlayotgan ishchilarning daromadlari qanday aniqlanadi?*
3. *Rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlayotgan ishchilarning daromadlari qanday aniqlanadi?*
4. *Qoloq mamlakatlarda ishlayotgan ishchilarning daromadlari qanday aniqlanadi?*

5. *Iqtisodiy o'sishning asosiy omillarini sanab bering?*
6. *O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning istiqbolli yo'llarini ayting?*
7. *YAlpi milliy mahsulot (YAMM)larning mutloq hajmi va ular o'sish sur'atlari qanday aniqlanadi?*
8. *YAlpi ichki mahsulot (YAIM)larning mutloq hajmi va ular o'sish sur'atlari qanday aniqlanadi?*
9. *Sof milliy mahsulot (SMM)larning mutloq hajmi va ular o'sish sur'atlari qanday aniqlanadi?*
10. *Milliy daromad (MD)larning mutloq hajmi va ular o'sish sur'atlari qanday aniqlanadi?*

GLOSSARIYLAR

Aktivlar (assets) - Iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining pul va moliyaviy mablag'lari, asosiy va aylanma fondlarining qiymati.

Amortizatsiya (depreciation) - foydalanish jarayonida ask uskunlar qiymatining eskirgan sayin mahsulot hisobiga o'tkazish jarayoni. Asosiy jamg'armalar iste'mol narxini to'la yoki qisman tiklash uchun amortizatsiya orqali amalga oshiriladigan narxini to'latishi zarur.

Alternativ variantlardan tanlov (trade off) - tanlab olingan variantni alternativ variantdan voz kyechish evaziga amalga oshirilishini taqozo etuvchi qarorni qabul qilish zarurati. Makroiqtisodiy terminlar doirasida iqtisodiy terminlar siyosatni chora tadbirlarini ishlab chiqish jarayonida u yoki bu g'oyalarni tanlov-muammolarini belgilash uchun ishlatiladi. Masalan, ishsizlikning o'sishi va inflyatsiya jadalligi, foydaning o'sishi yoki ish xaqining olishi orasidagi tanlov muammosi.

Amortizatsiya ajratmalari (depreciation allowances)– Asosiy vositalarning bir qismini ularni tiklash uchun ajratmalar

Antimonopol siyosat (antitrust policy)–Tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida ishlab chiqarishni monopollashuviga qarshi va raqobatni rivojlantirish bo'yicha davlatning chora-tadbirlar tizimi. Asosiy jamg'armalar sarfini qoplash uchun ularga ketgan sarflarini tayyorlanayotgan mahsulotga ketgan sarfni tayyorlanayotgan mahsulotga singdirib borish asosiy jamg'armalarning amortizatsiyasini tashkil etadi. Asosiy jamg'armalarning amortizatsiyasi mahsulot tannarxini o'z ichiga oladi, bu korxona, tashkilotlarga asosiy jamg'armalarning moddiy va ma'naviy sarfini qoplash uchun mahsulotlarni sotish orqali mablag' tulashlarga imkon beradi.

Asosiy narx (base price) - xalq xo'jaligini rivojlantirish va statistik hisob olib borishda, indekslarni hisoblash va to'lashgacha hisoblangan narx.

Asosiy fondlar va ularning bahosi (capital stock) - moliyasi turli xo'jalik sub'ektlari va fuqarolarning pul mablag'ini aniq bir maqsad yo'lida birgalashtirish va ishlatishni bildiradi.

Aholining bandligi (employees) - ijtimoiy ishlab chiqarishni fuqarolik sektorida band bo'lgan va mamlakat qonunchiligi tomonidan aniqlangan normalarga mos ravishda hisobga olinadigan mehnatga layoqatli yoshdagi aholi.

Bandlik darajasi (rate of employees) - bandlarni umumiy sonini mehnatga layoqatlash yoshdagi aholiga nisbati.

Bank krediti (banking credit) - daromad (%) ko'rinishida olish maqsadida bank tomonidan qarzga pul berish.

Bank rezervlari (reservers) - bankda saqlanayotgan naqd pullarni, markaziy bankda saqlanayotgan foizsiz depozitlarni o'z ichiga oladi.

Bartaraf etilgan inflyatsiya (eliminated inflation)- boshqariladigan yoki tabiiy, qo'yilgan narxlarni boshqarishga bo'lgan iqtisodiyot doirasida Noinflyatsion jarayonlarning o'ziga xos ko'rinishi.

Direktiv tarzda belgilangan narxlar darajasi saqlangan holda inflyatsiya muomiladagi pul miqdorini ko'payishi va uni sotib olish qobiliyatini qadsizlanishi orqali namoyon bo'ladi. Bundan tashqari shularning natijasida, ta'siri ostida keskin talabni oshib borishi hamda tovar va xizmatlarning defitsitini o'sib borishi, aholini vaqtinchalik qondirilgan talabini ko'paytirish orqali namoyon bo'ladi.

Baho, narx (prise) - tovar qiymatning pul orqali ifodalashi. Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarni va foydani ko'rsatadi.

Belgilangan almashuv kursi (fixed exchange rate) - milliy valyutaning chet el valyutalariga

nisbatan an'anaviy tarzda belgilanadigan va o'zgarmas bo'ladigan tizim.

Bozor narxi (market price) - iqtisodiyotda jami talablarning o'zgarmas holda qoluvchi narxlar.

Bozor munosabati (market clearing) - bozordagi talab va takliflarning miqdoran va tarkibiy jihatdan bir-biriga muvofiq kelishi. Agar shunday muvofiqlik bo'lmasa, bozor

muvozanati izdan chiqqan bo'ladi.

Bozor mexanizmi (market mechanism)– Bozor iqtisodiyotining faoliyat qilishini tartibga solishni va iqtisodiy jarayonlarni uyg‘unlashtirishni ta’minlaydigan dastak va vositalar

Budjet soliq siyosati (fiscal policy) - budjet siyosatida davlat o‘z istagi bilan budjet xarajatlari va daromadlarini shakillantirgan holda 3 xil budjet siyosati yuritadi. Budjet xarajatlari, transfer xarajatlari shaklidagi xarajatlar. Daromadlar esa uch manbadan kelishi mumkin: soliqlardan, xazina tomonidan, chiqarilmagan qimmatbaho qog‘ozlarning sotilishidan va budjet tomonidan ma’lum qismi markaz tomonidan banki emissiyasi hisobiga yopilishidan. Shunga ko‘ra davlat xarajatlar va daromadlarni boshqarish orqali budjet siyosati yuritiladi.

Budjet taqchilligi (budget deficit) – Davlat budjetida xarajatlarning daromadlardan ustun bo‘lishi budjet taqchilligi deb ataladi.

Valyuta kursi (exchange rate)- mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan bahosi.

Giperinflyatsiya (hyper-inflation) - haddan tashqari inflyatsiya, narxning shuddat bilan o‘sishi, pul qadrining g‘oyat tez pasayishi, pul topishga intilishning minimal darajaga kelishi bilan xarakterlanadi.

Davlatning tashqi qarzi (external debt of the state) – Davlatning boshqa davlatlar, fuqarolar va korxonalariga bo‘lgan qarzi

Davlat xarajatlari (government spending)– Davlatning tovarlarni xarid qilish va xizmatlarni olishiga sarflanadigan xarajatlar

Davlat tomonidan bozorni tartibga solish (market regulation)– Faoliyat ko‘rsatayotgan bozor mexanizmlariga davlatning ma’muriy, iqtisodiy aralashuvi

Davlat budjeti (state budget, local budget)-asosan davlat (viloyat, shahar, tuman, muassasa, tashkilot va boshqalar) ning ma’lum muddatdagi (yil, kvartal, oy) daromadlari va xarajatlarining pul hisobi.

Davlat iste’moli (public consumption) - mahsulot va xizmatlarga ketgan davlat iste’moli xarajatlari, xususiyl sektorda ishlab chiqilgan.

Daromad (income) - ishlab chiqarish natijasida tushgan pul (foйда).

Daromadning mavjud miqdori (disposable income) - sarf xarajatlar va jamg'armalar uchun ishlatish maqsadida iqtisodiy sektorlarning qo'lida mavjud bo'lgan daromadlar. Daromadlar va to'g'ri soliqlar orasida farq bilan aniqlanadi.

Devalvauiya (devaluation) - mamlakat savdo va to'lov balansining keskin yomonlashuvi, valyuta kursining pasayishi bilan bog'liq holda milliy pul birligi qiymatining rasmiy tartibda pasaytirilishi.

Deflyauiya (deflation) - inflyatsiya davrida chiqarilgan muomaladagi qog'oz pulni kamaytirish. Davlat tomonidan muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga qaratilgan moliya va pul- kredit tadbirlarini qo'llash bilan amalga oshiriladi.

Depozitlar (deposits) - omonat asrab qo'yilgan: 1) bank va omonat kassalarga qo'yilgan omonatlar: 2) bank daftardagi yozuvchilar: 3) kredit muassasalariga saqlash uchun topshirilgan qimmatbaho qog'ozlar (akuiya va obligauiya).

Dividend (dividend) - xissadorlik jamiyatlari foydasini bir qismi bo'lib, akuiyaning soni va turiga qarab har yili xissadorlar orasida taqsimlanadi.

Diskont (dicount) - markaziy bank tomonidan tijorat banklarga beriladigan qarzlarga qo'yiladigan foiz.

Doimiy, davomiy inflyatsiya (cronic inflation) - nisbatan yuqori yoki past inflyatsiya darajasi uzoq muddat davomida ushlab turiladigan iqtisodiy vaziyat. Barqarorlikka erishgunga qadar davomli yuqori inflyatsiya darajasiga xos bo'lgan mamlakatlarga misol qilib, Braziliya, Isroil, Meksika, Peru Argentinani keltirish mumkin.

YOpiq iqtisodiyot (closed economy) - tashqi iqtisodiy bozorda keng savdo-iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lmaydigan iqtisodiyot.

Jami band aholi (employees) - band bo'lgan aholi va harbiy xizmatchilar.

Jami talab (aggregate demand) - mamlakatni real sotib olish qobiliyatini aks ettiruvchi ko'rsatkich. Jami xarajatlar deb ham ataladi. Unga davlatning iste'mol xarajatlari, xususiy sektor iste'moli, jami invenstuiyalar va eksport-import xarajatlar savdosi kiradi.

Jami taklif (aggregate supply) - mamlakatda ishlab chiqilgan hamma tovar va xizmatlarni jami qiymati, shuningdek, milliy mahsulot deb ham ataladi.

Jamg'armaga moyillik (propensity to save) - daromadda jamg'arma xissasi qanchani tashkil etishi.

Izokvanta– Ishlab chiqarish omillari xarajatlarining ishlab chiqarish funksiyasida turli xil joylashuvining grafik tasviri

Indeksatsiya (indexation) - iqtisodiyotdagi narxlarni o'rtacha darajasini o'zgarishiga bog'liq ravishda ish xaqi va boshqa daromadlarni tuzatish, kelishtirish tizimi.

Inflyatsiya (inflation) - pulning kadsizlanishi, muomiladagi pulning qadsizlanishi, pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta'minlanmagan pullarning paydo bo'lishi. Inflyatsiya tovar bahosining ochiqchasiga va yashirin ravishda oshib ketishiga olib keladi.

Inflyatsiya darajasi (rate of inflation)- ma'lum vaqt ichida (oy yil) narx darajasi foiz o'zgarishi.

Iqtisodiy uqkl – Ishlab chiqarish rivojlanishida va ishbilarmonlik faolligi darajasida iqtisodiyotdagi takrorlanuvchi ko'tarilishlar va pasayishlar

Iqtisodiy o'sish – Iqtisodiyot faoliyat ko'rsatishidagi natijalarning o'zgarishi

Iqtisodiy o'sishning intensiv turi – Ishlab chiqarish eng zamonaviy ishlab chiqarish omillari, texnologiyalari hisobidan mahsulot ishlab chiqarishning ortib borishi

Iqtisodiy o'sishning ekstensiv turi – Ko'p miqdordagi ishlab chiqarish omillaridan foydalanish hisobidan moddiy ne'matlar va xizmatlar hajmini oshirishga olib keluvchi iqtisodiy o'sish

Iqtisodiy rivojlanish – Ko'p o'lchamli jarayon bo'lib, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotida o'z ifodasini topadi

Iqtisodiy o'sish – YAMM (IMM, SMM, MD) miqdorining mutloq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishida va sifatning yaxshilanishida ifodalanadi

Iqtisodiy aqikl – Ishlab chiqarishning bir iqtisodiy inkirozidan ikkinchisi boshlanguniga qadar takrorlanib turuvchi harakati

Ishsizlik– Ijtimoiy-iqtisodiy hodisa bo‘lib, aholining faol qismi o‘ziga ish topa olmasligi

Ishlab chiqarish imkoniyati – berilgan texnologik rivojlanishda va barcha mavjud resurslardan to‘liq va samarali foydalangan holda jamiyatning iqtisodiy ne‘matlar ishlab chiqarish qobiliyatidir.

Ishlab chiqarish omillari – Tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish uchun foydalaniladigan iqtisodiy resurslar: mehnat, kapital, er va tadbirkorlik qobiliyati

Ishsizlik (unemployment) - Aholi iqtisodiy faol qismining o‘ziga ish topa olmasdan qolishi, mehnat rezerv armiyasiga aylanishi.

Ishsizlikning darajasi (unemployment rate) - Ishsizlarning umumiy soning ishchi kuchiga bo‘lgan munosabati.

Ishsizlikning tabiiy darajasi (natural rate of unemployment)- real va potensial yalpi milliy mahsulotni o‘sishi bir-biriga mos keladigan iqtisodiy rivojlanish davr oraliqlariga xos bo‘lgan ishsizlik darajasi. U shuningdek iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy va strukturaviy ishsizlik ko‘rsatkichlarining yig‘indisi sifatida hisoblanishi

mumkin. Shuningdek NARU (natural rate of unemployment)-termini ishsizlikning o‘smaydigan darajasi ko‘rsatkich ham qo‘llaniladi. Bu ko‘rsatkichi ijtimoiy jihatdan nisbatan neytral bo‘lib inflyatsiyani turg‘un, barqaror darajalari hamda real va potensial yalpi milliy mahsulot (YAMM) mos tushishi holatdagi ishsizlik darajasini aks ettiradi.

Ish haqi (wage, nominal) - pul, qiymat shaklidagi ish haqi.

Import (import) - mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini va texnologiyasini olib kelish. Import xalqaro mehnat taqsimoti natijasidir. U xalq xo‘jaligi, vaqtni tejash, xalq ehtiyojini qondirish vazifalarini muvaffaqiyat bilan hal qilishga ko‘maklashadi.

Investitsiya (investment) - ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish. Uning moliyaviy va real turlari mavjud.

Iste'mol narxlar indeksi (consumer price index) - o'rtacha oila tomonidan odatda iste'mol qilinadigan tovar va xizmatlar narxining bazis davriga nisbatan o'zgarishini o'rtacha darajasini aks ettiradigan ko'rsatkich, inflyatsiya ko'rsatkichi sifatida ishlatiladi.

Ishlab chiqaruvchilar narxlarining indeksi (producer price index) - bazis davri oralig'ida xom ashyo materiallar va oraliq tovarlari narxini o'zgarishini o'rtacha darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkich. YAMMni maksimal darajada detallashtirilgan komponentlari narxini solishtirma narxlarga o'tkazishda ishlatiladi.

Indekslar- YAMM deflyatorlari (GNP deflators) - YAMM ko'rsatkilarini solishtirma narxlarda aks ettirish uchun ishlatiladigan indekslar guruhi, bularga narxlarni agregat indeksi, YAMM deflyatori narxlari indeksi, iste'molchi narxlar indeksi, shunigdek, maxsus tashkil qilingan indekslar kiradi.

Iste'mol krediti (consumer credit) - markaziy bank tomonidan barqarorlik davrida qo'llaniladigan pul siyosatining vositasi (instrumenti). U banklar tomonidan berilishi

mumkin bo'lgan ichki kredit maksimal miqdorining rasmiy ravishda belgilanishi taqozo etadi.

Iste'mol (consumption) - kishilarning iqtisodiy talablarini qondirish jarayonida ijtimoiy mahsulotdan foydalanish, ijtimoiy ishlab- chiqarish jarayoning oxirgi fazasi.

Iste'mol xarajatlari - makroiqtisodiyotda iste'mol xarajalari uy xo'jalik xarajatlari, qurilish xarajatlarini qamrab oladi.

Iqtisodiy o'sish - real milliy daromadning yoki real milliy daromadni (mahsulotni) aholi jon boshiga o'sishi sifatida aniqlash mumkin.

Import qilishga moyilik (propensity to import) - daromadda importga qaratilgan xarajatlar xissasi.

Investitsiyalarga bo'lgan moyillik (propensity to invest) - iste'mol xarajatlarning daromaddagi xissasi.

Iste'mol qilishga moyillik (propensity to consume) - iste'mol xarajatlarining daromaddagi xissasi.

Ishlab chiqarish funksiyasi (production function) - mahsulot ishlab chiqarish uchun mazkur korxonaga zurur bo'lgan barcha kishilar va mehnat qurollari harakatlarining majmui.

Ishchi kuchi (labour force) - odamlarning mehnat qobiliyati, hayot ne'matlarini ishlab chiqarish jarayonida u ishga soladigan jami jismoniy va ma'naviy kuchlar.

Ishchi kuchi xissasi (labour force rate) – odamlarning mehnat qobiliyati, hayot ne'matlarini ishlab chiqarish jarayonida u ishga soladigan jami jismoniy va ma'naviy kuchlar.

Ish vaqti (hours of work) - ishlab chiqarishda band bo'lgan aholining ishlagan vaqt hajmi.

Ish vaqtining umumiy soatlar soni (total hours of work) - o'rtacha statistik ishlovchi band bo'lgan ish vaqtini o'rtacha soatlar soni.

Ishlab chiqaruvchilar narxi (producers price) - o'z ichiga tovar va xizmatning bazis narxini, soliqlarni qamrab oladi va subsidiyalar olib tashlanadi.

Ichki iste'mol uchun mo'ljallangan tovarlar (nontraded goods) - tashqi bozorda sotishga mo'ljallanmagan, ichki iste'mol uchun ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar (ko'chmas mulk, xizmatlarni ayrim turlari.)

Kapital eksporti - tijorat maqsadda amalga oshirish.

Keynschilik – Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi zarurligi va mohiyatini asoslovchi Dj.M.Keynsning iqtisodiy nazariyasi

Kutilayotgan inflyatsiya darajasi (expected rate of inflation) - mavjud ijtimoiy iqtisodiy axborotlar, ma'lumotlar asosida alohida shaxs va korxonalar tomonidan kutiladigan bo'lg'usi davrdagi inflyatsiya darajasi.

Likvidlik (lequidity) - turli korxonalar, birlashmalar, firmalar va banklarning o'z qarzini to'lay olish yoki boshqa majburiyatlarini bajara olish imkoniyati.

Narxlar korrektirovkasi (price adjustment)- bozor vaziyati o'zgarishiga narxlarning moslashuv jarayoni.

Narxlar indeksi (price index) - ikki har xil vaqt oralig'ida tovar va xizmatlarga narxning muvozanatini o'zgarishini aks ettiruvchi ko'rsatkich.

Nominal YAMM (nominal GNP) - joriy narxlarda aks ettirilgan yalpi milliy mahsulot.

Nominal almashuv kursi (nominal exchange rate) - milliy valyuta va chet el valyutalari birliklarini odatda mavjud bo'lgan nisbati. Ushbu nisbat ham qat'iy belgilangan, ham chayqalib turuvchi asosda amalga oshirilishi mumkin.

Nominal foiz stavkasi (nominal interest rate) - ma'lum davr ichida (oy, yil) qarzga olingan pul birligiga to'langan pul miqdori. Depozit schyotlarda va qimmatli qog'ozlarda

aktivlarni nominal qiymati o'simtasi belgilanishiga foiz stavkalari deyiladi.

Makroiqtisodiyot (macroeconomics) - barqarorlashtirish, bir-birlik milliy valyutamizni musahkamlash, kapital qurish dasturi, iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan yangilash yo'lini davom etirish rejasini yoki mulkdorlar sinfini yangilash, qonunchilik yoki huquqiy tarkibni mustahkamlash.

Markaziy bank (Central bank) - Mamlakatlarning jami kredit tizimiga rahbarlik qiladi, davlat pul-kredit siyosatini amalga oshiradi, pul va qimmatbaho qog'ozlar emissiyasini monopoliya huquqida amalga oshiradi.

Mehnat umumdorligi (labour productivity) - mehnatning mahsulotligini, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi umumlashma ko'rsatkichlardan biri.

Milliy daromad (national income) - milliy ishlab chiqarishda olinadigan daromad, yoki iqtisodiyotning barcha turdagi daromadining bahosi.

Moliya bozori – Moliya mablag'larini vaqtincha haq to'lab ishlatish yoki ularni sotib olish yuzasidan bo'lgan munosabatlardir.

Mulk (property) - qiymatga ega bo'lib, biron bir shaxsga narsasiga qarashli bo'ladi.

Muomaladagi pullar (currency) - mamlakatning pul birligi va uning tipi (oltin, kumush, qog'oz): pulga tenglashtirilgan to'lov vositalari: pul hisob- kitoblarini taqozo etadigan xalqaro iqtisodiy ayirboshlash va boshqa aloqalarda qatnashadi.

Mutloq ustunlik – Mamlakatning boshqa mamlakatlarga nisbatan kam xarajatlar bilan tovarlar ishlab chiqarishi

Oraliq iste'mol (intermediate consumption) - ishlab chiqarishni bir bosqichida ishlab chiqarilgan mahsulotlarini ishlab chiqarishni boshqa bosqichida mehnat predmetlari sifatida ishlatilishi.

Ortiqcha taklif (excess supply) - mavjud narxlarda tovar va xizmatlarin taklifi ularga bo'lgan talabdan ustun bo'ladigan iqtisodiy vaziyat. Shunigdek, ortiqcha ishlab chiqarishi deb ham ataladi.

Ortiqcha talab (excess demand) - mavjud narxlar holatida tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talab takliflardan ustun bo'ladigan iqtisodiy vaziyat. Shunigdek defitsit deb ham ataladi.

Ochiq iqtisodiyot (open economy) - tashqi iqtisodiy bozorda keng savdo-iqtisodiy va moliyaviy aloqalarga ega bo'lgan iqtisod.

Potensial YAMM (potential GNP) - mavjud sarmoya resurslari va ishchi kuchi hisobiga erishishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish hajmi.

Pasayishi (recession) - iqtisodiy aktivlikning pasayishi bo'lib o'sishi bilan xarakterlanadi.

Paritet (parity) - tenglik, teng huquqli, teng vakillik asoslarida biron bir iqtisodiy (siyosiy) harakatda ishtirok etish.

Pulga bo'lgan talab (demand for money) - mamlakat aholisi jamg'arish va iste'mol qilish, oldi-sotdi va har xil iqtisodiy bitimlar tuzish uchun egalik qilmoqchi bo'lgan miqdori. Iste'mol, foiz stavkasi, operation xarajatlar va boshqa funksiyalar bilan ifodalanadi.

Pul bazasi - MO (monetary base) - Muomaladagi naqd pullar, kaccadagi korxonalarning pullari va milliy bankdagi tijorat bank rezervi.

Pul tizimi– Qonun tomonidan mustahkamlangan pul muomalasini tashkil etish tizimi

Raional kutishlar (rational expectations) - ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'zlarida mavjud bo'lgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlar asosida eng raional tarzda o'z iqtisodiy xulq atvorini rejalashtiradilar deb ta'kidlovchi nazariya.

Real almashuv kursi (real exchange rate) - ikkala mamlakatdagi narxlar darajasining o'zaro nisbati, munosabatini hisobga oluvchi almashuv kursi. Solishtirilayotgan mamlakatlardagi nominal almashuv kursini narxlari indekslarini o'zaro nisbatiga bo'lishi orqali hosil bo'ladi.

Real YAMM (real GNP) - Solishtirma doimiy narxlar orqali aks ettirilgan YAMM. U joriy narxlarda hisoblangan YAMMni narxlarning o'zgarishi ko'rsatkichi (inflyatsiya

Real ish haqi (real wage)- narxlar o'zgarishi darajasi hisobiga tuzatish kiritilgan nominal ish xaqi (yoki nominal ish haqidan narxlar o'zgarishi darajasini hisobga olingani).

darajasi) hisobiga to'g'rilash yo'li bilan hisoblanadi.

Real foiz stavkasi (real interest rate) - ma'lum davr ichida depozit schyotlaridagi va qimmatli qog'ozlaridagi aktivlarni real qiymati o'sishi yuz beradigan foiz stavkasi: nominal foiz stavkasidan shu davr oralig'ida kutilayotgan nominal foiz stavkasi.

Revolvauiya (revaluation) - mamlakat pul birligi rasmiy kursini chet el valyutalariga nisbatan oshirish.

Resurslar – Iqtisodiyotdagi ijtimoiy ishlab chiqarishda foydalaniladigan barcha zahiralar va texnologik omillarning real oqimlaridir.

Savdo balansi (merchandise trade balance) - bunda eksport va importdan keladigan tushumlar va to'lovlar o'z aksini topadi. Savdo bitimida ko'zda tutilgan, ammo joriy davrda amalga oshirilmaydigan to'lovlar va tushumlar balansda o'z aksini topmaydi.

Savdo balansining difiuiti (trade deficit) - hisob davrini oxiriga kelib import bo'yicha qilingan jami xarajatlarni eksport daromadlardan ustun kelish vaziyatigacha iqtisodiy templarning o'sishi bilan xarakterlanadi.

Savdo balansini ijobiy saldosi (trade surplus) - hisobot davrining oxiriga kelib eksport bo'yicha jami daromadlar import bo'yicha xarajatlardan ustun kelishi vaziyati.

Sanoat uikli (business cycle) - hozirgi davr iborasida iqtisodiyotni doimiy bo'lmagan holda qaytarib turuvchi iqtisodiyotni turli rivojlanish bosqichlari. Umumiy ishbilarmonlik faolligini oshishi va tushumlaridan, pasayishlaridan iborat.

Sarf-xarajat balansi (spending balance) - makroiqtisodiyotda YAMM ni ishlab chiqarishga ketgan jami xarajatlari va yaratilgan yalpi milliy mahsuloti oxirgi iste'mol

maqsadida ishlatilishi orasidagi balans.

Cof milliy mahsulot (net product) - makroiqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, u YAMMni va amortizatsiya ajratmalarni jami miqdorini ayirmasi hisoblanadi.

Soliq siyosati - soliq siyosati rivojlantirish uchun kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishda "majburiy jamg'armalar" tashkil qiluvchi asosiy omillardan biridir.

Soliqlar (taxes) - milliy daromadni taqsimlash jarayonida uning bir qismini davlat ixtiyoriga olish shaklidir. Soliq budjet va budjetdan tashqari pul fondlarini tashkil etishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Solishtirma afzallik (comparative advantages) - ayrim iqtisodiy agentlarning tovar va xizmatlarni kamroq xarajatlar evaziga ishlab chiqarish xususiyati. Makrodarajada solishtirma afzalliklar prinsipi ishlab chiqarish va eksportni samarali strukturasini

shakllantirish uchun qo'llaniladi.

Solouning iqtisodiy o'sish modeli – Texnik taraqqiyot darajasiga bog'liq iqtisodiy o'sish nazariyasi

Subsidiya (subsidy) - davlat budjeti hisobidan korxonalar, tashkilotlar va xorijiy davlatlarga beriladigan mablag'. Subsidiya bozor iqtisodiyotini tartibga solish vositasi

hisoblanadi.

Talab etilugunga qadar saqlanadigan depozitlar (demand deposits) – bankdagi qo'yilmalarda talab etilgungina qadar saqlanadigan pul vositalari.

Tarkibiy ishsizlik (structural unemployment) - Iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishni, eskirgan tarmoq va kasblarni bartaraf etilishi, ishchi malakasi pastligi yoki umuman yo'qligi natijasida yuzaga keladigan majburiy ishsizlikning ko'rinishi.

Tashqi dunyo - shu mamlakatni tashqi iqtisodiy aloqalar olib boruvchi iqtisodiy agentlar bilan birlashtiruvchi institutsional sektor.

Tashqi savdo balansi– Ma'lum vaqt davomida mamlakat eksporti va importi qiymati o'rtasida nisbat

Tijorat krediti (comercial credit) - qisqa muddatli qarz (1 yil muddatgacha beriladi) sotib olinadigan tovarlariga to'lash uchun pul qarzi ko'rinishda beriladi.

Tijorat bank (Commercial bank) - qo'yilmalar shaklidagi pul kapitalari va jamg'armalar hisobiga barcha tarmoq korxonalari uchun universal bank harakatlarini amalga oshiruvchi kredit muassasasi. Tijorat banki kredit sistemasining etakchi bo'g'inidir. Uning harakatlarida sanoat va savdo korxonalarini kreditlash asosiy o'rnini egallaydi. Bank, shuningdek, komission muomalarni ham olib boradi.

Tovar eksport qilish - ichki ishlab chiqargan mahsulotlarni chetga sotish hamda xorijdagi sheriklarga ishlab chiqarish va talab xarakteriga ega bo'lgan xizmatlarni ko'rsatish.

Transfert to'lovlari (transfer payment) - o'tqazma to'lovlar, ya'ni davlat budjetidan aholiga va xususiy tadbirlarga beriladigan to'lovlar.

To'lov balansi (balance of payment) - Bu shunday iqtisodiy tushunchaki, u orqali mamlakatlarning tashqi iqtisodiy munosabatlarining holatini, xalqaro miqyosida to'lovga qobilligini bilishi mumkin. To'lov balansi - bu shunday hujjatki, bunda mamlakatlarning xorijiy davlatlarga - ulashgan va xorijiy davlatlardan kelgan barcha to'lovlarni va tushumlarining haqiqatdagi summasi aks ettiradi.

Shartnomalarda ko‘zda tutilgan, ammo hali kelib tushmagan to‘lovlar yoki tushumlar summasi o‘z aksini topadi.

Uzoq muddat davomida ishlatuvchi tovarlar (durable goods) - iste’molchilarga uzoq vaqt xizmat qiladigan (1 yildan kam) tovarlar. Uzoq vaqt xizmat qiladigan tovarlarga avtomobil, xolodilniklar va boshqa maishiy xizmat turlari kiradi.

Fan-texnika taraqqiyoti – Ishlab chiqarishda fan va texnika erishilgan so‘nggi yutuqlarni qo‘llash jarayonidir

Filips egri chizig‘i (phillips curve)- inflyatsiya darajasi dinamikasi va ishsizlik dinamikasi yoki real YAMMni potensialidan og‘ishi orasidagi o‘zaro bog‘liklikni tafsiflaydi va grafikga ifodalab beradi.

Faktor daromad (factor incomte) - ishchi kuchi kapital mulk, ishlab chiqarish omillarining qo‘llanishi natijasida yuzaga keladigan daromad.

Friktsion ishsizlik (frictionfl unemployment) - Bir ishdan boshqa bir ishga o‘tish bilan

bog‘liq bo‘lgan vaqtinchalik ishsizlik. YAshirin ishsizlik (hidden, latent, olisguised) - Ishlab

chiqarish jarayonida ob‘ektiv holda ishchilar sonini ham talab etadigan, lekin amalda

ishlab chiqarishda ortiqcha bo‘lgan ishchilar soni.

Foiz (interest) - daromad, o‘z mulkining boshqa jismoniy va huquqiy shaxslarga foydalanishga berib va shundan foyda olish.

Foiz stavkasi (interest rate) - kredit yoki qarz stavkasi kapitali evaziga to‘lovni foiz ko‘rsatkichi. Odatda, qarzga olingan pul belgisini bir- birligiga to‘g‘ri keladigan yillik to‘lovni aks ettiradi.

Foyda (profit) - qo‘shimcha mahsulotning pul shakli: korxona, tarmoq va butun xalq xo‘jaligi ishlab chiqarish xo‘jalik faoliyatining umumlashtiruvchi ko‘rsatkich. Korxonaning moliyaviy ahvoli, iqtisodiy rag‘batlantirish fondini shakillantirish imkoniyatlari, budjet va yuqori turuvchi organlar bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishi foyda hajmiga bog‘liq.

Xarrod- Domarning iqtisodiy o'sish modeli – Model iqtisodiy o'sishni kapital bilan qurollanganlik va jamg'arishga bo'lgan moyillik koeffitsientlarini o'zgarmas sharti bilan qarab chiqadi.

Xususiylashtirish (privatization) - davlat mulkini, iqtisodiyotdagi davlat sektorini xususiylashtirishi. Xususiylashtirish davlat mulki monopoliyasini tugatish, erkin sohibkorlik tashabbusiga yo'l ochish, bozor iqtisodiyoti rag'batlantirish maqsadida amalga oshiriladi.

Ekzogen o'zgaruvchilar – Tashqi o'zgaruvchilar bo'lib, ular oldindan beriladi va modelga kiritiladi.

Eksport (export) - tashqi bozorda tovarlar, xizmatlar va kapitallarni realizatsiya qilish maqsadida chetga chiqarish.

Endogen o'zgaruvchilar – Model ichida, hisob-kitoblar asosida shakllanuvchi o'zgaruvchilar.

Elastiklik – Biror o'zgaruvchining bir foizga o'zgarishi natijasida boshqa bir o'zgaruvchining ma'lum foiz miqdorga o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkich

YAlpi ichki mahsulot – Mamlakat miqyosida ma'lum davrda ishlab chiqarilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlarning bozor baholaridagi qiymati

YAlpi ichki investitsiyalar – Joriy yilda ishlab chiqarilgan barcha ishlab chiqarish vositalarining umumiy qiymati hamda tovar-moddiy zahiralarni to'ldirishga sarflangan xarajatlar

YAlpi milliy mahsulot - YAPP (gross national product - GNP) - iste'molchilarning yil davomida mahsulot yaratish uchun qilgan xarajatlari qiymatini jamlash orqali, ya'ni, mahsulotni umumiy pul qiymati aniqlanishi orqali hisoblanadi. Hozirgi yalpi milliy mahsulotga davlatning tovarlar va xizmatlarni sotib olishga qilgan xarajatlari hamda xususiy investitsiyalar ham qo'shiladi. Daromadlarning, ya'ni, ish haqi, foiz, renta va foyda jamiyat tomonidan mahsulotlar uchun qilingan xarajatlar sifatida qaralib, ularni jamlash orqali hisoblanadi. Hozirgi vaqtda yalpi mahsulotni hisoblashda jamiyatda iqtisodiy o'sishi aniqlanadi, yalpi va xususiy

investitsiya tushunchalarni qo'llanmoqdaki, bunda ular yil davomida qurilgan uylar, fabrika, zavod, mashinalar ifoda etadi.

YAMM darajalardagi farqlar (GNP gap) - potensial va real YAMMni darajalar orasidagi farq.

YAMM deflyatori – Nominal YAMM ni real YAMM nisbati **YAMMni deflyatori narxlar indeksi (GNP implicit price deflator)** - joriy narxlardagi YAMMni solishtirma narxlardagi YAMMga nisbatan tafsiflovchi ko'rsatkich yoki boshqacha qilib aytganda nominal YAMMni real YAMMga nisbati.

O'zgaruvchan almashuv kursi (flexible exchange rate) - ichki muvozonatni tiklash maqsadida mamlakat almashuv kursiga ega bo'ladigan xalqaro hisob-kitoblar tizimi.

Qarzlار - “zayomlar” (borrowing) - ma'lum bir muddatga qaytarib olish sharti bilan berilgan mablag'lar. +arzlار quyidagicha bo'lishi mumkin: foizsiz tijorat shaklidagi qarzlار, imtiyozli qarzlار hamda ichki va tashqi qarzlار. Iqtisodiy siyosatda qarzlار quyidagi holatlarda foydalaniladi: jismoniy: Yuridik shaxslar qarzlari ichki qarzlarga kiradi.

Qarz berish (crediting)- pul yoki tovarlarni qaytarish sharti bilan ma'lum muddatga berish (qarz ishlatilgani uchun oldindan kelishilgan foizlar tushuniladi).

Qadirsizlanish (depreciation) - milliy valyutaning narxi chet el valyutalarining bahosidan kamayishi.

Qimmatbaho qog'ozlar (securities) - uning egasiga qandaydir kapital yoki mol-mulkka egalik qilishining huquqini tasdiqlovchi va foiz dividend ko'rinishda daromad keltiruvchi xujjatdir.

Qisqa muddatli oraliq – Bu shunday vaqt oraliq'iki, firma bu oraliqda faoliyat ko'rsatganda, u ishlab chiqarish omillaridan kamida bittasining hajmini o'zgartira olmaydi.

Shaxsiy daromad (personal income) - Jismoniy shaxslarning soliq to'lagunga qadar daromadi.

Shaxs sarmoyasi - kapital sifatida yondashuv ikki tomonlama xususiyatga ega bo'ladi. Uning salbiy tomoni shundan iboratki, bunday qarashlarni sosial muammolar

va mehnatdan kapital tomonidan ekspluatatsiya qilishi haqidagi fikrlarga ulanib ketishiga olib keladi. Bu yerda kapital mehnatni ekspluatatsiya qilar ekan, u holda inson kapitali ham mehnatni ekspluatatsiya qiladimi, haqidagi fikrlar keltirib chiqarishga urinib ketishadi. Insonga kapital sifatida yondashuvning ijobiy tomoni shundan iboratki, bunday yondashuv resurslardan samarali foydalanishni va ularning oqilona taqsimlanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI 1

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.– T.:O'zbekiston, 2008.- 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik to'g'risida» gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining «Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida» gi Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida» gi Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining “Erkin tadbirkorlik faoliyatining kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki ob'ektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi Farmoni. 2019 yil 17 yanvardagi PF-4933-son .
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik sub'ektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2019 yil 1 fevraldagi, PQ-2750 –son Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi farmoni, 2019 yil 7 fevral, 8 fevral//Xalq so'zi.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori,2019 yil 7 mart,PQ-4231-son Qarori.

II. Prezident asarlari

- 2.1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2019 yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, tarkibiy o‘zgartirishlarni ta’minlash chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PF-4707-sonli Farmoni. Xalq so‘zi, 2017 yil 5 may.
- 2.2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2018 yilgi Investitsiya to‘g‘risida”gi PQ-2458-sonli Qarori. 2017 yil 25 dekabr.
- 2.3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” farmoni 2020 yil 22 yanvar, PF-5308-son
- 2.4 Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak, Xalq so‘zi, 2019yil, 16 yanvar.
- 2.5 Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Xalq so‘zi, 22.12.2019 yil
- 2.6 Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Xalq so‘zi, 29.12.2020 yil

III. Maxsus adabiyotlar

- 3.1 Агапова, Т.А. Макроекономика: Учебник. –М.: МФПУ Синергия, 2013. 560 с
- 3.2 Айвазян С.А. Эконометрика. –М.: Маркет ДС, 2017. – 104 с.
- 3.3 Анисимов А.А. Макроекономика. –М.: Юнити-Дана, 2016. – 600 с.
- 3.4 Анчишкин А.И. Прогнозирование темпов и факторов экономического роста. –М.: МАКС Пресс, 2017. – 300 с.
- 3.5 Афанасев В.Н. Эконометрика. –М.: Финансы и статистика, 2017. – 256
- 3.6 Абдуллаев О.М., Ходиев Б.Ю., Ишназаров А.И. Эконометрика. Учебник. – Т.: Фан ва технология. 2007. – 612 с.
- 3.7 Артамонов Н.В. Введение в эконометрику. –М.: МЦНМО, 2016. – 224 с.
- 3.8 Баркалов Н.Б. Производственные функции в моделях экономического

роста. –М.: изд. МГУ, 2008. – 768 с.

3.9 Берндт Эрнст Практика эконометрики. Классика и современность. –М.: Юнити-Дана, 2016. – 848 с.

3.10 Бланшар О. Макроекономика: Учебник. –М.: ГУ ВШЕ, 2015. – 653 с.

3.11 Бабешко Л.О. Основы эконометрического моделирования. –М.: КомКнига, 2010. – 452 с.

3.12 Булатов А. С. Макроекономика. –М.: Издательство Юрайт, 2017. – 245 с.

3.13 Валентинов В.А. Эконометрика: –М.: Дашков и К°, 2009. – 367 с.

3.14 Вербик Марно Путеводитель по современной эконометрике. –М.: Научная книга, 2016. – 616 с.

3.15 Демидова О.А. Эконометрика: учебник и практикум для прикладного бакалавриата. –М.: Юрайт, 2018. – 334 с.

3.16 Дайитбегов Д. М. Компьютерные технологии анализа данных в эконометрике. –М.: ИЛ, 2015. – 592 с.

3.17 Государственное регулирование экономики / Учебное пособие. Под общ. ред. проф. Г.Н.Власова, доц. А.М. Желтова. - Нижний Новгород, 1998.

3.18 Гранберг И.Г. Моделирование и прогнозирование экономических процессов. –М.: ЮНИТИ, 2008. – 368 с.

3.19 Элисеева И.И., Куришева С.В. и др. Эконометрика: Учебник. –М.: Издательство Юрайт, 2018. – 288 с.

3.20 Элисеева И.И. Эконометрика. Учебник. –М.: Финансы и статистика, 2006. – 455 с.

3.21 Замков О.О. и др. Математические методы в экономике. –М.: ДИС, 2011. – 426 с.

3.22 Кейнс Ж. Общая теория занятости, процента и денег. – М.: Экономика, 1948. – С. 238-241

3.23 Колемаев В. А. Эконометрика. –М.: ИНФРА-М, 2016. – 160 с. Лукас Роберт Э. Лекции по экономическому росту. –М.: Институт экономической политики имени Э.Т Гайдара, 2017. – 456 с.

- 3.23 Лавров Э.И., Капогузов Э.А. Экономический рост: теории и проблемы: учебное пособие. –Омск: Изд-во ОмГУ, 2006. – 214 с.
- 3.24 Лапуста М.Г, Старостин Ю.Л. Малое предпринимательство. М.: Инфра-М, 1997. – С.87.
- 3.25 Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс. В 2-х т. Т-1. – М.,1992.–399 с.
- 3.26 Маршалл А. Принципы политической экономии. Т. – 1. – М.: Прогресс, 1993. – 415 с.
- 3.27 Muhamedov YU. Iqtisodiy o‘shishning matematik modellari. –Т.: Fan, 2007.– 240 b.
- 3.28 Новак Эдвард. Введение в методы эконометрики. Сборник задач. –М.: Финансы и статистика, 2016. – 248 с.
- 3.29 Перминов С.Б. Информационные технологии как фактор экономического роста. –М.: Наука, 2015. – 200 с
- 3.30 Плохотников, К. Э. Основы эконометрики в пакете СТАТИСТИСА. –М.: ИЛ, 2015. – 304 с.
- 3.31 Ромер Д. Высшая макроекономика: Учебник.–М.: ИД ВШЕ, 2015. – 855 с.
- 3.32 Рейснер Л.И. Развивающиеся страны. Очерк теорий экономического роста. –М.: Главная редакция восточной литературы издательства "Наука", 2015. –336 с.
- 3.33 Сей Ж.Б. Трактаты политической экономии. – М.: Экономика. 1985.–55 с.
- 3.34 Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. Т.1.– М.: Ос, 1977. – 480 с.
- 3.35 Тихомиров, Н. Методы эконометрики и многомерного статистического анализа. –М.: Экономика, 2017. – 989 с.
- 3.36 Тинберхен Я. Математические модели экономического роста. –М.: Прогресс, 2017. – 176 с.
- 3.37 Тобин Дж. Денежная политика и экономический рост. –СПб.: Питер, 2015.– 340 с.
- 3.38 Хамидуллин Ф.Ф. Развитие методологии исследования малого бизнеса // Проблемы современной экономики, №3(19), 2007.

- 3.39 Хаит М.М. Развитие малого бизнеса на основе реструктуризации крупных предприятий//Вестник Московского университета, сер.Б. Экономика, №4, 2006. – С.32-43
- 3.40 Хаек Ф. Дорога к рассвету – М.: Экономика, 1992. – 91 с.
- 3.41 Хелпман Элханан. Загадка экономического роста. – М.: СИНТЕГ, 2015. – 240 с.
- 3.42 Хизрич Р., Питерс М. Предпринимательство или как завести собственное дело и добиться успеха. – М.: Прогресс, 1991. – 223 с.
- 3.43 Ходиев Б.Ю, Шодиев Т.Ш., Беркинов Б.Б. Эконометрика. –Т.: ТДИУ, 2018.– 186 б.
- 3.44 Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. – М.:Progress,1985.–159 s.
- 3.45 Ergashev R.X.,Xalikov S.D.,Toshbaev A.J. Innovacion iqtisodiyot-(darslik),- Т.: «Iqtisod-Moliya» 2019 ,400 b.
- 3.46 Ergashev R.X. va boshqalar Iqtisodiyotni innovacion rivojlantirish istiqbollari-(monografiya),- Т.: «Iqtisod-Moliya» 2019 ,240 b.
- 3.47 Ergashev R.X.,Tursunov I.E., Ravshanov A.D.,Qurbonov A.B.Innovacion iqtisodiyot.Darslik, Т.: “Vorish-nashriyot”,2020, 448 b.
- 3.48 Gulomov S.S., Ergashev R.X., Hamraeva S.N.Raqamli iqtisodiyot,O‘quv qo‘llanma, Т.: “Vorish-nashriyot”,2020, 595 b
- 3.49 Jesse Russell. Ekonometrika. –М.: VSD, 2017. – 717 с.
- 3.50 Christopher Dougherty. Introduction to Econometrics. –Oxford University Press, 2011. – 573 p.
- 3.51 Gujarati D.N. Basic Econometrics. –McGraw-Hill, 5th edition, 2009. – 922 p.
- 3.52 Greene W.H. Econometric Analysis. –Prentice Hall, 2011. – 1232 p.
- 3.53 E. R., Bokiyeovich K. A. State support for small business and private entrepreneurship in uzbekistan. – 2021.
- 3.54 Novales A., Fernandez E., Ruiz J. Economic Growth. Theory and Numerical Robert J. Barro Xavier Sala-i-Martin. Economic Growth. –MIT Press, 2009.-160 pp.
- 3.55 Solution Methods. –Springer-Verlag Berlin Heidelberg, 2014. – 558 pp.
- 3.56 Walker J.R. Macroeconomic Models of Economic Growth. –Springer. USA,

2010. – 547 pp.

IV. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar

4.1 O‘zbekiston hududlari bo‘yicha statistik to‘plam, 2020.-T.: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2020.

4.2 Qashqadaryo viloyati statistikasi boshqarmasining 2014-2020 yillardagi statistik ma’lumotlari.

4.3 «Деловая среда в Узбекистане глазами представителей малого и среди бизнеса». Отчет Международной Финансовой Корпорации по итогам 2017 г. - 121 с.

V. Internet resurslari

5.1 El.resurs. Sharopatova A. B. Государственное регулирование инновационной деятельности// Проблемы современной аграрной науки: материалы международной заочной научной конференции. – Краснояр. гос. аграр. ун-т. – Красноярск, 15.10.2012, <http://www.kgau.ru/new/all/konferenc/05/>

5.2 El.resurs:<http://fermeruz.uz/2018/09/07/chorvachilik-mashaqqatli-ammosyerdaromad-soha/>

5.3 El.resurs:<http://uzb69.blogspot.com/2012/06/2012-2020.html> /Концепсия инновационного развития Республики Узбекистан на 2012-2020 гг. Проект ПРООН «Поддержка в сфере инновационной политики и трансфера технологий» (murojaat: 09.11.2018)

5.4 Эл.resurs. <http://cyberleninka.ru/article/n/suschnost-organizatsionno-ekonomicheskogo-mehanizma-razvitiya-innovatsionnyh-protssesov-v-selskom-hozyaystve>. И. П. Войку. Сущность организационно-экономического механизма развития инновационных процессов в сельском хозяйстве

5.5 El.resurs. <http://www.bloomberg.com/graphics/2017-innovative-countries/> Analiticheskiy otchet dekabr 2014. Ежегодный мониторинг средств, выделенных

из федерального бюджета на финансирование НИОКР (в том числе по приоритетным направлениям инновационного развития России)

5.6 Agro.uz – O‘zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining rasmiy sayti

5.7 Stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti

5.8 Lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, me‘yoriy hujjatlari sayti

5.9 Agroculture.uz - O‘zbekiston agroaxborot tizimi portali

5.10 www.fao.org - Oziq-ovkat va qishloq xo‘jaligi xalqaro tashkilotining (FAO) rasmiy sayti

5.11 www.cacaari.org – Markaziy Osiy va Kavkaz qishloq xo‘jaligi ilmiy tadqiqotlari institutlari uyushmasi (CACAARI) <https://vc.ru/p/global-innovation-index-2017#comments>.

MUNDARIJA

Soʻz boshi		10
I Bob.	KIRISH : Iqtisodiy oʻsish	13
1.1.	Iqtisodiy oʻsishning mazmuni va turlari	13
1.2.	Iqtisodiy oʻsishning koʻrsatkichlari va omillari	19
1.3.	Iqtisodiy oʻsishni oʻlchash	24
II Bob.	Solov modeli	28
2.1.	Solovning iqtisodiy oʻsish nazariyasi modeli	28
2.2.	Solov modelining asoslari	30
2.3.	Kapital va mehnat tushunchalari	31
2.4.	R.Solovning neoklassik Iqtisodiy oʻsish modeli	32
III Bob.	Tutash-avlodlar iqtisodiy oʻsish modellari	36
3.1.	Firmalar, ishlab chiqarish jarayoni, mahsulotlar va kapitalga boʻlgan talab	36
3.2.	Raqobat munosabatlarining iqtisodiy oʻsishga taʼsir	48
3.3.	Inson omili va inson kapitali	51
IY Bob.	Oʻsishning neoklassik modellarini empirik qoʻllanishi	57
4.1.	Neoklassik oʻsish modellari	57
4.2.	Neoklassik oʻsish modelning foydalilik darajalari	61
4.3.	Iqtisodiy oʻsishning neoklassik modellaridan samarali foydalanish	64
Y Bob.	Fiskal siyosat va uni amalga oshirish vositalari	85
5.1.	Davlat budjeti va uning tarkib	85
5.2.	Soliqlarning asosiy funksiyalari	87
5.3.	Oʻzbekistonda iqtisodiyotni soliqlar yordamida tartibga solib turilishining xususiyatlari	95
YI Bob.	Oʻsish dvigateli	102
6.1.	Iqtisodiy rivojlanish omillari tasnifi	102
6.2.	Iqtisodiy rivojlanishni aks ettiruvchi asosiy modellar	110
6.3.	Iqtisodiy rivojlanishning asosiy indikatorlari	115
6.4.	Iqtisodiy oʻsish va rivojlanish tahlilining ekonometrik modellari	124
6.5.	Iqtisodiy oʻsishni taʼminlashda intellektual iqtisodiyotni shakllantirish	129
6.6.	Yangi intellektual iqtisodiyotga transformatsiyalanish jarayoni	133
VII Bob.	Toʻliq bir tarmoqli neoklassik oʻsish modeli	137
7.1.	Neoklassik oʻsish modellari tahlili	137
7.2.	Neoklassik modellarning rivojlangan darajasiga va iqtisodiy oʻsishga taʼsiri	139
VIII Bob.	Oʻsish va rivojlanish sodda modeli	147
8.1.	Rivojlangan va rivojlanayotgan davlar oʻrtasidagi iqtisodiy oʻsish	147

8.2.	Iqtisodiy rivojlantirishni aks ettiruvchi modellar	152
8.3.	Iqtisodiy o'sish va rivojlanish tahlili	168
IX Bob.	Ikki tarmoqli va ikki turdagi iqtisodiyot	178
9.1.	Ikki tarmoqli iqtisodiyotda rivojlanish tendensiyalari	178
9.2.	Ikki turdagi iqtisodiyotda iqtisodiy o'sish	182
X Bob.	Ijtimoiy infratuzilma va uzoq muddatli iqtisodiy ko'rsatkichlar	202
10.1	Iqtisodiy o'sishga investitsiyalarning ta'siri	202
10.2.	Xududlarning geografik joylashuvi iqtisodiy o'sishga ta'siri	207
10.3.	Ishlab chiqarishdagi sifat o'zgarishlarning iqtisodiy o'sishga ta'siri	218
10.4.	Ishlab chiqarishda ko'p omilli iqtisodiy rivojlanish modeli	228
XI Bob.	Urbanizatsiya	231
11.1.	Migratsiya va urbanizatsiyaning iqtisodiy o'sishga ta'siri	231
11.2.	Urbanizatsiya va migratsiyaning tarmoqlar rivojlanishiga ta'siri	233
11.3.	Shahar va qishloqlarda ko'rsatilayotgan xizmatlarning iqtisodiyotga ta'siri	237
XII Bob.	Tabiiy resurslar va iqtisodiy o'sish	241
12.1.	Mineral va xomashyo resurlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri	241
12.2.	YOqilgi-energetika resurslarning iqtisodiy o'sishga ta'siri	246
12.3.	Er-suv resurslari, o'simlik va hayvonot dunyosining iqtisodiy o'sishga ta'siri	250
XIII bob.	Iqtisodiy o'sishni tushunish	258
13.1.	Iqtisodiy o'sish tushunchasi va o'lchanish usullari	258
13.2.	Iqtisodiy o'sish modellari	260
13.3.	Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar va tiplar	261
GLASSARIYLAR		275
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI		293